


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

2/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 2 (Mart)

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafojevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'ZR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR * EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ**

Latipov H.M.	Toʻrtinchi tartibli operatorli matritsaga mos Fredgolm determinantining asosiy xossalari	3
Norqulov J.F., Kengboyev S.A., Azimov R.B.	Silindrik tishli uzatmalarda tishnig qiyalik burchagi oʻzgarganda taʼsir qiladigan kuchlarni aniqlash va ishlash samaradorligini takomillashtirish	9
Alimov H.N., Mirzayev B.R., Toshmatov D.Sh., Yoʻldoshev B.A.	Kasr tartibli diffuziya tenglamasidan manbani aniqlash masalasi	13
Farxodov S.U., Yusupov X.N., Doliyev Sh.Q., Toshtemirov R.T.	Poʻlat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishda optimallashtirish usulini qoʻllash	20
Ibodullayev M.X., Norqulov J.F., Saidov B.Y.	Neft va gaz sanoati korxonalarida issiqlik almashinish apparatlarining zamonaviy samarador konstruksiyasining hisobi	28
Nuriddinov J.Z., Primov J.F.	Parabolik tipdagi integro-differensial tenglama uchun teskari masalalar	36
Sayliyeva G.R.	Uch oʻlchamli qoʻzgʻalishga ega umumlashgan Fridriks modelining xos qiymatlari haqida	45
Toʻrayev Sh.D., Norqulov U.E., Nazarov M.M.	Turbogeneratorning texnik holatini baholash metodologiyasi	51
Юлдашева Н.Б.	Темир боратнинг оптик, магнитооптик ва фотомагнит хоссалари	57
Shoimov B.S., Jamolov Sh.J.	Singulyar koeffitsiyentga ega boʻlgan giperbolik tipdagi tenglama uchun Koshi masalasi	66
Jumayev J., Muhammadova M.	Ochiq oqim kengayishi kattaligidan turbulent qovushoqlik tenglamasi modelida foydalanish	71
Фаязов К.С., Худайберганов Я.К.	Условная корректность начально-краевой задачи для системы неоднородных уравнений параболического типа с двумя линиями вырождения	76
Jumayev J., Baqoyeva S.T.	Nostatsionar konveksiya masalasini oshkor usulda yechish	86
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Akramov I.I.	Researching the origins of aphorisms	91
Gʻaybullayeva N.I.	Tilga kognitiv yondashuvning shakllanish taraqqiyoti	95
Raxmatova M.M., Inoyatova D.I.	Oʻzbek badiiy adabiyotida xunuklik tushunchasining ifodalanishi	100
Қутлиева М.Ғ.	Инглиз ва ўзбек тилларида қўшма сўзларда урғунинг аҳамияти	105
Махмудова S.X.	“Ostona” konsepti lingvomadaniy birliklarining badiiy matndagi oʻrni	110
Rabiyeva M.Gʻ, Mustoqova S.U.	Evfemizmlarning ingliz va oʻzbek tillarida lingvomadaniy shartlanishi	115
Navruzova N.X.	Connotation in verbs and its expressive functions	119
Nazarova N.A.	Bases of the theoretical study of anthroponyms and their	126

	characteristics	
Saidov Kh.Sh.	Economizing language resources on the example of the word formation of modern English slang	132
Sharipova D.Sh.	The linguistic relationship of symbols	136
Абдувахабова Д.Н.	Тилшуносликда эмотивлик, модаллик ва баҳолаш категорияларининг ўзаро боғлиқлиги	143
Джалилова З.Б.	Инглиз ва ўзбек тилларида гул номларининг лексик-семантик майдони ҳамда лингвопоэтик хусусиятлари	147
Ибрагимова Н.А.	Аутентик матн тушунчаси, турлари ва таснифи	154
Қаршиев Н.Т.	Қорақўлчилик терминларининг ясаиш усуллари	159
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Dialektik materializm va tilshunoslik metodologiyasi	168
Fayziyeva A.A.	Inson his-tuyg'ulariga oid konseptual modellar	176
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Axmedova S.H.	Ingliz va o'zbek ertaklarida epik ko'makchilar talqini va tasviri	181
Davronova Sh.G'.	Isajon Sultonning "Bibi Salima" hikoyasida milliylik ifodasi	187
Djumayeva N.	Ingliz hamda o'zbek xalq ertaklaridagi sehrlı buyumlar orqali milliy madaniyatning ifodalanishi	192
Karimova D.H., Ahmadova X.N.	Aka-uka Grimm ertaklari o'zbekcha tarjima variantlarining shakllanish omillari va paradigmatic belgilari	198
Khayrullayeva N.N.	The analysis of the setting in the eco-fiction novels "Time is a river", "Sweetgrass", "The summer of lost and found" by American writer Mary Alice Monroe	203
Nodirova F.X.	Sa'dulla Hakim she'riyatida adabiy g'oya va tahlil	209
Rakhmatova M., Rakhmonova J.	XXI Century American prose: analysis of "The hunger games" by Susanne Collins	214
Xamdamova S.B., Tilavova N.	Charlz Dikkensning "Nikolas Niklbining hayoti va sarguzashtlari" romani kompozitsiyasi va tarbiya romanining janr xususiyatlari	219
Jo'rayeva M.J.	Hilda Dulitl she'riyatida imajism ifodasi	225
Одилова Г.	Болалар адабиётида глуттоник дискурс таржимасида услуб ва маъно адекватлиги	229
Mizrabova J.I.	Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" nomli asari tarjimalarida kalamburning qayta voqelantirishdagi muammolari	235
Эльманова М.Т.	Проблема семейных ценностей в романах Джойс Кэрролл Оатс "Мать, пропавшая без вести" и "Мы были Малвэнами"	245
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Narziyeva D.I.	Mashrab devonlari nashrlaridagi tafovutlar	249
"NAVOIY GULSHANI"		
Amonova Z.Q.	Yuzungda zarvaraq har yonki lutfi benihoyatdur	253
PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS		
Burxonova M.X.	Tibbiy madaniyat tushunchasining shakllanish tarixi	255
Sariyev R.Sh.	Chizmachilik fanida ijodiy loyihalash faoliyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari	259
Xodjayev R.I.	Bokschilarni tayyorlashning psixo-fiziologik xususiyatlari	263
TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY		
Ражабова Д.Я.	Бухоро амирлигидаги сунний-шиа ихтилофлари тарихидан	267

TO'RTINCHI TARTIBLI OPERATORLI MATRITSAGA MOS FREDGOLM DETERMINANTINING ASOSIY XOSSALARI

Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li,

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

h.m.latipov@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada panjaradagi soni saqlanmaydigan va to'rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemaga mos keluvchi \mathcal{A}_μ , $\mu > 0$ to'rtinchi tartibli operatorli matritsa qaralgan. \mathcal{A}_μ operatorli matritsa uchun Fredgolm determinanti qurilgan hamda uning asosiy xossalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: operatorli matritsa, Fok fazo, muhim va diskret spektrlar, Fredgolm determinanti.

Аннотация. В настоящей статье рассматривается операторная матрица четвёртого порядка \mathcal{A}_μ , $\mu > 0$, соответствующая системе с несохраняющимся и состоящим не более, чем из четырёх частиц на решётке. Построен определитель Фредгольма для операторной матрицы \mathcal{A}_μ , и изучены его основные свойства.

Ключевые слова: операторная матрица, пространство Фока, существенный и дискретный спектры, определитель Фредгольма.

Abstract. In this paper an operator matrix of order four \mathcal{A}_μ , $\mu > 0$ corresponding to a system of non conserved and not more than four particles on a lattice is considered. The Fredholm determinant for the operator matrix \mathcal{A}_μ is constructed and its main properties are studied.

Keywords: operator matrix, Fock space, essential and discrete spectra, Fredholm determinant.

Kirish. Ma'lumki, operatorli matritsalar deganda elementlari biror Banax yoki Hilbert fazosini ikkinchisiga o'tkazuvchi chiziqli operatorlardan iborat bo'lgan matritsalar tushuniladi. Odatda bu turdagi matritsalar qattiq jismlar fizikasi [1], statistik fizika [2], kvant maydon nazariyasi [3] va zamonaviy matematik fizikaning yana ko'plab sohalarida uchrab turadi. Operatorli matritsalarining muhim sinflariga misol sifatida haqiqiy sonlar to'plamidagi yoki butun sonlar to'plamidagi soni saqlanmaydigan zarrachalar sistemasiga mos Gamiltonianlarni keltirish mumkin. Bunda zarrachalar soni spin-bozon modeli [4, 5] kabi cheksiz va qirg'ilgan spin-bozon modeli [6, 7] kabi chekli bo'lishi mumkin. Birinchi holda cheksiz operatorli matritsalar, ikkinchi holda esa chekli o'lchamli operatorli matritsalar hosil bo'ladi. Shu sababli chekli o'lchamli operatorli matritsalarining spektral xossalari o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Masalaning qo'yilishi. Faraz qilaylik $\mathcal{H}_0 := \mathbb{C}$ bir o'lchamli kompleks fazo, $\mathcal{H}_n := L_2((\mathbb{T}^d)^n)$, $n = 1, 2, 3 - (\mathbb{T}^d)^n$ da aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (kompleks qiymatli) funksiyalar Gilbert fazosi bo'lsin. Bu yerda \mathbb{T}^d orqali d o'lchamli tor, ya'ni $\mathbb{T}^d := (-\pi; \pi]^d$ belgilangan.

$\mathcal{H}^{(0,3)}$ sifatida $\mathcal{H}_0, \mathcal{H}_1, \mathcal{H}_2$ va \mathcal{H}_3 fazolarning to'g'ri yig'indisini belgilaymiz, ya'ni $\mathcal{H}^{(0,3)} := \mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3$. Odatda bu fazoga Fok fazosining qirg'ilgan to'rt zarrachali qism fazosi deyiladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, $\mathcal{H}^{(0,3)}$ Gilbert fazoning ixtiyoriy f elementi $f = (f_0, f_1, f_2, f_3)$ vektor funksiya ko'rinishida bo'lib, bu fazodan olingan ixtiyoriy ikkita $f = (f_0, f_1, f_2, f_3)$ va $g = (g_0, g_1, g_2, g_3)$ elementlari skalyar ko'paytmasi

$$(f, g) = (f_0, g_0)_0 + (f_1, g_1)_1 + (f_2, g_2)_2 + (f_3, g_3)_3$$

kabi aniqlanadi, bu yerda $(\cdot, \cdot)_i$ orqali \mathcal{H}_i fazodagi skalyar ko'paytma belgilangan, ya'ni

$$(f_0, g_0)_0 = f_0 * \bar{g}_0, \quad (f_1, g_1)_1 = \int_{\mathbb{T}^d} f_1(k_1) \overline{g_1(k_1)} d(k_1);$$

$$(f_2, g_2)_2 = \int_{(\mathbb{T}^d)^2} f_2(k_1, k_2) \overline{g_2(k_1, k_2)} d(k_1) d(k_2),$$

$$(f_3, g_3)_3 = \int_{(\mathbb{T}^d)^3} f_3(k_1, k_2, k_3) \overline{g_3(k_1, k_2, k_3)} d(k_1) d(k_2) d(k_3).$$

Operatorlar nazariyasidan bizga yaxshi ma'lumki, $\mathcal{H}^{(0,3)}$ Gilbert fazosida aniqlangan har qanday chiziqli, chegaralangan operator hamisha 4-tartibli operatorli matritsa ko'rinishida tasvirlanadi.

Ushbu maqolada $\mathcal{H}^{(0,3)}$ fazoda aniqlangan quyidagi

$$\mathcal{A}_\mu = \begin{pmatrix} A_{00} & \mu A_{01} & 0 & 0 \\ \mu A_{01}^* & A_{11} & \mu A_{12} & 0 \\ 0 & \mu A_{12}^* & A_{22} & \mu A_{23} \\ 0 & 0 & \mu A_{23}^* & A_{33} \end{pmatrix},$$

4-tartibli operatorli matritsani qaraymiz, bunda $A_{ij}; \mathcal{H}_j \rightarrow \mathcal{H}_i, i \leq j, i, j = 0, 1, 2, 3$ matritsaviy elementlar quyidagi tengliklar bilan aniqlangan:

$$A_{00}f_0 = \varepsilon f_0; A_{01}f_1 = \int_{\mathbb{T}^d} v(t)f_1(t) dt;$$

$$(A_{11} f_1)(k_1) = (\varepsilon + u(k_1))f_1(k_1);$$

$$(A_{12} f_2)(k_1) = \int_{\mathbb{T}^d} v(t)f_2(k_1, t) dt;$$

$$(A_{22} f_2)(k_1, k_2) = (\varepsilon + u(k_1) + u(k_2))f_2(k_1, k_2);$$

$$(A_{23} f_3)(k_1, k_2) = \int_{\mathbb{T}^d} v(t)f_3(k_1, k_2, t) dt;$$

$$(A_{33} f_3)(k_1, k_2, k_3) = (\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(k_3))f_3(k_1, k_2, k_3).$$

Bu yerda $\mu > 0$ -ta'sirlashish parametri, ε -haqiqiy son, $v(\cdot)$ va $u(\cdot)$ funksiyalar \mathbb{T}^d da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalar. Parametrlarga qo'yilgan bunday shartlarda \mathcal{A}_μ operatorli matritsa $\mathcal{H}^{(0,3)}$ Gilbert fazosida chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'ladi.

Qo'shma operatorlarni aniqlash qoidasiga ko'ra

$$(A_{01}^* f_0)(k_1) = v(k_1) f_0, (A_{12}^* f_1)(k_1, k_2) = v(k_2) f_1(k_1);$$

$$(A_{23}^* f_2)(k_1, k_2, k_3) = v(k_3) f_2(k_1, k_2), f_0 \in \mathcal{H}_0, f_1 \in \mathcal{H}_2, f_2 \in \mathcal{H}_2.$$

tengliklar o'rinlidir.

Zamonaviy matematik fizikada A_{01}, A_{12}, A_{23} operatorlarga yo'qotish operatorlari, $A_{01}^*, A_{12}^*, A_{23}^*$ operatorlarga esa paydo qilish operatorlari deyiladi. $A_{ii}, i = 0, 1, 2, 3$ diogonal elementlar esa qo'zg'almas operatorlar hisoblanadi. Odatda \mathcal{A}_μ operatorli matritsa panjaradagi soni saqlanmaydigan va to'rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos gamiltonian sifatida ham qaraladi.

$\sigma(\cdot), \sigma_{\text{ess}}(\cdot), \sigma_{\text{disc}}(\cdot)$ va $\rho(\cdot)$ to'plamlar orqali mos ravishda chegaralangan o'z-o'ziga qo'shma operatorning spektrini, muhim spektrini, diskret spektrini va rezolventa to'plamini belgilaymiz.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1) \mathcal{A}_μ operatorli matritsaning muhim spektrini tasvirlash;

2) Nollari to'plami \mathcal{A}_μ operatorli matritsaning diskret spektri bo'ladigan $\Omega_\mu(z)$ Fredholm determinantini qurish;

3) $\Omega_\mu(\cdot)$ funksiyaning asosiy xossalarini o'rganish.

Maqolaning qolgan qismi 1) – 3) masalalarning yechimiga bag'ishlanadi.

\mathcal{A}_μ operatorli matritsaning muhim spektri. Bu bo'limda \mathcal{A}_μ operatorli matritsaning muhim spektri tasvirlanadi hamda uning ikki zarrachali, uch zarrachali va to'rt zarrachali tarmoqlari ajratiladi.

Quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$m = \min_{k_1 \in \mathbb{T}^d} u(k_1), \quad M := \max_{k_1 \in \mathbb{T}^d} u(k_1).$$

$\mathbb{C} \setminus \{\varepsilon + m; \varepsilon + M\}$ sohada analitik bo'lgan

$$\Omega_{\mu}^{(1)}(z) := \varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\varepsilon + u(t) - z}$$

funksiyani qaraymiz.

Faraz qilaylik,

$$\sigma_{\mu}^{(1)} := \{z \in \mathbb{C} \setminus [\varepsilon + m; \varepsilon + M]: \Omega_{\mu}^{(1)}(z) = 0\}$$

bo'lsin.

$\mathbb{C} \setminus \{[m; M] + \sigma_{\mu}^{(1)}\} \cup \{\varepsilon + 2m; \varepsilon + 2M\}$ sohada analitik bo'lgan

$$\Omega_{\mu}^{(2)}(z) := \varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\Omega_{\mu}^{(1)}(z)(z - u(t))}$$

funksiyani qaraymiz va

$$\sigma_{\mu}^{(2)} := \{z \in \mathbb{C} \setminus \{[m; M] + \sigma_{\mu}^{(1)}\}: \Omega_{\mu}^{(2)}(z) = 0\};$$

$$\Sigma_{\mu} := \{[m; M] \cup \sigma_{\mu}^{(2)}\} \cup \{[2m; 2M] \cup \sigma_{\mu}^{(1)}\} \cup [\varepsilon + 3m; \varepsilon + 3M]$$

belgilashlarni olamiz.

Quyidagi teorema \mathcal{A}_{μ} operatorli matritsa muhim spektrini tavsiflaydi.

1-teorema. \mathcal{A}_{μ} operatorli matritsaning muhim spektri Σ_{μ} to'plam bilan ustma-ust tushadi, ya'ni $\sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_{\mu}) = \Sigma_{\mu}$ tenglik o'rinlidir.

Endi \mathcal{A}_{μ} operatorli matritsaning muhim spektrining asosiy tarmoqlarini ajratamiz.

1-ta'rif. Ushbu

$$\sigma_{\text{two}}(\mathcal{A}_{\mu}) := [2m; 2M] + \sigma_{\mu}^{(1)};$$

$$\sigma_{\text{three}}(\mathcal{A}_{\mu}) := [m; M] + \sigma_{\mu}^{(2)};$$

$$\sigma_{\text{four}}(\mathcal{A}_{\mu}) := [\varepsilon + 3m; \varepsilon + 3M];$$

to'plamlarga mos ravishda $\sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_{\mu})$ to'plamning ikki zarrachali, uch zarrachali va to'rt zarrachali tarmoqlari deyiladi.

\mathcal{A}_{μ} operatorli matritsa uchun Fredholm determinantlari: asosiy xossalar. Qaralayotgan \mathcal{A}_{μ} operatorli matritsaning diskret spektrini o'rganish maqsadida $\mathbb{C} \setminus \Sigma_{\mu}$ sohada analitik bo'lgan

$$\Omega_{\mu}(z) := \varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\Omega_{\mu}^{(2)}(z - u(t))}$$

funksiyani aniqlaymiz.

Ishning asosiy natijalaridan biri bo'lgan hamda \mathcal{A}_{μ} operatorli matritsa xos qiymatlari va $\Omega_{\mu}(\cdot)$

funksiya nollari orasidagi bog'lanishni ifodalovchi teoremani bayon qilamiz.

Har bir $k_1, k_2 \in \mathbb{T}^d$ uchun $\mathbb{C} \setminus \sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_{\mu})$ to'plamda analitik bo'lgan

$$\Delta_2(k_1, k_2, z) = \varepsilon + u(k_1) + u(k_2) - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t)}{\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(t) - z} dt;$$

$$\Delta_3(k_1, z) = \varepsilon + u(k_1) - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\Delta_2(k_1, t, z)}$$

va

$$\Omega_{\mu}(z) = \varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\Delta_3(t, z)}$$

funksiyalarni qaraymiz.

2-teorema. $z \in \mathbb{C} \setminus \sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_{\mu})$ soni \mathcal{A}_{μ} operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi uchun $\Omega_{\mu}(z) = 0$ tenglikning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Isbot. Faraz qilaylik, $z \in \mathbb{C} \setminus \sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_\mu)$ soni \mathcal{A}_μ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lib, $f = (f_0, f_1, f_2, f_3) \in \mathcal{H}^{(0,3)}$ bu xos qiymatga mos xos vektor funksiya bo'lsin. U holda $f = (f_0, f_1, f_2, f_3) \in \mathcal{H}^{(0,3)}$ vektor funksiya uchun $\mathcal{A}_\mu f = zf$ tenglikni, ya'ni f_0, f_1, f_2 , va f_3 kordinatalar

$$\begin{cases} \varepsilon f_0 + \mu \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_1(t) dt = z f_0 \\ \mu v(k_1) f_0 + (\varepsilon + u(k_1)) f_1(k_1) + \mu \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_2(k_1, t) dt = z f_1(k_1) \\ \mu v(k_2) f_1(k_1) + (\varepsilon + u(k_1) + u(k_2)) f_2(k_1, k_2) + \mu \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_3(k_1, k_2, t) dt = z f_2(k_1, k_2) \\ \mu v(k_3) f_2(k_1, k_2) + (\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(k_3)) f_3(k_1, k_2, k_3) = z f_3(k_1, k_2, k_3) \end{cases} \quad (1)$$

tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi.

$$z \notin [\varepsilon + 3m; \varepsilon + 3M] \text{ ekanligidan barcha } k_1, k_2, k_3 \in \mathbb{T}^d \text{ lar} \\ \varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(k_3) - z \neq 0$$

munosabat bajarilishi kelib chiqadi.

U holda (1) tenglamalar sistemasining to'rtinchi tenglamasidan $f_3(k_1, k_2, k_3)$ uchun

$$f_3(k_1, k_2, k_3) = - \frac{\mu v(k_3) f_2(k_1, k_2)}{\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(k_3) - z} \quad (2)$$

ifodani hosil qilamiz.

$f_3(\cdot, \cdot, \cdot)$ uchun topilgan (2) ifodani (1) tenglamalar sistemasining uchinchi tenglamasiga qo'yib

$$\mu v(k_2) f_1(k_1) + (\varepsilon + u(k_1) + u(k_2)) f_2(k_1, k_2) + \mu \int_{\mathbb{T}^d} v(t) - \frac{\mu v(t) f_2(k_1, k_2) dt}{\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(t) - z} \\ = z f_2(k_1, k_2)$$

yoki

$$\left(\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\varepsilon + u(k_1) + u(k_2) + u(t) - z} \right) f_2(k_1, k_2) = -\mu v(k_2) f_1(k_1)$$

tenglikni hosil qilamiz.

$z \in \mathbb{C} \setminus \{[2m; 2M] + \sigma_\mu^{(1)}\}$ munosabatga ko'ra barcha $k_1, k_2 \in \mathbb{T}^d$ lar uchun $\Omega_\mu^{(1)}(z - u(k_1) - u(k_2)) \neq 0$ bo'ladi. Shu sababli oxirgi tenglikdan $f_2(\cdot, \cdot)$ uchun

$$f_2(k_1, k_2) = - \frac{\mu v(k_2) f_1(k_1)}{\Omega_\mu^{(1)}(z - u(k_1) - u(k_2))} \quad (3)$$

ifodani hosil qilamiz.

$f_2(\cdot, \cdot)$ uchun topilgan (3) ifodani (1) tenglamalar sistemasining ikkinchi tenglamasiga qo'yib

$$\mu v(k_1) f_0 + \left(\varepsilon + u(k_1) - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\Omega_\mu^{(1)}(z - u(k_1) - u(t))} \right) f_1(k_1) = 0.$$

tenglikni hosil qilamiz. Ya'ni,

$$\mu v(k_1) f_0 + \Omega_\mu^{(2)}(z - u(k_1)) f_1(k_1) = 0$$

Ma'lumki, $z \in \mathbb{C} \setminus \{[m; M] + \sigma_\mu^{(2)}\}$ bo'lganda istalgan $k_1 \in \mathbb{T}^d$ uchun $\Omega_\mu^{(2)}(z - u(k_1)) \neq 0$ munosabat bajariladi.

Bundan esa o'z navbatida

$$f_1(k_1) = - \frac{\mu v(k_1) f_0}{\Omega_\mu^{(2)}(z - u(k_1))} \quad (4)$$

tenglikni hosil qilamiz.

Endi $f_1(\cdot)$ uchun hosil bo'lgan (4) ifodani (1) tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasiga qo'yamiz:

$$\varepsilon f_0 + \mu \int_{\mathbb{T}^d} v(t) \left(-\frac{\mu v(t) f_0}{\Omega_\mu^{(2)}(z-u(t))} \right) dt = z f_0,$$

$$\left(\varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\Omega_\mu^{(2)}(z-u(t))} \right) f_0 = 0.$$

Ya'ni, $\Omega_\mu(z) f_0 = 0$. Agar oxirgi tenglikda $f_0 = 0$ bo'lsa, u holda (2)-(4) tengliklarga ko'ra $f_1(k_1) = 0$, $f_2(k_1, k_2) = 0$, $f_3(k_1, k_2, k_3) = 0$ ekanligi kelib chiqadi, ya'ni $f = (f_0, f_1, f_2, f_3) = \theta$ hosil bo'ladi. Bu esa f vektor-funksiyaning xos vektor-funksiya bo'lishiga ziddir. Shunday qilib, (1)-tenglamalar sistemasi nolmas yechimga ega bo'lishi uchun $\Omega_\mu(z) = 0$ bo'lishi zarur va yetarlidir. 2-teorema to'liq isbotlandi.

2-teoremadan \mathcal{A}_μ operatorli matritsaning diskret spektri uchun quyidagi natija kelib chiqadi.

1-natija. \mathcal{A}_μ operatorli matritsaning diskret spektri uchun $\sigma_{\text{disc}}(\mathcal{A}_\mu) = \{z \in \mathbb{C} \setminus \Sigma_\mu : \Omega_\mu(z) = 0\}$ tenglik o'rinlidir.

Odatda $\Omega_\mu(\cdot)$ funksiyaga \mathcal{A}_μ operatorli matritsaga mos Fredgolm determinanti deyiladi. \mathcal{A}_μ operatorli matritsa xos qiymatarining sonini aniqlashda $\Omega_\mu(\cdot)$ funksiyaning monotonlik xossasi muhim ahamiyatga ega.

1-xossa. $\Omega_\mu^{(1)}$ funksiya $(-\infty; \varepsilon + m)$ va $(\varepsilon + M; +\infty)$ oraliqlarda monoton kamayuvchi funksiya bo'ladi.

Isbot. Ta'rifiga ko'ra $\Omega_\mu^{(1)}(\cdot)$ funksiya $(-\infty; \varepsilon + m)$ va $(\varepsilon + M; +\infty)$ oraliqlarda differensiallanuvchi hamda istalgan $z \in (-\infty; \varepsilon + m) \cup (\varepsilon + M; +\infty)$ uchun

$$\frac{d}{dz} \Omega_\mu^{(1)}(z) = -1 - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{(\varepsilon + u(t) - z)^2} < 0$$

munosabat o'rinli. Bu esa o'z navbatida $\Omega_\mu^{(1)}(\cdot)$ funksiya $(-\infty; \varepsilon + m) \cup (\varepsilon + M; +\infty)$ to'plamda monoton kamayuvchi ekanligini bildiradi. 1-xossa isbotlandi.

Agar $\lim_{z \rightarrow -\infty} \Omega_\mu^{(1)}(z) = +\infty$; $\lim_{z \rightarrow +\infty} \Omega_\mu^{(1)}(z) = -\infty$ ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, 1-xossaga ko'ra $\Omega_\mu^{(1)}(\cdot)$ funksiya $(-\infty; \varepsilon + m)$ va $(\varepsilon + M; +\infty)$ oraliqlarning har birida ko'pi bilan bittadan nolga ega bo'ladi.

2-xossa. $\Omega_\mu^{(2)}(\cdot)$ funksiya $\mathbb{R} \setminus \{[m; M] + \sigma_\mu^{(1)}\} \cup [\varepsilon + 2m; \varepsilon + 2M]$ to'plamda monoton kamayuvchi bo'ladi.

Isbot. Agar $\Omega_\mu^{(2)}(\cdot)$ funksiyaning aniqlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu funksiya $\mathbb{R} \setminus \{[m; M] + \sigma_\mu^{(1)}\} \cup [\varepsilon + 2m; \varepsilon + 2M]$ to'plamda differensiallanuvchi va

$$\frac{d}{dz} \Omega_\mu^{(2)}(z) = -1 - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t) dt}{\left(\Omega_\mu^{(1)}(z-u(t)) \right)^2} \left(-\frac{d}{dz} \Omega_\mu^{(1)}(z-u(t)) \right) dt \quad (5)$$

tenglik o'rinlidir. 1-xossaga ko'ra barcha $z \in \mathbb{R} \setminus \{[m; M] + \sigma_\mu^{(1)}\} \cup [\varepsilon + 2m; \varepsilon + 2M]$ va $k_1 \in \mathbb{T}^d$ lar uchun $\frac{d}{dz} \Omega_\mu^{(1)}(z-u(k_1)) < 0$ tengsizlik bajariladi. Bundan va (5) tengsizlikdan istalgan $z \in \mathbb{R} \setminus \{[m; M] + \sigma_\mu^{(1)}\} \cup [\varepsilon + 2m; \varepsilon + 2M]$ uchun $\frac{d}{dz} \Omega_\mu^{(2)}(z) < 0$ tengsizlik bajarilishi kelib chiqadi. Demak, $\Omega_\mu^{(2)}(\cdot)$ funksiya $\mathbb{R} \setminus \{[m; M] + \sigma_\mu^{(1)}\} \cup [\varepsilon + 2m; \varepsilon + 2M]$ to'plamda monoton kamayuvchi ekan. 2-xossa isbotlandi.

3-xossa. $\Omega_\mu(\cdot)$ funksiya $\mathbb{R} \setminus \Sigma_\mu$ to'plamda monoton kamayuvchi funksiya bo'ladi.

Isbot. Ko'rinib turibdiki $\Omega_\mu(\cdot)$ funksiya $\mathbb{R} \setminus \Sigma_\mu$ to'plamda aniqlangan differensiallanuvchi funksiya va sodda hisoblashlarga ko'ra

$$\frac{d}{dz}\Omega_\mu(z) = -1 - \mu^2 \int_{\mathbb{T}^d} \frac{v^2(t)}{\left(\Omega_\mu^{(2)}(z - u(t))\right)^2} \left(-\frac{d}{dz}\Omega_\mu^{(2)}(z - u(t))\right) dt \quad (6)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

2-xossa isbotida keltirilgan tasdiqqa ko‘ra barcha $\mathbb{R} \setminus \Sigma_\mu$ va $k_1 \in \mathbb{T}^d$ lar uchun $\frac{d}{dz}\Omega_\mu^{(2)}(z - u(k_1)) < 0$ munosabat bajariladi. Bu esa o‘z navbatida (6) tenglik yordamida istalgan $z \in \mathbb{R} \setminus \Sigma_\mu$ uchun $\frac{d}{dz}\Omega_\mu(z) < 0$ tengsizlik bajarilishini ta‘minlaydi. Demak, $\Omega_\mu(\cdot)$ funksiya $\mathbb{R} \setminus \Sigma_\mu$ to‘plamdan monoton kamayuvchi ekan. 3-xossa to‘liq isbotlandi.

Ta‘kidlash joiz, 3-xossa \mathcal{A}_μ operatorli matritsa xos qiymatlari sonini aniqlashda, aniqroq qilib aytganda uning muhim spektrining har bir bo‘shlig‘ida (lakunada) ko‘pi bilan bittadan oddiy (1 karrali) xos qiymatga ega bo‘lishini isbotlashda asosiy xossa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.I. Mogilner, *Hamiltonians of solid state physics at few-particle discrete Schrodinger operators: Problems and results*, *Advances in Sov. Math.* 5:139–194 (1991).
2. V.A. Malishev, R. A. Minlos, *Linear infinite-particle operators. Translations of Mathematical Monographs*, 143. AMS, Providence, RI.
3. K.O. Friedrichs, *Perturbation of spectra in Hilbert space*, AMS., Providence, Rhode Island (1965).
4. M. Hubner, H. Spohn, “Spectral properties of the spin-boson Hamiltonian,” *Ann. Inst. H. Poincare Phys. Theor.* 62, 289–323 (1995).
5. H.Spohn, *Ground states of the spin-boson Hamiltonian*, *Commun. Math. Phys.* 123, 277–304 (1989).
6. R.A. Minlos, H. Spohn, *The three-body problem in radioactive decay: The case of one atom and at most two photons in American Mathematical Society Translations-Series 2* (Amer. Math. Soc., Providence, RI, 1996), pp. 159–193.
7. M.Muminov, H. Neidhardt, T. Rasulov. *On the spectrum of the lattice spin-boson Hamiltonian for any coupling: 1D case*. *J. Math. Phys.*, 56 (2015), 053507.

**SILINDRIK TISHLI UZATMALARDA TISHNIG QIYALIK BURCHAGI
O'ZGARGANDA TA'SIR QILADIGAN KUCHLARNI ANIQLASH VA ISHLASH
SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

Norqulov Jonibek Farhod o'g'li,
TKTI Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi
Kengboyev Sirojiddin Abray o'g'li,
TKTI Shahrisabz filiali assistenti
Azimov Ruslan Bunyod o'g'li,
TKTI Shahrisabz filiali talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada mexanik uzatmalar tarkibiga kiradigan tishli uzatmalarga ta'sir qiladigan kuchlar o'rganib chiqildi. Texnikada ham mashinasozlikda ham uzatmalarning o'rni va roli juda katta hisoblanadi. Shu sababli yuqori samaradorlikda ishlaydigan uzatmalarga bo'lgan ehtiyoj seziladi. Mexanik uzatmalarning samaradorligini, ya'ni foydali ish koeffitsiyentini oshirish uchun bir qancha usullar o'rganib chiqildi. O'rganish davomida silindrik tishli uzatmalarning tishlariga ta'sir qiladigan kuchlar tishlarining qiyalik burchagiga bog'liq ekanligi va tishning qiyalik burchagi o'zgarganda tishli uzatmalarning tishlariga ta'sir qiladigan kuchlarning qanday o'zgarishi o'rganib chiqildi. Uzatmalar samarador ishlashi uchun zaruriy konstruktiv o'zgarishlar kiritildi. Kiritilgan konstruktiv o'zgarishlar natijasida yuqori foydali ish koeffitsiyentiga erishildi. Shuningdek, ishlash vaqti davomida konstruksiyasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil yemirilishlarsiz uzoq vaqt davomida yuqori samaradorlikda ishlashga erishildi.

Kalit so'zlar: mexanik uzatmalar, tishli uzatmalar, kuch, burchak, silindrsimon tishli uzatmalar, yemirilish, konstruksiya, mustahkamlik chegarasi, ruxsat etilgan kuchlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются силы, действующие на шестерни, входящие в состав механических трансмиссий. Роль и значение трансмиссий как в технике, так и в машиностроении очень велики. По этой причине также существует потребность в высокоэффективных трансмиссиях. Было изучено несколько методов повышения эффективности механических трансмиссий, то есть коэффициента полезного действия. В ходе исследования было изучено, что силы, действующие на зубья цилиндрической шестерни, зависят от угла наклона зубьев и как изменяются силы, действующие на зубья шестерни при изменении угла наклона зуба. Внесены необходимые структурные изменения, чтобы узнать, стал ли процесс более эффективным. Введённые конструктивные результаты позволили добиться высокого коэффициента полезной работы. Достигнута высокая эффективность работы в течение длительного времени.

Ключевые слова: механические передачи, зубчатые колёса, мощность, угол, цилиндрические шестерни, коррозия, конструкция, предел прочности, допустимый допуск.


Annotation. In this article, the forces acting on gears, which are part of mechanical transmissions, have been studied. The essence and role of transmissions are very important in both technology and mechanical engineering. Therefore, there is a need for high-efficiency transmissions. A number of methods have been researched to increase the efficiency and co-efficiency of mechanical transmissions. During the study, it was observed that the forces acting on the teeth of the cylindrical gears depend on the angle of inclination of the teeth and how the forces acting on the teeth of the gears change while the angle of inclination of the teeth changes. Necessary structural changes were made for the efficient operation of extensions. As a result of the introduced structural changes, a high co-efficiency was achieved. Also, long-term high-efficiency operation was achieved without various corrosions that may occur in its construction during operation.

Keywords: mechanical transmissions, gears, power, angle, cylindrical gears, corrosion, design, strength limit, allowable tension, gear drives.

Kirish. Jahonda yildan yilga yuqori samaradorlikka ega bo'lgan texnologiyalarga bo'lgan talab ortib bormoqda, shu jumladan, mashina va mexanizmlarda qo'llaniladigan uzatmalarning ham samarador ishlaydigan va foydali ish koeffitsiyenti yuqori bo'lganlariga ehtiyoj seziladi. Shu sababli mexanik uzatmalar

tarkibiga kiradigan tishli uzatmalarga ta'sir qiladigan kuchlarni tishlarning qiyalik burchagi o'zgarishida qanday o'zgarishi o'rganib chiqildi va eng samarali holati aniqlandi. Tishli uzatmalar bir-biriga o'zaro ilashish hisobiga harakatni uzatadi, shu sababli katta kuch va kuchlanish ostida ishlaydi. Bilamizki, qanday materialdan yasalishidan qat'iy nazar tishli g'ildiraklarning mustahkamlik chegarasi mavjud. Shu sababli eng kam kuch tushadigan holatini aniqlash va uni amaliyotga tatbiq etish asosiy maqsad hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uzatmalar bu energiya manbai bilan mashinaning ish bajaruvchi qismi oralig'ida joylashib, ularni o'zaro bog'lovchi hamda harakatni talab qilinganidek boshqarishga imkon beruvchi mexanizmlar uzatmalar deb ataladi. Turli mashinalarning yuritmalarida uzatmalar yordamida tezlik oshiriladi yoki pasaytiriladi; tezlik pog'onali yoki pog'onasiz tarzda rostlab turiladi, bitta dvigateldan bir necha mexanizm harakatga keltiriladi. Asosiy ko'rsatkichlari: uzatish momenti, burchak tezligi, uzatishlar soni, uzatishlar nisbati, foydali ish koeffitsiyenti (f.i.k.). Uzatmalarning mexanik, gidravlik va elektr turlari bor. Mexanik uzatmalar detallarning ilashish (yoki tishlashish) xossasiga (masalan: tishli uzatmalar zanjirli uzatmalar chervyakli uzatmalar) hamda ishqalanish xossasiga (masalan tasmali uzatmalar friksion uzatmalarga) asoslangan. Bunday uzatmalar stanoklar, avtomobillar, traktorlarning tezliklar qutilari va variatorlarida qo'llanadi. Tishli uzatma aylanma harakatni ilgarilama harakatga yoki aksincha aylantirib beradigan, yo bo'lmasa, aylanma harakat uzatadigan 3 zvenoli mexanizm. Uning 2 zvenosi qo'zg'aluvchan tishli g'ildirak (shesternya) dan (yoki shesternya va reyka) dan iborat bo'lib, qo'zg'almas zveno (korpus) bilan aylanma yoki ilgarilama harakat uzatuvchi juftlikni hosil qiladi. Tishli uzatmaning silindrik, konussimon, gipoid, to'lqinsimon va boshqa shaklli turlari bo'ladi. Ko'pgina mashina va mexanizmlarda tashqi ilashishli, ya'ni tishlari tashqi sirtiga o'yilgan tishli uzatma, kamdan-kam hollarda ichki tishlashishli (g'ildiraklardan birining ichiga tishlar o'yilgan) tishli uzatma ishlatiladi.[1. 46 bet.]



Tishli uzatma mexanik uzatmaning eng samarali va keng tarqalgan turi. Ular juda kichik kVt dan bir necha ming kVt gacha quvvatni amalga, grammning bir necha ulushidan 10 MN (1000 t kuch) gacha aylanma kuchni uzatishda qo'llaniladi. Tishli uzatma boshqa uzatmalarga qaraganda ixcham, f.i.k. yuqori, ko'pga chidamli, valga kam yuk tushishi bilan farq qiladi. [2 46....48 betlar.]

Detalning tez yoki yaxshi yeyilishi uning ishlash sharoitiga, moylanish darajasiga kontakt kuchlanishning qiymatiga va boshqa faktorlarga bog'liq. Shu sababli yeyilishga chidamlilikni ta'minlovchi aniq bir hisoblash usulini tavsiya etish qiyin. Eng ko'p qo'llaniladigan usul, bu solishtirma bosim va shartli koeffitsiyent R ni aniqlab, ularni ruxsat etilgan kattaliklar bilan solishtirishdir. Tishlarning sinishi asosan ochiq tishli hamda tish yuzasining qattiqligi yuqori darajada bo'lgan yopiq uzatmalarda ko'pincha tish uchidan yoki asosdan sinish hollari uchraydi. G'ildirak tishlarining sinishiga asosiy sabablar bu ishlash jarayonida o'ta yuklanish bo'lishi va bu o'zgaruvchan kuchlanish bo'lishi yoki o'zgaruvchan kuchlanishni uzoq vaqt davomida ta'sir etishidir. Bunday hollarda tish tubiga yaqin joyda metallarning toliqishidan darz paydo boladi, bu darz kuchlanishlar to'plangan joyda hosil bo'lib vaqt o'tishi bilan kattalashib tishning sinishiga olib keladi. [3 76...79 betlar.]

Ruxsat etilgan kuchlanish ma'lum yuklanish ta'siridan detalning xavfli kesimida bo'ladigan kuchlanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan va uning yetarli darajada mustahkam bo'lishini hamda talab etilgan vaqtda benuqson ishlashini ta'minlaydigan eng katta qiymat. Kuchlanishning bu qiymatini topish uchun chegaraviy kuchlanish hamda mustahkamlik zaxirasi qiymatlari aniqlangan bo'lishi kerak. Chegaraviy kuchlanishning qiymati materiallarning mexanik xossalriga bog'liq. Ruxsat etilgan kuchlanishni detalning yemirilishi yoki katta deformatsiyasi qiymatining oshib ketishi ta'sirida normal sharoitlar buzilishi ro'y berayotgan chegaraviy kuchlanish qismi sifatida aniqlash mumkin. [4 66...69 betlar.]

Silindrik tishli uzatmalar tishlariga 3 xil kuchlar ta'sir qiladi, bularga aylanma kuch, radial kuch va normal kuchlar kiradi. Tishli uzatmalar tishlarining qiyalik burchagi $\beta=8^\circ \dots 18^\circ$ gacha o'zgarishiga ruxsat etiladi [5 124...128betlar].

Aylanma kuch quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$F_t = \frac{2T_2}{d_2} = \frac{T_2(i_{red} + 1)}{a_w i_{red}};$$

Radial kuch quyidagi formuladan aniqlanadi.


$$F_r = F_t \frac{tg\alpha}{\cos\beta};$$

Normal kuch quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$F_n = \frac{F_t}{\cos\alpha \cos\beta};$$

Tahlil va natijalar. Hisoblab olingan qiymatlardan kuchning qanday o'zgarishini bilib olish uchun shu kuchlarni o'z o'rniga mos ravishda qo'yib jadvalini tuzib olamiz.

Ushbu grafikdan ko'rishimiz mumkinki, silindrik tishli uzatmalarda tishning qiyalik burchagining o'zgarishi faqat radial kuch va normal kuchning o'zgarishiga olib keladi.



Tadqiqot metodologiyasi. $T_2=94$ Nm buruvchi momentni uzatuvchi reduktorning uzatishlar nisbati $i_{red}=3.5$ tishli g'ildirak diametri $d_2=1650$ mm=1.65m o'qlararo masofa $a_w=400$ mm=0.4m va $\alpha=20^\circ$ va tishning qiyalik burchagini $\beta=8^\circ \dots 18^\circ$ gacha o'zgariganda kuchning ta'sir qilishini hisoblab chiqamiz.

Aylanma kuchni hisoblaymiz.

$$F_t = \frac{2T_2}{d_2} = \frac{2 \cdot 94}{1.65} = 113.94 = 114 \text{ N};$$

$\beta_1=8^\circ$; $\beta_2=15^\circ$; $\beta_3=18^\circ$ teng bo'lgandagi radial kuch qiymatlarini hisoblaymiz.

$$F_{r1} = F_t \frac{tg\alpha}{\cos\beta_1} = 114 \frac{0.364}{0.99} = 41.9 \text{ N};$$

$$F_{r2} = F_t \frac{tg\alpha}{\cos\beta_2} = 114 \frac{0.364}{0.965} = 43 \text{ N};$$

$$F_{r3} = F_t \frac{tg\alpha}{\cos\beta_3} = 114 \frac{0.364}{0.951} = 43.634 \text{ N};$$

$\beta_1=8^\circ$; $\beta_2=15^\circ$; $\beta_3=18^\circ$ ga teng bo'lgandagi normal kuch qiymatlarini hisoblaymiz.

$$F_{n1} = \frac{F_t}{\cos\alpha\cos\beta_1} = \frac{114}{0.939 \cdot 0.99} = 122.6 \text{ N};$$

$$F_{n2} = \frac{F_t}{\cos\alpha\cos\beta_2} = \frac{114}{0.939 \cdot 0.965} = 125.8 \text{ N};$$

$$F_{n3} = \frac{F_t}{\cos\alpha\cos\beta_3} = \frac{114}{0.939 \cdot 0.951} = 127.6 \text{ N};$$

Xulosa. Hisob-kitoblar va shu hisob-kitoblar natijasidan tuzilgan ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, silindrik tishli uzatmalarda tishning qiyalik burchagi o‘zgarganda tishli uzatmaga ta’sir qiladigan aylanma kuch o‘zgarishsiz qoladi, radial va normal kuch esa qiyalik burchagi qanchalik kattalashsa unga ta’sir qiladigan radial va normal kuch ham unga mos ravishda kattalashib boradi. Ma’lum bir harakatni uzatayotganda tishli uzatmaga ta’sir qiladigan kuch eng kichik bo‘lgan holati biz uchun eng samarali holati hisoblanadi. Chunki tishli uzatmaga ta’sir qiladigan kuchlar qanchalik kichik bo‘lsa, uning ishlash davri mobaynida konstruksiyasida sinish va yemirilishlar kam uchraydi va ishlash vaqti uzayishiga erishish mumkin. Bu natijaga esa tishning qiyalik burchagini kichik bo‘lgan holatlarda erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Shoobidov Sh.A. *Mashina detallari: O‘quv qo‘llanma. ToshDTU, 2000.46-bet.*
2. Tojibayev R., Jo‘rayev A., Maqsudov R. *Mashina detallari. - T.: «Fan va texnologiya», 2010.46...48 betlar.*
3. Tojibayev R., Jo‘rayev A., Maqsudov R. *Mashina detallari. - T.: «Fan va texnologiya», 2010.76...79 betlar.*
4. Tojibayev R., Jo‘rayev A., Maqsudov R. *Mashina detallari. - T.: «Fan va texnologiya», 2010.66...69 betlar.*
5. Sulaymonov I. *“Mashina detallari” T.1981 yil. 124-128 betlar.*
6. Чернавский С.А. и др. *Курсовое проектирование деталей машин. М.: Машиностроение. 1987*
- 2.
7. *Детали машин. Атлас конструкций /Под ред. Д.Н. Решетова. М.: Машиностроение. 1992*
- 2.

KASR TARTIBLI DIFFUZIYA TENGLAMASIDAN MANBANI ANIQLASH MASALASI

Alimov Hakim Nema'tovich,

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo'lim Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim kafedrasini mudiri,

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

xakim_alimov@mail.ru

Mirzayev Boburjon Ravshan o'g'li,

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

boburjon@mail.ru

Toshmatov Davron Shuhrat o'g'li,

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

davron@mail.ru

Yo'ldoshev Bekzod Allamurod o'g'li,

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

bekzod@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir o'lchamli kasr tartibli diffuziya tenglasining o'ng tomonini aniqlash masalasi ko'rilgan. Bunda tenglamaga boshlang'ich shart (Koshi sharti) qo'yilgan bo'lib, boshlang'ich masala hosil qilingan. Dastlab boshlang'ich masalaning xossalari yetarlicha tadqiq qilingan. So'ngra vaqt o'qi ustida qo'shimcha shart berilgan bo'lib, uning yordamida manba funksiyasi aniqlangan. Qo'yilgan masala chiziqli bo'lganligi sababli qo'yilgan masalaning yechimi oshkor ko'rinishda topilgan.

Kalit so'zlar: Dyamel prinsipi, Mittag-Leffler funksiyasi, Grin funksiyasi, Dirakning deltasi, Rimann-Liuvill kasr hosilasi, yechimning yagonaligi, Fur'e almashtirishi.

Аннотация. В данной статье рассматривается задача определения правой части одномерного уравнения диффузии дробного порядка. В этом случае к уравнению применялось начальное условие (условие Коши), и создавалась исходная задача. Изначально свойства исходной задачи были достаточно изучены. Затем на оси времени задаётся дополнительное условие, с помощью которого определяется функция источника. Поскольку данная задача является линейной, решение данной задачи находится очевидным образом.

Ключевые слова: принцип Дюамеля, функция Mittag-Леффлера, функция Грина, дельта функция Дирака, дробная производная Римана-Лиувилля, единственность, преобразование Фурье.

Abstract. In this article, we consider the problem of determining the right side of a one-dimensional fractional diffusion equation. In this case, the initial condition (the Cauchy condition) was applied to the equation and the original problem was created. Initially, the properties of the original problem were sufficiently studied. Then, an additional condition is set on the time axis, with the help of which the source function is determined. Since this problem is linear, the solution to this problem is found in an obvious way.

Keywords: Duhamel principle, Mittag-Leffler function, Green's function, Dirac delta function, Riemann-Liouville fractional derivative, uniqueness, Fourier transform.

Ushbu ishida vaqt o'zgaruvchisi bo'yicha kasr tartibli

$$D_t^\alpha u - a^2 u_{xx} = f(x)p(t), \quad x \in R, t > 0, \quad (1.1)$$

diffuziya tenglamasini Dyamel prinsipi yordamida

$$I_{0+}^{1-\alpha} u \Big|_{t=0} = \varphi(x), \quad x \in R, \quad (1.2)$$

Boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi va

$$u|_{x=0+} = g(t), \quad t > 0, \quad (1.3)$$

Qo'shimcha shart yordamida $\{u, p\}$ funksiyalarini topish masalasini ko'ramiz. Berilgan (1.1)–(1.3) masalada $0 < \alpha < 1$, D_t^α –Rimann–Liuvill differensial operatori

$$D_t^\alpha v(t) = \frac{\partial}{\partial t} I_{0+}^{1-\alpha} v = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{\partial}{\partial t} \int_0^t (t-s)^{-\alpha} v(s) ds$$

va

$$I_{0+}^{1-\alpha} v(t) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^t (t-s)^{1-\alpha} v(s) ds$$

Shuningdek (1.1)–(1.3) teskari masalada $\{f, \varphi, g\}$ –berilgan yetarlicha silliq funksiyalar deb qaraladi. $u = \bar{u} + \bar{w}$ bo'lsin. Dastlab (1.1)–(1.2) Koshi masalasini tadbiq etamiz, buning uchun (1.1)–(1.2) masalaga mos bir jinsli tenglamasi

$$\begin{cases} D_t^\alpha \bar{u} - a^2 \bar{u}_{xxx} = 0, & 0 < \alpha < 1, x \in R, t > 0, \\ I_{0+}^{1-\alpha} \bar{u}|_{t=0} = \varphi(x) & x \in R, \end{cases} \quad (1.4)$$

$$(1.5)$$

Koshi sharti bilan birgalikda qaraymiz.

1.1–Teorema. Faraz qilaylik $\varphi \in C_b(R)$ bo'sin, u holda (1.4)–(1.5) masala yagona klassik yechimga ega bo'lib, bu yechim

$$\bar{u}(x, t) = \int_R G(x-y, t) \varphi(y) dy, \quad t > 0, x \in R, \quad (1.6)$$

ko'rinishda bo'ladi, bu yerda

$$G(x, t) = \frac{t^{\alpha-1}}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi, \quad t > 0, x \in R,$$

$E_{\alpha, \alpha}$ –ikki parametrlil Mittag-Leffler funksiyasi.

1.1–Teorema ni isbotlashdan oldin $G(x, t)$ – Grin funksiyasining ba'zi xossalari keltirib o'tamiz.

1.1–Lemma. $G(x, t)$ – Grin funksiyasi uchun quyidagilar o'rinli:

$$D_t^\alpha G(x, t) - a^2 G_{xxx}(x, t) = 0, \quad t > 0, x \in R, \quad (1.7)$$

$$\lim_{t \rightarrow +0} I_{0+}^{1-\alpha} G(x, t) = \varphi(x), \quad x \in R, \quad (1.8)$$

$$\int_R G(x, t) = \frac{t^{\alpha-1}}{\Gamma(\alpha)}, \quad t > 0, \quad (1.9)$$

$$|D_t^\alpha G(x, t)| = a^2 |G(x, t)| \leq C, \quad t \geq \varepsilon > 0, \quad \forall x \in R \quad (1.10)$$

bu yerda $\delta(x)$ – Dikarning deltasi:

$$\delta(x) = \begin{cases} +\infty, & x = 0 \\ 0, & x \neq 0 \end{cases} \quad \int_R \delta(x-x_0) \varphi(x) dx = \varphi(x_0)$$

$\varphi(x) \in D(R)$ –asosiy funksiya.

Isbot. 1) Dastlab (1.8) tenglikning o‘rinli ekanligini ko‘rsatamiz. Buning uchun oldin $G(x, t)$ – Grin funksiyasining Rimann-Liuwill kasr integralini olamiz.

$$\begin{aligned}
 I_{0+}^{1-\alpha} G(x, t) &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^t (t-s)^{-\alpha} G(x, s) ds = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^t (t-s)^{-\alpha} \frac{s^{\alpha-1}}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 s^\alpha) d\xi ds = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^t \frac{(t-s)^{-\alpha} s^{\alpha-1}}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2)^m}{\Gamma(\alpha m + \alpha)} s^{\alpha m} d\xi ds = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_R \frac{e^{-i\xi x}}{2\pi} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2)^m}{\Gamma(\alpha m + \alpha)} d\xi \int_0^t (t-s)^{-\alpha} s^{\alpha-1} s^{\alpha m} ds \\
 &= \left[\begin{array}{l} s = ty \\ s_1 = 0 \Rightarrow y_1 = 0 \\ s_2 = t \Rightarrow y_1 = 1 \\ ds = t dy \end{array} \right] = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_R \frac{e^{-i\xi x}}{2\pi} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2)^m}{\Gamma(\alpha m + \alpha)} d\xi \times \left[\int_0^1 t^{-\alpha} (1-y)^{-\alpha} t^{\alpha-1} y^{\alpha-1} t^{\alpha m+1} y^{\alpha m} dy \right] = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_R \frac{e^{-i\xi x}}{2\pi} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2)^m}{\Gamma(\alpha m + \alpha)} d\xi (t^{\alpha m} \int_0^1 (1-y)^{-\alpha} y^{\alpha(m+1)-1} dy) = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_R \frac{e^{-i\xi x}}{2\pi} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2)^m}{\Gamma(\alpha m + \alpha)} (t^{\alpha m} B(1-\alpha, \alpha(m+1))) d\xi = \\
 &= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_R \frac{e^{-i\xi x}}{2\pi} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2)^m}{\Gamma(\alpha m + \alpha)} t^{\alpha m} \frac{\Gamma(1-\alpha)\Gamma(\alpha m + \alpha)}{\Gamma(\alpha m + 1)} d\xi = \\
 &= \frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} \sum_{m=0}^{\infty} \frac{(-a^2 \xi^2 t^\alpha)^m}{\Gamma(\alpha m + 1)} d\xi = \frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} E_\alpha(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi.
 \end{aligned}$$

Demak

$$I_{0+}^{1-\alpha} G(x, t) = \frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} E_\alpha(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi. \quad (1.11)$$

Mittag-Leffler funksiyasining $E_\alpha(0) = 1$ xossasidan va Dirak delta funksiyasining Fur'e almashtirishiga ko‘ra

$$\lim_{t \rightarrow +0} I_{0+}^{1-\alpha} G(x, t) = \delta(x), \quad x \in R$$

bo‘lishini ko‘rish qiyin emas.

2) (1.9) tenglikni tog‘ridan tog‘ri integrallash yordamida ko‘rsatamiz. Demak $\forall t > 0$ uchun

$$\begin{aligned}
 \int_R G(x, t) &= \int_R \frac{t^{\alpha-1}}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi dx = \\
 &= \frac{t^{\alpha-1}}{2\pi} \int_R E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) \int_R e^{-i\xi x} d\xi dx = \\
 &= t^{\alpha-1} \int_R E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) \left(\frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} dx \right) d\xi = \\
 &= t^{\alpha-1} \int_R E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) \delta(\xi) d\xi = \frac{t^{\alpha-1}}{\Gamma(\alpha)}, \quad t > 0, \quad (1.12)
 \end{aligned}$$

Bu yerda biz $\lim_{\xi \rightarrow 0} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) = \frac{1}{\Gamma(\alpha)}$ munosabatdan foydalandik.

3) Endigi navbatda hosilalarning (Rimann-Liuivill kasr hosilasi va fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha ikkinchi tartibli hosilalarning) mavjudligini ko'rsatamiz. Buning uchun avvalo formal ravishda hosila olamiz. $G(x, t)$ funksiyaning aniqlanishiga ko'ra

$$\frac{\partial^2}{\partial x^2} G(x, t) = \frac{t^{\alpha-1}}{2\pi} \int_R (-\xi^2) e^{i\xi x} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi, \quad \forall t > 0, x \in R$$

Rimann-Liuivill kasr hosilani hisoblashda ta'rifdan foydalanamiz:

$$\begin{aligned}
 D_t^\alpha G(x, t) &= \frac{\partial}{\partial t} I_{0+}^{1-\alpha} G(x, t) = \frac{\partial}{\partial t} \left\{ \frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi \right\} \\
 &= \frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} \frac{\partial}{\partial t} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi = \left| \frac{d}{dt} E_{\alpha, \alpha}(-\lambda t^\alpha) = -\lambda t^{\alpha-1} E_{\alpha, \alpha}(-\lambda t^\alpha), t > 0 \right| \\
 &= \frac{1}{2\pi} \int_R e^{-i\xi x} (-a^2 \xi^2) t^{\alpha-1} E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi \\
 &= -\frac{a^2}{2\pi} t^{\alpha-1} \int_R e^{-i\xi x} \xi^2 E_{\alpha, \alpha}(-a^2 \xi^2 t^\alpha) d\xi \quad (1.13)
 \end{aligned}$$

(12) va (13) dan (7) tengsizlikning tog'ri ekanligini ko'rish qiyin emas.

4) Agar ikki parametrlil Mittag-Leffler funksiyasi uchun $0 < \alpha < 1, z > 0$ bo'lganda

$$E_{\alpha, \alpha}(-z) \leq \frac{c}{(1+z)^2}$$

Bahoni inobatga olsak, u holda $D_t^\alpha G(x, t)$ uchun $\forall (x, t) \in R \times [\varepsilon, \infty), \forall \varepsilon > 0$

sohada quyidagi baho o'rinli:

$$\begin{aligned}
11. *Зокиров С.Г., Каримов К.Ф. Интенсификация теплообмена в каналах при течении вязких жидкостей // ЎЗР ФА маърузалари, 1997. - №7. - С. 32-35*

12. *Зокиров С.Г., Каримов К.Ф., Саттаров Т. Применение двухмерной шероховатости для увеличения теплоотдачи вязкой жидкости // Труды II Российской Национальной конференции по теплообмену. Интенсификация теплообмена. – М.: МЭИ, 1998. – т.8.- С.114-117.*

13. *Dreytser G.A., Gomon V.L., Krayev V.M., Zakirov S.G. Studies of fouling channels with turbulence promoters // Proceeding of the 3rd European Thermal Sciences Conference, Heidelberg, Germany, 10-13 September, 2000.*

14. *Каримов К.Ф., Умаров У.Э., Алиев Б.А. Выбор оптимального теплообменного аппарата по эксергетическому К.П.Д. // Техникавий, иқтисодий ва фундаментал фанлар соҳасининг муҳим масалалари. - Тошкент, 2000. - №3 - С. 91-93.*

**PARABOLIK TIPDAGI INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN TESKARI
MASALALAR**

Nuriddinov Javlon Zafarovich,

Buxoro davlat universiteti

j.z.nuriddinov@buxdu.uz

Primov Jamshid Faxriddinovich,

Buxoro davlat universiteti magistranti

j.primov@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'ng tomoni o'rama ko'rinishida bo'lgan parabolik tipdagi integro-differensial tenglama qaralgan. Koshi masalasi ushbu masala uchun to'g'ri masala deyiladi. To'g'ri masalaning $x = 0, t > 0$ gipertekislikdagi yechimi qo'shimcha shart sifatida berilgan. Qo'yilgan masalani tadqiq qilish uchun qulay bo'lgan yordamchi masalaga olib kelingan. So'ngra yordamchi masala noma'lum funksiyalarga nisbatan Volterra tipidagi ekvivalent integral tenglamalar sistemasiga keltirilgan. Gyolder funksiyalar fazosida siqiluvchan akslantirishlar prinsipi qo'llanilib, yechimning mavjud va yagonaligi haqidagi teorema isbotlangan.

Kalit so'zlar: integro-differensial tenglamalar, teskari masala, Gyolder fazosi, integral tenglama yadrosi, rezolventa.

Аннотация. В данной статье рассматривается многомерное параболическое интегро-дифференциальное уравнение с интегралом временной свёртки в правой части. Прямая задача представлена задачей Коши для этого уравнения. В данной статье исследуется обратная задача, заключающаяся в нахождении зависящего от времени и пространства ядра интегрируемого члена на известном в гиперплоскости $x = 0, t > 0$ решении прямой задачи. С использованием резольвенты ядра эта задача сводится к исследованию более удобной обратной задачи. Последняя задача заменена эквивалентной системой интегральных уравнений относительно неизвестных функций, и на основе принципа сжимающего отображения доказана однозначная разрешимость прямой и обратной задач.

Ключевые слова: интегро-дифференциальное уравнение, обратная задача, пространство Гёльдера, ядро, резольвента.

Abstract. A multidimensional parabolic integro-differential equation with the time-convolution integral on the right side is considered. The direct problem is represented by the Cauchy problem for this equation. The inverse problem is studied in this paper. The problem consists in finding the time and spatial

dependent kernel of the equation from the solution of direct problem in a hyperplane $x = 0, t > 0$. This problem is reduced to the more convenient inverse problem with the use of the resolvent kernel. The last problem is replaced by the equivalent system of integral equations with respect to unknown functions. The unique solvability of the direct and inverse problems is proved with use of the principle of contraction mapping.

Keywords: Integro-differential equation, inverse problem, H^1 -older space, kernel, resolvent.

Masalaning qo'yilishi.

Ushbu maqolada $u(x, t)$ va $k(t)$ funksiyalarni $x \in \mathbb{R}, t \in [0, T]$ sohada quyidagi berilgan tenglamalardan aniqlash masalasini ko'rib chiqamiz:

$$u_t - Lu = - \int_0^t k(x', \tau) Lu(x, t - \tau) d\tau, \quad (x, t) \in \mathbb{R}_T, \quad (1)$$

$$u|_{t=0} = \varphi(x), \quad (x, t) \in \mathbb{R}_T, \quad (2)$$

$$u|_{x=0} = f(t), \quad 0 \leq t \leq T, f(0) = \varphi(0), \quad (3)$$

bu yerda $Lu = u_{xxx} + c(x)u$.

(3) qo‘shimcha shartning o‘ng tomonidagi $f(0) = \varphi(0)$ tenglik kelishuvchanlik sharti deyiladi.

Faraz qilaylik berilgan funksiyalar uchun quyidagi shartlar o‘rinli bo‘lsin:

$\varphi(x) \in H^{l+8}(\mathbb{R}), \varphi(x) \geq \varphi_0 = \text{const} > 0, c(x) \in H^{l+4}(\mathbb{R}),$
 $f(t) \in [0, T]$.

Lemma-1. Faraz qilaylik $k(t) \in [0, T]$ bo‘lsin. U holda (1)–(3) masala yechimi

$$u_t(x, t) = Lu - \int_0^t r(t - \tau)u_\tau(x, \tau)d\tau, \quad (4)$$

integral tenglama, hamda (2), (3) boshlang‘ich chegaraviy shartlardan $u(x, t)$ va $r(t)$ funksiyalarni topish masalasiga ekvivalent. Bu yerda $r(t)$ funksiya $k(t)$ funksiyaning rezolventasi.

Isbot. Faraz qilaylik $u(x, t)$ funksiya (1), (2) Koshi masalasining yechimi bo‘lsin. (1) tenglamani Lu operatorga nisbatan ikkinchi tur Volterra integral tenglamasi ko‘rinishida yozib olamiz:

$$Lu = \int_0^t k(t - \tau)Lu(x, \tau)d\tau + u_t.$$

Integral tenglamalar umumiy nazariyasida bizga ma‘lumki, yuqoridagi integral tenglamaning yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Lu = u_t(x, t) + \int_0^t r(t - \tau)u_\tau(x, \tau)d\tau.$$

(4) tenglamada $r(t)$ funksiya $k(t)$ funksiyaning rezolventasi, $r(t)$ va $k(t)$ funksiyalar o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagi tenglik bilan aniqlanadi:

$$k(t) = r(t) - \int_0^t r(t - \tau)k(\tau)d\tau. \quad (5)$$

Ushbu formulani tekshirish uchun (1) integral tenglamadagi $k(t)$ funksiyaning o‘rniga (5) tenglikni qo‘yamiz

$$\begin{aligned} u_t - Lu &= - \int_0^t \left[r(t - \tau) - \int_0^{t-\tau} r(t - \tau - \alpha)k(\alpha) \right] Lu(x, \tau) d\alpha d\tau = \\ &= - \int_0^t r(t - \tau)Lu(x, \tau)d\tau + \int_0^t \int_0^{t-\tau} r(t - \tau - \alpha)k(\alpha) \times \\ &\times Lu(x, \tau) d\alpha d\tau =: I_1 + I_2, \end{aligned}$$

bu yerda

$$\begin{aligned} I_1 &:= - \int_0^t r(t - \tau)Lu(x, \tau)d\tau, \\ I_2 &:= \int_0^t \int_0^{t-\tau} r(t - \tau - \alpha)k(\alpha)Lu(x, \tau) d\alpha d\tau. \end{aligned}$$

I_1 integralni quyidagicha yozish mumkin:

$$I_1 := - \int_0^t r(t - \tau)Lu(x, \tau)d\tau = - \int_0^t r(\beta)Lu(x, t - \beta)d\beta.$$

I_2 integralni soddalashtirish maqsadida I_2 ning ichki integrali chegarasidagi α ni β bilan almashtiramiz: bu yerda $\alpha = t - \tau - \beta$ ga teng, natijada I_2 integral quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$I_2 = \int_0^t \int_0^{t-\tau} r(\beta)k(t - \tau - \beta)Lu(x, \tau) d\beta d\tau =$$

$$= \int_0^t r(\beta) \int_0^{t-\beta} k(t-\tau-\beta) Lu(x, \tau) d\tau d\beta.$$

(5) tenglikni isbotini davom ettirganimizda

$$u_t(x, t) - Lu(x, t) = -I_1 + I_2 =$$

$$= - \int_0^t r(\beta) \left[Lu(x, t-\beta) - \int_0^{t-\beta} k(t-\beta-\tau) Lu(x, \tau) d\tau \right] d\beta.$$

$u(x, t)$ funksiya (1) integro-differensial tenglamani qanoatlantirganligi sababli oxirgi tenglikning kvadrat qavsidadagi ifoda $u_t(x, t-\beta)$ ga teng. Bu shuni anglatadiki oxirgi tenglik (4) tenglamani ifodalaydi (5) integral tenglamani $r(t)$ funksiyaga nisbatan ifodalaymiz

$$r(t) = k(t) + \int_0^t k(t-\tau)r(\tau)d\tau$$

va bu tenglikni (4) tenglamadagi $r(t)$ funksiyaning o'rniga qo'yganimizda

$$u_t - Lu(x, t) = - \int_0^t k(\beta) \left[u_\beta(x, t-\beta) + \int_0^{t-\beta} r(t-\tau-\beta)u_\tau(x, \tau) d\tau \right] d\beta.$$

$u(x, t)$ (4) ning yechimi ekanligidan yuqoridagi tenglikning kvadrat qavsida turgan ibora $Lu(x, t-\beta)$ ga teng deb xulosa qilamiz.

Lemma isbotlandi.

Shunday qilib, agar (4), (2), (3) masaladan $u(x, t)$, $r(t)$ funksiyalarni topish mumkin bo'lsa, $k(t)$ funksiya (5) integral tenglamaning yechimi bo'ladi.

$r_t(t)$ funksiyani $h(t)$ funksiya bilan belgilash kiritaylik, ya'ni $h(t) = r_t(t)$ bo'lsin.

Lemma-2. *Quyidagi tenglamalardan $\vartheta(x, t)$, $h(t)$ funksiyalarni topish masalasi (1)-(5) masalaga ekvivalent:*

$$\begin{aligned} \vartheta_t - L\vartheta - 2c_x\vartheta_x^{(2)} - c_{xx}\vartheta^{(2)} + r(0)\vartheta + h(t)[L\varphi_{xx}(x) + \\ + 2c_x\varphi_x(x) + c_{xx}\varphi(x)] + \int_0^t h(t-\tau)\vartheta(x, \tau)d\tau = 0 \end{aligned} \quad (6)$$

$$\vartheta|_{t=0} = Y_{xx}(x) \quad (7)$$

$$\begin{aligned} \vartheta(0, t) = f_{ttt}(t) - c(0)f_{tt}(t) + \\ + r(0)f_{tt}(t) + h(t)L\varphi|_{x=0} + \int_0^t f_{tt}(t-\tau)h(\tau)d\tau. \end{aligned} \quad (8)$$

bu yerda

$$\vartheta(x, t) = u_{ttxx}(x, t), \quad \vartheta^{(2)} = u_{tt},$$

$$Y_{xx}(x) = \frac{\partial^2}{\partial x^2}(L^2\varphi(x) - r(0)L\varphi(x))$$

$$r(0) = \frac{L^2\varphi(0) - f_{tt}(0)}{L\varphi(0)}. \quad (9)$$

Isbot. (4), (2) va (3) masaladan $\vartheta^{(1)}(x, t) = u_t(x, t)$, ko'rinishda yangi funksiyani belgilaymiz.

Natijada

$$\vartheta_t^{(1)} - L\vartheta^{(1)} + r(0)\vartheta^{(1)} + \int_0^t h(\tau)\vartheta^{(1)}(x, t - \tau)d\tau = 0, \quad (10)$$

$$\vartheta^{(1)}(x, 0) = L\varphi(x), x \in \mathbb{R}, \quad (11)$$

$$\vartheta^{(1)}|_{x=0} = f_t(t), \quad L\varphi(0) = f_t(0). \quad (12)$$

masalalardan $\vartheta^{(1)}(x, t), h(t)$ topish masalasi kelib chiqadi. Bu yerda (4) integro-differensial tenglamada $t = 0$ deb (11) tenglamani hosil qilamiz. (10)-(12) masalada $\vartheta^{(2)}(x, t) = \vartheta_t^{(1)}(x, t)$ belgilab quyidagi masalaga kelamiz:

$$\vartheta_t^{(2)} - L\vartheta^{(2)} + r(0)\vartheta^{(2)} + h(t)L\varphi(x) - \int_0^t h(\tau)\vartheta^{(2)}(x, t - \tau)d\tau = 0, \quad (13)$$

$$\vartheta^{(2)}|_{t=0} = Y(x), x \in \mathbb{R}, \quad (14)$$

$$\vartheta^{(2)}|_{x=0} = f_{tt}(t), \quad (15)$$

Bu yerda $Y(x) := L^2\varphi(x) - r(0)L\varphi(x)$. (14), (15) tengliklarning $t = 0$ va $x = 0$ da tenglashtirib (9) tenglikni olamiz. Bundan tashqari $r(0)$ funksiya ma'lum deb qaraymiz.

$\vartheta_{xx}^{(2)}(x, t)$ funksiyani $\vartheta(x, t)$ funksiya orqali belgilaymiz. (13), (14) tengliklarni ikki marta x bo'yicha differensiallab (6), (7) masalaga kelamiz. $x = 0$ da $\vartheta(x, t)$ funksiyaga qo'shimcha shart olish uchun (13) integro-differensial tenglamadan foydalanamiz. Shunday qilib (4), (2), (3) masala (6)–(8) masalaga ekvivalentligi kelib chiqadi. Lemma -2 isbotlandi.

Asosiy natija. Mavjudlik va yagonalik haqidagi teorema.

(6), (7) Koshi masalasini Puasson formulasidan foydalanib $\vartheta(x, t)$ funksiyaga nisbatan integral tenglamaga kelamiz:

$$\begin{aligned} \vartheta(x, t) = & \int_{\mathbb{R}} Y_{\xi\xi}(\xi)G(x - \xi, t)d\xi + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} (c\vartheta + 2c_{\xi}\vartheta_{\xi n}^{(2)} + c_{\xi\xi}\vartheta^{(2)} - \\ & - r(0)\vartheta - h(\tau)[L\varphi_{\xi\xi}(\xi) + 2c_{\xi}\varphi_{\xi}(\xi) + c_{\xi\xi}\varphi(\xi)] - \\ & - \int_0^{\tau} h(\tau - \alpha)\vartheta(\xi, \alpha)d\alpha)G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau, \end{aligned} \quad (16)$$

Bu yerda $G(x - \xi, t - \tau) = \frac{1}{(2\sqrt{\pi t - \tau})^n} e^{-\frac{|x - \xi|^2}{4(t - \tau)}}$ ning asosiy yechimi issiqlik operatori.

(16) integral tenglamadan $x = 0$ deb (8) qo'shimcha shart orqali $h(t)$ ga nisbatan quyidagi integral tenglamani olamiz:

$$\begin{aligned} h(t) = & \frac{1}{L\varphi(0)} [-f_{ttt}(t) + c(0)f_{tt}(t) - \\ & - r(0)f_{tt}(t) + \int_{\mathbb{R}^n} Y_{\xi\xi}(\xi)G(x - \xi, t)d\xi] + \\ & + \frac{1}{L\varphi(0)} \left[- \int_0^t f_{tt}(t - \tau)h(\tau)d\tau + \int_0^t \int_{\mathbb{R}^n} (c\vartheta + 2c_{\xi}\vartheta_{\xi}^{(2)} + \right. \\ & + c_{\xi\xi}\vartheta^{(2)} - r(0)\vartheta - h(\tau)[L\varphi_{\xi\xi}(\xi) + 2c_{\xi}\varphi_{\xi}(\xi) + \\ & \left. + c_{\xi\xi}\varphi(\xi)] - \int_0^{\tau} h(\tau - \alpha)\vartheta(\xi, \alpha)d\alpha)G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau \right] \end{aligned} \quad (17)$$

bu yerda $G(x - \xi; t - \tau)|_{x=0}$.

(16) va (17) integral tenglamalarda $\vartheta^{(2)}$ va $\vartheta_x^{(2)}$ noma'lum funksiyalar qatnashayapti, shu sababli (13) va (4) masaladan $\vartheta^{(2)}$ funksiyaga nisbatan integral tenglama hosil qilamiz:

$$\vartheta^{(2)}(x, t) = \int_{\mathbb{R}} Y(\xi)G(x - \xi, t)d\xi + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} \left(c\vartheta^{(2)} - r(0)\vartheta^{(2)} - h(\eta)L\varphi(\xi) - \int_0^\tau h(\tau - \alpha)\vartheta^{(2)}(\xi, \alpha)d\alpha \right) G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau. \quad (18)$$

(13), (14) tengliklarni x bo'yicha differensiallab, hosil bo'lgan Koshi masalasiga $\vartheta_x^{(2)}$ funksiyaga nisbatan quyidagi ekvivalent integral tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \vartheta_x^{(2)}(x, t) = & \int_{\mathbb{R}} Y_\xi(\xi)G(x - \xi, t)d\xi + \\ & + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} (c\vartheta_\xi^{(2)} + c_\xi\vartheta^{(2)} - r(\xi', 0)\vartheta_\xi^{(2)} - h(\xi', \tau)(L\varphi_\xi(\xi) + c_\xi\varphi(\xi)) - \\ & - \int_0^\tau h(\xi', \tau - \alpha)\vartheta_\xi^{(2)}(\xi, \alpha)d\alpha)G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau. \end{aligned} \quad (19)$$

Ushbu paragrafning asosiy natijasi sifatida keltirilgan quyidagi mavjudlik va yagonalik teoremasini isbotlaymiz:

Teorema-1. Faraz qilaylik, $\varphi(x) \in H^{l+8}(\mathbb{R}^n)$, $c(x) \in H^{l+4}(\mathbb{R})$, $|L\varphi(0)|^l \geq \text{const} > 0$, $l \in (0, 1)$, $f(t) \in [0, T]$ sinflardan bo'lib, $f(0) = \varphi(0)$, $f_t(0) = L\varphi(0)$ kelishuvchanlik shartlari o'rinli bo'lsin. U holda shunday yetarlicha kichik $T_0 > 0$ soni mavjudki, $T \in (0, T_0]$ lar uchun (16)-(19) integral tenglamalarning $\{\vartheta(x, t), \vartheta^{(2)}(x, t), \vartheta_x^{(2)}(x, t)\} \in H^{l+2, (l+2)/2}(\overline{\mathbb{R}_T^n})$, $h(t) \in [0, T]$ sinflarga qarashli yagona yechimi mavjud.

Isbot. (16)-(19) integral tenglamalar sistemasi $\vartheta(x, t)$, $h(t)$, $\vartheta^2(x, t)$, $\vartheta_x^2(x, t)$ funksiyalarga nisbatan \mathbb{R}_T to'plamda yopiq sistemani tashkil qiladi. Bu tenglamalar sistemasini chiziqli bo'lmagan operator tenglama ko'rinishida yozib olamiz:

$$\psi = A\psi, \quad (20)$$

bu yerda $\psi = (\psi_1, \psi_2, \psi_3, \psi_4)^* = (\vartheta(x, t), h(t), \vartheta^{(2)}, \vartheta_x^{(2)})^*$ (16)-(19) tenglamalardagi operator, $A\psi = [(A\psi)_1, (A\psi)_2, (A\psi)_3, (A\psi)_4]^*$ ko'rinishga ega.

$$\begin{aligned} (A\psi)_1 = & \psi_{01}(x, t) + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} ((c(\xi) - r(0))\psi_1(\xi, \tau) + 2c_\xi(\xi)\psi_4(\xi, \tau) + \\ & + c_{\xi\xi}(\xi)\psi_3(\xi, \tau) - \psi_2(\tau)[L\varphi_{\xi\xi}(\xi) + 2c_\xi\varphi_\xi(\xi) + c_{\xi\xi}\varphi(\xi)] - \\ & - \int_0^\tau \psi_2(\tau - \alpha)\psi_1(\xi, \alpha)d\alpha)G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau, \end{aligned} \quad (21)$$

$$\begin{aligned} (A\psi)_2 = & \psi_{02}(t) + \frac{1}{L\varphi(0)} \left[- \int_0^t f_{tt}(t - \tau)\psi_2(\tau)d\tau + \right. \\ & + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} ((c(\xi) - r(0))\psi_1(\xi, \tau) + 2c_\xi(\xi)\psi_4(\xi, \tau) + c_{\xi\xi}(\xi)\psi_3(\xi, \tau) - \\ & \left. - \psi_2(\tau)[L\varphi_{\xi\xi}(\xi) + 2c_\xi\varphi_\xi(\xi) + c_{\xi\xi}\varphi(\xi)] - \right. \end{aligned}$$

$$\int_0^{\tau} + \psi_2(\tau - \alpha)\psi_1(\xi, \alpha)d\alpha G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau], \quad (22)$$

$$(A\psi)_3 = \psi_{03}(x, t) + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} ((c(\xi) - r(0))\psi_3(\xi, \tau) - \psi_2(\eta)L\varphi(\xi) - \int_0^{\tau} \psi_2(\tau - \alpha)\psi_3(\xi, \alpha)d\alpha)G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau, \quad (23)$$

$$(A\psi)_4 = \psi_{04}(x, t) + \int_0^t \int_{\mathbb{R}} ((c(\xi) - r(0))\psi_4(\xi, \tau) + c_{\xi}(\xi)\psi_3(\xi, \tau) - \psi_2(\tau)(L\varphi_{\xi}(\xi) + c_{\xi}\varphi(\xi)) - \int_0^{\tau} \psi_2(\tau - \alpha)\psi_4(\xi, \alpha)d\alpha) \times G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau. \quad (24)$$

(21)-(24) tenglamalarda quyidagicha belgilashlar kiritilgan:

$$\psi_{01}(x, t) = \int_{\mathbb{R}} Y_{\xi\xi}(\xi)G(x - \xi, t)d\xi,$$

$$\psi_{02}(t) = \frac{1}{L\varphi(0)} [-f_{ttt}(t) + c(0)f_{tt}(t) - r(0)f_{tt}(t) + \int_{\mathbb{R}} Y_{\xi\xi}(\xi)G(x - \xi, t)d\xi],$$

$$\psi_{03}(x, t) = \int_{\mathbb{R}} Y(\xi)G(x - \xi, t)d\xi,$$

$$\psi_{04}(x, t) = \int_{\mathbb{R}} Y_{\xi}(\xi)G(x - \xi, t)d\xi.$$

$$|\psi|_T^{l,l/2} = \max(|\psi_1|_T^{l,l/2}, |\psi_2|_T^{l,l/2}, |\psi_3|_T^{l,l/2}, |\psi_4|_T^{l,l/2}), \text{ bo'lsin. } H^{l,l/2}(\mathbb{R}_T) \text{ fazoda} \\ S(T) = |\psi - \psi_0|_T^{l,l/2} \leq |\psi_0|_{T_0}^{l,l/2} \quad (25)$$

sharni kritamiz. Bu yerda $\psi_0 = (\psi_{01}, \psi_{02}, \psi_{03}, \psi_{04})$ va

$$|\psi_0|_{T_0}^{l,l/2} = \max(|\psi_{01}|_{T_0}^{l,l/2}, |\psi_{02}|_{T_0}^{l,l/2}, |\psi_{03}|_{T_0}^{l,l/2}, |\psi_{04}|_{T_0}^{l,l/2}).$$

(25) tengsizlik yetarlicha kichik musbat T_0 larda $S(T)$ sharda yaqinlashuvchi ekanligini ifodalaydi. Faraz qilaylik, ψ funksiyada $S(T)$ sharning ixtiyoriy elementi bo'lsin, bu yerda $T < T_0$. U holda (25) tengsizlikdan quyidagi tengsizlik o'rinli bo'lishi kelib chiqadi:

$$|\psi_i|_T^{l,l/2} \leq 2|\psi_0|_{T_0}^{l,l/2}, i = 1, 2, 3, 4.$$

Dastlab A operatorni siqiluvchan operatorning birinchi shartini tekshiramiz. Issiqlik hajm potentsialining ma'lum bahosidan foydalanib quyidagi baholarni oson olish mumkin

$$|(A\psi)_1 - \psi_{01}|_T^{l,l/2} = \left| \int_0^t \int_{\mathbb{R}} ((c(\xi) - r(0))\psi_1(\xi, \tau) + 2c_{\xi}(\xi)\psi_4(\xi, \tau) + c_{\xi\xi}(\xi)\psi_3(\xi, \tau) - \psi_2(\tau)[L\varphi_{\xi\xi}(\xi) + 2c_{\xi}\varphi_{\xi}(\xi) + c_{\xi\xi}\varphi(\xi)] - \int_0^{\tau} \psi_2(\xi', \tau - \alpha)\psi_1(\xi, \alpha)d\alpha)G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau \right|_T^{l,l/2} \leq$$

$$\leq |\psi_0|_{T_0}^l \cdot 2T(c_0 + r_0 + 2c_1(1 + \varphi_5) + c_2(1 + \varphi_4) + \varphi_3 + 2|\psi_0|_{T_0}^l T) := |\psi_0|_{T_0}^l \beta_1.$$

Qolgan komponentlari ham xuddi shunday aniqlanadi:

$$|(A\psi)_2 - \psi_{02}|_T^{l,l/2} \leq |\psi_0|_{T_0}^l \cdot 2T\varphi_0(f_1 + c_0 + r_0 + 2c_1(1 + \varphi_5) + c_2(1 + \varphi_4) + \varphi_3 + 2T|\psi_0|_{T_0}^l) := |\psi_0|_{T_0}^l \beta_2,$$

$$|(A\psi)_3 - \psi_{03}|_T^{l,l/2} \leq |\psi_0|_{T_0}^l \cdot 2T(c_0 + r_0 + \varphi_1 + 2T|\psi_0|_{T_0}^l) := |\psi_0|_{T_0}^l \beta_3,$$

$$|(A\psi)_4 - \psi_{04}|_T^{l,l/2} \leq |\psi_0|_{T_0}^{l,l/2} \cdot 2T(c_0 + r_0 + c_1(1 + 2\varphi_5) + c_2\varphi_4 + 2T|\psi_0|_{T_0}^{l,l/2}) := |\psi_0|_{T_0}^{l,l/2} \beta_4.$$

bu yerda

$$c_0 := |c(x)|^l, \quad c_1 := |c_{x_n}(x)|^l, \quad c_2 := |c_{x_n x_n}(x)|^l$$

$$\varphi_0 := |(L\varphi(0))^{-1}|^l, \quad \varphi_1 := |L\varphi(x)|^l, \quad \varphi_2 := |L\varphi_x(x)|^l, \quad \varphi_3 := |L\varphi_{xx}(x)|^l,$$

$$\varphi_4 := |\varphi(x)|^l, \quad \varphi_5 := |\varphi_x(x)|^l, \quad L\varphi(0) = (\varphi_{xx}(x) + c(x))|_{x=0}.$$

$$f_1 := |f_{tt}(t)|_T, \quad r_0 := r(0).$$

Bu yerda $T \rightarrow 0$ bo'lganda $\beta_i(T) \rightarrow 0, i = 1,2,3,4$. Agar biz T_0 ni quyidagi

$$\beta_0 := \max_{1 \leq i \leq 4} \beta_i < 1. \tag{26}$$

tengsizliklar bir vaqtda o'rinli bo'ladigan qilib tanlasak A operator $T < T_0$ qisqartirib akslantirishning birinchi shartini qanoatlantiradi.

A operator uchun qisqartirib akslantirishning ikkinchi shartini ko'rib chiqamiz.

$$\psi^{(1)} = (\psi_1^{(1)}, \psi_2^{(1)}, \psi_3^{(1)}, \psi_4^{(1)}) \in S(T),$$

$$\psi^{(2)} = (\psi_1^{(2)}, \psi_2^{(2)}, \psi_3^{(2)}, \psi_4^{(2)}) \in S(T).$$

berilgan bo'lsin

$$\begin{aligned} & \left| \psi_2^{(1)} \psi_1^{(1)} - \psi_2^{(2)} \psi_1^{(2)} \right|_T^{l,l/2} = \left| (\psi_2^{(1)} - \psi_2^{(2)}) \psi_1^{(1)} + \psi_2^{(2)} (\psi_1^{(1)} - \psi_1^{(2)}) \right|_T^{l,l/2} \leq \\ & \leq 2|\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_T^{l,l/2} \max(|\psi_1^{(1)}|_T^l, |\psi_2^{(2)}|_T^{l,l/2}) \leq 4|\psi_0|_T^{l,l/2} |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_T^{l,l/2}. \end{aligned}$$

yuqoridagi tengsizlikdan va integral tenglamalardan foydalanib quyidagi baholarni olamiz:

$$\begin{aligned} & |((A\psi)^{(1)} - (A\psi)^{(2)})_1|_T^l = \left| \int_0^t \int_{\mathbb{R}} ((c(\xi) - r(0))[\psi_1^{(1)}(\xi, \tau) - \psi_1^{(2)}(\xi, \tau)] + \right. \\ & \left. + 2c_\xi(\xi)[\psi_4^{(1)}(\xi, \tau) - \psi_4^{(2)}(\xi, \tau)] + c_{\xi\xi}(\xi)[\psi_3^{(1)}(\xi, \tau) - \psi_3^{(2)}(\xi, \tau)] + \right. \\ & \left. + [\psi_2^{(1)}(\xi, \tau) - \psi_2^{(2)}(\xi, \tau)][L\varphi_{\xi\xi}(\xi) + 2c_\xi\varphi_\xi(\xi) + c_{\xi\xi}\varphi(\xi)] + \right. \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
 & + \int_0^t [\psi_2^{(1)}(\tau - \alpha)\psi_1^{(1)}(\xi, \alpha) - \psi_2^{(2)}\tau - \alpha)\psi_1^{(2)}(\xi, \alpha)]d\alpha \times \\
 & G(x - \xi, t - \tau)d\xi d\tau|_T^{ll/2} \leq |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^{ll/2} \cdot T(c_0 + r_0 + 2c_1(1 + \varphi_5) + \\
 & + c_2(1 + \varphi_4) + \varphi_3 + 4T|\psi_0|_{T_0}^{ll/2}): = |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^{ll/2} \mu_1. \\
 & \text{Qolgan komponentalari ham xuddi shunday aniqlanadi:} \\
 & |((A\psi)^{(1)} - (A\psi)^{(2)})_2|_T^{ll/2} \leq |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^l \cdot T\varphi_0(f_1 + c_0 + \\
 & + r_0 + 2c_1(1 + \varphi_5) + c_2(1 + \varphi_4) + \varphi_3 + 4T|\psi_0|_{T_0}^l): = |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^l \mu_2, \\
 & |((A\psi)^{(1)} - (A\psi)^{(2)})_3|_T^{l/2} \leq |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^{l/2} \cdot T(c_0 + r_0 + \varphi_1 + \\
 & + 4T|\psi_0|_{T_0}^{ll/2}): = |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^{ll/2} \mu_3, \\
 & |((A\psi)^{(1)} - (A\psi)^{(2)})_4|_T^{ll/2} \leq |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^{ll/2} \cdot T((c_0 + r_0) + \\
 & + c_1(1 + 2\varphi_5) + c_2\varphi_4 + \varphi_3 + 4T|\psi_0|_{T_0}^l): = |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_{T_0}^{ll/2} \mu_4. \\
 & \mu_0 := \max_{1 \leq i \leq 4} \mu_i < 1 \tag{27}
 \end{aligned}$$

Agar T ni (27) shartni qanoatlantiradigan qilib tanlasak, u holda A operator uchun

$$|(A\psi^{(1)} - A\psi^{(2)})|_T^{ll/2} < \mu |\psi^{(1)} - \psi^{(2)}|_T^{ll/2}$$

shart bajariladi, ya'ni A operator $S(T)$ da siqiluvchan bo'ladi.

(27) tengsizlikning bajarilishidan (26) ning bajarilishini ko'rish qiyin emas. (27) shart T_0 da qanoatlantirishidan $T < T_0$ larda qisqartirib akslantirish prinsipi to'liq bajarilishi kelib chiqadi. U holda qo'zg'almas nuqta mavjudligi to'g'risidagi Banax teoremasiga ko'ra (25) tenglamaning yagona yechimi mavjud bo'ladi. Shuning uchun (16)–(19) tenglamalar sistemasini ketma-ket yaqinlashishlar usulidan foydalanib, biz $H^{l+2, (l+2)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^n)$ sinfga qarashli yagona yechimini aniqlaymiz. **Teorema isbotlandi.**

$h(t) = r_t(t)$ belgilashga ko'ra $r(t)$ funksiyaning hosilasi $h(t)$ orqali

$$r(t) = r(0) + \int_0^t h(\tau)d\tau,$$

formula yordamida topiladi, bu yerda $r(0)$ (9) tenglikka ko'ra ma'lum funksiya. (5) integral tenglamadan $k(t)$ yagona ko'rinishda aniqlanadi. Shuning uchun yuqorida isbotlangan teorema va shartlardan (1)–(3) masalaning yagona $\vartheta(x, t) \in H^{l+6, (l+6)/2}(\overline{\mathbb{R}}_T^n)$, $k(t) \in [0, T]$ yechimga ekanligi kelib chiqadi.

1. Prilepko A.I., Kostin A.B. *On inverse problems of determining a coefficient in parabolic equation* // *Siberian Math. J.*, 1993. vol. 34. no. 5. pp. 923-937.
2. Ладыженская О.А., Солонников В.А., Уралъцева Н.Н., *Линейные и квазилинейные уравнения параболического типа*. // Москва: Наука, 1967;
3. Колмогоров А.Н., Фомин С.В., *Элементы теории функций и функционального анализа*, Москва: Наука 1976;
4. Безнощенко Н. Я., *Об определении коэффициента в параболическом уравнении*, Дифференц. уравнения, 1974, том 10, номер 1, 24-35;
5. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., *On investigation of the inverse problem for a parabolic integrodifferential equation with a variable coefficient of thermal Conductivity* // *Vestnik Udmurtskogo Universiteta*. 2020, vol. 30, issue 4, pp. 572-584
6. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., *Determination of a Multidimensional Kernel in Some Parabolic Integro-differential Equation* // *Journal of Siberian Federal University. Mathematics physics* 2021, 14(1), 117-127.
7. Nuriddinov J.Z., *The problem of determining the kernel of the integro-differential heat equation with a variable coefficient* // *Uzbek Mathematical Journal* 1 (2020) p. 103-110.
8. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., *Kernel determining problem in the integro-differential heat equation with a variable thermal conductivity* // *Bulletin of the Institute of Mathematics*. 3(2020) p.15-26.
9. Нуриддинов Ж.З., *Эквивалентная система интегральных уравнений для одной обратной задачи для интегро-дифференциального уравнения теплопроводности*, *Научный Вестник Бухарского государственного университета*, №4 (2019), стр. 64-68.
10. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., Nuriddinov, *Inverse problem for integro-differential heat equation with a variable coefficient of thermal conductivity*, *Scientific reports of Bukhara State University*, 2020, 5(81) p. 3-12.
11. Дурдиев Д.К., Рашидов А.Ш. *Обратная задача определения ядра в одном интегро-дифференциальном уравнении параболического типа* // *Диф. уравнения*. 2014. Т. 50, № 1. С. 110-116.

UCH O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELING
XOS QIYMATLARI HAQIDA

Sayliyeva Gulrux Rustam qizi,

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

g.r.saylieva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada uch o'lchamli qo'zg'alishga ega bo'lgan $h_{\mu,\lambda}$, $\mu, \lambda > 0$ umumlashgan Fridrixs modelining xos qiymatlari o'rganilgan. Dastlab $h_{\mu,\lambda}$ operatorning muhim spektri mashhur Veyl teoremasidan foydalanib aniqlangan, so'ngra uning diskret spektri tahlil qilingan. $h_{\mu,\lambda}$ operator xos qiymatlarini o'rganish masalasi bir va ikki o'lchamli qo'zg'alishga ega operatorlarning xos qiymatlarini o'rganish masalasiga keltirilgan. Qurilgan yordamchi operatorlar xos qiymatlarining mavjudlik shartlari topilgan.

Kalit so'zlar: umumlashgan Fridrixs modeli, qo'zg'alish operatori, muhim spektr, Fredholm determinanti, diskret spektr.

Abstract. In this article, the eigenvalues of the generalized Friedrichs model $h_{\mu,\lambda}$, $\mu, \lambda > 0$ with perturbation of rank three are studied. First, the essential spectrum of the operator $h_{\mu,\lambda}$ was determined using the famous Weyl's theorem, and then its discrete spectrum was analyzed. The problem of the investigation of the eigenvalues of the operator $h_{\mu,\lambda}$ is reduced to the study of the eigenvalues of the operators with perturbation rank one and two. The existence conditions for the eigenvalues of the constructed auxiliary operators.

Keywords: generalized Friedrichs model, perturbation operator, essential spectrum, Fredholm determinant, discrete spectrum.

Аннотация. В данной статье исследуются собственные значения обобщённой модели Фридрихса $h_{\mu,\lambda}$, $\mu, \lambda > 0$ с трёхмерным возмущением. Сначала определяется его существенный спектр с помощью знаменитой теоремы Вейля, а затем анализируется его дискретный спектр. Задача исследования собственных значений оператора $h_{\mu,\lambda}$ приведена к изучению собственных значений операторов с одномерным и двумерным возмущением. Найдены условия существования собственных значений построенных вспомогательных операторов.

Ключевые слова: обобщённая модель Фридрихса, оператор возмущения, существенный спектр, определитель Фредгольма, дискретный спектр.

Kirish. Kvant mexanikasi, statistik mexanika, gidrodinamika va ko'plab sohalarida Fridrixs modeli va umumlashgan Fridrixs modeli deb ataluvchi operatorlar uchrab turadi. Bunday turdagi operatorlar xos qiymatlari soni, joylashuv o'rni va ularning mavjudlik shartlarini aniqlash operatorlar nazariyasining ko'p o'rganiladigan obyektlaridan hisoblanadi. Mazkur maqolada Fok fazosining qirg'ilgan ikki zarrachali qism fazosida ta'sir qiluvchi umumlashgan Fridrixs modeli qaraladi. Bu model chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'lib, panjaradagi soni saqlanmaydigan va ikkitadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos keladi. U ikkinchi tartibli operatorli matritsa ko'rinishiga ega. Birinchi diagonal elementi songa ko'paytirish operatori, ikkinchi diagonal element esa bir o'lchamli qo'zg'alishga ega Fridrixs modelidir. Diagonal bo'lmagan elementlari zamonaviy matematik fizikaga paydo qilish va yo'qotish operatorlari deyiladi.

Ta'kidlash lozimki, uch zarrachali diskret Shryodinger operatorlarning muhim va diskret spektrlarini tadqiq qilishda ikki zarrachali diskret Shryodinger operatori muhim ahamiyat kasb etadi. Panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos uchinchi tartibli operatorli matritsalarining muhim va diskret spektrlarini tavsiflashda ikki zarrachali diskret Shryodinger operatori rolini umumlashgan Fridrixs modeli o'ynaydi. Bunday operatorli matritsalar uchun uch zarrachali diskret Shryodinger operatori uchun o'rinni bo'lgan xossalari ko'plab ishlarda o'rganilgan. Uch zarrachali diskret

Shryodinger operatori uchun o‘rinli bo‘lmagan “ikki yoqlama Yefimov hodisa”si operatorli matritsalar uchun o‘rinli bo‘lishini [1,2] ishlarda o‘rganilgan hamda xos qiymatlar soni uchun asimptotik formula topilgan. Bunda umumlashgan Fridriks modeli uchun muhim spektrning chap va o‘ng chegaralari bir vaqtda xos qiymat yoki virtual sath bo‘lish shartlari [3,4] ishlarda tahlil qilingan. O‘rganilgan model ikki o‘lchamli qo‘zg‘alishga ega ekanligini qayd qilish lozim.

\mathbb{C} kompleks sonlar maydoni, $L_2(\mathbb{T})$ bir o‘lchamli $\mathbb{T} = (-\pi; \pi]$ torda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (kompleks qiymatli) funksiyalarning Gilbert fazosi bo‘lsin. $\mathcal{H}_0 := \mathbb{C}$ va $\mathcal{H}_1 := L_2(\mathbb{T})$ fazolarning to‘g‘ri yig‘indisidan tashkil topgan $\mathcal{H} := \mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ Gilbert fazosida quyidagi operatorli matritsani qaraymiz:

$$h_{\mu,\lambda} := \begin{pmatrix} h_{00} & \mu h_{01} \\ \mu h_{01}^* & h_{11}^0 - \lambda v \end{pmatrix}. \quad (1)$$

Odatda bu operatorli matritsaga umumlashgan Fridriks modeli deb ataladi. Bu yerda μ, λ -nomanfiy haqiqiy sonlar, $h_{\mu,\lambda}$ operatorli matritsaning $h_{ij}: \mathcal{H}_j \rightarrow \mathcal{H}_i, i \leq j, i = 0, 1$ va v elementlari quyidagicha aniqlangan:

$$\begin{aligned} h_{00}f_0 &= \varepsilon f_0, & h_{01}f_1 &= \int_{\mathbb{T}} \sin t f_1(t) dt, \\ (h_{11}^0 f_1)(x) &= (a + 1 - \cos(2x))f_1(x), \\ (vf_1)(x) &= \cos x \int_{\mathbb{T}} \cos t f_1(t) dt. \end{aligned} \quad (2)$$

Bu yerda ε va a fiksirlangan haqiqiy sonlar, $f_i \in \mathcal{H}_i, i = 0, 1, h_{01}^*$ operator h_{01} operatorga qo‘shma operator. Sodda hisoblashlar yordamida

$$(h_{01}^* f_0)(x) = \sin x \cdot f_0, f_0 \in \mathcal{H}_0$$

ekanligini hosil qilamiz. Funktsional analiz elementlaridan foydalanib, $h_{\mu,\lambda}$ umumlashgan Fridriks modelining chiziqli chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma operator ekanligi tekshiriladi.

Umumlashgan Fridriks modelining xos qiymatlari.

Ta’kidlash joizki, $h_{0,0}$ operatorli matritsaga $h_{\mu,\lambda}$ umumlashgan Fridriks modelining qo‘zg‘almas operatori deyiladi. $h_{0,0}$ operatorning qo‘zg‘alish operatori uch o‘lchamli operatorli matritsa bo‘ladi. Chekli o‘lchamli qo‘zg‘alishlarda muhim spektrning o‘zgarasligi haqidagi mashhur Veyl teoremasiga asosan $h_{\mu,\lambda}$ umumlashgan Fridriks modelining muhim spektri $h_{0,0}$ operatorli matritsaning muhim spektriga teng bo‘ladi, ya’ni $\sigma_{\text{ess}}(h_{\mu,\lambda}) = \sigma_{\text{ess}}(h_{0,0})$. Aniqlanishiga ko‘ra, $h_{0,0}$ operatorli matritsaning muhim spektri $u(x) = a + 1 - \cos(2x)$ funksiyaning qiymatlar to‘plamidan iborat. Shu sababli $\sigma_{\text{ess}}(h_{0,0}) = [a, a + 2]$ bo‘ladi. Demak $\sigma_{\text{ess}}(h_{\mu,\lambda}) = [a, a + 2]$ tenglik o‘rinli ekan. Endi $h_{\mu,\lambda}$ umumlashgan Fridriks modelining diskret spektrini o‘rganish maqsadida mos ravishda \mathcal{H} va \mathcal{H}_1 Gilbert fazolarida

$$h_{\mu}^{(1)} := \begin{pmatrix} h_{00} & \mu h_{01} \\ \mu h_{01}^* & h_{11}^0 \end{pmatrix}, \quad h_{\lambda}^{(2)} := h_{11}^0 - \lambda v \quad (3)$$

kabi aniqlangan operatorlarni qaraymiz. $\mathbb{C} \setminus [a, a + 2]$ sohada aniqlangan ushbu:

$$\begin{aligned} \Delta_{\mu}^{(1)}(z) &:= \varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \\ \Delta_{\lambda}^{(2)}(z) &:= 1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\cos^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \end{aligned}$$

funksiyalarni qaraymiz. Odatda bu funksiyalarga mos ravishda $h_{\mu}^{(1)}$ va $h_{\lambda}^{(2)}$ operatorlari uchun Fredgolm determinantlari deyiladi [5].

Quyidagi lemma $h_{\mu}^{(1)}$ operatorning xos qiymatlari va $\Delta_{\mu}^{(1)}(\cdot)$ funksiyaning nollari orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi.

1-lemma. $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ soni $h_{\mu}^{(1)}$ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun $\Delta_{\mu}^{(1)}(z) = 0$ tenglikning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Isbot. Zaruriyligi. Faraz qilaylik, $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ soni $h_{\mu}^{(1)}$ operatorning xos qiymati, $f = (f_0, f_1) \in \mathcal{H}$ unga mos xos vektor-funksiya bo'lsin. U holda f_0 va f_1 elementlar

$$\begin{cases} (\varepsilon - z)f_0 + \mu \int_{\mathbb{T}} \sin t f_1(t) dt = 0 \\ \mu \sin x f_0 + (a + 1 - \cos(2x) - z)f_1(x) = 0 \end{cases} \quad (4)$$

tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi. $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ ekanligidan barcha $x \in \mathbb{T}$ lar uchun ushbu munosabat bajarilishini hosil qilamiz.

$$a + 1 - \cos(2x) - z \neq 0 \quad (5)$$

(4) tenglamalar sistemasining ikkinchi tengligidan $f_1(x)$ uchun

$$f_1(x) = -\frac{\mu \sin x f_0}{a + 1 - \cos(2x) - z} \quad (6)$$

ifodani hosil qilamiz. $f_1(x)$ uchun topilgan (6) ifodani (4) tenglamalar sistemasining birinchi tengligiga qo'yib,

$$\left[\varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right] f_0 = 0 \quad (7)$$

tenglikni hosil qilamiz. Agar (7)-tenglikda $f_0 = 0$ bo'lsa, u holda (6)-ifodaga ko'ra $f_1(x) = 0$ bo'lishi kelib chiqadi. Bu esa $f = (f_0, f_1)$ ning z xos qiymatga mos xos-vektor funksiyasi bo'lishiga ziddir. Shu sababli

$$\varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} = 0$$

tenglik bajarilishi kelib chiqadi. Ya'ni $\Delta_{\mu}^{(1)}(z) = 0$.

Yetarliligi. Faraz qilaylik, biror $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ soni uchun $\Delta_{\mu}^{(1)}(z) = 0$ tenglik o'rinli bo'lsin. U holda f_0 va f_1 koordinatalari (6)-munosabat bilan bog'langan $f = (f_0, f_1)$, ($f = \text{const} \neq 0$) vektor-funksiya $h_{\mu}^{(1)} f = z f$ (8)

tenglikni qanoatlantiradi va $f \in \mathcal{H}$ munosabat bajariladi. Shu sababli ta'rifga ko'ra $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ soni $h_{\mu}^{(1)}$ operatorning xos qiymati bo'ladi. Lemma isbotlandi.

Endi $h_{\lambda}^{(2)}$ operatorning xos qiymati va $\Delta_{\lambda}^{(2)}(\cdot)$ funksiyaning nollari orasidagi bog'lanishni ifodalovchi tasdiqni keltiramiz.

2-lemma. $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ soni $h_{\lambda}^{(2)}$ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun $\Delta_{\lambda}^{(2)}(z) = 0$ tenglikning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Isbot. Zaruriyligi. Faraz qilaylik, $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a+2]$ soni $h_{\lambda}^{(2)}$ operator uchun xos qiymat, $f_1 \in \mathcal{H}_1$ esa z xos qiymatga mos xos funksiya bo'lsin. U holda f_1 funksiya

$$(a + 1 - \cos(2x) - z) f_1(x) - \lambda \cos x \int_{\mathbb{T}} \cos t f_1(t) dt = 0 \quad (9)$$

tenglikni qanoatlantiradi. Ushbu

$$C = \int_{\mathbb{T}} \cos t f_1(t) dt \quad (10)$$

belgilashni kiritamiz. U holda (5)-munosabatni inobatga olib, (9)-tenglikdan $f_1(x)$ uchun

$$f_1(x) = \frac{C \cos x}{a + 2 - \cos(2x) - z} \quad (11)$$

ifodani hosil qilamiz. $f_1(x)$ uchun topilgan (11)-ifodani (10)-belgilashga qo'yib,

$$\left[1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\cos^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right] C = 0 \quad (12)$$

tenglikni hosil qilamiz. Agar oxirgi tenglikda $C = 0$ bo'lsa, u holda (11)-munosabatdan $f_1(x) = 0$ bo'lishi kelib chiqadi. Bu esa $f_1(x)$ ning z xos qiymatga mos xos funksiyasi bo'lishiga ziddir. Shu sababli

$$1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\cos^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} = 0$$

tenglik bajariladi. Ya'ni $\Delta_\lambda^{(2)}(z) = 0$.

Yetarligi. Faraz qilaylik, biror $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a + 2]$ soni uchun $\Delta_\lambda^{(2)}(z) = 0$ tenglik o'rinli bo'lsin. U holda (11)-tenglik yordamida aniqlangan $f_1(x)$ funksiya $h_\lambda^{(2)} f_1 = z f_1$ tenglikni qanoatlantiradi va $f_1 \in \mathcal{H}_1$ munosabat bajariladi. Shu sababli $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a + 2]$ son $h_\lambda^{(2)}$ operatorning xos qiymati bo'ladi. Lemma isbotlandi.

Quyidagi teorema $h_{\mu,\lambda}$ hamda $h_\mu^{(1)}$ va $h_\lambda^{(2)}$ operatorlar xos qiymatlari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

1-teorema. $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a + 2]$ soni $h_{\mu,\lambda}$ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun bu z soni uning $h_\mu^{(1)}$ va $h_\lambda^{(2)}$ operatorlardan kamida bittasining xos qiymati bo'lishi zarur va yetarlidir.

Isbot. Faraz qilaylik, biror $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a + 2]$ soni $h_{\mu,\lambda}$ operatorning xos qiymati va $(f_0, f_1) \in \mathcal{H}$ unga mos xos vektor-funksiya bo'lsin. U holda f_0 va f_1 elementlar quyidagi tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi:

$$\begin{cases} (\varepsilon - z) f_0 + \frac{\mu}{\sqrt{2}} \int_{\mathbb{T}} \sin t f_1(t) dt = 0; \\ \mu \sin x f_0 + (a + 1 - \cos(2x) - z) f_1(x) - \lambda \cos x \int_{\mathbb{T}} \cos t f_1(t) dt = 0. \end{cases} \quad (13)$$

Yuqoridagi (10)-belgilashdan foydalanib, (13)-tenglamalar sistemasining ikkinchi tenglamasidan $f_1(x)$ uchun

$$f_1(x) = \frac{\lambda \cos x C}{a + 2 - \cos(2x) - z} - \frac{\mu \sin(x) f_0}{a + 2 - \cos(2x) - z} \quad (14)$$

ifodani hosil qilamiz.

$f_1(x)$ uchun topilgan (14)-ifodani (13)-sistemaning birinchi tenglamasiga qo'yamiz hamda (10)-belgilashdan foydalanamiz. U holda

$$\begin{cases} \left(\varepsilon - z - \frac{\mu^2}{\sqrt{2}} \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right) f_0 + C \frac{\mu \lambda}{\sqrt{2}} \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin t \cos t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} = 0 \\ \mu \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin t \cos t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} f_0 + C \left(1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\cos^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right) = 0 \end{cases} \quad (15)$$

tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi. (15)-tenglamalar sistemasi tarkibidagi ushbu

$$I(z) = \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin t \cos t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \quad (16)$$

integralda integral osti funksiyasi toq funksiya bo'lganligi sababli uning nolga nisbatan simmetrik oraliq bo'yicha integrali nolga teng, ya'ni $I(z) = 0$.

U holda (15)-tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\begin{cases} \left(\varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right) f_0 = 0 \\ \left(1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\cos^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right) C = 0 \end{cases} \quad (17)$$

(17)-tenglamalar sistemasi nolmas yechimga ega bo'lishi uchun

$$\left(\varepsilon - z - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right) \times \left(1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\cos^2 t dt}{a + 1 - \cos(2t) - z} \right) = 0$$

ya'ni $\Delta_{\mu}^{(1)}(z) \cdot \Delta_{\lambda}^{(2)}(z) = 0$ bo'lishi zarur va yetarlidir. Bundan $z \in \mathbb{C} \setminus [a, a + 2]$ soni

$h_{\mu, \lambda}$ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun $\Delta_{\mu}^{(1)}(z) = 0$ va $\Delta_{\lambda}^{(2)}(z) = 0$ tengliklarning kamida bittasining bajarilishi zarur va yetarli ekanligini hosil qilamiz.

$h_{\mu}^{(1)}$ operatorning xos qiymatlar soni va joylashuv o'rnini aniqlash maqsadida quyidagi hisoblashlarni amalga oshiramiz. Dastlab, $\Delta_{\mu}^{(1)}(a)$ ni hisoblaymiz:

$$\Delta_{\mu}^{(1)}(a) = \varepsilon - a - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{1 - \cos(2t)} = \varepsilon - a - \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{2 \sin^2 t} = \varepsilon - a - \mu^2 \pi.$$

Ko'rinib turibdiki, agar $\varepsilon \leq a$ bo'lsa, u holda ixtiyoriy $\mu > 0$ uchun $\Delta_{\mu}^{(1)}(a) < a$ tengsizlik o'rinli. Shu sababli $\lim_{z \rightarrow -\infty} \Delta_{\mu}^{(1)}(z) = +\infty$ tenglikdan hamda $\Delta_{\mu}^{(1)}(\cdot)$ funksiyaning $(-\infty; a)$ oraliqda uzluksiz, monoton kamayuvchi ekanligidan $\Delta_{\mu}^{(1)}(\cdot)$ funksiya $(-\infty; a)$ oraliqda yagona nolga teng ekanligi kelib chiqadi. Demak, 1-lemmaga ko'ra ixtiyoriy $\mu > 0$ soni uchun $h_{\mu}^{(1)}$ operator $(-\infty; a)$ oraliqda yagona xos qiymatga ega bo'ladi. Faraz qilaylik, $\varepsilon > a$ bo'lsin. U holda ixtiyoriy $\mu \leq \sqrt{(\varepsilon - a)/\pi}$ lar uchun $h_{\mu}^{(1)}$ operator $(-\infty; a)$ oraliqda yotuvchi yagona xos qiymatga ega bo'ladi.

Endi $\Delta_{\mu}^{(1)}(a + 2)$ ni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \Delta_{\mu}^{(1)}(a + 2) &= \varepsilon - a - 2 + \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{1 - \cos(2t)} = \varepsilon - a - 2 + \mu^2 \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{2 \cos^2 t} = \\ &= \varepsilon - a - 2 + \frac{\mu^2}{2} \int_{\mathbb{T}} \operatorname{tg}^2 t dt \geq \varepsilon - a - 2 + \frac{\mu^2}{2} \int_{-\pi}^{\pi} \left(\frac{1}{\cos^2 t} - 1 \right) dt = +\infty \end{aligned}$$

Shu sababli ixtiyoriy $\mu > 0$ soni uchun $h_{\mu}^{(1)}$ operator $a + 2$ dan o'ngda yotuvchi yagona xos qiymatga ega.

$h_{\lambda}^{(2)}$ operatorning xos qiymatlarini o'rganish maqsadida $\Delta_{\lambda}^{(2)}(a)$ ni hisoblaymiz:

$$\Delta_{\lambda}^{(2)}(a) = 1 - \lambda \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2 t dt}{1 - \cos(2t)} = 1 - \frac{\lambda}{2} 2\pi = 1 - \lambda\pi.$$

Agar $\lambda \leq 1/\pi$ bo'lsa, u holda $\lim_{z \rightarrow +\infty} \Delta_\lambda^{(2)}(z) = 1$ tenglikdan hamda $\Delta_\lambda^{(2)}(\cdot)$ funksiyaning $(a; +\infty)$ oraliqda uzluksiz, monoton o'suvchi ekanligidan $h_\lambda^{(2)}$ operator a dan chapda yotuvchi xos qiymatlarga ega emas. Ixtiyoriy $\lambda > 1/\pi$ soni uchun $h_\lambda^{(2)}$ operator a dan chapda yotuvchi yagona xos qiymatga ega. $\Delta_\lambda^{(2)}(\cdot)$ funksiyaning aniqlanishiga ko'ra istalgan $z > a + 2$ uchun barcha $\lambda > 0$ soni uchun $\Delta_\lambda^{(2)}(z) > 1$ tengsizlik o'rinli. Bu esa o'z navbatida ixtiyoriy $\lambda > 0$ soni uchun $h_\lambda^{(2)}$ operator $a + 2$ dan chapda yotuvchi xos qiymatlarga ega emas.

Olingan natijalar hamda 1- va 2- lemmalarni inobatga olsak 1-teorema to'la isbot bo'ladi.

Xulosa. Ushbu maqolada ikkinchi tartibli operatorli matritsa ko'rinishdagi $h_{\mu,\lambda}$, $\mu, \lambda > 0$ umumlashgan Fridrixs modeli Fok fazosining qirg'ilgan ikki zarrachali qism fazosidagi chiziqli chegaralangan o'z-o'ziga qo'shma operator sifatida qaralgan. $h_{\mu,\lambda}$ operatorning muhim spektri topilgan. $h_{\mu,\lambda}$ operatorning xos qiymatlarini o'rganish masalasi nisbatan sodda ko'rinishga ega ikkita $h_\mu^{(1)}$ va $h_\lambda^{(2)}$ operatorlarning xos qiymatlarini o'rganish masalasiga keltirilgan hamda ular orasida bog'lanish o'rnatilgan. $h_\mu^{(1)}$ va $h_\lambda^{(2)}$ operatorlarga mos Fredgolv determinantlari qurilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Friedrichs K.O. *Über die Spectralzerlegung einer Integral operators*. *Math. Ann.*, **115:1** (1938), 249–272.
2. Friedrichs K.O. *On the perturbation of continuous spectra*. *Comm. Pure Appl. Math.*, **1:4** (1948), 361–406.
3. Лакаев С.Н., *Некоторые спектральные свойства модели Фридрихса*. *Труды сем.им. Петровского И.Г.*, **11** (1986), С. 210–238.
4. Абдуллаев Ж.И., Лакаев С.Н. *Асимптотика дискретного спектра разностного трёхчастичного оператора Шредингера на решётке*. *Теоретическая и математическая физика*, **136:2** (2003), С. 231–245.
5. Albeverio S., Lakaev S.N., Muminov Z.I. *Schroedinger operators on lattices. The Efimov effect and discrete spectrum asymptotics*. *Ann. Henri Poincare*. **5** (2004), P. 743–772.
6. Расулов Т.Х., Дилмуродов Э.Б. *Бесконечность числа собственных значений 2×2 – операторных матриц*. *Асимптотика дискретного спектра*. *Теоретическая и математическая физика*. **205:3** (2020), С. 368-390.
7. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. *Eigenvalues and virtual levels of a family of 2×2 operator matrices*. *Methods of Functional Analysis and Topology*. **25:3** (2019), P. 273–281.
8. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. *Analysis of the spectrum of a 2×2 operator matrix*. *Discrete spectrum asymptotics. Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics*. **11:2** (2020), P. 138–144.
9. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. *Estimates for the bounds of the essential spectrum of a 2×2 operator matrix*. *Contemporary Mathematics*. **1:4** (2020), P. 170–182.
10. Рид М., Саймон Б. *Методы современной математической физики*. Т. 4, *Анализ операторов*. - М., Мир, 1982, - 426 с.

TURBOGENERATORNING TEXNIK HOLATINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

To‘rayev Shovkat Dilshodovich,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi
sh.turayev@gmail.ru

Norqulov Usmon Elomonovich,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
u.norqulov@mail.ru

Nazarov Maxmanazar Murodulla o‘g‘li,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
m.nazarov@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada turbogenerator uskunalarning yuqori ishonchliligi sanoatni uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanligi yoritilgan. Energiya ishlab chiqarish amaliyotiga texnik tahlilni joriy etish ish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Dastlabki bosqichlarda rivojlanayotgan nuqsonlarni aniqlash natijasi majburiy uzilishlar soni va davomiyligini kamaytirish, xarajatlarni tejashdir.

Kalit so‘zlar: turbogenerator, po‘lat o‘zak, cho‘lg‘am, sovutgichlar, stator, rotor, kontakt halqalar, sterjen, paz, izolyatsiya.

Аннотация. В данной статье освещается тот факт, что высокая надёжность турбогенераторного оборудования является одним из основных факторов обеспечения бесперебойного электроснабжения отрасли. Внедрение технической диагностики в практику энергопроизводства значительно повышает качество работы. Результатом выявления пороков развития на начальных этапах является уменьшение количества и продолжительности вынужденных отключений, экономия средств.

Ключевые слова: турбогенератор, стальной сердечник, змеевик, охладители, статор, ротор, контактные кольца, стержень, клин, изоляция.

Abstract. This article covers the fact that the high reliability of Turbogenerator equipment is one of the main factors in ensuring uninterrupted power supply to the industry. The introduction of technical diagnostics into the practice of energy production significantly increases the quality of work. The result of identifying defects that develop in the early stages is a reduction in the number and duration of forced interruptions, cost savings.

Keywords: turbogenerator, steel core, coil, coolers, stator, rotor, contact rings, stern, wedge, insulation.

Kirish. Ish paytida Turbogenerator texnik holatining o'zgarishi turli xil operatsion omillarning ta'siri bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turbogenerator va uning xizmat ko'rsatish tizimlarining tarkibiy elementlarida fizik-kimyoviy jarayonlarning borishini aniqlaydi. Energiya ishlab chiqarish amaliyotiga texnik tahlilni joriy etish ish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Dastlabki bosqichlarda rivojlanayotgan nuqsonlarni aniqlash natijasi majburiy uzilishlar soni va davomiyligini kamaytirish, xarajatlarni tejashdir.

Hozirgi vaqtda turbogeneratorning texnik holatini nazorat qilish odatda mashinaning eng muhim tarkibiy qismlarining haroratini nazorat qilish uchun kamayadi: chulg'amlar, yadro po'latlari, sovutgichlar va boshqalar. Bundan tashqari, operator mashinani to'xtatish, yukni cheklash va hokazolar to'g'risida qaror qabul qilishi kerak. turli xil tizimlardan boshqaruv paneliga keladigan ma'lumotlarning katta toki bilan uni noto'g'ri talqin qilish va natijada operator tomonidan noto'g'ri qaror qabul qilish ehtimoli katta, bu jiddiy baxtsiz hodisalar va qimmat ta'mirlarga olib kelishi mumkin. Kuchli turbogeneratorlarni ishlatish amaliyotida bunday hodisalarga misollar yetarli. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, standart boshqaruv tizimlaridan kelib chiqadigan operatsion ma'lumotlardan oqilona foydalanish va maqsadli qayta ishlash mashinaning faol elementlarining texnik holatini ob'ektiv baholashga, ularning qoldiq resurslarini aniqlashga va ta'mirlash va tiklash ishlarini Real holatga ko'ra rejalashtirishga imkon beradi. Bu elektr stantsiyalarining energiya bloklarining elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning

ilg'or texnologiyasiga o'tishning birinchi bosqichi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, uning haqiqiy texnik holatiga ko'ra, uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish vaqtincha jadvalga muvofiq amalga oshiriladi.

Metod qismi. Turbogenerator va uning tizimlarining texnik holatini baholash metodologiyasi, mashinaning standart boshqaruv vositalaridan kelib chiqadigan operatsion ma'lumotlarni maqsadli qayta ishlashga asoslangan bo'lib, bu quyidagilarga imkon beradi:

- * turbogeneratorning standart issiqlik nazorati tizimining qarshilik termometrlarini aniqlang, ularning ko'rsatkichlari biron bir sababga ko'ra (termometrning shikastlanishi, aloqa kanallari va boshqalar) ishonchsiz bo'lib, ularni almashtirish yoki ta'mirlashni talab qiladi;

- * generator sovutish tizimining ish sifatini baholash: gaz sovutgichlari, distillat issiqlik almashinuvchilari, umumiy gazni sovutish tizimlari;

- * turbogenerator stator chulg'amini issiqlik holatini baholash;

- * generator stator chulg'amini termal kamchiliklarini aniqlash;

- * turbogenerator stator yadrosining issiqlik holatini baholash;

- * turbogenerator rotor chulg'amini issiqlik holatini baholash;


- * sovutish tizimining havo sovutgichlarining ish sifatini tekshiring.

Turbogeneratorning texnik holatini ekspluatatsion baholash tahlil parametrlarini tahlil qilish natijalari asosida amalga oshiriladi va ikkinchisining joriy qiymatlarini ishga tushirish sinovlari paytida yoki oxirgi ta'mirdan so'ng darhol yaxshi ishlaydigan mashinada olingan dastlabki (asosiy) qiymatlar bilan taqqoslashdan iborat. Taqqoslash joriy va boshlang'ich qiymatlarning ruxsat etilgan farqlari uchun qabul qilingan standartlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.


Matematik model asosida turbogenerator qisqa tutashirilgan chulg'amining tahlili

Boshlan'ich va chegaraviy shartlarga ega bo'lgan o'lchovsiz holdagi (2) tenglamalar tizimi chekli ayirmalar usuli va oshkor sxema yordamida yechildi.

(2) sistemadagi ikkinchi va uchinchi tenglamalarini umumiy shaklda quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{\partial z}{\partial t} + u \frac{\partial z}{\partial x} + \vartheta \frac{\partial z}{\partial y} = \frac{1}{K} \frac{\partial^2 z}{\partial y^2} + Q \quad (3)$$

Bu yerda $Z = u$, $K = \sqrt{Gr}$, $Q = \theta \cdot \sin \varphi$ harakat nenglamasi uchun; $Z = \theta$, $K = Pr \sqrt{Gr}$ issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun.

Ko'rilayotgan sohani quyidagicha to'r bilan qoplaymiz:


$$D_n = \{x_i, y_j, t^n\},$$

Bu yerda $x_i = i\Delta x, 0 < i < N$; $y_j = j\Delta y, 0 < j < M$; $t^n = n\tau, 0 \leq n \leq T$; $\Delta x, \Delta y, \tau$ – gorizonta, vertikal yo'nalishlar bo'yicha nuqtalar orasidagi masofa. N, M, T – gorizonta va vertikal yo'nalishlar bo'yicha tugun nuqtalar soni.

(3) tenglamani chekli ayirmalarga o'tishda quyidagi formulalardan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial z}{\partial t} &= \frac{(z_{i,j}^{t+1} - z_{i,j}^t)}{\Delta t}, \\ g \frac{\partial z}{\partial x} &= g_{i,j}^n \frac{(z_{i,j}^n - z_{i-1,j}^n)}{\Delta x} + O(\Delta x), \\ g \frac{\partial z}{\partial y} &= g_{i,j}^n \frac{(z_{i,j}^n - z_{i,j-1}^n)}{\Delta y} + O(\Delta y), \\ \frac{1}{K} \frac{\partial^2 z}{\partial y^2} &= \frac{1}{K} \frac{z_{i,j+1}^n - 2z_{i,j}^n + z_{i,j-1}^n}{\Delta y^2} + O(\Delta y)^2, \end{aligned} \quad (4)$$

(4) formulalardan foydalangan holda oshkor sxema shabloni quyidagi ko'rinishga ega:




2-chizma. Oshkor sxema shabloni

(4) formulalar yordamida (3) tenglamadan quyidagi iteratsion formulani olamiz:

$$z_{i,j}^{n+1} = z_{i,j}^n - \frac{\Delta t}{\Delta x} z_{i,j}^n (z_{i+1,j}^n - z_{i,j}^n) - \frac{\Delta t}{\Delta y} z_{i,j}^n (z_{i,j+1}^n - z_{i,j}^n) + \frac{1}{K} \frac{\Delta t}{\Delta y^2} [z_{i,j+1}^n - 2z_{i,j}^n + z_{i,j-1}^n] \quad (5)$$


Natijalar. Ushbu algoritim bo'yicha ayrim natijalar grafiklarini keltiramiz [12].

3-chizmada Ikki vertikal manba temperaturalari bir xil bo'lganda turli balandliklarda tezlik va temperatura o'zgarishlari keltirilgan. Bunda simmetriya holati aniq ko'rinadi.



3-chizma. Manbalar temperaturasi teng bo'lganda sohaning turli balandliklarida tezlik va temperatura profillari

4-chizmada endi manbalar temperaturasi turli xil bo'lganda soha turli balandliklarida bo'ylama tezlik va temperatura profillari keltirilgan. Bunda simmetriyaning buzilgani yaqqol ko'rinmoqda.



4-chizma. Manbalar temperaturasi turlicha bo'lganda sohaning turli balandliklarida tezlik va temperatura profillari

Xulosa. Ushbu tadqiqotda ikki vertikal joylashgan issiqlik manbasi orasida tabiiy konveksiya hodisasini tadqiq qilish uchun nostasionar holatdagi chegaraviy qatlam tenglamalaridan foydalanildi.

Olingan natijalar shni ko'rsatdiki, sterjen temperaturasining o'sishi qatlam chegarasini oshishiga emas, balki kichikroq bo'lsa ham, kamayishiga olib kelmoqda. Buning sababi muhit zichligining kamayib ketishi va yuqoriga yo'nalgan harakatning paydo bo'lishidir. Muhitdagi temperaturaning oshishi yuqoriga yo'nalgan tezlik oshishiga olib kelmoqda, buni muhit zichligi kamayishi bilan izoshlash mumkin. muhit temperaturasi oshganda yuqoriga yo'nalgan tezlik qiymatlari ochiq sohadagiga qaraganda kattaroq. Buni temperaturaning ochiq sohaga tarqamasligi va muhiti zichligi kichrayib ketishi bilan izoshlash mumkin.

Muhitda tepaga ko'tarilgan sari parallel nuqtalarda temperatura qiymatlari oshib boradi. Ikki sterjenda temperatura farqi bo'lganda yuqori temperaturali sterjenyaqinida bo'ylama tezlik oshishi kuzatilyapti.

ADABIYOTLAR:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “Иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳанинг энергия самарадорлигини ошириши, энергия тежовчи технологияларни жорий этиши ва қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришининг тезкор чора тадбирлари тўғрисида”.* Тошкент, 22 август 2019 й. № ПП-4422// <http://www.lex.uz/docs/-3512871>.

2. Андерсон Д., Таннехилл Дж., Плетчер Р. *Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2-х томах.* - М: Мир, 1990. - 384 с.

3. Гебхарт Б., Джалурия Й., Махаджан Р.Л., Саммакия Б. *Свободно-конвективные течения, тепло и массообмен. Кн. 2.* - М.: Мир, 1991. - 678с.

4. Жумаев Ж., Усмонова Г. *Компьютерное моделирование процесса конвекции вблизи вертикально расположенного источника//Universum. Технические науки.* - 2020. Выпуск 5(74). Часть 1. С. 41-45. <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/9384>

5. Сивакумар В., Сивасанкаран С. *Смешанная конвекция в наклонной каверне с движущейся крышкой при неравномерном нагреве на боковых стенках//Прикладная механика и техническая физика.* - 2014, Т. 55, № 4. - С. 97-114.

6. Терехов В.И., Экаид А.Л. *Ламинарная свободная конвекция между вертикальными параллельными пластинами с различными температурами//Теплофизика и аэромеханика,* - 2012, том 19, № 4, - С. 415-430.

7. Шлихтинг Г. *Теория пограничного слоя.* - М: Наука, 1974. - 712 с.

8. Andreev V. K. and others. *Mathematical models of convection// Germany: De Gruyter, 2012.* — 437 p.

9. Jumayev J., Shirinov Z., Kuldoshev H. *Computer simulation of the convection process near a vertically located source// International conference on information Science and Communications Technologiyes (ICISCT) Conference Proceedings. (Tashkent, 4-6 november. 2019).* - pp.635-638. DOI:10.1109/ICISCT47635.2019.9012046

10. Jumayev J., Mustapakulov Ya., Kuldoshev H. *Numerical algorithm for modeling turbulence in a jet with diffusion combustion// 14th international Conference on Application of information and Communication technologiyes(AICT). Conference Proceedings.(Tashkent, 7-9 okt. 2020).* pp. 1-4. DOI 10.1109/AICT50176.2020.9368857.

11. Kaushik A. *Numerical Solutions for Free Convection Flow past a Vertical Cone using Alternating Direction Implicit (ADI) Technique. //International Journal of Research and Innovation in Applied Science (IJRIAS) | Volume V, Issue VI, - June 2020 P. 28-34.*

12. Жумаев Ж., Опокина Н.А. *Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Электронное учебное пособие, Казань: КФУ, 2021г. – 228с. <https://dSPACE.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784>*

Akramov Izzatulla Ikromovich,
Bukhara State University,
Researcher of the English linguistics department
i.i.akramov@buxdu.uz

Abstract:

Background. *In modern linguistics, more and more attention is paid to the study of aphorism as a phrasal text and a stable phrase. In this regard, it is especially relevant to analyze the properties of an aphorism that characterize it in various types of discourse and spheres of speech communication. The article presents an attempt to differentiate and describe various empirical understandings of the aphorism.*

Research methods. *The method employed in this research is a conceptual-representative method, which aimed at identifying concepts in dual function - both as operational units of consciousness and as meanings of linguistic signs.*

Results and discussions. *Pragmatic study of aphorisms of the Uzbek language helps to determine the units, structure, composition and units of analysis; the development of the principles of aphorisms in the Uzbek and English languages in the corpus serves as a source in linguistic modeling.*

Conclusion/Recommendations. *Presentation of aphorisms in Uzbek and English in the corpus plays a theoretical role in the development of the theoretical basis for the creation of a morphological analyzer of the Uzbek language and its linguistic support, the creation of research in the field of computer linguistics.*

Keywords: aphorism, phrasal text, stable phrase, communication, discourse, empirical qualification, differential sign.

Introduction. Aphorism as a verbal means of expressing general judgments and universal generalization of reality in the form of a phrase (phrasal text) has long been productively used in many types of discourse and spheres of speech communication used in various socio-cultural practices and individual fields of knowledge [1.148-152].

Aphorisms are found in the philosophical, didactic, religious discourses of ancient linguistic cultures (Egypt, China, Greece, India, etc.) Since ancient times, aphorisms have been common in the language of folklore and fiction, in religious, philosophical, scientific, legal, political, journalistic and other discourses, in the language of oral public speaking and in everyday speech. Within the framework of each type of discourse and the sphere of speech communication, their own empirical (from the point of view of native speakers) ideas about aphorism were formed at the time, which then formed the basis for its qualification in various branches of knowledge in terms of different scientific disciplines (theory of knowledge, philosophy, ethics, literary studies, rhetoric, linguistics, etc.) [1.117-122].

Research methods. However, the existing industry definitions of the aphorism do not fully and accurately reflect its characteristics (properties, signs) as a product and means of speech-thinking activity in certain types of discourse and spheres of communication (socio-cultural practices, fields of knowledge). The establishment of such characteristics (differential features) and the allocation on their basis of aspects of the empirical qualification of aphorism is an urgent task of both general aphoristic and linguistic theory of aphorism [2], since it will allow not only to explain modern empirical ideas about aphorism and to distinguish scientific directions of its study, but also to verify the differentiation of aphoristic units into common subject classes (scientific, philosophical, literary, journalistic, legal, folklore, etc.).

The purpose of the study is to establish and describe aspects and differential features of the empirical qualification of an aphorism as a verbal means of expressing general judgments and universal generalization of reality in the form of a phrase (phrasal text). Russian aphoristic units contained in written monuments, books of sayings, reflected in compilations of aphorisms from various textual sources and oral speech, recorded in reference publications — collections and dictionaries of sayings of different epochs and peoples in Russian, translated into Russian from different languages of the world, as well as in Latin, Uzbek, English served as the material for the study other languages. The total number of aphorisms studied is over 100,000 units from more than 300 handwritten and printed sources. The research methods are heuristic, descriptive, taxonomic, generalization, analysis and synthesis.

The empirical qualification of an aphorism should be understood as its comprehension within the framework of this kind of discourse or the sphere of speech communication used in a separate social or cultural practice, a field of knowledge (including scientific) as a verbal means of expressing general judgments and universal generalization of reality in the form of a phrase (phrasal text). Each particular empirical understanding of an aphorism can be considered as one of the aspects of its general empirical qualification within the framework of aphoristic as a field of knowledge about the use and study of an aphorism in all its substantive, formal and functional manifestations.

In modern aphoristics a number of aspects of empirical qualification (empirical understandings) of aphorism can be distinguished, which were formed at different times, arose and developed in various national (or international) traditions, under the influence of various cultural trends and social processes, within the paradigms of scientific knowledge and linguistic cultures. The most significant aspects of the empirical qualification of an aphorism are such empirical understandings as scientific-philosophical, literary-philosophical, religious-literary, literary-artistic, literary-journalistic, literary and folk-legal, folk-poetic, poetic-rhetorical, everyday-linguistic. Aspects of the empirical qualification of an aphorism are differentiated both by its use in a particular kind of discourse or the sphere of speech communication, and on the basis of a set of certain properties and functions (differential features) of an aphorism characteristic of its implementation as a verbal means within a given social or cultural practice, field of knowledge, etc.

The analysis of aphorisms contained in written monuments, books of sayings, compilations from various textual sources and oral speech recorded in collections and dictionaries of sayings of different epochs and peoples in Russian, Latin, English, German, French, Spanish and other languages has shown that there are nine most significant empirical understandings of aphorism as a verbal means of expression general judgments and universal generalization of reality in the form of a phrase (phrasal text).

Discussion. The scientific and philosophical understanding of the aphorism originated in ancient proto-scientific rationalism. In the form of aphorisms, the entire European pre—romantic philosophy of the VII-VI centuries BC is presented, to which the so-called "gnomic prose of the pre-philosophical tradition" primarily belongs Ancient Greece.

The first use of the term aphorism (gr. ἀφορισμός), as is known, belongs to Hippocrates, to whom the treatise "Παραγγεῖλαι καὶ ἀφορισμοί" is attributed (after 390 BC), consisting of more than 400 sayings and beginning with one of the most famous winged aphorisms in the world "Ὁ βίος βραχὺς (Latin Vita brevis), which subsequently became the subject of many comments and scientific studies [3]. Perhaps the treatise received its name later, thanks to numerous compilers, however, it reflected the usual practice of using other-Greek. ἀφορισμός in the meaning of 'definition' (from the verb ἀφορίζω to delimit, define) [4.233].

In Modern European thought, F. Bacon in his *Novum Organum* (1620) and other philosophical works first explicated the scientific and philosophical understanding of aphorism. For example, the final section of the 3rd chapter of the 8th book "De Dignitate et Augmentis Scientiarum" (1623) is entitled "A sample of a treatise on universal justice, or on the sources of law, in one chapter, in the form of aphorisms" and consists of 97 aphorisms.

In the next period, the scientific and philosophical understanding of the aphorism found its conceptual and empirical reflection in almost every paradigm of scientific and philosophical knowledge. Thus, such famous philosophical works as "Les Essais" (1580-1588) by M. Montaigne, "Cogitationes privatae" (?-1650) by R. Descartes, "Aphorismen" (1801-1807) were written entirely (or almost entirely) in the form of aphorisms and 1818-1831) by G.V.F. Hegel, "Aphorismen zur Lebensweisheit" (1851) by A. Schopenhauer, "Jenseits von gut und böse" (1886) by F. Nietzsche (section "Aphorismen und Intermedien"), "Apotheosis of Groundlessness" (1905) by L. Shestov, "Tractatus logicophilosophicum" (1921) by L. Wittgenstein and others. Aphorisms were often used as a means of expressing thoughts in the field of natural sciences and humanities, for example, in chemistry "Aphorismen aus der chemischen Physiologie der Pflanzen" (1794) by A. von Humboldt, medicine "Aphorisms, or the Main foundations of physiology, pathology and therapy" (translated into Russian 1824) by F.J.V. Brousset, "Aphorisms about Cholera" (1848) by P.F. Goryaninov, stories "Aphorisms and thoughts about History" ([1891-1911] 1968) by V.O. Klyuchevsky, etc. Linguistic scientific works were also called aphorisms, of which the most famous (in Slavic languages) acquired "Linguistic notes and Aphorisms" (1903) by I.A. Baudouin de Courtenay.

The most essential features of a scientific and philosophical aphorism are its substantial synthesis (generalization) as a means of thinking and speech, accuracy in explanation and verbal expression general concepts and facts of reality, logic in defining and generalizing the connections between them, the obligatory pursuit of truth. According to V.I. Vernadsky's apt remark, "scientific, logically correctly done actions are

valid only because science has its own definite structure and that there exists in it the field of facts and generalizations, scientific, empirically established facts and empirically obtained generalizations, which in their essence cannot be really challenged" [5.93-94]. In this sense, aphorism is one of the most productive verbal means of both the language of science and philosophical discourse.

To date, the use and understanding of the term aphorism in the meaning of "scientific principle" has been preserved (for example, in English), aphorisms are widely used as a verbal means of expressing, transmitting and storing scientific and philosophical thought [6.5]. In its current understanding, the concept of aphorism extends to the expression of a universal generalization of reality in the form of a phrase (phrasal text) in philosophical systems that developed outside the European tradition (Chinese, Indian, Arabic philosophical thought, etc.). One should distinguish from the use of aphoristic units in scientific speech (as the main means of expressing scientific and philosophical knowledge), on the one hand, the compilation of aphorisms from scientific and philosophical works in order to summarize certain theories, positions, views of various authors [2.10], and on the other hand, the appeal to aphorisms as factual material for the presentation of scientific or philosophical thought for popular or educational purposes [2.13].

The literary and philosophical understanding of the aphorism goes back to the ancient philosophical-moralizing and didactic literature of Egypt, China and India, the ancient literary tradition. Its heyday occurred in the XVII—XVIII centuries, which were characterized by the cult of "universal reason and complete form" [10.44], as well as at the end of the XIX — beginning of the XX century — the period of denial of the "steadfastness" of existing principles and laws of being. With this understanding of the aphorism, the main thing in the search for the essential and universal in the innumerable variety of particular phenomena of life is a deep and comprehensive understanding of reality from the point of view of universal or individual (as no less significant) spiritual experience. In this case, the aphorism is considered as a universal means of cognition and formulation of the laws and norms of being of man and nature, including in their ethnic or moralizing interpretation.

In the history of Western European literature, the concept and term aphorism were first explicated by the Spanish writer B. Gracian (1601-1658) in his book of aphorisms "Oraculo Manual, y Arte de Prudencia Sacada de los Aforismos Quese Discurre En las obras de Lorenzo Gracian" (1647). Thanks to this, the term aphorism has become widely used along with the long-known terms maxim and apoph(t)egma, as well as maxim (meaning "generalized statement of ethical content"), paradox (meaning "generalized witty statement, the content of which contradicts the generally accepted opinion"), however, it is often replaced by the terms common to all of them, sayings, thoughts (reflections), judgments, reflections, etc.

During the enlightenment of the literary and philosophical genre of aphorisms, such classic examples as "Reflexions ou sentences et maximes" were created morales" (1665) by F. de La Rochefoucauld, "Pensées" ([?-1662] 1669) by B. Pascal, "Caractères ou les moeurs de ce siècle" (1686) by J. de Labruyer, "Aphorismen" (1764-1799) by G.K. Lichtenberg, "Introduction a la connaissance de l'espit humain" and "Fragments and Reflexions et maximes" ([1746-1747] by L. de Clapier Vauvenargues, "Produits de la Civilisation perfectionnée. Maximes et pensées. Caractères et Anecdotes" (1795) N.S. de Chamfort et al. At the end of the XIX — early XX century, the books of aphorisms "Bose weisheit. Aphorismen und spruche" (1882-1885) by F. Nietzsche, "Reading Circle" ("Круг чтения") (1904-1908) and "For Every Day" ("На каждый день") (1906-1910) by L. Tolstoy, "Sprüche und die Widersprüche" (1909) and "Literatur und die Lüge" (1929) by K. Kraus, "Rhumbs" (1926) and "Les Autres Rhumbs" (1934) P. Valery.

Aphorisms should be distinguished from the literary genre of aphorisms, which were never created by their authors in the form of separate works, but were used in texts of other literary genres, from which they were subsequently isolated, systematized and published in the form of collections (as a rule, without the participation of the authors themselves). An aphorism included in the text of a literary work is directly or it is indirectly related to the context, therefore it is not always adequately understood outside the work (especially in cases when it is put into the mouth of a literary personage [5.11]). An aphorism created as a separate work does not require any other texts for its understanding, although it can appeal to their content (including other aphorisms as a literary genre), contradict them, argue them, supplement them, comment, etc.

The use of aphorism as a stylistic means was known to European literature in antiquity. Thus, the poem "Ἔργα καὶ Ἡμέραι" by Hesiod (VIII—VIII BC) consists mainly of teachings, advice and warnings, mainly in the form of sayings of generalized content ("eternal truths"), which are used as a means of convincing the reader that work and its material benefits are the real meaning of human life. Aphorisms are found in many monuments of medieval European literature, starting with the Old English epic poem "Beowulf" (late VII — early VIII century) [5.15] and ending with "The Canterbury Tales" (late XIV

century) by J. Chaucer. One of the most famous examples of the inclusion of aphorisms in a literary text in the literature of the Middle Ages is the widely known work of the Spanish writer X. Manuel's "El Libro de los Enxiemplos del Conde Lucanor et de Patronio" (1335), consisting of five books, where the 2nd, 3rd and 4th books are collections of sayings on the themes of the 51st novella, placed in the first book. Aphorism as a verbal means of expressing thoughts of generalized philosophical content was addressed in their works by all the classics of world literature, most of whom were not aphorist writers (they never created or published books of aphorisms as a literary genre). Aphorisms included in the literary text become widely known and acquire a "second life" thanks to the long tradition of extracting them from the context and collecting them in the form of separate books. This tradition originated in antiquity. The most famous compilation of that time is "Menandri sententiae", a collection of poetic sayings extracted by Menander (about 343 — about 291 BC) from the works of ancient Greek playwrights. This collection was very popular in the ancient world and medieval Europe (it was also translated into Old Slavonic).

Conclusion. The pragmatic understanding of an aphorism as a verbal means of expressing general judgments and universal generalization of reality in the form of a phrase (phrasal text) implies its comprehension by native speakers within a particular kind of discourse, the sphere of speech communication used in a particular social or cultural practice, a field of knowledge (including scientific). The observational understanding of the aphorism is characterized by a high degree of heterogeneity due to significant differences in the chronology of its formation and development, the influence of various national (or international) traditions, various cultural trends and social processes, paradigms of scientific knowledge and linguistic cultures. The empirical understanding of aphorism in modern European aphoristics is differentiated into nine most significant aspects: scientific and philosophical, Literary-philosophical, religious-literary, literary-artistic, literary-journalistic, literary- and national-legal, folk-poetic, poetic-rhetorical, everyday-linguistic. Each aspect of the pragmatic understanding of an aphorism is based on its specific properties and functions (differential features) characteristic of the implementation of an aphorism as a verbal means within the framework of a given social or cultural practice, field of knowledge, etc.

REFERENCES:

1. Akhmedova, S. K. (2021). *Comparative analysis of epic helpers in english and uzbek folklore*. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 91-99. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss3/9/>
2. Akramov, I.I. (2022). *The special the special characteristics of the aphorisms of the aphorisms*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 12(12). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6448
3. Akramov.I.I.(2022). *Linguistic Simplicity of Aphorisms in English and Uzbek*. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12) <https://www.cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/633>
4. Gadoeva M.I. *The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research.—Sweden, 2021. — P. 36-41.* <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm>
5. Ivanov E. *Aphorism as a Unit of Language and Speech // EUROPHRAS 2016: Word Combinations in the Linguistic System and Language Use: Theoretical, Methodological and Integrated Approaches, Trier, August 1—3, 2016: Abstracts. Trier, 2016. P. 42.*
6. Rasulov, Z. (2021). *Reduction as the way of the language economy manifestation*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 1(1) http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
7. Rasulov, Z. (2022). *So'z birikmasining axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 25(25). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8363
8. Sulaymonovna, Q. N. (2022). *Frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari*. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(12), 354-361. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/137>
9. *The wisdom of the Quran*. (2008). Moscow: AST; Astrel. (In Russ.).
10. Вейсмань А.Д. *Греческо-русский словарь*. 5-е изд. СПб., 1899.
11. Вернадский В.И. *Научная мысль как планетное явление*. М.: Наука, 1991.
12. Иванов Е.Е. *Лингвистика афоризма*. Минск: Высшая школа, 2018.
13. Логинова. М.Э. *Афоризмы арабских мудрецов / сост. М.: Эксмо, 2008.*
14. Назаров, Е.Д. *Этика: словарь афоризмов и изречений / сост. В.Н. Мелешко. М.: Аспектпресс, 1995.*
15. Оболенский В.Б. *Афоризм как язык философии*. Орел, 2016.
16. Солопова М.А. *Vita brevis: к толкованию первого афоризма Гиппократ* // *Философский журнал*. 2012. № 1 (8). С. 5—25.

TILGA KOGNITIV YONDASHUVNING SHAKLLANISH TARAQQIYOTI

G'aybullayeva Nafisa Izatullayevna,
Buxoro DPI dotsenti, f.f.f.d (PhD)
nafisa.ped@mail.ru

Annotatsiya. Biz bilamizki, hozirgi kunda tilshunoslikda "Kognitiv lingvistika" fani judayam urfga kirdi. Bu fan zamonaviy tilshunoslikda mustaxkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik psixolingvistika, antropolingvistika, etnolingvistika, sociolingvistika kabi turli sohalar bilan bog'lanilganligi tadqiqotda sanab o'tilgan. Kognitologiya so'zining turli ma'nolari, yo'nalishlari, olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha dunyo tilshunosligida Jorj Lakoff, Jonson, Jonson Leyrd, Faukonniyer, Langaker, V. fon Gumboldt, G. Shteyntal, A.A. Potebnya, F. de Sossyur, E. Benvenist kabi olimlar tadqiqotlariga maqolada birma-bir urg'u berib o'tilgan. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish namoyandalari sifatida Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, A.E. Mamatov, G'M. Hoshimovlarning ham tadqiqotlariga ham tavsif berilgan. Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiqot ekanligi nazariy faktlar asosida maqolada asoslangan.

Kalit so'zlar: kognitologiya, tushuncha, konsept, freym, skript, ssenariy, geshtalt, antropologiya, sun'iy intellekt.

Аннотация. Мы знаем, что наука «Когнитивная лингвистика» сегодня очень популярна в языкознании. Данная тема является одной из наиболее актуальных областей языкознания, занимающей прочное место в современном языкознании. Когнитивная лингвистика связана с различными областями, такими как психолингвистика, антропологическая лингвистика, этнолингвистика и социолингвистика. В статье последовательно выделены исследования таких учёных, как Джордж Лакофф, Джонсон, Джонсон Лэрд, Фоконье, Лангакер, В. фон Гумбольдт, Г. Штейнталь, А.А. Потебня, Ф. де Соссюр, Э. Бенвенист. В узбекском языкознании описаны исследования таких учёных, как Ш.С. Сафаров, Д.У. Ашурова, А.Е. Маматов, Г.М. Хошимова. В основу статьи положены теоретические факты о том, что задачей когнитивной лингвистики является приобретение и хранение знаний с помощью языка, использование и передача языка на практике и в целом связь языковой системы и её структуры с мышлением как отражением в мозгу человека.

Ключевые слова: когнитология, понимание, концепт, фрейм, скрипт, сценарий, гештальт, антропология, искусственный интеллект.

Abstract. We know that the science of "Cognitive Linguistics" is very popular in linguistics today. This topic is one of the most relevant areas of linguistics, which occupies a strong place in modern linguistics. Cognitive linguistics is related to various fields such as psycholinguistics, anthropological linguistics, ethno-linguistics and sociolinguistics. George Lakoff, Johnson, Johnson Laird, Fauconnier, Langaker, W. von Humboldt, G. Steintal, A.A. The article consistently singles out the studies of such scientists as Potebnya, F. de Saussure, E. Benveniste. In Uzbek linguistics Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, A.E. Mamatov, G'M. Khoshimov's studies are also described. The article is based on theoretical facts that the task of cognitive linguistics is the acquisition and storage of knowledge with the help of language, the use and transmission of language in practice and, in general, the connection of the language system and its structure with thinking as a reflection. in the human brain.

Keywords: cognitive science, understanding, concept, frame, script, script, gestalt, anthropology, artificial intelligence.

Kirish. Dunyo tilshunosligida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurd. Til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtayi nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Natijada, tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalarini bilan

hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini yana bir soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi.

Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Ma'lumki, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Aslini olganda, bilim tilga nisbatan ancha mavhum, chunki uni jisman kuzatib bo'lmaydi. Bilimning mavjudligi – tilning mavjudligi. Tilning o'zi esa kognitiv tizim faoliyatining mahsulidir va insoniy tarkiblar tafakkur faoliyati tufayli shakllanadi. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (latincha), ya'ni «aql, tafakkur» hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitatorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Shuni unutmaslik lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir.

Amerikalik psixolog H. Gardner kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi (falsafa, psixologiya, tilshunoslik, antropologiya, sun'iy intellekt, nevrologiya) tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun'iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo'llanishi muammolari yechimini izlash bilan band bo'lishini qayd qilgan [7] edi.

Olimlar miyaning chap yarim sharlari nutqiy axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi hududdir. Hamda ular doimo o'zaro murakkab munosabatda ekanligini uqtirishgan [7]. Bu hududlar neyrofiziologlar Brok va Vernike nomlari bilan ataladi. Bu munosabatlarning qanday yuzaga kelganligi va ularning zaminida nimalar turganligini aniqlash uchun dastlab insoniy faoliyatning kognitiv tizimini batafsil o'rganish lozimdir va bu ehtimolning haqiqatga o'ta yaqinligini kognitiv tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida o'z isbotini topmoqda [7]. Bilim olish, uni xotirada saqlash hamda amalda qo'llash, uzatish manbai va uni shakllantiradigan vosita – til tizimi kognitiv tahlil obyektidir.

Zero, kibernetika va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan olimlar fikrlash, bilish va tushunish jarayonlariga, shuningdek, ma'lumotlarni ham inson ongida, ham kompyuter tizimida olish, saqlash, qayta ishlash va ifodalash bilan bog'liq muammolarni yangicha talqin eta boshladilar. Ko'pchilik olimlar tilshunoslikda kognitiv yondashuvning paydo bo'lishini Jorj Miller va Filipp Jonson-Leyrdlarning mashhur “Til va idrok” kitobining nashr etilishi bilan bog'laydilar [5]. Uning mualliflari til tizimini va leksikani psixologik jixatdan o'rganuvchi fan “psixoleksikologiya” fanining asoslarini yaratish vazifasini o'z oldilariga qo'ydilar. Kelajak ko'rsatganidek, psixoleksikologiya fan sifatida shakllana olmadi, lekin kognitiv tilshunoslik Miller va Jonson-Leyrd tomonidan taklif qilingan g'oyalar va yondashuvlar asosida yuzaga keldi. Ularning pozitsiyasi assotsiatsiya g'oyalarini qat'iy rad etish bilan tavsiflanadi, ular so'zlar va nutqiy jarayon o'rtasidagi barcha assosiativ aloqalarni tushuntirish emas, balki ularning orqasida yotgan psixologik jarayonlarni o'rganish va tavsiflashni vazifa sifatida o'z oldiga maqsad qilib qo'yadilar. Ushbu tadqiqot leksik darajaga asoslanadi, chunki mualliflar nuqtayi nazaridan, leksik daraja til va idrok o'rtasidagi munosabatlarni ochib berish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan olimlar o'zlari anglamagan holda kognitiv lingvistika ibtidosini boshlab berdilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Kognitiv tilshunoslikning rasmiy “tug'ilishi”ni bir vaqtning o'zida kognitiv tilshunoslik bo'yicha birinchi xalqaro konferensiyaga aylangan, 1989-yilning bahorida Duysburgda (Germaniya) o'tkazilgan Xalqaro lingvistik simpozium bilan bog'lashadi. Mohiyatiga ko'ra, kognitiv lingvistika ushbu konferensiyadan avvalroq, 1980-yillarning oxirlarida shakllanib bo'lgan. Kognitiv tilshunoslik maktabi rasman shakllanishi davrida ushbu yo'nalishning tadqiqotlari sifatida Jorj Lakoff, Jonson 1980; Jonson Leyrd 1983, Faukonniyer 1985, Lakoff 1987, Langaker 1987 kabi olimlarning bir qancha ilmiy maqolalari va risolalari tan olingan. Ba'zi boshqa olimlar esa, kognitologiya fan sifatida lingvistik va psixolingvistik tadqiqotlarning nisbatan yangi sohasi sifatida, 1990-yillar boshidagina, ushbu yondashuvga bag'ishlangan birinchi “Kognitiv lingvistika” jurnali nashr etilganda shakllangan degan fikrni olg'a surishadi.

Keyinchalik esa kognitiv tilshunoslik amerikalik kognitiv tilshunoslar Goldberg, Kazenizer, Taylor, Gudson, Maykl Tomasello, Joan Baybi, Andrea Tayler, Yevropada ispan olimlari Kenni R. Koventri, Pedro Guijarro-Fuyentes, ingliz kognitiv tishunoslari Villiam Ugreyd, Yelena Liyeven tomonidan tadqiqotlar obyektiga aylandi va Osiyo mamlakatlarida ham o'z tarafdorlariga ega bo'ldi.

XX asrning o'rtalarida sodir bo'lgan psixologiya va tilshunoslikdagi kognitiv o'rganish o'sha paytdagi insonning barcha xatti-harakatlarini "rag'batlantirish", "munosabat bildirish" va "ko'nikmaga ega bo'lish" nuqtai nazaridan tavsiflovchi hukmron bixeviorizmga javob bo'ldi. Ilmiy yo'nalishni o'zgartirishda U. Nayzer, J. Piaje, G. Saymon, Ye. Tolman, A. Nyuyell kabi psixologlarning ilmiy tadqiqotlari asosiy manbaa vazifasini o'taydi. V.Z. Demyankov ta'kidlaganidek, garchi kognitivistlargacha olimlar barcha biologik turlar uchun umumiy bo'lgan bilishning mantiqiy qonunlarini kashf etishga intilgan bo'lsa-da, yangi yondashuvning kashshoflari kuzatib bo'lmaydigan, ya'ni harakatlar, strategiyalar, ramzlarning mental ifodalari orqali sohaga kirishga harakat qilishdi. Ongning bevosita kuzatilmaydigan ko'rinishlarini o'rganishga qo'yilgan taqiqni olib tashlaydigan mazkur yangi metodologiya kognitivizmning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qildi.

Natijalar va muhokama

Boldirev N.N. kognitiv tilshunoslikni kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'liq deb ta'kidlaydi [2]. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. Kognitiv faoliyat bevosita til bilan bog'liq holda kechadi, zero, til vositasida tajriba va bilim almashiniladi, axborot uzatiladi, bilish jarayoni, uning natijalarining aynan shu jihati bilimning lisoniy tizimini, ya'ni uni tartiblashtirish, xotirada saqlashning lisoniy vositalarini o'rganuvchi tilshunoslik fani bilan aloqadordir. Rus tilshunosligida kognitiv tilshunoslikning atoqli vakili Ye. S. Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: "Kognitologiya ko'pqirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan kognitiv tilshunoslik, o'z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko'zlaydi, zotan lisoniy va bilim strukturalari o'rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi"[4].

V. fon Gumboldt, G. Shteyntal, A.A. Potebnya, F. de Sossyur, E. Benvenist kabi ko'plab tilshunoslar uzoq yillik muammo bo'lgan mantiqiy fikrlash va tilning o'zaro bog'liqligiga oid tadqiqotlar olib borishgan Shunday qilib, V. fon Gumboldt inson tafakkuri asosan milliy tilning o'ziga xosligi bilan belgilanadi, bu esa, o'z navbatida, xalq ruhining namoyoni hisoblanadi, deya ta'kidlagandi. A. A. Potebnya so'zni g'oyani yaratish va fikrni parchalash vositasi hamda voqelikni tizimlashtirish usuli, deya hisoblagan bo'lsa, E. Benvenist "tildan tashqarida faqat noaniq undashlar, imo-ishoralar va yuz ifodalariga olib keladigan ixtiyoriy impulsar mavjud", deb o'ylagan, zero til shakli fikrni uzatish sharti emas, balki "uni amalga oshirish sharti" deb hisoblab, "mazmun til orqali o'tib, unda muayyan shakl-shamoyilga ega bo'lishi kerak". Aks holda, fikr yoyilib tushunarsiz va noaniq narsaga aylanadi. Shuning uchun kognitiv fanlarda tilshunoslik yetakchi o'rinlarda turadi.

Kognitiv tilshunoslikning vazifalariga quyidagilar kiradi: 1) dunyoni bilish, tushunish va turkumlash jarayonlarida tilning rolini belgilash; 2) universal va alohida tilga xos tushunchalar tizimini tavsiflash; 3) butun jamiyat yoki aniq shaxsning olam manzarasini modellashtirish; 4) tildagi metaforik va metonimik munosabatlarni tadqiq qilish. Hozirgi paytda kognitiv tilshunoslik bir necha yo'nalishlarda, jumladan, semantika nazariyasi, J. Lakoff va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasi, A. Vejbiskayaning madaniyat kalit so'zlari nazariyasi va boshqa nazariyalar asosida rivojlanmoqda.

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish namoyandalari sifatida Sh.S. Safarov, D. U. Ashurova, A. E. Mamatov, G'. M. Hoshimov kabilarni aytib o'tishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. Tilshunos Sh.C. Safarovning fikriga ko'ra, "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir"[7].

Professor A. Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: "Kognitiv fan kognisiya (bilish) bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognisiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi" [6]

Professor D.Ashurova o'z maqolasida kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko'rsatib o'tadi. Jumladan, hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi [1]. yangi yo'nalishlari vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Kognitiv yondashuv asosida so'z turkumlari, til birliklarining kategoriyalarga bo'linishi va konseptualizasiyalashuvi, til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yangicha talqinlarga ega bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimidan freym, ssenariy, skript, kategoriyalashtirish, konsept, konseptualizasiya, kognitiv struktura, kognitiv metafora kabilari o'rin

olmoqda. Mazkur yoʻnalishning asosiy tadqiq metodlariga freymlar asosida tahlil qilish, modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish), konseptual tahlil singarilar kiradi.

A.Abdiazizovning taʼkidlashicha, nutqning hosil boʻlishi, uzatilishi, xotirada ongli saqlanishi kabi murakkab hodisalarning markazi miya neyronlari orqali amalga oshiriladi. Tildagi turli birliklarning shakl va mazmunini farqlab, turlicha tushuncha, konseptlar, freymlar yordamida milliy-madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni har bir xalq yoki etnos uchun oʻziga xosligini aniqlashda fonologik vositalar katta xizmat qiladi. Inson tili “tovushli, ovoqli” boʻlib, u mazmuni hosil qilishda buyuk ahamiyatga egaligini kognitiv fonetika va fonologiyada oʻrganilishi sababli uni kognitiv tilshunoslikning asosiy tarkibiy qismi ekanligini eʼtirof etish lozim.

Professor Gʻ. M. Hoshimov “Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, oʻrganilishi, yaʼni konseptlar vositasida uning inʼikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bogʻliq muhim yoʻnalishdir” deb taʼkidlaydi [8]. Kognitivistika fani vakillarining fikriga koʻra, hech qaysi bir alohida fan insonning intellektual faoliyatini adekvat tasvirlay olmaydi. Jumladan, mantiq fikrlashning intuitiv, obrazli, sheʼriy va mifologik nuqtai nazaridan tashqari faqat ayrim shakllarini koʻrib chiqadi. Psixologiya fikrlash jarayonlarining natijalariga emas, balki ularning neyronlar darajasida substratga bogʻliqligiga qarab kechishiga va moddiy jihatlari eʼtibor beradi. Epistemologiya va gnoseologiya (bilishning obʼyektiv realligi) esa, aksincha, oʻta mavhum, aniq fikrlash vositalaridan va uni biror bir belgilar tizimi orqali obʼyektivlashtirish usullaridan uzoqdir. Ularning xulosalari faqat bilishning universal qonunlariga taalluqlidir, kognitivistika fani esa “dunyo va uning mohiyatini turkumlash jarayonlarini, bilim tuzilmalarini, dunyoning aksiologik tizimlarini, manzaralari va modellarini shakllantirish”ni oʻrganish vazifasini koʻndalang qoʻyadi.

Xulosa. Insonning kundalik voqea-hodisalarga munosabati tilning kognitiv nazariyasining amalda qoʻllanishi bilan uzviy bogʻliqdir. Zotan, biz yillar davomida hosil boʻlgan hayot tajribamiz, bilim va koʻnikmalarimiz asosida voqelikdagi u yoki bu tarzda mavjud boʻlgan narsa-predmetlar, voqealar, hodisalar haqida fikrlay olamiz va ana shunga tayangan holda oʻzaro soʻzlashuv jarayonida nutqimiz bekamu koʻstligiga erishamiz. Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yoʻnalish leksik-semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, unga koʻra til umumiy kognitiv mexanizm boʻlishi bilan birga, kognitiv qurol tarzida axborotning taqdimotini, kod yordamida uzatish va oʻzgartirish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hamdir.

Kognitiv tilshunoslikda insonga xos boʻlgan kognitiv tuzilma va usullar yordamida axborotni toʻla egallab olish mexanizmlari oʻrganiladi. Zero, intensivlikni ifodalovchi soʻzlar ham borliq haqidagi bilim va tasavvurlarni ifoda etishga xizmat qiladi.

Soʻz maʼnosini anglashda faqat uning semantik tuzilmasini bilishimiz kamlik qiladi. Biz muayyan tilda soʻzlashuvchi odamlarning tafakkur xususiyatlari, fikrlash tarzlari va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor boʻlishimiz lozim. Chunki mazkur vazifalarni soʻzlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiatini, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun unda soʻzlashuvchining borliqni bilishi va uni ongida “pishirib”, oʻz tilida (nutqida) tinglovchiga bekam-koʻst uzatishi bilan bogʻliq masalalarni ham tadqiqotlarimiz kun tartibiga qoʻyishni talab qilmoqda. Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham taʼkidlash lozimki, bugungi tilshunosligimizda freym, skript, ssenariy, geshtalt kabi oraliq til birliklarini oʻrganishga eʼtibor ortib bormoqda. Buning asosiy sababi kognitiv tilshunoslik muammolarining tadqiqotlarimiz mundarijasidan oʻziga munosib oʻrin olganligidir.

ADABIYOTLAR:

1. Ашурова Д. У. *Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б.87-99*
2. Болдырев Н.Н. *Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. – Тамбов: Изд-во ТГУ им.1987. – С.43-47*
3. В. Иванов. *Чётные и нечётные ассцети мозга знаковых систем. М., 1998, – С.180-193*
4. Кубрякова Е. С. *О когнитивной лингвистике и семантике термина “когнитивный” // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. 90.с*
5. Миллер Ж. *Магическое число семь плюс или минус два. О некоторых пределах нашей способности перерабатывать информацию // Инженерная психология. М.: Прогресс, 1964. С. 192–225.*

6. *Маматов А. Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилишуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий -амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.*
7. *Сафаров Ш. С. Когнитив тилишунослик. – Жиззах: Санзор, 2006. – .91-96.*
8. *Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилишунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – Б-56-59.*

O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA XUNUKLIK TUSHUNCHASINING IFODALANISHI

Raxmatova Mehriniso Musinovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti
m.m.raxmatova@buxdu.uz

Inoyatova Dilnoza Ilxomovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi
inoyatovadilnoza97@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda til va madaniyatning bog'liqligi, tilning madaniyatda, madaniyatning esa tilda namoyon bo'lishini o'rganuvchi lingvokulturologiya yo'nalishini tadqiq qilish va rivojlantirish zarurati jadallasharkan, ushbu sohada muhim ahamiyat kasb etgan konseptlarning til xususiyatlarini tahlil qilish, o'rganish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola o'zbek milliy madaniyatida xunuklik konsepti lisoniy xususiyatlarining qiyosiy tahlilini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ular o'zbek badiiy asarlari aniqroq aytganda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari tahlili asosida ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor xunuklik konseptining antroposentrik va aksiologik yondashuv asosida misollar bilan yoritib berilishiga qaratilgan. Tahlillar nafaqat o'zbek badiiy asari, balki tilning izohli lug'atlari asosida olib borilgan. Maqolada o'zbek milliy madaniyatida xunuklik konseptining til xususiyatlari shaxs, joy, ovoz va harakat tasvirida ifodalanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xunuklik, leksik birlik, konsept, freym, tushuncha, lingvokulturologiya, lisoniy xususiyatlar.

Аннотация. В настоящее время ускоряется необходимость исследования и развития направления лингвокультурологии, изучающего взаимосвязь языка и культуры, проявление языка в культуре, культуры в языке, важное значение имеет стих. Данная статья направлена на изучение сопоставительного анализа языковых особенностей концепта безобразия в узбекской национальной культуре, и они рассматриваются на основе анализа узбекских художественных произведений, а именно произведения Абдуллы Кадири «Минувшие дни». Основное внимание уделяется объяснению понятия безобразия на примерах с опорой на антропоцентрический и аксиологический подход. Анализ проводился не только на основе узбекских художественных произведений, но и по толковым языковым словарям. В статье анализируется выражение языковых особенностей концепта уродства в узбекской национальной культуре в образе человек, место, голос и движение.

Ключевые слова: уродство, лексическая единица, концепт, фрейм, понимание, лингвокультурализм, языковые особенности.

Abstract. Currently, the need to research and develop the direction of linguo-cultural studies, which studies the relationship between language and culture, the manifestation of language in culture, and culture in language, is accelerating. the verse is important. [2] This article is aimed at studying the comparative analysis of the linguistic features of the concept of ugliness in Uzbek national culture, and they are considered based on the analysis of Uzbek works, more precisely, Abdulla Qadiri's work "The Past Days". The main focus is on explaining the concept of ugliness with examples based on the anthropocentric and axiological approach. The analyzes were carried out not only on the basis of Uzbek fictions, but also on the explanatory dictionaries of the language. The article analyzes the expression of the language characteristics of the concept of ugliness in the Uzbek national culture in the image of a person, place, voice and movement.

Keywords: ugliness, lexical unit, concept, frame, understanding, linguoculturalism, linguistic features.

Kirish. O'zbek tili izohli lug'atining besh tomidan xunuklik konseptini ifodalovchi leksik birliklar birma-bir tahlil qilinganda, xunuklik nafaqat inson tashqi qiyofasiga nisbatan balki, uning ichki dunyosi, xarakteri, xulq-atvorida mavjud chiroyli hisoblanmaydigan jihatlarga nisbatan ham ishlatiladi. Shunga asoslanib, shaxs tasviridagi xunuklikni bildiruvchi so'zlar ikki guruhga ajratiladi: 1) inson tashqi

ko'rinishining chiroyli emasligini ifodalovchi va 2) inson xarakterining xunukligini bildiruvchi leksik birliklar. Masalan, *badnamo, badbashara, badnusxa, badsurat, badro'y, do'ngpeshona, tasqara, badqovoq* kabi sifat turkumidagi so'zlar, *baqa, chandiq, xunuklik* kabi ot so'z turkumidagi va *burushmoq, tirtaymoq, torsillamoq, to'rsaymoq, xunuklashmoq, qo'pollashmoq* singari fe'l so'z turkumidagi so'zlar inson yuz qismidagi go'zal bo'lmagan jihatlar va shu xunuklashish holatini ifodalaydi. Morfologik tahlillardan shu aniqlandiki, shaxsning tashqi ko'rinishidagi xunuklik o'zbek tilida asosan sifat, ba'zan ot va qisman fe'l turkumidagi so'zlar bilan tasvirlanadi. Ularning aksariyati so'zning birinchi va qisman ikkinchi ma'nolari orqali ifodalanadi.

Insonning haqiqiy go'zalligi uning ichki dunyosi bilan belgilanganidek, uning xulq-atvoridagi kamchiliklar ham qalb dunyosining xunukligini ko'rsatadi. [3] Tadqiqotimiz davomida, 100 ga yaqin o'zbek tilining izohli lug'atidagi so'zlar inson xarakteridagi chiroyli bo'lmagan jihatlarni tasvirlashda foydalaniladi. Masalan, *axloqsiz, badbin, badkor, badxayol, badbin, badxulq, beadab, bezbet, beibo, buzuq, didsiz, yengiltak, iymonsiz, ibosiz, yengiltak* kabi sifat turkumidagi, *badfe'llik, yengiltaklik, lafzsizlik, nobakorlik, nomussizlik, uyatsizlik, takasaltanglik, uyatsizlik, fohishabozlik* kabi ot turkumidagi so'zlar shaxs xakteri va undagi xunuk holatlar uchun ishlatiladi. Yuqoridagi keltirilgan misollarda aksariyat so'zlar tojik tilidan o'zlashgan –bad, -no, -be old so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan yasama so'zlar hisoblanadi. Ularning aksariyati so'zning birinchi va qisman ikkinchi ma'nolari bilan xunuklik konseptining freymini hosil qiladi.

Inson ko'zini tasvirlovchi *zag'chako'z (ko'zi ko'k odam)* [4] o'zbek milliy madaniyatida chiroylilik belgisi hisoblanmaydi. Masalan, M.Osimning "O'tror" asaridagi tasvirda: "Eshikdan tishlari tushib, lablari ichiga kirib ketgan kampirdahan zag'chako'z bir chol kirib ta'zim qildi" [4], zag'chako'z xunuklikni ifodalashda ishlatilgan. Ammo, yevropa mamlakatlarida, xususan, Fransiya, Angliya, Germaniyada ko'k rangli ko'zlar chiroylilik belgisi sanaladi. Demak, bir madaniyat doirasida xunuklik hisoblangan jihat, boshqa bir madaniyatda aksincha chiroyli bo'lishi mumkin. Bu til va madaniyat va ular orqali tushuniladigan konseptning turli talqin qilinishining isbotidir. Xulosa qib aytganda, xunuklik konsepti shaxs tasvirida asosan sifat, ot va ba'zan fe'l so'z turkumlari orqali ifodalandi va konsept atrofida birlashadigan leksik birliklarning aksariyati sodda yasama so'zlar sanaladi. Bundan tashqari, bir konsept turli madaniyatlar orasida turlicha talqin qilinishi mumkin va buni xunuklik misolida o'zbek va yevropa madaniyati qiyosida ko'rdik.

O'zbek tilining izohli lug'atida "xunuklik" – ko'rimsizlik; chiroyli emaslik; "xunuk": 1) salqin, sovuq, yoqimsiz; 2) ko'chma ma'noda jirkanch; 3) ko'chma ma'noda qo'rqinchli degan ma'nolarda izohlanadi. [5] Abdulla Qodiriy insonning tashqi ko'rinishi, nutqi, xulqi, harakatidagi xunuklikni turli so'z turkumlari, asosan, sifat (cho'tir, ko'rimsiz, qattiq, dahshatli), ot (to'ng'iz, maxluq, shayton, habis), otlashgan sifat (buzuqi), ravish (vahshiylarcha) va ba'zan esa o'xshatish usulidan (yerdan bichib olg'andek, ko'zi qoqqan qoziqdek, qirq yillik og'riganlardek, ukkinging ko'zidek, albastilardek), so'z birikmalari, metaforalar orqali mohirona tasvirlab, asarda ta'sirchanlikni, bo'layotgan voqealar va asardagi qahramonlar qiyofasini kitobxonlar ongida yaqqol namoyon bo'lish darajasini yanada oshirgan. Quyida xunuklikning eshitish va ko'rish orqali his qilinishi bo'yicha tahlili beriladi.

Tovush bilan his qilinadigan xunuklik konsepti

O'zbek tili shu qadar boyki, bir tushunchani har xil so'z turkumlari, metaforalar orqali judayam ta'sirli ifodalash mumkin. Buning yorqin isbotini asardagi quyidagi parchada ham yaqqol sezish mumkin: "Hoji so'zini tugata olmadi, hojining ters so'zlariga chidolmagan Azizbek *vahshiylarcha* baqirdi" [1]. O'zbek tilining izohli lug'atida vahshiy so'zi yirtqich ma'noda qo'llanilishi aytilgan [5]. Tabiiyki, vahshiy deganda inson ko'z oldiga judayam yovuz va xunuk timsol gavdalanadi. Shuning uchun, vahshiy so'zi inson xarakterini va xulqini yomonligini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu jumlada esa *vahshiylarcha-ravish so'z turkumi* baqirish harakat bildiruvchi so'zning judayam baland, qo'rqinchli va inson qulog'iga yomon eshitiladigan darajada xunukligini ta'kidlash uchun mohirona qo'llanilgan. Abdulla Qodiriy bundan tashqari, nutqdagi yomon, qo'pol so'zlarga ham xunuklik belgisi sifatida qaraydi: "...bizning Homidboy shunaqa qo'lansa gaplar uchun yaratilg'an odam" [1].

Qo'lansa sifat so'z turkumi o'zbek tilining izohli lug'atida ko'chma ma'noda "yoqimsiz", "xunuk" [5] ma'nolarida inson nutqidagi beodob, xunuk gaplarning aytilishiga nisbatan ishlatilishi yozilgan. Muallif ham aynan o'z qahramonining qo'pol va xunuk so'zlashini aynan shu so'z orqali tasvirlaydi.

Shuningdek, Qodiriy asar qahramonlarining xunuk tovush chiqarishlarini ifodalash uchun taqlid so'zlardan ham foydalangan: "*Xi, xi, xi, ahmoq. Toshkandan bo'lmay Qorategandan bo'lsinmi?*". Ushbu

barchadagi *Xi, xi, xi-* tovushga taqlid soʻzi orqali kitobxon qahramonning quloqqa yoqimsiz eshitaladigan tarzida kulayotganini his qiladi. [1; 156-bet]

Qodiriy yana bir oʻrinda ovqatlanganda etiket qoidalariga toʻgʻri kelmaydigan xunuk tarzda shapillatib yeyayotgan qahramon tasvirini taqlid soʻzi orqali ifodalaydi: “Ichkaridan kimdir *shap-shap* etib chaynar edi”. [1; 237-bet]

Ovozning xunukligi

Ot	Sifat	Feʼl	Taqlid
Dagʻallik(2)	Magʻzava 1	Ayuhannos solmoq (1)	Ar-ar(1)
		Alaybalay demoq (1)	
		Aljimoq(1)	
		Ar-ar qilmoq(1)	
		Valaqlamoq(1)	
		Javramoq(1)	

Koʻz bilan koʻrib his qilinadigan xunuklik konsepti

Qodiriy, qahramonlarning tashqi koʻrinishidagi koʻrimsizlikni tasvirlash uchun sifat soʻz turkumidan unumli foydalangan. Xususan, asarda Homidning tasvirini quyidagicha beriladi: “...ikkinchisi: uzun boʻylik, qora choʻtir yuzlik, chagʻir koʻzlik, chuvoq soqol, oʻttuz besh yoshlarda boʻlgʻan koʻrimsiz bir kishi erdi”. [1; 384-bet] Ushbu tasvirda xunuklik: *choʻtir, koʻrimsiz* sifatleri orqali ifodalangan.

“Oʻtgan kunlar” asarida qahramonlarning tashqi qiyofasini tasvirlanishida xunuklik konseptining oʻxshatishlar orqali ifodalanishiga koʻp duch kelish mumkin. Masalan, Kumushga Homid tomonidan yozilgan maktubni keltirib bergan xotin tasvirida bunga guvoh boʻlamiz: “Ul *yerdan bichib olgʻandek* pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, *koʻzi qoqqan qoziqdek* chup-chuqur, ogʻzi qulogʻi bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik ogʻriganlardek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasi bir xotin edi” [1; 167-bet]. Ushbu parchada *yerdan bichib olgʻandek, koʻzi qoqqan qoziqdek, qirq yillik ogʻriganlardek* kabi oʻxshatishlar orqali kitobxon koʻz oʻngida chiroyli boʻlmagan koʻrimsiz ayol namoyon boʻladi. Buni Kumushning xotinni koʻrgandagi holatidan ham bilish mumkin: “Kumushbibi oʻzi tomonga kelguchi bu *dahshatli* xotinni umrida birinchi koʻrishi edi” [1; 178-bet]. *Dahshatli* xotin birikmasida ham xunuklik tushunchasi *dahshatli-sifat soʻz turkumi* orqali ifodalangan. Yana bir oʻrinda, inson tashqi qiyofasidagi chiroyli boʻlmagan qismlar oʻxshatish usuli orqali yanada taʼsirchan ifodalangan: “Yigirma ikki yoshlar chamasi boʻlgʻan bu yigit sariq tanlik, *ukkining koʻzidek* chaqchayib, oʻynab va yonib turgan qizil koʻzlik, yuziga *parchinlangandek* yuza (*puchuq*) burunlik, manglayi qancha tashqarigʻa oʻsib chiqqan boʻsa, yuzi oʻshancha ichkariga kirib ketgan, qisqasi vaqtsizroq yaratilib qolgʻan bir *maxluq* edi”. Sodiqlik tasvirini oʻqiyotgan kitobxon muallifning soʻz ustaligiga qoyil qolmasdan iloji yoʻq. Oʻxshatishlar, sifat va ot soʻz turkumlari yordamida qahramonning koʻrimsizligi ajoyib tasvirlangan.

Oʻxshatishlar orqali xunuklik konseptining ifodalanishi quyidagi parchada ham davom etadi: “...*pakana* xotin goʻyo onalarning “*ziyondosh albasti*”laridek *xunuk* qiyofada yigitga qarab yugurib kela boshladi”. *Pakana, xunuk* sifatleri, *albastilardek* oʻxshatishi Sodiqlik onasi tasvirida kitobxonda salbiy estetik baho uygʻotadi. Yana bir oʻrinda “*idek sovuq koʻringan*” qipchoq bachcha [1; 278-bet] deb taʼriflanayotgan Normuhammad tasvirida ham oʻxshatish orqali xunuklik mohirona ifodalangan.

Shuningdek, xulqdagil illatlarni ifodalash uchun *buzuqi otlashgan sifatdan* yana bir oʻrinda foydalanilgan: “Albatta, biz oʻsha *buzuqilarning* jazolarini berarmiz” [1; 200-bet]. Kitobxon ushbu jumlaning oʻqiganda, koʻz oldida xunuk xislatli inson gavdalanadi. Har bir holatda badiiylikni, estetik taʼsirchanlikni oshiruvchi bu kabi misollarda soʻzning qanchalik oʻrinli qoʻllash muhimligi va tilning imkoniyatlari naqadar kengligiga guvoh boʻlish mumkin. Quyida, shaxs koʻrinishidagi xunuk va chiroyli boʻlmagan holatlarni bildiruvchi soʻzlar soʻz turkumlari kesimida taqdim etilgan.

Shaxs tashqi koʻrinishini ifodalovchi xunuklik:

LINGUISTICS

Ot	Sifat	Fe'l
Baqa(2) Xunuklik 1 Chandiq 2 Qo'pollik 1	Badbashara(1),Badburush(1),Badnamo(1),Badnusxa (1),Badro'y(1), Badsurat(1) Badqovoq(1), Baqaloq, Do'ngpeshona(1),Yoqimsiz(1), Zag'chako'z (1),Lappos (1),Lo'mbozday 1,Mardak (1), Murdor (1) Puchuq (1), Savatbosh (1),Tanqaburun (1), Tasqara (2) ,Taxtakachday (2),Fayzsiz(1)Xumbosh (1),Xumkalla 1,Xunuk Burushiq(1)Chiroyisiz (1), Shumshuk 1 Yumaloq(4,Yalmog'iz 1Qiltiriq Qo'shburun 1Qo'pol, G'unda (1),Husnsiz	Burushmoq(1) Tirtaymoq 1 Torsillamoq 2 To'rsaymoq 1 Xunuklashmoq 1 Qo'pollashmoq 1

Insonga xos harakatlarning ham chiroyli emasligini tasvirlash uchun *xunuk*so'zining ishlatilganligiga quyidagi parchada guvoh bo'lamiz: "puchuq xotin Homidning yonig'a o'lturib, *xunuk* bir iljayish bilan so'radi".

Harakatning xunukligi

Ravish	Fe'l
Alpang-talpang 1 Lapang-lapang 1 Liking-likang 1	Lapanglamoq 1,Dag'allashmoq(1) Jarillamoq(1),Shallaqilik qilmoq(1) Jilpanglamoq(1),Jirtillamoq(1) Lallaymoq 1,Likillamoq 1 Lo'killamoq 1,Razillashmoq 1 Talpanlamoq 1,Tarvaqaylamoq 1 Qabihlashmoq 1,Qiypanglamoq 1 Qilpanlamoq 1,Qiltanglamoq 1 Qo'nqaymoq 1

Kishi xarakteridagi xunuk illatlar tabiiyki uning ichki dunyosi chiroyli emasligini ko'rsatadi. Homidning ham ana shu illatlari orqali naqadar tuban kishiligini ko'rsatish uchun salbiy bo'yog'i kuchli bo'lgan "vijdonsiz, to'ng'uz", "shayton bolasi", "'habis" (yaramas, nopok) so'zlaridan foydalaniladi. Boshqa o'rinda esa Homidni "tiynati (xulq) *buzuq*" [1; 257-bet]. deya ta'riflaydi. Bu ham uning xulqidagi xunuk illatlarga ishora qiladi. Keyingi o'rinlarda ham yozuvchi insonning xarakteri va xulqining yomonligi, xunukligiga ishora qilib insonga nisabtan tabiatan yovvoyi va xunuk timsolni gavdalanitiruvchi *to'ng'iz* ot so'z turkumini qo'llaydi: "Bular qora choponning dushmanlaridan bo'lgan ikki to'ng'izning gavdalari" [1; 206-bet].

Ko'rimsiz so'zi inson tasviridan tashqari predmetlarda ham xunuklikning ifodalanishi uchun qo'llanilishi mumkinligini quyidagi parchada ko'rish mumkin: "kunbotishg'a qarab qurilg'an ikkita *ko'rimsiz* bir betlik eshiklaryuzlariga yopiq holda edilar".

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan shuni tushunish mumkinki, Qodiriy qalamiga mansub "O'tgan kunlar" asarida xunuklik konsepti turli so'z turkumlari, asosan, sifat, ot, otlashgan sifat, ravish va ba'zan esa o'xshatish usulidan ham foydalangan holda badiiy ta'sirchanlikni oshirish va tasviriylikni kuchaytirish uchun ifodalangan. O'zbek romanchiligining durdona asarlaridan bo'lgan ushbu asarda darhaqiqat, har bir so'z o'rinli qo'llanilgan. Ushbu tadqiqotda, faqat xunuklik tushunchasining ifodalanishiga urg'u berilarkan, birgina shuning o'zi tilning serqirraligi, uning imkoniyatlari cheksizligini ko'rsatadi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, til imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda bir tushunchani turli so'z turkumlari orqali ifodalab, yozma va og'zaki nutqdagi g'alizlikdan qochish va badiiylikni oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. A. Qodiriy. *O'tkan kunlar.-T.: "Sharq", 2007*
2. Maxmudov N. *Tilning mukammal tadqiqi yullarini izlab...// O'zbek tili va adabiyeti, 2012, 5-son*
3. Safarov Sh. *Semantika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.B. 92.*

LINGUISTICS

4. To‘xliyev N. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*: - T.: O‘ 16 "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
5. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati (IV jild)*. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.-608 b
6. Raxmatullayev Sh. *Semema – mustaqil til birligi//O‘zbek tili va adabiyoti*. – 1984, № 5. – B. 17-24.
7. Azizov U. *Two perspectives on linguistics in Uzbekistan: Implications for teaching, analysis and research*. – Tashkent: www.journa.fledu.uz

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ҚЎШМА СЎЗЛАРДА УРҒУНИНГ АҲАМИЯТИ

*Қутлиева Мухайё Фуломовна,
Бухоро давлат университети
Факультетлараро хорижий тиллар
кафедраси ўқитувчиси
m.g.qutliyeva@buxdu.uz*

Аннотация. Ушбу мақолада инглиз ва ўзбек тилларидаги қўшма отлар ва уларда урғунинг қўлланилиши ёритилган. Қўшма отларнинг фонетик хусусиятлари уларни сўз бирикмасидан фарқлашда белги бўлиб хизмат қилиши мумкин. Инглиз тилида қўшма отлар асосан битта кучли урғу олади, баъзи ҳолатларда бир урғу сўзнинг ички маъносини ажратиши учун ҳам ишлатилади. Ўзбек тилида эса қўшма отлар бир асосий урғуга бўйсунди, логик урғу ҳам қўшма отларга бутунлигича тушади, компонентларига эмас. Сўз бирикмасида эса таркибидаги ҳар бир сўз урғули бўлади. Шу жиҳати билан ҳам қўшма от сўз бирикмасидан фарқланиб туради. Инглиз ва ўзбек тилларида урғунинг қўлланилишидаги фарқлар, уларнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлилга тортилган.

Калит сўзлар: қўшма сўз, фонетика, график, сўз бирикмаси, синтактик, компонент, урғу.

Аннотация. В этой статье обсуждаются сложные слова в английском и узбекском языках и использование в них ударения. Фонетические особенности сложных существительных могут служить знаком отличия их от словосочетания. В английском языке составные существительные обычно имеют одно сильное ударение, а в некоторых случаях одно ударение используется для выделения внутреннего значения слова. В узбекском языке сложные существительные подвергаются одному основному ударению, а логическое ударение падает на сложные существительные в целом, а не на их составные части. Каждое слово во фразе имеет ударение. В этом отношении сложное существительное отличается от словосочетания. Анализируются различия в употреблении ударения и их особенности в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: сложное слово, фонетика, графика, словосочетание, синтаксис, компонент, ударение.

Abstract. This article discusses compound nouns in English and Uzbek and the use of stress in them. The phonetic features of compound nouns can serve as a sign in distinguishing them from a word combination. In English, compound nouns usually have one strong stress, and in some cases, one stress is used to distinguish the inner meaning of the word. In the Uzbek language, compound nouns are subject to one main stress, and the logical stress falls on compound nouns as a whole, not on their components. Each word in a phrase is stressed. In this respect, a compound noun differs from a phrase. Differences in the use of stress in English and Uzbek, their specific features are analyzed.

Keywords: compound word, phonetics, graphics, word combination, syntactic, component, stress.

Кириш. Қўшма сўз билан сўз бирикмасини фарқлаш ғоят қийин ва мураккаб бўлишига қарамадан тилшуносликда бу муаммо юзасидан талай ишлар қилинган. Улардан бири О.С.Ахманованинг «Сўз билан сўз бирикмасини фарқлаш ҳақида»ги докторлик диссертациясидир. Қўшма сўзларни сўз бирикмасидан фарқлашда семантик, грамматик (маъно ва шакл) белги билан бир қаторда фонетик белгига ҳам асосланилади [5]. Қўшма сўзларнинг характерли хусусиятларидан бири шуки, улар бир асосий урғуга бўйсунди ва у охириги элементнинг сўнгги бўғинида бўлади. Сўз бирикмаси таркибидаги ҳар бир сўз урғули бўлади. Инглиз тилида бириктирувчи урғунинг борлигини яхлитликнинг аниқ кўрсатувчи хусусиятларидан деб ҳисоблаш мумкин: ‘bluebell (қиёсланг: ‘blue ‘bell), ‘blackboard (қиёсланг: ‘black ‘board).

Асосий қисм. Агар сўзда фонетик хусусият етарлича мавжуд бўлмаса, ундай ҳолатларда қўшма сўзни сўз бирикмасидан ажратувчи муҳим омил унинг элементларини ташкил этувчи боғланишлик даражаси ҳисобланади. Агар биз қўшма сўзларнинг сўз бирикмаларидан ўсиб чиққанлигини инобатга

олсак, уларнинг ҳосил бўлиш қолипларидаги грамматик тобеликни учратишимиз мумкин. Масалан: кўш тирноқ–кўштирноқ.

Кўшма сўз юзага келиши учун эса биттадан ортиқ лексик бирлик ўз мустақиллигини йўқотиб, семантик, фонетик (ёзувда график), синтактик жиҳатдан яхлитланиб, бир сўзга тенглашуви керак. Аммо шундай яхлитланиш содир бўлганини амалда исботлаш кўпинча қийин бўлади.

Шубҳасиз (алоҳида шаклланган) бирикма тўғрисида асосий урғу ва қисмларнинг эркин бириккан ва уларни чегараланмаган алмаштиришга олиб келувчи бирикишлар мавжудлигидагина гап юритиш мумкин: ‘milk ‘jug, ‘water ‘jug, ‘glass ‘jug, ‘china ‘jug; e’mergency ‘exit, e’mergency ‘ration, e’mergency ‘landing, e’mergency ‘store. ‘Glass ‘bottle, ‘stone ‘bottle, ‘water ‘bottle, ‘milk ‘bottle каби бирикмаларни кўриб чиқар эканмиз, уларнинг қисмларини эркин алмаштириш мумкинлигини кўрамиз, лекин «bluebottle» «гўшт пашшаси» сўзининг таркибидаги қисмларини эркин алмаштириш мумкин эмас. Бу бирикма бир асосий, бириктирувчи урғуга эгадир: ‘blue bottle сўзининг маъноси уни ташкил қилувчи қисмлар маъносидан иборат эмас, у идиоматикдир. Бу белги хусусиятларнинг барчаси ‘blue bottle сўзини кўшма сўзлар сирасига киришига асос бўлади. Элементларнинг эркин алмашинуви бўлмаган ҳолатларда иккита урғунинг борлиги ажратиб ёзишлик хусусияти бўла олмайди (‘fountain ‘pen). Агар биз steelpen, goldpen бирикмаларининг қисмларини эркин алмаштириш мумкин деб ҳисобласак, fountain ‘pen га нисбатан бундай дейиш мумкин эмас. Худди шуни ‘hay ‘fever (қиёсланг: ‘hay-making, ‘haymarket) га нисбатан ҳам айтиш мумкин.

Шунингдек, ‘fountain‘pen туридаги сўзларни кўшма сўзга тааллуқли дейишга асос бор. Бироқ, бу масалада ҳали бартараф қилинмаган бир қанча муаммолар мавжуд. ‘Fountain‘ pen сўзини кўшма сўзлар сирасига киритиш мумкин, чунки унинг биринчи элементи ‘fountain оти қисман ўзгарган. Унда (узлуксизлик) маъно компоненти сақланган. Лекин ambulance car бирикмасини кўшма сўз деб бўлмайди, чунки унинг қисмлари ўз лексик маъносини тўла сақлаб қолган.

Ўзбек тилида кўшма отлардаги фонетик ўзгаришларни куйидаги ҳолатларда кўришимиз мумкин: искаптопар, билагузук, Сотволди, босволди (қовун тури). Кўп кўшма отларнинг яхлитлигини урғунинг битталиги белгилаб беради. Буни куйидаги мисолда кўришимиз мумкин. Масалан: ‘blackboard‘black ‘board ‘blackbird ‘black ‘bird ‘strong-box ‘strong ‘box Кўп кўшма отларнинг фақат биринчи элементи урғу олади. Масалан: ‘copy-book, ‘football, ‘holiday, ‘raincoat, ‘tea-cup, ‘time-table, ‘trolley-bus.

Баъзи тилларда сўзлар бита кучли урғу олиши билан характерланади. Худди шу нарса кўшма отларни сўз бирикмасидан фарқлашда хизмат қилади. Инглиз тилида кучли урғу одатда биринчи компонентга тушади, иккинчи компонент эса кучсизроқ урғу олиши билан характерланади. қиёсланг: ‘door-knob «эшик дастаси», ‘crkeer «ремонт» (таъмир). Баъзи кўшма отлар юқорида кўрсатилган қоидани қабул қилмайди ва уларнинг иккинчи компонентлари урғусиз бўлади. Қиёсланг: gentleman «жентльмен» (назokatли одам), Frenchman «француз», milkman «сут сотувчи» каби кўшма отлардаги иккинчи ўзак «man» бир хил бўлишига қарамадан, gentleman [‘jɛntlmn] , Frenchman[‘frentmn] сўзларида биринчи элемент кучли урғу олади. Milkman [‘milk,mən] сўзида эса биринчи элемент кучли, иккинчиси эса кучсиз урғу олганлиги сабабли аввалги иккита сўздан фарқланади. Кўшма отнинг баъзи типлари, асосан компонентлари равиш ва предлогдан иборат бўлганларида урғу иккинчи компонентга тушади: without, ...сиз, урон,...га, устига. Шу сабабли агар сўз бирикмаси таркибидаги сўзлар ҳар доим кучли урғу олиши билан характерланса, кучсизроқ урғу билан қўлланиладиган сўзларга биз кўшма отнинг компоненти сифатида қараймиз. Масалан: ‘ice-cream [‘ajs-,kɹijm] «музқаймоқ» кўшма от, лекин ‘ice cream [‘ajs ‘kɹijm] – сўз бирикмаси. Бу икки сўз орасидаги денотатив маъноларда фарқ йўқ бўлишига қарамадан булар ана шундай тарзда ифодаланади [4].

Лекин, сўз бирикмаси кўшма сўзнинг биринчи қисми сифатида келса, у ҳамма асосий урғуларни сақлаб қолади: a wild animal house [‘wajld-‘eniml-‘haws] сўзида урғуларнинг тақсимланиши house сўзини кўшма сўз компоненти эканлигини билдиради: бу таркибдаги қолган қисмлар эса бошқа белги, хусусиятлар асосида ҳосил қилинади. Сўз қўшишда ўзакларда ҳеч қандай ўзгариш содир бўлмайди, лекин кўшма сўзлар янги акцентуацион моделга эга бўлади. Масалан: key ва hole, hot ва house, blue ва bottle сўзларини мисол тариқасида олсак, буларнинг ҳар бири ўз урғусига эга, лекин қачонки бу сўзларнинг ўзаклари янги кўшма от ҳосил қилиш учун keyhole, hothouse, bluebottle шаклида бириктирилса, бу сўзлар биринчи компонентларида бошқа бир акцентуацион модел, бириктирувчи урғуга эга бўладилар. Бу сўзларни алоҳида ҳолда қандай талаффуз қилиш жуда муҳим, чунки улар нутқ жараёнида акцентуацион моделнинг турли ўзгаришларига учраши мумкин. Бунинг

энг кенг тарқалган сабабларидан бири эмфаза, яъни сўз элементларидан бирини ажратиш ҳисобланади. Масалан: *under'writer* ва *under'taker*. Баъзи бир ҳолатларда акцентуацион моделнинг ўзгариши сўзнинг гапдаги ўрнига боғлиқ бўлади: *'bow window*, *'dormer window* and *'lattice window*.

Биринчи компонентдаги бириктирувчи урғу (' - -) модели аксарият қўшма отлар учун хосдир. Қўшма сифатлар эса иккита урғуга эга бўладилар (' - '-). Масалан: *'gray-'green*, *'easy-'going*. Бу урғу ҳар доим ҳам қўшма сўзни кўрсатавермайди, чунки у фраза урғуси ёки қўшма сўзнинг синтактик функциясига боғлиқ бўлиши ҳам мумкин. Масалан: *light-headed*, *hard-boiled* каби сифатлар атрибутив ҳолатда қўлланганда ягона урғуга эга бўлади, бошқа ҳолатларда эса иккала элементда ҳам урғулар тенг бўлади яъни сўзнинг дистрибуциясига қараб урғу ҳам ўзгаради.

Қўшма отларда урғуни қўйиш унинг элементларининг бошқа сўзлар билан мос келиши ва уларга қарама-қарши қўйилиши имкониятларига боғлиқ бўлади. Масалан: *'dining- table – 'writing table*, *'inkpot – 'teapot*, *classroom – bathroom* каби ҳолатларда биринчи элементлар қарама-қарши қўйилапти ва шунинг учун урғу айнан шу қисмларга тушяпти. *Mankind* сўзида эса икки хил турдаги урғуни кузатиш мумкин. Агар бириктирувчи урғу биринчи бўғинга тушса, у ҳолда бу сўз эр кишилар, эркаклар маъносини англатади ва *womankind* сўзига антоним ҳисобланади. Агар урғу иккинчи бўғинга *man'kind* тарзида тушса, у ҳолда инсоният, башарият маъносини англатади. *'Dining-table*, *'writing table* каби иккинчи компоненти аналогик йўл билан ҳосил қилинган қўшма отларда урғу биринчи компонентга тушади.

Бундай бирикмалар кетма-кет келганда бошқа шу каби ҳодисалардан бутунлай чегаралаш учун имплицит контраст (ички қарама-қаршилиқ) юзага келади. Масалан: *'passenger train*, *'freight train*, *ex'press train*. Лекин, бундай ҳолатларда урғу битта бўлишига қарамасдан улар сўз эмас, балки сўз бирикмаси ҳисобланади. Сўзнинг алоҳида турларида урғу бир хил формага эга бўлган қўшма отнинг маъносини фарқлашда ёрдам беришига эътибор бериш лозим: *'bookcase – a piece of furniture with shelves for books*; *'book 'case – a paper cover for books*; *man' kind – the human race*; *'mankind – men, as distinguished from women*. Инглиз тилида қўшма отлар учта асосий акцентуацион моделга эга бўладилар: Биринчи компонентдаги кучли ёки бириктирувчи урғу. *'honeymoon*, *'doorway*. Иккита урғу: Биринчи компонентдаги кучли урғу ва ундан кучсизроқ иккинчи компонентдаги иккинчи даражали урғу: *'blood-,vessel*, *'mad-doctor (psychiatrist)*, *'washing-,machine*.

Қўшма отларда бу иккита акцентуацион модел кенгрок қўлланади ва кўп ҳолатларда улар қўшма отларни сўз бирикмасидан кескин фарқловчи кучга эга бўладилар. Айниқса, бу хусусият сўзларнинг жойлашиш тартиби ўхшаш бўлганда ва сўз бирикмаларининг дистрибутив моделида кўзга ташланади. Масалан: *a 'greenhouse – a glass house for cultivating delicate plants*, *a 'green 'house – a house that is painted green*; *a 'dancing girl – a dancer*, *a 'dancing 'girl – a girl who is dancing*; *a 'mad -, doctor – a psychiatrist*, *a 'mad 'doctor- a doctor who is mad*.

Сўзларнинг жойлашиш тартиби қўшма от ва сўз бирикмаларини фарқлаш имконини бермайдиган n+n сўз ясаиш моделида қўшма отларнинг акцентуацион модели орқали сўз маънолари аниқроқ кўринади. Иккала компонентдаги тенг урғу: *'arm-'chair*, *'grass-'green*. Лекин, акцентуацион модель, хусусан, иккита тенг урғули модель ҳар доим ҳам қўшма сўзларни сўз бирикмасидан фарқлашда етарли асос бўла олмайди. Сўз бирикмаларидаги тенг урғулардан фарқли ўларок қўшма сўзларда бириктирувчи урғу мавжуд бўлади. Бириктирувчи урғу ҳар доим ҳам бир хил бўлавермайди. И.П.Иванованинг ёзишича «...Қўшма сўзларда бир урғунинг мавжудлиги билан бир қаторда шундай қурилмалар ҳам кўпки, уларга урғу ёки урғуларнинг қўйилиши бўйича саволлар ва тушунмовчиликлар келиб чиқиши табиий ҳолдир» [2]. Бириктирувчи урғу битта ёки иккинчи даражали урғу билан мос келади. У шунчалик кучли бўлиши мумкинки, ҳатто иккинчи элемент ўз аҳамиятини йўқотади, яъни ундаги товушлар редукцияга учраши *sunday* ['sʌndi] 'ёки кучсизланиши мумкин. Бу ҳолатда эса иккинчи компонент ўз моҳиятини сақлаб қолади: *birthday* ['bɜːθdeɪ].

Қўшма сўзнинг ҳар иккала компоненти ҳам урғуни сақлайдиган ҳолатлар учраши мумкин: *'gas-'stove*, *'half-'pay*, *'loaf-'sugar*, *'new-'comer*. Баъзан урғу сўзнинг ички маъносини ажратиш учун ҳам ишлатилади. Мисол тарикасида юқорида кўриб чиқилган *mankind* сўзини ва қуйидаги мисолларни келтиришимиз мумкин [1]. *'overwork* –ортиқча ёки қўшимча иш *'over 'work – қаттиқ чарчаш 'bookcase – китоб жавони book 'case – муқова жилди*

Шунингдек, фақат урғунинг ўзи яхлит белги вазифасини бажара олмаслиги ҳам мумкин. Фонетик ва орфографик яхлитлик қўшма сўз компонентларининг бирикувини кучайтиради. Бундай яхлитликнинг мавжудлиги ёки мавжуд эмаслиги, яъни иккита урғунинг борлиги ёки сўзларни

алоҳида ёзиш иккита ўзакнинг бирикишини кўшма сўзлар қаторига киритиш имкониятини чегаралашга исбот бўлиб хизмат қилади.

Замонавий тил шундай лексик бирликлар билан узлуксиз тўлдириб бориладики, уларни ҳатто китобхонлар (журналхонлар) ва шунингдек, тадқиқотчилар ҳам биринчи бор учратадилар. Учратганда ҳам фақат босма ҳолда учратадиларки, бу фонетик белгини қўллашни мустасно қилиб қўяди. Афтидан, тил эгаларининг нуткидаги урғунинг ўзи тил эгалари томонидан у ёки бу шаклдаги лексик бирликларнинг улар томонидан қандай тушунилишининг акс этишидир. Бундай лексик бирликлар қатъий мазмуний бирлик бўлиб, улар бир бириктирувчи урғуга эга. Уларни иккита мустақил бирликлар деб тушунилиши мумкин.

Бундай ҳолларда уларнинг ҳар бирига биттадан тенг урғу тушади. Бу ҳақда Г.Марчанднинг куйидаги фикрларига эътибор қаратайлик: «Кўпгина man-made типидagi сўзлар аксарият ҳолларда сўзнинг биринчи қисмида урғули талаффуз қилинади: moth-eaten, spell-bound, frostbitten, homespun, heartfelt, heart-broken каби. Эҳтимол, улар тилни тушуниш учун home-made, home-bred, custom-built, government-owned, factory-packed каби сўзлардан кўра кўшма сўзлар ҳосил бўлишидаги тасодифий характерни кўпроқ ифодалайди ва шу сабабли иккита урғу билан талаффуз этиладиган зичроқ боғланган сўзлар шаклида намоён бўлади (предикатив ҳолатда). Crest-fallen типидagi кўшма сўзларда эса урғу ҳар доим биринчи қисмга тушади» [3]. Шунингдек, ҳамма қолган белгиларга кўра тўла ўхшаш бирликлар «speech feeling»га боғлиқ ҳолда ҳар хил урғу оладилар. Бу эса ўз ўрнида тил эгасининг иккита лексик бирликнинг маъносини қандай қабул қилишига боғлиқ – тўла бириктирилган (syncretized) маъноли бирлик ёки аксинча, маъно жиҳатидан иккита мустақил бирликнинг бирин-кетин келишидир.

Табиики, бу белги назарий ва амалий фонетика учун яхшигина восита сифатида ҳамда кўшма сўзнинг семантик ва бошқа хусусиятларининг кўмаги бўлиб хизмат қилади. Кўпгина ҳолатларда фонетик хусусиятнинг ўзи етарли бўлмайди ва сўзларнинг бўлинмаслигини кўрсатувчи таркибий, график ва бошқа хусусиятларга эҳтиёж сезади.

Юқорида кўриб ўтилган барча фикр мулоҳазаларни умумлаштирган ҳолда фонетик белгини сўз ясаши таснифи жиҳатидан асосланган деб қабул қилиб бўлмайди. Шундай бўлсада, уни бошқа белгилар билан ёрдамчи белги сифатида унумли қўллаш мумкин. Кўшма отларни фарқлашда ишлатиладиган грамматик белгилар турли тилларда турлича ифодаланади, лекин баъзи тилларда бундай белгилар умуман учрамайди. Сўз ва сўз бирикмаси орасида кўплаб оралик ҳодисалар бўлиши мумкин, шунинг учун улар ўртасидаги аниқ чегарани белгилашнинг имкони йўқ. Биз кўшма отлар қаторига киритадиган формалар, аниқ бир тилдаги сўзнинг сўз бирикмасидан фарқини, унинг ўзига хос хусусиятларини намоён қилади.

Хулоса. Маъно жиҳатидан кўшма отлар сўз бирикмасига нисбатан кўпроқ бирон-бир мақсадга йўналтирилган бўлади. Масалан: blackbird «қораялоқ» аниқ бир турдаги қушнинг номини англатадиган кўшма от, black bird «қора қуш» шу рангдаги ҳар қандай қушнинг номини билдирадиган сўз бирикмасидан фарқли ўлароқ чегараланган, тор маънони фодалайди. Кўшма отларни сўз бирикмасидан чегаралашга имкон берадиган фарқлашдан белги сифатида фойдаланишга интилиш энг кенг тарқалган ҳатолардан ҳисобланади. Биз айнан шундай меъёр орқали кўшма от маъноларини аниқ белгилай олмаймиз. Гап шундаки, кўплаб сўз бирикмалари маъносига кўра хоҳлаган кўшма от маъноси каби жуда мослашиб кетган: a queerbird «ғалати одам» (сўзма сўз: ғалати қуш) ва meat and drink «энг асосийси» (сўзма сўз: таом ва ичимлик) сўз бирикмаларида bird ва meat сўзлари jailbird «ашаддий жиноятчи» (қамокхона қуши) ва sweetmeats «обакидандон» (сўзма сўз: ширин таом) кўшма отлари таркибидаги каби алоҳида махсус бир маънога эга.

АДАБИЁТЛАР:

1. Арнольд И. В. *Лексикология современного английского языка: учеб. пособие. Изд-е 2-е, перераб. М.: Флинта; Наука, 2012. – С.173.*
2. Иванова И.П. *О характеристике сложного слова в английском языке // Вопросы структуры английского языка в синхронии и диахронии. Вып.1. –Л., 1967.–С.4.*
3. Marchand H. *The Categories and Types of Present Day English Word-Formation. – Wiesbaden, 1960. –С.53.*
4. Блумфильд Л. *Язык.– М.: Просвещения, 1968. – С. .246.*
5. Фуломов Ф.Ф. *Ўзбек тилида сўз ясаининг йўллари ҳақида. – Т, 1949. –Б. 37*

6. Sharipova D. Sh., Qutliyeva M.G. *Importance of symbols in linguistics//Academy– 2021. – № 3. – (66) . – Pp. 23-23.*
7. Sharipova Dilnoza Shavkatovna, Qutliyeva Muhayyo G'ulomovna. *Linguocultural Features of Symbol and Metaphor //International Journal on Integrated Education. Volume 4 | No 10 (Oct 2021) Pp. 172-176.*
8. Sharipova Dilnoza Shavkatovna, Qutliyeva Muhayyo Gulomovna, *Application of Innovative Teaching Methods in English Lessons/ Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT Volume 2, Issue 12, December 2022, Pages 127-130*

“OSTONA” KONSEPTI LINGVOMADANIY BIRLIKLARINING BADIY MATNDAGI O‘RNI

*Maxmudova Sadoqat Xolmatovna,
BuxDPI O‘zbek va rus tillari
kafedrası dotsenti
s.x.maxmudova@buxdu.uz*

Annotatsiya: *Matn tahlili nazariyasining qarama-qarshiligi shundaki, uning ikki yo‘nalishga bevosita bog‘liqligidir. Birinchisi, adabiyotshunoslik bo‘lsa, ikkinchisi, lingvistikadir. Har ikkalasining ham o‘rganish obyekti matn hisoblanadi. Matn ma‘lumotlarini o‘rganishning quyidagi turlari mavjud: faktual mazmun, konseptual mazmun, matn osti mazmuni. Sanab o‘tilgan matn ma‘lumotlarini o‘rganish turlaridan keyingi ikkitasi lingvomadaniy birliklar tahliliga xos bo‘lib, kutilgan natijalarga erishish omilidir. Matn konseptual tahlilining qamrovi cheksizdir. Til boyligi faqatgina lug‘at birliklari bilan belgilanmaydi, balki matnlarda o‘z aksini topgan inson tili va uning millati ifodalangan konseptual dunyo va konseptual sohalar hissasi lisoniy boyliklar manbaidir. «Ostona» konsepti tashqi va ichki ma‘nolar ko‘lamini tahlil qilishda turli xil usullardan foydalanildi. Jumladan asarda ishlatilgan takroriy so‘zlar, ularning hajm va sonlarining miqdori adib mahoratiga bog‘liqligi keltirilgan misollar orqali tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *«Ostona» konsepti, lingvomadaniy birliklar, matn tahlili konseptual mazmun, faktual mazmun, matn osti mazmuni, adabiyotshunoslik, lingvistika.*

Аннотация: *Противоречие теории анализа текста состоит в том, что она напрямую связана с двумя направлениями. Первая – литературоведение, вторая – лингвистика. Объектом изучения обоих направлений является текст. Различают следующие виды изучения текстовой информации: фактическое содержание, концептуальное содержание, подтекстовое содержание. Следующие два из перечисленных видов изучения текстовой информации характерны для анализа лингвокультурных единиц и являются фактором достижения ожидаемых результатов. Возможности текстуального концептуального анализа безграничны. Языковое богатство определяется не только словарными единицами, но и вкладом понятийного мира и понятийных полей, которые отражаются в текстах человеческого языка и его народа и являются источником языкового богатства. Для анализа объема внешнего и внутреннего значений понятия «Порог» использовались различные методы. В частности, количество повторяющихся слов, используемых в произведении, их размер и количество зависит от мастерства пишущего по приведённым примерам.*

Ключевые слова: *концепт «Порог», лингвокультурологические единицы, анализ текста, концептуальное содержание, фактическое содержание, подтекстовое содержание, литературоведение, языкознание.*

Abstract: *The contradiction of the theory of text analysis is that it is directly related to two directions. The first is literary studies, the second is linguistics. The object of study of both is the text. There are the following types of studying textual information: factual content, conceptual content, subtext content. The following two of the listed types of studying textual information are characteristic of the analysis of linguistic and cultural units and are a factor in achieving the expected results. The possibilities of textual conceptual analysis are limitless. Linguistic wealth is determined not only by vocabulary units, but also by the contribution of the conceptual world and conceptual fields, which are reflected in the texts of the human language and its people and are the source of linguistic wealth. Various methods were used to analyze the volume of external and internal meanings of the concept of "Threshold". In particular, the number of repetitive words used in the work, their size and quantity depends on the skill of the writer according to the examples given.*

Keywords: *the concept of "Threshold", linguistic and cultural units, text analysis, conceptual content, factual content, subtext content, literary studies, linguistics.*

Kirish. Bizga ma‘lumki, matn terminining etimologiyasi bo‘yicha turli ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. Matn so‘zi lotincha texo (tikaman, quraman, ulayman) va textus (material) so‘zlarining birikuvi

natijasida hosil bo'lgan tushunchani ifodalaydi, degan qarash fanda o'zining ustuvorligi bilan ajralib turadi. Mazkur so'zning asl lug'aviy ma'nosi ma'lum bir matolarni bir-biriga bog'lash, bir-biriga ulashdir. Izoh sifatida aytish mumkinki, matnning qaysi tizim (til yoki nutq)ga tegishliligi masalasi ham haligacha munozarali masalalardan biri bo'lib turibdi.

Matn tahlili nazariyasining qarama-qarshiligi shundaki, uning ikki yo'nalishga bevosita bog'liqligidir. Birinchisi, adabiyotshunoslik bo'lsa, ikkinchisi, lingvistikadir. Har ikkalasining ham o'rganish obyekti matn hisoblanadi. Ayrim tilshunos tadqiqotchilar tahlil so'zining o'rnida izlanish atamasini ham ishlatishadi, chunki ikkala atama ham bir vazifani bajaradi. Shu bois ularni ma'nodosh so'zlar sifatida baholasak xato bo'lmaydi.

Matn lingvistik tahlilida yetakchi yo'nalishlardan biri-semantik sohadir, chunki ular modellashtirish va tasniflash vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ular matn maydonining konseptual, denotativ, okkazonal, emotiv tarkibi hisoblanadi. I.G.Galperin matn ma'lumotlarini o'rganishning quyidagi turlarini keltiradi: faktual mazmun, konseptual mazmun, matn osti mazmuni. Sanab o'tilgan matn ma'lumotlarini o'rganish turlaridan keyingi ikkitasi lingvomadaniy birliklar tahliliga xos bo'lib, kutilgan natijalarga erishish omilidir. Matn konseptual tahlilining qamrovi cheksizdir. Til boyligi faqatgina lug'at birliklari bilan belgilanmaydi, balki matnlarda o'z aksini topgan inson tili va uning millati (madaniyati) ifodalangan konseptual dunyo va konseptual sohalar hissasi lisoniy boylıklar manbaidir. [1.132].

Badiiy asar matnining konseptual tahlili quyidagi yo'sinda olib boriladi: matndagi tahlil qilinayotgan konseptga doir kalit so'zlarni aniqlash; ularning konsept leksik-semantik maydonidagi o'rnini belgilash; kalit so'zlarning ma'no-mazmun ko'lamini (asosan matniy ma'nolarini) aniqlash; takroriy so'zlar talqini». [2. 57.]

Asosiy qism. «Ostona» konsepti tashqi va ichki ma'nolar ko'lamini tahlil qilishda turli xil usullardan foydalanildi. Jumladan asarda ishlatilgan takroriy so'zlar, ularning hajm va sonlarining miqdori adib mahoratiga bog'liq. Adib Tohir Malikning «Jinoyatning uzun yo'li» qissasida ifodalangan matnlarga nazar solamiz. Qissaning faqatgina birinchi betida farzand so'zi (farzandu, farzandning, farzandlar, farzandining, farzandimiz, farzandingiz) sakkiz marotaba takrorlangan. Shuningdek, keltirilgan takroriy so'z shakllari ham turlicha. Bunday takroriy so'zlarning ishlatilishi inson uchun eng qadri ne'mat hisoblanadigan farzand (kelajak avlodlarimiz) tushunchasining ta'sir darajasini oshirish uchun xizmat qiladi. Asarning keyingi ikkinchi betida uchta takroriy so'zlar ishlatilgan bo'lib, ularning har biri matn mazmuni bilan bevosita bog'liq. Uzun, o'g'ri, jinoyat, e'tibor berib qaralganda, uch so'zdan ikkitasi asar nomidan o'rin egallagan (Jinoyatning uzun yo'li). Qissaning uchinchi to'rtinchi betlarida donishmand so'zi olti marotaba ishlatilgan bo'lsada, u alohida shaxslarni emas umumiy hayot saboqlarini olgan va qator sodir bo'ladigan fojialarning oldini olishda ko'rsatmalar bera oladigan faylasuflar obrazi sifatida shakllangan insonlarni tasvirlaydi.

Matn lingvistik tahlilida konseptlar o'ziga xos o'ringa ega, chunki konseptual tahlilning asl maqsadi: «madaniy ma'no-mazmunga ega konseptlar paradigmatlarini aniqlash hamda ularning konseptosferalarini tasvirlash, ya'ni konsept mental maydoni tarkibini tashkil etadigan birliklarni ochib berishdir». [2. 57.]

Mahoratli o'zbek xalq yozuvchilari Said Ahmad va Tohir Malik o'zlarining jahonshumul asarlari matnida lingvomadaniy birliklardan keng va unumli foydalanganlar. Ular o'z asarlarida milliy madaniyat bilan bevosita bog'lik bo'lgan so'zlarning ichki matniy ma'nolar ifodalaydigan leksemalarni topib o'rinni ishlatishgan. Masalan, Tohir Malikning «Jinoyatning uzun yo'li» qissasida keltirilgan Ostona sarlavhasi ostida berilgan hikoyada madaniyatimiz bilan bog'liq bo'lgan qator takror so'zlar ishtirok etgan. Jinoyat ostonasi: ota, yigit, bozordagi o'g'rilik; tuxum, ona, yigit (farzand); aybdor va javobgar: ota-ona, maktab, televideniya, militsiya, mahalla, qo'ni-qo'shni. Keltirilgan so'zlar majmui keng qirrali sharqona nozik tarbiya, odab va axloq tushunchalarini aks ettiradi. Bu so'zlarning har biri turlicha ma'no yo'nalishiga ega bo'lib milliy mentalitetimizga xos tushunchalar ifodalaydi. «Ostona» konsepti takror so'zlarning markazida turadi. Jinoyat ostonasi konseptosferasini jinoyat, jinoyatchilik, o'g'rilik, qamoq ostonasi, yovuzlik ostonasi kabilar tashkil etadi. Shu o'rinda hazrat Alisher Navoiyning yolg'on haqidagi fikrlariga to'xtalsak, kichik bir matnning o'zida 11 marotaba yolg'on so'zi takror va takror ishlatilgan, ya'ni deyarli har bir jumlada yolg'on so'zi turli xil bir-birini takrorlamas ma'nolar kashf etgan. Bu kabi yolg'onlar ham jinoyat ostonasining boshlanishiga sabab bo'ladi.

Har bir kichik matn mavzuiy, leksik-semantik guruhlar o'ziga xos neytral, yadroviy o'zak leksemalarga ega bo'lib, o'z atrofiga qator o'xshash so'zlarni to'playdi. Har qanday badiiy asar matnlari ham bir necha kichik mavzu va ma'noviy guruhlariga bo'linib lingvistik tahlil qilinadi. Tahlillar esa matn yetakchi, yadroviy so'zlaridan boshlanadi. Shuni ham e'tirof etish kerakki, ijtimoiy-tarixiy tizimlar matnga bo'lgan munosabatni o'zgartirishi mumkin. Shunga ko'ra dunyo xalqlarining badiiy matnga yondashuv sistemasi o'ziga xos bo'lib, bir-biridan keskin farq qiladi. Matn tahlilining tarixiga nazar solsak, barcha

matnlarning kelib chiqishi diniy manbalarga taqaladi. Muqaddas diniy kitoblarning paydo bo'lishi mazkur soha rivojiga turtki bo'lgan.

Matn tahlili nazariyasining rivojlanish jarayoni ikki turga bo'linadi: birinchisi, tushuntirish; ikkinchisi, o'zgacha talqin qilish, ya'ni interpretatsiya qilish. Interpretatsiya shaklan qayta ishlov berib matnga o'zgartirish kiritishdir.

Bunday interpretatsiyalar mantiqiy tushuncha, liro-publitsistik va badiiy deb nomlangan. Badiiy asarni interpretatsiya qilish mashhur faylasuf Suqrotidan boshlangan. U o'zining qarashlarini Simonid qo'shiqlari ma'no va mazmunini mantiqiy tushunchalar orqali tahlil qilish orqali bayon etgan. Boshqacha qilib aytganda, u adabiyotshunos vazifasini bajargan. Umuman olganda, matnlar interpretatsiyasi XIX asrga kelib Olmoniyada keng tadqiq qilingan. Jumladan, «Fridrix SHelling tomonidan badiiy mazmun talqinining cheksizlik kategoriyasi yanada boyitilib to'ldirilgan. Interpretatsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni V.Diltey takomilga keltirgan bo'lsa, rus olimlari S.Averinsev, M.Baxtinlar uni amaliyotda qo'llash yo'llari yuzasidan qimmatli fikrlar bayon qilishgan».[3. 213.]

Matn interpretatsiyasi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, unda matn muallifining yaratgan g'oyasi, maqsadi, dunyoqarashi, yashayotgan hududi va zamoni, ijtimoiy-siyosiy holatni inobatga olishi zaruriy omildir. Shunga qaramasdan, tahlilchi yoxud tanqidchi tahlilga davr nuqtayi nazardan ham yondashishi mumkin. Bu borada Q.Yo'ldoshev quyidagicha fikr yuritadi: «Adabiyotshunoslik tajribasida adabiy asarning tushunilish bosqich va darajalaridan kelib chiqqan holda birlamchi yoki o'qirman interpretatsiyasi, ikkilamchi yoki ilmiy interpretatsiya hamda badiiy (obrazli-ijodiy) yoki uchlamchi interpretatsiya singari interpretatsiya turlari borligi ham ma'lum. Birlamchi interpretatsiya o'qirmanning badiiy asar bilan tanishganda olgan ilk taassurot va tushunchalariga asoslanadi va u kitobxonda ko'pincha taassurot, kechinma, hissiyot, kayfiyat holida bo'lib, hamisha ham mantiqiy sillogizmlar sifatida shakllanavermaydi. Sinchi o'zining o'qirmanlik taassurotlari bo'lmish birlamchi interpretatsiyani aniq mantiqiy-tushunchaviy ifoda shakliga soladi va ularni tahlil yordamida asoslab tekshirib ko'radi, natijada haqiqatlikni da'vo qilish huquqiga ega hamda faktik, mantiqiy va hissiy isbot talab qilinadigan ikkilamchi, ya'ni ilmiy interpretatsiya yuzaga keladi. Uchlamchi yoki badiiy interpretatsiya adabiy asarni boshqa san'atlar tiliga ag'darish demakdir. Boshqacha aytganda, badiiy interpretatsiya adabiy asarning butunlay boshqa san'at turi sifatida qayta yaratilishidan iboratdir».[3. 214.]

Ma'lum bir asar yoki matnni xohlagancha interpretatsiya qilish asar mazmuniga ziyon yetkazadi. Bu juda nozik yondashuv bo'lib, asar asosiy g'oyasining o'zgarishiga olib keladi. Bu borada rus adabiyotshunosi A.Bushmin «Adabiyot haqida fan» kitobida shunday yozadi: «Ilmiy shakl badiiy obrazni to'la qamrab ololmaydi, undagi ma'nolar serqatlamligini to'la ilg'ay bo'lmaydi, obraz uyg'otgan taassurotni ko'zlay olmaydi. Agar shularni qilish mumkin bo'lganda, san'atning keragi bo'lmay qolardi. Boshqa tomondan, agar badiiy obrazni ilmiy shaklda ifoda etish mutlaqo mumkin bo'lmaganda, san'at to'g'risidagi fan dunyoga kelmagan ham bo'lardi. Badiiy obrazni mantiqiy tushunchalarga aylantirish mumkin emas, ammo uni mantiqiy tushunchalar tiliga ag'darish mumkin».[3.216.]

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, matn tahlili o'ta murakkab, ko'p qirrali bo'lib, odatda, u bilan ijodkorlar, san'atshunoslar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va tarixchilar shug'ullanishadi. Mazkur masala doirasida S.Ahmadning «Qorako'z majnun» kitobida keltirilgan «Borsa kelmas darvozasi» deb nomlangan hikoyasining kichik bir matniga e'tiborimizni qaratamiz. Unda shunday matn keltirilgan: «Bizning barakda o'n yil muddatini o'tab bo'lgan, bugun-erta ozodlikka chiqishni sabrsizlik bilan kutayotgan edi. U bilan ko'p gaplashardik. U meni «pochcha» deb atardi. U ertadan kechgacha g'imirsib, ketishga tayyorlanardi... Pochcha – derdi ajib entikish bilan u. Dadajon o'n yillik azob-uqubatlar yukini yelkasidan tushirib, ozodlik ostonasida entikib-entikib turardi. Nihoyat, uni maxsus bo'lim vakili chaqirdi. O'n besh chog'li mahbus uni kuzatib chiqdik. Dadajon qushdek yengil bo'lib, ichkariga kirib ketdi. Besh minut o'tmay, u yelkasida og'ir tosh ko'tarib kelayotganday bukchayib chiqdi. «Nima bo'ldi?» U zo'rg'a «Yana besh yil», deya oldi, xolos».[4. 35.]

Mazkur matnni ichki bir necha bo'lakka ajratish mumkin:

1) Dadajon (andijonlik mahbus, adibning suhbatdoshi)ning ozodlikka chiqishiga tayyorgarligi, ya'ni yo'lga o'tlanishi uchun tayyorgarlik ko'rishi;

2) Dadajonning insoniylik xususiyatlari;

3) taqdir o'yini (orzular sarobga aylandi).

Albatta, matnni mazmun jihatdan yana bir necha kichik matnlarga bo'lib tahlil qilish mumkin. Bu esa tahlilning qaysi yo'nalishda va maqsadlarga qaratilganiga bog'liq (filologik yoxud lingvistik). Agar badiiy

tahlilni ko'zlasak, unda quyidagilarga e'tibor beramiz: matn kompozitsiyasi, qaysi janrlarga xosligi, obrazlar tahlili va boshqalar.

Lingvistik tahlil qilinganda esa tilshunoslikning barcha yo'nalishlari talablari e'tiborga olinadi: fonetik, semantik, morfologik, sintaktik va stilistik kabi. Bulardan keng foydalaniladigani stilistik tahlildir. Tadqiqot mavzusi «ostona» konsepti lingvomadaniy birliklarining ma'nolar majmui markazidan o'rin egallagan madaniyatimiz qadriyatlarini lingvistik tahlil qilindi. Jumladan, Dadajonning insoniylik xususiyatlari Said Ahmadning Borsa kelmas darvozasi hikoyasi matni misolida madaniyatimizga xos erkinlik, ozodlikka chiqish uchun jonini qurbon qilishga tayyor Dadajonga o'xshagan badiiy obrazlar orqali milliy qadriyatlarimizni baholashga harakat qilamiz.

Millatimizga xos buyuk qadriyatlardan biri hamdardlik mavzusi ham shu kichik matnda o'z aksini topgan. Dadajon ozod bo'lgandan keyin Andijonga bormasdan oldin Toshkentga kirib, adib rafiqalariga salomni yetkazib, so'ng o'z uyiga borishni burch deb bilgan. Aynan shu matnda Dadajonning tushkunlikka tushganida adib unga suyanchiq bo'lgani hamdardlikning yuqori pog'onasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aslida hamdardlik so'zining lug'aviy ma'nosi kimsaning g'am-qayg'usini birga kechiruvchi, dardining tarqalishiga ko'maklashuvchi; dardkash va qayg'udoshlikdir.[5. 497.]

Shuni ham e'tirof etish kerakki, badiiy matn tahlili adabiyotshunoslikda alohida maxsus fan sifatida shakllanib, uning debochasi adabiyot nazariyasi tarkibida namoyon bo'lgan. Keyinchalik «estetik tahlil» nomi bilan rivojlana boshlagan. XX asr o'rtalariga kelib matn tahlilining yetakchi asoslari – bilish nazariyasi (bilmoq, haqiqatni bilmoq, madaniy qadriyatlar tarixini bilish, boshdan kechirmoq, tajribada bilmoq, sezmoq, bilib olmoq, fahmlamoq)ning besh tamoyili ishlab chiqilgan.

Bu tamoyillar badiiy asar matnlarini ilmiy tahlil qilishga mo'ljallangan. Ular *qayd qilish* (qalamga olish), *sistemalash*, *o'xshatish*, *tenglashtirish*, *birday narsa deb hisoblash*, *tushuntirish*, *izohlash*, *sharhlash*, *anglatish*, *bilmoq* kabilardan iboratdir.

Этимологияси (келиб чиқиши) жиҳатидан ўсимлик номлари ўз ва ўзлашган қатламга эга. Жумладан, *гул* сўзи аслида ўзлашма сўздир. У ўзбек тилига форс-тожик тили орқали кириб келган. Унгача туркий тиллар оиласига кирувчи ўзбек тилида “гул” сўзи ўрнида “чечак” сўзи ишлатилган. Кейинчалик бу иккала сўз “*гул-чечак*” шаклида биргаликда қўлланиб, жуфт сўзни ҳосил қилган. Бунда “чечак” сўзининг маъноси кенгайган ҳолда “ўсимлик” маъносини ифодалаб келган. Ана шу

нуктаи назардан ҳар қандай тил луғат таркибидаги гул номларини иккига бўлиб ўрганиш мумкин: а) ўз қатлам; б) ўзлашган қатлам.

“Ўз қатлам” дейилганда, асли шу тилники бўлган сўзлар, иборалар ва шулар асосидаги ясашиллар, шунингдек, ўз аффикси билан бошқа тил лексемаларидан ҳосил қилинадиган ясашиллар тушунилади. Ўз ва ўзлашма қатлам тушунчаси лексема ўзлаштиришга бевосита алоқадордир. “Ҳозирги ўзбек адабий тили” бўйича яратилган дарслик ва қўлланмаларда лексема ўзлаштириш ходисасига алоҳида диққат қилинган.

1. Ўзлашма бирликлар сўзма-сўз таржимадан иборат бўлиши мумкин. Бунда иккинчи бир тилдан ҳам маъно, ҳам форма (шакл) қабул қилинади (худди шу сўзларнинг эквиваленти келтирилади): *китайская роза – хитой атиргули* каби. Бу гул номи ўзбек тилига рус тили орқали кириб келган бўлса, япон тилидан *сакура* номи ўзлаштирилган. Инглиз тилидаги *primrose, rose, lily* лотин тилидан кириб келган.

2. Ўзлашма бирликларда ҳам маъно, ҳам шакл (сўзлар) танлашда бўлган эркинлик бир маънони ифодаловчи бир неча вариантларнинг келиб чиқишига йўл очади. Бу ҳол ҳатто тилда синонимик бирликларнинг келиб чиқишига ҳам сабабчи бўлиши мумкин: *муғжа/туркча; гунча/тожикча; daffodil/инглиз (герман тилларда); yellow narcissus/лотин* каби.

Бир сўздан таркиб топган инглиз фитонимларининг салмоқли қисмини ўзлашган сўзлар, камроқ ҳиссасини эса аффиксация, субстантивация (*pink* «чиннигул», *everlasting* «сўлмас чечак») ва қисқартириш (*lily* < *Lilium* «лилия», *elder* < *elder berry tree* >) орқали ясалган отлар ташкил қилади.[1, 8]

Инглиз тилида бошқа тиллардан кириб келган ўзлашма сўзлар салмоғи анча кенг бўлиб, уларнинг аксариятини лотин ва юнон тилларидан ўзлашган фитонимик лексемалар ташкил этади.[1,9] *Дарҳақиқат, rose, violet, laurel* лотин тилидан; *amaryllis, gillyflower* юнон тилидан; *bellamore* француз тилидан инглиз тилига кириб келганини мавжуд луғатлар орқали билиб олиш мумкин. Шундан *rose, rosa* (атиргул) эски инглиз тилига лотин тили воситасида, *violet* (бинафша) лотинча “*viole*”, французча “*viola*” сўзлари асосида ўрта инглиз тилига, *laurel* (лавр), яъни лотинча “*laurus*”, эски француз тилидаги “*lorer*”, “*lor laurel*” сўзларидан инглиз тилига кириб келган.[14]

Худди шунингдек, юнон тилидан “*amaryllis*” (амариллис), “*amaryssein*”; “*gillyflower*” (чиннигул) сўзлари ўзлашган. Бу сўзлар юнон тилида “*karyophyllon*”, лотин тилида “*strophyllyum*”, эски француз тилида “*girofle*”, ўрта инглиз тилида “*gilofre clove*” шаклида ишлатилган.

Сўзма-сўз таржимаси “гўзал аёл / муҳаббат” тушунчасини англаган французча “*bell amore*” ёки “*bellamore*” номли афсонавий гул номи француз тилидан инглиз тилига ўтган.

Эътиборли томони шундаки, инглиз тилига форс, араб, турк тилларидан ўзлаштирилган гул номлари ҳам мавжуд. Бунга *carnagione* италян тилидан, *yasmin* форс тилидан, *tulip* турк тилидан ўзлашганини айтиш мумкин. Аслида илдизи форс тилидан келиб чиққан “*yasmin*” (ясмин ёки жасмин) атамаси дастлаб араб тилига “*yas(a)min*”, ундан кейин *jessamine* ёки “*jasmine*” кўринишида француз тилига ўзлашган. Кейин шу тиллар воситасида инглиз тилига кириб келган.[14]

Келиб чиқиши турк тили билан боғлиқ бўлган “*tulbent*” (лола ёки қалпоқ) сўзи *tulip, tulpe* немис тилига, ундан сўнг “*tulipe*”, “*a tulip*” француз тилига кўчган.[14]

Сўзма-сўз таржимада “гўзал аёл” тушунчасини ифодаладиган “*belladonna*” гулининг номи эски италян тилида *belladonna* сўзидан ўзлашган бўлса,[14] *carnation* (чиннигул) сўзининг илдизи асли италян тилига хос бўлиб, француз тили орқали инглиз тилига кириб келган.

Юқорида келтирилган мисоллардан маълум бўлмоқдаки, ўзлашма сўзлар тил ривожининг бир нечта босқичларидан ўтса-да, кўпинча уларнинг тарихий илдизи лотин ва юнон тилларига бориб тақалади.

Инглиз тилида мураккаб, яъни бир нечта сўзларнинг қўшилиши натижасида вужудга келган фитонимик лексемалар, одатда, икки усулда ҳосил бўлгани кузатилади. Бундай фитонимик номларнинг қўшма сўзларни ҳосил қилиши кенг учрайдиган ҳодисадир. Бу жиҳатдан инглиз тилида қўшма сўзлар орқали аталадиган фитоним номларнинг ясалиши икки хилда учрайди:

1. Фақат туб сўзларнинг бирикувидан ясалган оддий қўшма сўз. Масалан, *hawthorn* / дўлана (сўзма-сўз таржимаси «чамбарак» + «тикан»); *rosemary* / розмарин (сўзма-сўз таржимаси «атиргул» + «Мария»); *marigold* / гулидовуд (сўзма-сўз таржимаси «мария» + «олтин»); *hazelwort*/Европа ёввойи имбири кабилар бунга далил бўла олади.

2. Таркибий компонентлари предлог воситасида боғланган қўшма сўзлар. Бундай фитонимлар инглиз тилида анчагина. *Lily-of-the-valley* «марваридгул» (сўзма-сўз таржимаси “водий нилуфари”),

jack-in-the-bush (сўзма-сўз таржимаси “буталардаги Жэк”), *jack-jump-about* (сўзма-сўз таржимаси “сакраш арафасидаги Жэк”) кабилар шулар жумласидандир.

Предлог воситасида боғланган шундай қўшма сўзлар ҳам борки, улар тўрт ва ундан ортик бирликлардан иборатдир. Масалан, *john-that-goes-to-bed-at-noon* (сўзма-сўз таржимаси “пешин уйқуга кетадиган Жон”) номланган ўсимликнинг гули эрталаб очилиб, тушда ёпилади. Табиийки, ўсимлик номи унинг айнан шу физиологик хусусиятидан келиб чиққан. Ўзбек тилида худди шундай гул тури “*намоз+шом+гул*” номи билан учрайди.

Инглиз ва ўзбек тилларда параллел ҳолда яшаб келувчи, қўлланувчи гул номлари мавжуд: *amirgul/poza; clove/carnation/gillyflower* каби.

Бундай ҳар икки тилда параллел қўлланувчи гул номларининг ҳар бири асосида унинг яратувчиси ва эгаси бўлган халқнинг тарихий тараққиёти билан боғлиқ предмет, воқеа ва ҳодисалар ётади. Тиллардаги бир хил сўзлар, бир хил маънони ифодаловчи лексик бирликлар кишилик жамияти учун умумий бўлган ўринларда учрайди. Бундай сўзлар ҳар бир тилда шу тилнинг эгаси бўлган халқнинг ўз тараққиёти асосида мустақил равишда шаклланган бўлади. Лекин улар ўз образлигига кўра бири иккинчисини тўлиқ қопламайди.

Китобий йўл билан адабий тилга кириб келган гул номлари ҳам мавжуд: *наргис, сунбул; bellamour, belladonna* сингари.

Ўзбек тилида турғун ўхшатиш эталонига эга гул номлари бор. Сунбул – соч; наргис – кўз; *rose* – ёноқлар; *cherry* – лаб ва ҳоказо каби.

Умуман айтганда, гулларни тилнинг лингвокультурологик хусусиятларини кўрсатувчи тил бирлиги сифатида инсон аъзолари (гулкомат), ташқи кўриниши (ғунчадек лаб), жисмоний хусусияти (гулдек нозик), хатти-ҳаракати (очилган гулдек ёки гул каби очилмоқ) сингарилар билан боғлиқ бўлган бир қатор гуруҳларга бўлиб ўрганса бўлади. Шундан шахс хусусиятини ифодаловчи гуллар семантик майдонини қуйидаги микрогуруҳлар асосида таҳлил қилиш мумкин, деб ҳисоблаймиз: *чиройли бўлмоқ / гулдай очилмоқ; қувонмоқ / гул-гул яшинамоқ, гулдай яшинамоқ; уялмоқ / гулдай қизармоқ; сирни фош қилиб қўймоқ / гуллаб қўймоқ; ишни бузиб қўймоқ / гул кесмоқ; обод қилмоқ / гуллатмоқ; тозаламоқ / чиннидай қилмоқ; кўнгил бермоқ / гул тутмоқ, гул бермоқ* ва ҳ.к.

Бу микрогуруҳлар ҳам, ўз навбатида, яна бир қатор ички кичик гуруҳларга бўлиниб кетади. Масалан, шахс хусусиятини ифодаловчи микрогуруҳ – **барвасталик** / чинордек қад, шамшоддек қад, найновлик / мирзатерак, **гердайганлик, кибрлилик** / теракдек қаймоқ, **тўкин-сочинлик** / тутдек тўкилмоқ, **ғамгинлик** / мажнунтолдек бош эгмоқ, **бақувватлик** / зарангдек, **билимсизлик** / мияси пўк, дубдек, ошқовоқбош, **озгин** / қамишдек, **зарарқунанда** / чакиртиканак, **юзи буришган** / шафтолиқоқи, **қизилюзлилик** / анорюзли, **сийна** / қўшолма, қўшанор, **хушрўй** / узумнинг сувидай, **қизил тошма чиқариб касалланмоқ** / гул чиқармоқ, **уддабурон** / кўли гул каби таггуруҳларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Қиролича Виктория даврида кириб келган “Language of flowers” (“Гуллар тили”) шеъриятда гуллар ва дарахтларга алоқадор янги маъноларни олиб кирди. Унга кўра, ҳар бир гулга махсус маъно юкланган ва баъзан бу маънолар ўсимликларнинг мифологик, фольклорий маъноларидан фарқ қилган. Масалан, *carnation* (чиннигул) завқланиш, *columbine* (каломбина) ахмоқ ёки нодон, *cherry blossom* (гилос гули) таълим, *cowslip* (наврўзгул) оддийлик, *cypress* (кипарис) аза, *daffodils* (оч сарик тусдаги наргис) эътибор, *daisy* (мойчечак) беғуборлик, *jasmine* (жасмин) гўзаллик, *laurel* (лавр) шон-шараф, *white lily* (оқ нилуфар) поклик, *water lily* (сув нилуфари), *myrtle* (мирт) муҳаббат, *narcissus* (наргис) худбинлик, *iris* (ирис) умид, хабар, ёруғлик ва қудрат, *oak* (эман) улуғворлик, меҳмондўстлик, *olive* (зайтун) тинчлик, хавфсизлик, *pansy* (бинафша) ўй-хаёллар, *primrose* (примула) ёшлик, севишганларнинг шубҳа ва кўркувлари, *rose* (атиргул) гўзаллик, аёл, севги, *rosebud* (гулгунча) ёшлик чиройи, *tulip* (лола) кучли муҳаббат, абадий ажралиш, *violet* (бинафша) қатъиятлик, *willow* (мажнунтол) тарк этилган муҳаббат маъноларини ифодалаб келган.

Инглиз ва ўзбек тилларида гулнинг соматизмлар тавсифи учун қўлланиши алоҳида эътиборни тортади:

юз лексемасининг гул фитонимлари билан боғланиши: *гул юз, анор юз, лола юз, лола ёноқ / Rose cheeks, cherry cheeks, apples in cheeks, rose and lily;*

лаб: *гунча лаб, гилос лаб, анор лаб / Cherries, rose-buds (amirgul gunchasi);*

оғиз: *ниста даҳан;*

соч: *сунбул соч, райҳон соч/ folded flower (ўралган/букилган гул), golden tree (тилла дарахт);*

кўз: *наргис кўз / pinks (чиннигулнинг ҳажман кичик тури), narcissus (наргис), violet (бинафша);*

қош: ўсма, *bellatour* (номаълум афсонавий гўзал гул);
қовоқ: бодом қовоқ / *tossy stone* (мохли тош); **қўл:** қўли гул / *lily hands* (нилуфар қўллар);
тан, бадан: гулбадан, гултан; шамшод, сарв, ниҳол
пешона: лолақизгалдоқ / *lily* (нилуфар);
из: босган изи гул.

Демак, кўпинча турли соматизмлар гул фитоними билан боғланиб, шахс сифатини ифодалашга хизмат қилади. Бунда улар англлатган маъно кўчма (коннотатив) бўлади. Масалан, гуллар ташки гўзалликни (гулбадан); фаол яратувчи, уддабуронлик (қўли гул); рангни (лоладай лаб); шакл-кўринишни (ғунчадек лаб); касалланишни (гул чиқармоқ); ғамгинликни (сарик гулдай сарғаймоқ, гулдай сўлимоқ) маъноларини ифодалаб келади.

Гул номини ифодаловчи сўзлар шакл ва маъно муносабатига кўра уч хилдир:

а) шаклдош (омоним): гул – ўсимлик номи, гул – касаллик номи;

б) маънодош (синоним) ғунча, муғжа; лола юз, анор юз, гул юз / кизил юз; Cherries, rose-bud, roses, flowers on cheeks.

в) зид маъноли (антоним): гул / тикан; flower, rose / thorn; lily / weed.

Гул фитонимлари ва улар асосида пайдо бўлган фразеологизмлар кўпинча ўхшатишга асосланган образлар орқали ифодаланиши аёнлашади. Улар алоҳида амбивалентлик хусусиятига эга. Шунинг учун уларнинг муайян маъновий гуруҳга тегишлилигини белгилаш шартлидир. Айниқса, амбивалентлик хусусияти кўпчилик жиҳатдан инглиз ва ўзбек тили фразеологизмларига ҳам мансубдир.

Хулоса. Барча халқлар орасида гуллар билан алоқадор эътиқодий қарашлар тизими шаклланган бўлиб, уларнинг келиб чиқиши ибтидоий инсонларнинг анимистик ва тотемистик мифологик тасаввур-тушунчаларига бориб тақалади. Жамийки халқларда гулларга ошуфталик ва эътиқод қадимдан шаклланган бўлиб, қатор анъаналарда ҳамон давом этиб келмоқда.

АДАБИЁТЛАР:

1. Аникина Т. В. Словообразовательная структура фитонимической лексики в английском и русском языках // *Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики*. – Т.4. – №4. – 2018.
2. Апресян Ю.Д. *Лексическая семантика*. – М.: Наука. 1974. – С.4
3. Бегматов Э.А. *Ўзбек исмлари*. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. – 208 б.
4. Зобанорлу Ўзкул. *Турк дунёси эпик анъанаси. Акчаг наирлари*. – Анқара, 2007. – Б.63.
5. Коновалова Н.И. *Народная фитонимия как фрагмент языковой картины мира*. – Екатеринбург: Изд-во Дома учителя, 2001. – С.150.
6. Неъматова Г. Ҳ. *Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадиий қўлланиши*. Филол. фан. номз... дис. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.14 (11);
7. Суперанская А.В. *Общая теория имени собственного*. – М.: Наука, 1973. – С.189.
8. Хошимхуджаева М.М. *Мотивологический анализ английских, русских и узбекских фитонимов с компонентом-антропонимом*. – *Проблемы истории, филологии, культуры*. – 2017. – №1. – С. 369-378
9. Кўчқортюев И. *Сўз валентлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти*. – 1973. – 3-сон. Б.35.
10. Bakhodirovna, D. Z. (2021). *Description of Human Features and Feelings through Flora in English Poetry*. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(10), 6-9. <https://doi.org/10.47494/cajlp.v2i10.209>
11. Djalilova, Z. B. (2020). *Flora in Edmund Spenser's poetry*. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 371-375.
12. Djalilova, Z. (2022). *Описание человеческого образа посредством цветов в английской поэзии*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 26(26). извлечено из http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8567
13. <https://www.countryliving.com/uk/homes-interiors/property/a20868538/quarter-british-houses-streets-flower-tree-plant-names/>
14. <https://www.merriam-webster.com/dictionary>
15. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). *The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain*. *Miasto Przyszłości*, 28, 324–328. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
16. Yunusova, A. (2023). *Thinking, reading and writing critically*. *Центр научных публикаций buxdu.Uz*, 27(27). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733.

АУТЕНТИК МАТН ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА ТАСНИФИ

Ибрагимова Найира Анваровна,

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети, фал.ф.д. (PhD), доцент
nayira@inbox.ru

Аннотация. Мазкур мақолада матн турлари, хусусан аутентик матн тури таҳлил қилинган. Тадқиқотда аутентик матннинг келиб чиқиши, турли тилишунос олимларнинг аутентик матн борасидаги изланишлари кенг таҳлил қилинган бўлиб, ушбу таҳлиллар натижасида аутентик матн тизимли равишда ўрганилган ва тегишли хулосалар ишлаб чиқилган. Шунингдек, мақолада аутентик матн турлари, категориялари ва таснифи келтирилган.

Калим сўзлар: аутентик матн, реал, категория, тасниф, оғзаки ва ёзма матн, лексика, она тили, информатив.

Abstract. This article analyzes text types, especially authentic text type. In the study, the origin of the authentic text, the researches of various linguists on the authentic text were widely analyzed, and accordingly, the authentic text was systematically studied and appropriate conclusions were drawn up. The article also presents authentic text types, categories and classification.

Keywords: authentic text, real, category, classification, spoken and written text, lexicon, native language, informative.

Аннотация. В этой статье анализируются типы аутентичного текста. В исследовании проанализировано происхождение аутентичного текста, и приведены исследования различных лингвистов по аутентичному тексту, и в результате предоставлен систематичный подход к изучению аутентичного текста. Были выдвинуты соответствующие выводы. В статье также представлены типы аутентичных текстов, категории и классификация.

Ключевые слова: аутентичный текст, настоящий, категория, классификация, устный и письменный текст, лексика, родной язык, информативность.

Кириш. Аутентик матнлар тил чегараларининг ўзгариши билан, кундалик ҳаётда фойдаланиладиган ғоялар, сўзлар, иборалар ва ибораларни ўз ичига олувчи материаллар сифатида наъмоён бўлади. “Аутентик” атамаси этимологиясига назар ташлар эканмиз, унинг турли талқинларини кўришимиз мумкин. Oxford English Dictionary луғатига кўра аутентик сўзи XIV асрларнинг ўрталаридан муомалага киритилган бўлиб, “ваколатга эга” деган маънони англатган. Эски француз тилида (XIII асрларда) эса *autentik* - “аутентик, қоидага айланган” (диний контекстда “каноник”) деган маънони англатган бўлса, латин тилида *authenticus*-“ҳақиқий, чинакам, асосий” деган маъноларни касб этган. Аслида эса грек тилидаги *authentēs* сўзидан ясалган бўлиб, *autos* “ўзи”+ *hentes* “бajarувчи, бажарилаётган” деган маъноларни англатган. “Ҳақиқий, реал” деган маъноларда XIV асрнинг ўрталарида қўлланила бошлаган.[1] Аутентик матн ўзи пайдо бўлган тил жамиятида маълум бир ижтимоий мақсадларни акс эттириш учун яратилган матн сифатида талқин қилинади. Ушбу тарифга кўра, она тилида ушбу тил ташувчилари учул ёзилган романлар, шеърлар, газета ва журнал мақолалари, кўрсатма ва қўлланмалар, рецептлар, хабарномалар, рекламалар, саёхат бўйича йўриқномалар, чипталар, жадваллар, қайдномалар аутентик матнлар ҳисобланади. [2]

Методология. “Аутентик” матн дарсликларда учрайдиган наъмуна тарзида бериладиган матнларга қарама қарши бўлиб, улар ўқувчиларга нафақат коммуникатив, балки маданий компетенцияларни ривожлантиришга қаратилган матнлар ҳисобланади. Аутентик материаллар реалия деб ҳам юритилиб, тил ташувчилари учун она тилида тузилган ҳар қандай матн шакли ҳисобланади. Ушбу матнлардан ўқитиш мақсадида ҳам фойдаланиш мумкин албатта.

Аутетик матнлар Европада (Coste, 1980, Widdowson, 1970, Breen, 1985) ва Қўшма Штатлар (Kramersch 1988, Nostrand 1989) кенг муҳокама объекти бўлган. Видовсоннинг айтишича, аутентиклик матннинг ўзида эмас, балки маърузачилар ва тингловчиларнинг ундан қандай фойдаланишида, яъни тингловчиларнинг жавобларида наъмоён бўлади. Одатда, аутентик матнларни ўқитувчилар дарс

жараёнига тадбиқ этишни хохлайдилар. Зеро, аутентик матнлар ҳар қандай даражадаги ўқувчилар учун фойдали бўлиши мумкин.

Аутентик матнларнинг хусусиятлари бир қарашда кўринганидан анча мураккабдир. Аутентик материаллар аста секин дарсликларга реклама, брошура, меню, жадвал, рецепт, кўшиқ ва кундалик ҳаётда ишлатиладиган бошқа жанрлар кўринишида кириб бормоқда. Аутентик материалларнинг бошқа турларига газета ва журналлардаги мақолалар, фильмлар, кино трейлерлари, расмлар, ҳужжатли фильмлар, интервьюлар ва ҳар хил турдаги эшиттиришлар киради. [3]

Аутентик матн бу бошқа тилдаги матнга расман тенглаштирилган ҳужжат матни бўлиб, одатда юридик кучга эга бўлган бошқа тилда тузилган матн туридир. Масалан, турли давлатлардаги олийгоҳлар ўртасида тузиладиган аглашув меморандуми (Memorandum of understanding), шартномалар (Agreement, contract) шулар жумласидандир. Ўқув-аутентик матнлар –бу ўқув жараёнининг барча реал параметрлари ва аутентиклик мезонларини ҳисобга олган ҳолда махсус ишлаб чиқилган матнлар бўлиб, улар муайян таълимга оид муаммоларни ҳал қилиш учун мўлжаллангандир (ўқув режа, наъмунавий дастур ва бошқалар).

Аутентик матн табиий лексик таркиб ва грамматик шакллар, лингвистик воситаларнинг вазиятга мослиги билан тавсифланади. Жумладан, Е.В. Носонович ва Р.П. Милруд тил ташувчилари томонидан қабул қилинган ва меъёрларга жавоб берувчи матнни аутентик дискурс деб таърифлаб, унинг қуйидаги хусусиятларини ажратиб кўрсатганлар: «1. Структуравий аутентиклик. Бу тушунча матн тузилишининг ўзига хос хусусиятлари, яъни мантиқийлиги, мазмунан ва шаклан яхлитлиги билан боғлиқ. 2. Лексик-фразеологик аутентиклик. 3. Грамматик аутентиклик. 4. Функционал аутентиклик. 5. Тил бирликлари тақсимланишининг статистик жиҳатдан аутентлиги, синтагмаларнинг узунлиги ва бошқалар..» [4]

Инглиз олими Ж. Хармернинг фикрича, аутентик матн деганда, аввал бошидан ўқув мақсадларига мўлжалланмаган матнлар тушинилиб, она тилида шу тил ташувчилари учун ёзилган ҳар қандай матнлар ҳисобланади. [5] Рус олимларининг фикрича, аутентик матнлар бу тил ташувчилари томонидан ҳаётий вазиятлар учун яратилган оригинал матнлардир.

Тилшуносликда аутентик матнлар лексик бирликларнинг ўзига хослиги билан ажралиб туради. Аутентик матнда кўплаб олмошлар, бўлакчалар, эмоционал рангга эга бўлган сўзлар, ассоциатив алоқларни юзага келтирувчи иборалар, фразеологик бирликлар, идиомалар, жаргон сўзлар, қисқа гаплар, замонавий сўзлар, парчаланиш ва бошқалар учрайди.

Аутентик матнлар икки хил: ёзма ва оғзаки матнларга бўлинади. Оғзаки аутентик матннинг лингвистик ва паралингвистик хусусиятларини ажратиб кўрсатиш муҳимдир. Лингвистик нуқтаи назардан оғзаки аутентик матннинг энг информатицион хусусиятларидан бири бу интонация бўлиб, у нутқнинг маъносини тўғри етказишда муҳим омил ҳисобланади. Фонетикларнинг таърифига кўра, интонация оҳанг, урғу, пауза, темп, тембр баландлигидаги ўзгариш билан ифодаланувчи коммуникавий маънони касб этади. Интонация воситалари ёрдамида гапларнинг асосий коммуникатив типлари узатилади; улар мураккаброқ бирликларга бирикиб, ўзаро семантик муносабатларни ифодалайди. Интонация жумланинг тугалланганлик белгиси бўлиб, унинг таркибий ва синтактик функциясини намоён қилади; у жумлаларнинг информатицион ўзагини, уларнинг мавзуси ва ремасини (мантиқий-коммуникатив функцияни) таъкидлайди; интонация ёрдамида турли туйғулар, мулоқот қилувчиларнинг ҳолати (эмоционал-экспрессив функция) ифодаланади. [6]

Аутентик матнларнинг таснифда ҳам турли ёндашувлар мавжуд бўлиб, методологик мақсадларга йўналтирилган аутентик матнлар таснифи Носонович, Милруд ва М. Бринлар томонидан келтирилган:

1) Культурологик аутентиклик — она тилида сўзлашувчилари ҳаётининг асосий хусусиятлари ҳақидаги тасаввурни шакллантирадиган матнлардан фойдаланиш;

2) Информатив аутентиклик — актуал, фойдали маълумотларни ўз ичига олган, ўқувчиларнинг ёш категориясига мос матнлардан фойдаланиш;

3) Вазиятли аутентиклик — коммуникация жараёнида табиий аутентик вазиятни яратиш, масалан, тил ташувчилари учун қизиқ бўлган ўқув иллюстрациясини яратиш;

4) Миллий менталитет аутентиклиги - бунда чет тилининг маълум бир иборасини кўллашда унинг мос ёки мос эмаслигини тушунтириш;

5) Реактив аутентиклик — матннинг ўқувчиларда эмоционал, ақлий ва нутқий реакцияни уйғота олиш хусусияти;

6) Яратиш аутентиклиги — ўқув қўлланмадаги матн форматининг асл нусхадаги вариантыга мувофиқлиги, ўқувчилар учун матннинг коммуникатив вазифасини тушунишни осонлаштириш;

7) Матнлар юзасидан бериладиган топшириқларнинг аутентиклиги— топшириқларда ўқувчиларнинг матн билан бўлган ўзаро таъсирини фаоллаштириш хусусиятининг мавжудлиги, хусусан, улар турли ахборот манбаълари билан ишлашда ўқиш вақтидан ташқари бажариладиган ҳаракатларга асосланиши керак.

Юқорида келтирилган барча турдаги аутентик матнларнинг мураккаб тил таркиби муаммоси ҳақида гапирганда, матн билан ишлашни ташкил қилиш усуллари кўриб чиқиш керак. Аутентик матнларни танлашда, Носонович Э.В. ва Милруд Р.П. томонидан тақдим қилинган аспектларга эътибор қаратамиз. Шунингдек, аутентик матнлар ҳар хил ўқиш турларига мос равишда танланиши лозим. Ўқиш кўникмасининг бир қанча турлари мавжуд бўлиб, уларга кўриб чиқиш (skimming) ва танишиш, керакли маълумотларни топиш учун ўқиш (looking for information), матн мазмуни ҳақида умумий таассурот олиш (getting main idea) ва матнни юз фоиз тушунган ҳолда ўрганиш (scanning) кабилар қиради.

Матнни кўриб чиқиш (scimming) матн мавзуси ҳақида умумий тасаввурга эга бўлиш ёки аниқ маълумотни қидириш вазифасини қўяди. Ушбу мақсадга эришиш сарлавҳаларни, алоҳида параграфларни ёки жумлаларни ўқиш орқали амалга оширилиши мумкин. Ушбу турдаги ўқиш аутентик функционал матнлар учун хосдир. Ўз навбатида, кўриб чиқиш техникаси матннинг камида 70% тушунишни кўзда тутиш билан бирга, матннинг иккинчи даражали маълумотларини ҳам умумий ҳолда тушуниш керак. Ўқишнинг ушбу тури ҳақиқий мулоқот доирасида кенг тарқалган бўлиб, ўрганилаётган тил мамлакатининг ҳаёти, турмуш тарзи ва маданияти хусусиятларини акс эттирувчи маълумотларни ўз ичига олган аутентик матнлар доирасида амалга оширилади.

Кўпгина муаллифлар ҳар қандай матн билан ишлашда учта асосий босқич - матндан олдинги (pre-reading), матн (reading) ва матндан (post reading) кейинги босқичдан иборат деган фикрга қўшиладилар. Матн устида ишлаш вақти ва чуқурлиги аутентик матн турига боғлиқ. Прагматик матнларга келсак, улардан маълум бир маълумотларни қидиришда (шаҳар харитаси), ахборот берувчи матнларни ўрганиш учун (рецептлар, кўрсатмалар (инструкциялар)), танишиб чиқиш учун берилган матнлардан (эълонлар) фойдаланиш мумкинлигини айтиш керак.

Ушбу матнларни ўқишда тил ва тил таркибидаги қийинчиликлар муаммо туғдирмаслиги керак, чунки уларнинг кичик ҳажми ва расмий ифодаси туфайли улар матндан олдинги босқич (pre-reading) да бутунлай олиб ташланади.

Е.С. Кричевская аутентик матнлар таснифида прагматик материалларнинг аҳамиятли эканлигини таъкидлаб, уларнинг қўлланишига кўра ушбу турларини келтирган:

1. Касб таълим соҳаси мулоқоти;
2. Ижтимоий маданий муҳит мулоқоти;
3. Маиший соҳа мулоқоти;
4. Савдо-тижорат соҳаси мулоқоти;
5. Оила мулоқот соҳаси;
6. Спорт ва соғломлаштириш соҳаси мулоқоти. [7]

Е.С.Кричевская томонидан аутентик материалларни аниқлашдаги берган таснифи кўп жиҳатдан Г.И. Воронинанинг таснифига муштаракдир. Рус олимаси Г. Воронина Г. И., турли хил жанрли шаклларга эга бўлган икки турдаги аутентик матнларни ажратиб кўрсатади:

1. Кундалик ҳаётда учрайдиган функционал матнлар бўлиб, улар кўрсатма берувчи, тушунтирувчи, реклама ёки огоҳлантирувчи матнлар, йўл белгилари, диаграммалар, чизмалар, театр дастурлари ва бошқалар шулар жумласидандир.

2. Доимо янгилашиб турувчи ва ахборот бериш функциясини бажарувчи информатив матнлар. [8]


Ўқув матнининг аутентиклиги кўп жиҳатдан лексик ва фразеологик бирликларнинг тўғри танланиши билан белгиланади. Бунда энг муҳим мезон – танланаётган бирликнинг аутентиклиги, унинг, ўрганилаётган тилда (масалан, инглиз тилида) қўлланилиш частотаси ҳисобланади. Бу тушунча оғзаки ва ёзма нутққа хос бўлган грамматик тузилмалардан фойдаланиш билан боғлиқдир. Матнни тузишдаги хусусиятлар, унинг мантикийлиги, мазмуни ва шаклан яхлитлитлиги ҳисобга олиниши керак. Бунда оғзаки нутқ маҳсулига хос бўлган бир қатор қонуниятлар ва хусусиятлар назарда тутилади. Аутентик матнни бошқа аспектлар билан муштараклигининг статистик тавсифи

Ўқув адабиётларида аутентик мантнинг оптимал моделини яратиш имкониятини беради. Ушбу модель аутентик матнларнинг мазмун жиҳатидан тўлдирувчи куйидаги мезонларни ўз ичига олади:

1. Культурологик аспект;
2. Информатив аспект;
3. Вазиятли (ситуатив) аспект;
4. Миллийлик аспекти;
5. Форматлаш аспекти;
6. Топшириқ аспекти;

7. Ўқув материалларида кўп миқдорда ўрганилаётган тил ўлкасига оид бўлган маълумотларнинг мавжудлиги ўқувчиларнинг чет тилларини ўрганишга бўлган қизиқиш ва мотивацияларини оширади.

Аутентик матнда бир вақтнинг ўзида юқорида санаб ўтилган аспектларнинг бир қанчаси мужассам бўлими мумкин. Масалан, ўзбек тилидаги иш ҳақидаги матн эълонини кўриб чиқсак (Расм 1). Ушбу матн АКТ дискурсидаги аутентик мантнга мисол бўла олади. Ушбу эълон сарлавҳасида “.. *йигит қизларни ишга таклиф қиламиз*” жумласида ёш кетегорияси яққол белгиланган. Шунингдек, эълоннинг умумий матни ахборот берувчи функцияга эга. Бу, информатив аутентлик турига мисол бўла олади. Эълон матнинг асосий қисмида “...*трудоуовой юради*” жумласидан, культурологик, ҳамда реактив аутентиклик белгиларини кўришимиз мумкин. Ушбу матн кундалик ҳаётда учрайдиган функционал матн турига киради. (Манба: <https://www.olx.uz/oz/obyavlenie/rabota/call-centerga-tajribali-sotuvchi-yigit-qizlarni-ishga-taklif-qilamiz-ID2Fmj.html>)



Расм-1. Ўзбек тилида иш ҳақидаги эълон матни

Аутентик матнларга куйидаги матнлар мисол бўла олади:

1. Ресторан менюлари
2. Рекламалар
3. Компания вебсайтлари
4. Саёҳат брошуралари
5. Резюмелар

6. Тахта эълонлари
7. Илмий мақолалар
8. Самолётга чиқиш талони
9. Инструкциялар

Юқорида таҳлил қилинган олимларнинг фикрини жамласак, аутентик матнларни аутентик бўлмаган матнлардан ажратишни қуйидаги жадвални кўришимиз мумкин (1-жадвал).

1-жадвал. Аутентик матнларнинг аутентик бўлмаган матнлардан фарқи

	Аутентик материаллар	Аутетик бўлмаган материаллар
Матн яратиш мақсади	Реал чет тилидаги коммуникация	Таълим бериш
Йўналтирилганлик	Коммуникатив қобилиятни ривожлантириш	Тил структураси ва шакллари мустақамлаш
Тил таркиби	Иборали жумлалар, паузалар, клишелар ва бошқалар	Стандартлаштирилган шахсиз нутқ
Манбалар	Асл хориж манбалари	Махсус тайёрланган материал

Таркиб нуқтаи назаридан, аутентик матн турдош билимларни ўзида акс эттиради. Турдош билимлар деганда, одатда, алоқа жараёнига таъсир қилуви турли хил билимлар мажмуи тушунилади.

Хулоса. Шундай қилиб, турли манбалардан олинган аутентик матнларга берилган тарифлар хилма хил бўлса-да, умуман олганда улар бир нарсада ўхшашдир. Бу ўхшашлик аутентик матнларни асл манбадан олинган матн, бошқа тилдаги матнга эквивалент ва бир хил кучга эга матн сифатида талқин қилинишида намоён бўлади. Аутентик материаллар эса матн, видео ва аудио форматларда тил ташувчилари учун она тилида махсус яратилган материаллар бўлиб, тегишли жамият вакилларининг чет тилидан фойдаланиш жараёнининг натижаси сифатида намоён бўлади. Аутентик матнлар таснифига кўра, функционал, информатив ва бадий аутентик матнларни ажратиш мумкин. Бироқ аутентик матнга нисбатан берилган, глобал равишда қабул қилинган ягона таъриф мавжуд эмас.

АДАБИЁТЛАР:

1. Harper, Douglas. "Etymology of authentic." *Online Etymology Dictionary*, <https://www.etymonline.com/word/authentic>. Accessed 26 January, 2023.
2. Louwse, Max & Mccarthy, Philip & McNamara, Danielle. (2007). *A Linguistic Analysis of Simplified and Authentic Texts*. *The Modern Language Journal*. 91. 15 - 30. 10.1111/j.1540-4781.2007.00507.x.
3. Ciornei, Ileana & Dina, Tatiana. (2015). *Authentic Texts in Teaching English*. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. 180. 274-279. 10.1016/j.sbspro.2015.02.116.
4. Носонович Е.В. *Параметры аутентичного учебного текста* / Е.В. Носонович, Р.П. Мильруд // *Иностранные языки в школе*. – 1999. – № 1. – С.18–23.
5. Harmer J. *How to teach English. An introduction to the practice of English language teaching*. Edinburg.: Gate Longman, 2000. 198 p.
6. Абрамовская, Н. Ю. *Особенности аутентичного звучащего текста* / Н. Ю. Абрамовская, С. В. Федорук. — *Текст : непосредственный // Молодой ученый*. — 2018. — № 47 (233). — С. 330-332. — URL: <https://moluch.ru/archive/233/54231/> (дата обращения: 09.02.2023).
7. Кричевская К. С. *Прагматические материалы, знакомящие учеников с культурой и средой обитания жителей страны изучаемого языка* / К. С. Кричевская // *Иностранные языки в школе*. 1996. № 1. С. 13-17.
8. Воронина Г. И. *Организация работы с аутентичными текстами молодёжной прессы в старших классах школ с углубленным изучением иностранного языка* / Г. И. Воронина // *Иностранные языки в школе*. 1999. № 2. С. 23–25. 2

ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ ЯСАЛИШ УСУЛЛАРИ

Қаршиев Насирдин Туркашевич,

филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ўзбекистон-Финландия институти ўқитувчиси

karshiyevnasirdin@mail.ru

Аннотация: Тилишуносликда лексемалар ва терминларнинг ясалишида бир қадар фарқли жиҳатлар мавжуд. Ўзбек умумадабий тилида лексемалар беи хил усул билан ясалса, қоракўлчилик терминологиясида эса терминлар фақат уч хил усул билан ҳосил қилинади. Бу қоракўлчилик терминологиясига ҳам хосдир. Бошқа соҳалар терминологик тизимларида бўлганидек қоракўлчилик соҳа-сида ҳам терминларнинг ҳосил бўлишида, асосан, метафора усулидан кенг фойдаланилган. Бунда шунини эътиборга олиш лозимки, ўхшатиш асосида маънони кўчириш йўли билан юзага келтирилган қоракўлчилик терминлари яқка ҳолда ҳам, бирикма таркибида ҳам қўлланмоқда. Қўшимчалар билан сўз ясаши ҳам қоракўлчилик терминларини ясаида муҳим восита ҳисобланади. Бошқа соҳаларга нисбатан қоракўлишуносликда қўлланадиган ясовчи аффикслар нисбатан камдир. Бунинг боиси қоракўлчилик соҳасининг бир қадар кам камровлиги, шу соҳанинг барча жиҳатлари тўла-тўқис ўрганиб чиқилмаганлиги каби омиллар билан изоҳланади. Қоракўлчилик терминларнинг ясаишида, -лик -и(ш) аффиксларидан унумли, -ча,-ма, -и(м) каби ясовчилар эса унумсизроқ фойдаланилган.

Калит сўзлар: метафора усули, ясовчи аффикслар, қоракўлчилик терминларнинг ясаишида, -лик -и(ш) аффиксларидан унумли, -ча,-ма, -и(м) каби ясовчилар унумсиз.

Аннотация: В языкознании существуют некоторые различия в образовании лексем и терминов. В узбекском общелитературном языке лексемы образуются пятью способами, тогда как в каракулеводческой терминологии термины образуются только тремя способами. Это характерно и для каракулеводческой терминологии. При образовании терминов в области каракулеводства, как и в терминологических системах других отраслей, широко использовался, главным образом, метафорический способ. При этом следует отметить, что каракулеводческие термины, образованные путём переноса значения на основе сходства, употребляются как по отдельности, так и в составе сочетания. Словообразование при помощи суффиксов также является важной особенностью в образовании каракулеводческих терминов. По сравнению с другими областями, в каракулеведении используется относительно немного словообразующих аффиксов. Это объясняется такими факторами, как относительно небольшие охваты отрасли каракулеводства, неполная изученность всех аспектов этой отрасли. В образовании каракулеводческих терминов продуктивно использовались аффиксы -лик -и(ш), а менее продуктивно – аффиксы -ча,-ма, -и(м).

Ключевые слова: метод метафоры, формообразующие аффиксы, при образовании каракулеводческих терминов, образованные при помощи полезных аффиксов -лик -и(ш), бесполезных аффиксов -ча,-ма, -и(м).

Annotation: In linguistics, there are some differences in the formation of lexemes and terms. In the Uzbek common literary language, lexemes are formed in five different ways, while in terminology of Karakul, terms are formed in only three different ways. This is also characteristic of Karakul terminology. As in the terminological systems of other fields, the metaphor method is widely used in the formation of terms in the field of Karakul. In this case, it should be noted that the terms Karakul, created by transferring meaning on the basis of analogy, are used both individually and as part of a combination. Word formation with suffixes is also an important feature in the formation of Karakul terms. Compared to other fields, there are relatively few formative affixes used in Karakul. The reason for this is explained by factors such as the relatively small size of the Karakul field, the fact that all aspects of this sector have not been fully studied. In Karakul terms, the affixes -like -i(sh) are used effectively, and the forms such as -cha,-ma, -i(m) are used less efficiently.

Keywords: metaphor method, formative affixes, in the formation of Karakul terms, -like -i(sh) affixes are productive, -cha,-ma, -i(m) are ineffective.

Кириш. Қоракўлчилик соҳасида қўлланаётган бирикма терминлар терминэлементларининг ясалишини ўрганиш ҳам ўзига хос лисоний аҳамият касб этади. Терминэлементларнинг ясалишида сифат, сифатдош ҳамда кам миқдорда равишдошлардан фойдаланилган. Сифатларнинг аслий турига оид ўттиздан ортиқ термин иштирок этган.

Қоракўлчилик терминологиясида 50 тадан ортиқроқ қадимдан ишлатиб келинаётган, терминлар мавжуд, улар асосан содда, терминлардан иборат бўлиб, ясама, қўшма, жуфт терминлар каби терминэлементларнинг ясалишида ҳам фаол қатнашиб келмоқда. Қоракўлчилик терминологиясида жами 250 тага яқин термин ясовчи қўшимчалар мавжуд. Бошқа соҳаларга нисбатан қоракўлшуносликда қўлланадиган ясовчи аффикслар нисбатан камдир. Бунинг боиси қоракўлчилик соҳасининг бир қадар кам камровлиги, шу соҳанинг барча жиҳатлари тўла-тўқис ўрганиб чиқилмаганлиги каби омиллар билан изоҳланади. Қоракўлчилик терминларнинг ясалишида, *-лик -и(и)* аффиксларидан унумли, *-ча,-ма, -и(м)* каби ясовчилар эса унумсизроқ фойдаланилган. Қоракўлчилик соҳасида ишлатилаётган қўшма терминлар ҳамда жуфт терминлар (ўнтача) ташкил этади. Бундай терминлар асосида ясовчи қўшимчалар воситасида янгидан - янги терминлар ҳосил қилинганлиги ҳам муҳим далилдир.

Асосий қисм. Терминология бўйича олиб борилган тадқиқотлардан маълум бўлишича, терминологик тизимлар таркибидаги терминларнинг ясалиш усуллари ўрганиш асосий вазибалардан биридир. Тўғри, ясалиш масаласи умумдабий тилда ҳам мана шундай ўрин тутди. Шунинг эътиборга олиш лозимки, лексема ва терминларнинг ясалишида бир қадар фарқли жиҳатлар мавжуд. Умумдабий тилда лексемаларнинг ясалиш имкониятлари анчагина кенг; лексемалар беш хил усул билан ҳосил қилинади. Терминларнинг ясалиш имкониятлари эса бир қадар чегараланган: терминлар, асосан, уч хил усул билан ясалади. Шу билан бирга, таъкидлаш лозимки, тушунчаларни ифодалаш борасида терминологик тизимларда умумдабий тилга нисбатан ўзига хос бир устунлик ҳам бор: терминологик тизимларда бирикма терминларнинг ўрни бениҳоя катта.

Терминларнинг ясалишини ўрганиш йўналишидаги тадқиқотлар қатор масалаларнинг ечилишига олиб келади. Бундай муаммони ўрганиш натижасида сўз ясалиш жараёнида тушунчалар тўғри ифодаланишга ёки, аксинча, ясалиш адабий тил меъёрларига мос келиши, ясалиш натижасида соҳа луғавий таркибининг бойишига имкон туғилиши, ясалиш туфайли умумдабий тилда пассив бўлган, бироқ терминологик тизимларда фаоллашган ясовчи элементларни аниқлаш натижаларига ойдинлик киритилади.

Қоракўлчилик терминологик тизимидаги ясалиш масалаларини қуйидагича ўрганиш лозим, деб топилди: 1) қоракўлчилик терминларининг семантик усул билан ифодаланиши; 2) қоракўлчилик тушунчаларининг ясама терминлар билан ифодаланиши; 3) қоракўлчилик терминларининг қўшма, жуфт терминлар билан ифодаланиши; 4) қоракўлчилик тушунчаларининг бирикма терминлар билан ифодаланиши.

Қоракўлчилик тушунчаларининг семантик усул билан ифодаланиши. Умумдабий тилда ҳам, терминологик тизимларда ҳам семантик усул билан сўз ёхуд терминлар ясалиши муҳим лисоний манбалардан бири ҳисобланади. Шундай бўлишига қарамай, ўзбек тилшунослигида қоракўлчилик терминологик тизимлардаги семантик усулнинг ўрни бўйича яхлит монографик тадқиқот амалга оширилмаган. Тўғри, ўзбек тилининг турли терминологик тизимларини ўрганишга бағишланган қатор ишларда терминларнинг семантик усул билан ясалиши ҳақида муайян фикрлар билдирилган. Шундай экан, қоракўлчилик соҳасидаги терминларнинг семантик йўл билан ҳосил қилиниши масалаларини ёритиш учун маълум даражада асос мавжуд, дейиш мумкин. Қоракўлчилик соҳасида семантик усул билан терминлар ясалишининг ўзига хос ўрни борлигини тасдиқловчи далиллар монографик тадқиқотлар учун етарли материал сифатида хизмат қилиши мумкин.

Қоракўлчилик терминологияси соҳасида семантик усул билан ясалган элликтага яқин терминлар мавжуд.

Бошқа соҳалар терминологик тизимларида бўлганидек қоракўлчилик терминологиясида ҳам терминларнинг семантик йўл билан юзага келтирилишида, асосан, метафорадан кенг фойдаланилган. Ҳақиқатан, бирор нарса-предмет маъносининг бошқа нарса-предметга ўхшашлиги асосида янги маънонинг ҳосил қилиниши натижасида семантик терминлар юзага келтирилади. Бундай ҳолатни қоракўлчилик терминологиясида ҳам кўриш мумкин. Масалан, Мана шу бепоён далаларда, ... *жўякларда* шилдираган сувлардан сенинг биринчи бор айтган сўзларингни тинглардим (С.Аҳмад. “Қадрдон далалар”).

Мисолдан *жўяк* (қишлоқ хўжалик термини) “экин ариғи, икки пушта ўртасидаги арик” маъносини ифодалаб келаётганлигини фаҳмлаш қийин эмас. Бу лексема қорақўлчилик соҳасида қўлланишига эътибор беришда қуйидагиларни ҳисобга олиш лозим: Тиришлар орасидаги терининг асосий қисми кучли тараққий этиши натижасида “*жўяклар*” ҳосил бўлади. Албатта, *жўякларнинг* пайдо бўлиши ҳам иккинчи оқимнинг пайдо бўлишига сабабчидир [I, 56]. Кўринадики, шаклий ўхшашлик асосида қишлоқ хўжалик термини бўлмиш *жўяк* қорақўлчилик соҳасининг терминига айланган.

Ошпазликда “мош ва гуруч аралаштириб пишириладиган таом” *мошкичири* деб аталади. Мазкур термин қорақўлчилик соҳасида ҳам махсус атама сифатида қўлланаётганлигини қуйидаги мисол билан тасдиқлаш мумкин: Тўқ кўк қорақўл терилар ичида энг қимматлиси *мошкичири* терилардир. *Мошкичири* териларда оқ жунлар миқдори 40%га яқин [I, 65;].

Пардоз-андозликда *фарқ* термини “сочнинг икки ёққа тарашдан бошда ҳосил бўладиган йўл, чизик” маъносини англатади. Қорақўлчилик терминологиясида эса, у ўзига хос дефиницияга эга: Жунларнинг бир чизик бўйлаб жойлашиши; бунда икки оқим (биринчи ва иккинчи) толалари учлари бир-бирига қўшилиб, бир чизикли нисбатан узун ўткир учли тож ҳосил қилади [II, 418;].

Қорақўлчилик терминологиясида қўлланаётган, семантик усул билан ҳосил бўлган терминлар жумласига яна қуйидагиларни намуна тариқасида келтирамиз:

Ғилоф: бирмунча калтарок ретикуляр толалар коллаген толалар тутамлари атрофида сийрак тўрсимон *ғилофлар* ҳосил қилади [I, 31;].

Ўқ: *Ўқ* - бу жун толасининг қорақўл тери сатҳи устида жойлашган қисмидир [I, 33;].

Қин: У (илдиз)нинг атрофи бир неча қават хужайралар билан қуршалган бўлиб, улар жун *қинини* ташкил этади [I, 33;].

Сўгон: Жун *сўғонида* хўжайра бўлинади [I, 34;].

Ажин: Буларнинг [“фарқлари”, “бўёқлар”] вужудга келишига теридаги бурмалар (ажинлар) сабаб бўлади, деб ҳисобланади... [I, 36;].

Йўл: Масалан, қора рангли териларнинг бел қисмида оқ жунлар аралаш бўлиб, уларнинг ўрта белида ёндош оқ йўл учрайди [I, 61;].

Ёпиқ: Қаламгулларни ташкил этувчи жунларнинг буралиб жингалакланиш томони гулларнинг...“ёпиқ” томони дейилади [I, 85;].

Араби: *Араби* – қора рангли қорақўл кўйларнинг ўзбекча маҳаллий номи [I, 32;].

Келтирилган мисоллар бошқа бир соҳа терминларининг қорақўлчилик терминларига ўтганлиги ва ўзгача маънолар касб этганлигини тасдиқлайди. Семантик усул билан ҳосил қилинган қорақўлчилик терминлари икки хил ҳолатда қўлланиб келинади. Бундай терминлар, биринчидан, якка ҳолда ҳам бирикма таркибида ҳам ишлатилиб келинади:

Якка ҳолда қўлланаётган семантик терминлар: Агар нақш бутун бир юзада кўриниб турса “*бўёқлар*” деб аталади. 125-128 кунга бориб, иккинчи оқимлар қорақўл тери сатҳининг учдан икки қисмига тарқалади. Бундай қорақўл тери товар хоссаларига кўра “гўлак” типига киради. Кейинроққа бориб, ёл гулнинг ўрта қисми ёнма-ён жойлашган икки жингалак қалам гул ўртасидаги “*чок*” ка айланади [III, 35; 36;]. “*Халили*” қорақўл терилар юзасида пигментлар текис жойлашмаган, кам пигментланган жун терининг ўрта қисмида эгарсимон ёки тақасимон “доғ” ҳосил қилади. Баъзан терининг асосий ранги устига тушган кўримсиз “*доғ*”, унинг тусини бузади ва қимматини пасайтиради. Баъзи кўзилар терисига тангача ёпишган бўлади (бу хил кўзилар “қорагул” дейилади)... [I, 70; 61; 82;]. Теридаги ёки жун қопламидаги тўқ жигар ранг занг *доғи*... [II, 443;]. Ҳозирги пайтда тилимизда қуйидаги туб терминлардан фойдаланилмоқда: *ажин, барра, бўёқ, гажак, гул, доғ, ёй, ёл, жингалак, жун, кирпук, кигиз, лос, мўй, мўйна, нўст, нақи, расм, сур, сўгон, тақир, тасма, тери, тивит, тола, тус, тур, тож, фарқ, чақа, чиганоқ, ягир, ўқ, ўзак, қил, қўзи, қўй, қўтир, ҳалқа* кабилар. Булардан ташқари, қорақўлчилик терминологиясида русча-байналмилал терминлар ҳам ишлатилади. Улар ҳам ўзбек тили нуқтаи назаридан туб терминлар жумласига киради: *пигмент, дерма, конус, люстра, муар, намаз, градация, пежика, штапель, прима, фигура, шестовина, коррекция* кабилар. Мазкур терминларнинг қорақўлчиликка оид эканлигини тасдиқловчи беш-олтита мисоллар келтирамиз: Оралиқ *жунлар*, қилтиқ *жунлар* билан тивит *жунлар* ўртасида туради. Қорақўл *қўзи* териси, одатда, тигиз, бақувват, ипаксимон ва ялтироқ жунлар билан қопланган [I, 59;]. Қора қорақўл териларнинг, асосан, ҳамма жойи бир хил тусда бўлади [I, 61;]. Бурул *ранг* юқорида айтилган асосий рангларда учрайди [I, 62;]. Кам пигментланган жун терининг ўрта қисмида эгарсимон ёки тақасимон *доғ* ҳосил қилади [I, 70;]. Тери устидаги гўзал *расмларни* фақат қаламгуллар ҳосил қилади [I, 98;].

Терининг ўнг ва чап томонларида *гулларнинг* бир хил жойлашуви талабга мувофиқдир [92,102;]. Чала туғилган кўзилардан шилиб олинган терилар ичида *тақирлари* ҳам учрайди [1,57;]. Жун пиёзчалари жун толасининг *цилиндр* шаклига ўтиш жойидан бир томонга қараб букилган. Жун томирлари ва уларнинг жун *сумкалари* бироз қайрилган [1,58;]. *Пигмент* дончаларининг оз-кўплиги ва айрим жун толаларининг ўзига хос пигментланишидан туси ўзгаради [1,60;].

Тўғри, келтирилган терминларнинг баъзилари, биринчидан, умумдабий тилга, иккинчидан, чорвачиликнинг бошқа соҳаларига, учинчидан, ўзга соҳалар терминологияларига хос. Шундай бўлишига қарамай, улар қорақўлчилик терминологиясининг ҳам баъзавий мулкдир. Чунки айти шундай туб терминлар асосида кўплаб ясама, қўшма, жуфт, бирикма терминлар ҳосил бўлган.

Семантик усул билан ҳосил бўлган терминларнинг бирикмалар таркибли кўриниши. Натижада, кўчма маъноли терминнинг маъноси янада ойдинлашади. Мисоллар: қорақўл *тери яғирлари*, *жун ялогиси...* тола узунлиги бўйлаб рангли халқалар ва рангсиз зоналарнинг аралашиб жойлашиши [II, 399;]. Қаламгулларни ташкил қилувчи жунларнинг буралиб жингалакланиш томони *гулларнинг “очиши”* дейилади [II, 85;] Бир хил тарзда жойлашган жун толалари фонида тескари жойлашган толалар кўзга ташланади – у *толалар фарқи* деб аталади. И.Ф.Никольский жингалак ривожланишининг дастлабки босқичида дивергенцияловчи оқимлар *жун “толалари”* ни... ҳосил қилади деб ҳисоблаган. Бирламчи ва иккиламчи *оқим толалари* бамисоли бош томонга... ўгирилиб қолгандай бўлади. Қорақўл териси сифатида бундай қалам гуллар синиқ *илон изли нақиллар* ҳосил қилади [III, 36; 37; 46;].

Таҳлил этилган материалдан қорақўлчилик терминологиясида семантик усул билан ҳосил қилинган қатор терминларнинг кичрайтириш шаклида ишлатилаётганлиги маълум бўлди. Бундай ҳолатни қорақўл терилар ҳажмининг қўйлар терилари сатҳига нисбатан кичик майда эканлиги, бинобарин, улар “қисмлари”нинг ҳам нисбатан кичиклиги билан изоҳлаш мумкин. Мисоллар: *Нўхатча* нуқсонли жингалак формалари жумласига киради. Бундай жун толалари *кокилчаларга* тўпланиб... бурмаларни вужудга келтиради [III, 54;].

Қорақўлчилик терминларининг ясама усул билан ифодаланиши. Ўзбек тилшунослигида сўз (лексема) ясаши бўйича қатор тадқиқотлар, дарслик ва қўлланмаларда, илмий мақолаларда қимматли фикр-мулоҳазалар баён этилган. Жумладан, мазкур масалани атрофлича ўрганишга бағишланган А.Ҳожиёвнинг махсус монографик тадқиқоти муҳим аҳамият касб этади [132]. Мазкур ишда от, сифат, феъл, равиш каби туркумларга оид сўзларнинг ясаши хусусида ибратли ишлар амалга оширилган. Муҳими, ўзбек тилининг терминологик тизимларини ўрганишга бағишланган ишларда тадқиқот объектидаги терминлар ҳосил бўлишининг ясама усулига махсус боғлар ажратилиб, мазкур масала батафсил ёритилганлигидадир. Бундай тадқиқотлардан маълум бўлишича, терминологик тизимларнинг бирида (масалан, техника соҳасида) термин ясовчи воситалардан фаолроқ, бошқасида эса (масалан, кимёвий терминологияда) пассивроқ фойдаланилганлиги аён бўлади. Буни ҳар қандай терминологик тизимга алоқадор тушунчаларнинг оз-кўплиги, уларнинг хилма-хиллиги каби омиллар билан изоҳлаш мумкин. Шу нуқтаи назардан қорақўлчилик терминологиясига ёндашилганда, унда муайян ясовчилар билан ясалган терминларнинг камроқ эканлиги аён бўлади. Шунга қарамай, айрим ясовчилар жуда кўп қорақўлчилик терминларининг ясашига сабаб бўлган.

Қорақўлчилик соҳасида ишлатилаётган ясама терминларнинг ясовчи унсурларини аниқлашдан олдин шу соҳада қадимдан ҳозиргача ишлатиб келинаётган туб терминлар ҳақида қисқача тўхталамиз. Чунки айти шундай терминлар ясама терминларнинг ҳосил бўлиши учун асосий манба ролини ўйнайди. Ўзбек тилининг қорақўлчилик терминологик тизимида фаол ишлатиб келинаётган эллиқдан ортиқ туб шаклдаги термин мавжуд. Уларнинг баъзилари қадим даврлардаёқ махсус термин сифатида қўлланиб келинган.

Масалан:

а) ясама терминлар: жун + дор + лик, тақир+лик, чақа + ла +н+иш, кигиз +ла +н + иш, чўпон + лик;

б) қўшма терминлар: қалам + гул, чаппа + гул, гули + газ;

в) жуфт терминлар: гўшт-парда, узун-қисқалик;

г) бирикма терминлар (бу ўринда терминэлементлар кўзда тутилади): шох + симон (кават), ора + лик (жун), ранг + дор (жун) ва б.

Юқорида қорақўлчиликка доир жами 2230 та термин тўпланганлиги ҳақида маълумот келтирган эдик. Статистик маълумотларга қараганда, уларнинг 250 тадан кўпроғи ясама термин ҳисобланади.

а) бошқа терминологик тизимлардагига қараганда ясама терминлар қоракўлчилик соҳасида камроқ фойдаланилган. Бизнингча, буни қоракўлчилик соҳасининг, биринчидан, кам қамровли эканлиги, иккинчидан, шу соҳанинг барча қирралари тўла-тўқис ўрганиб чиқилмаганлиги каби омиллар билан изоҳлаш мумкин. Бироқ шунга қарамай, мавжуд ясама терминлар, ҳар ҳолда, қоракўлчилар, қоракўлшунослар ва бошқа кишиларнинг муомала жараёнидаги эҳтиёжини қондириб келмоқда. Қоракўлчилик соҳасига бағишланган дарслик ва қўлланмалар, мақолаларнинг эълон қилиб турилганлиги, шу соҳада илмий ишларнинг олиб борилаётганлиги, ўқиш-ўқитиш тизимининг йўлга қўйилганлиги (ўқув юртларида дарсларнинг ўзбек тилида юритилаётганлиги) шундан далолат беради.

Демак, қоракўл соҳасини лингвистик жиҳатдан махсус тадқиқ этиш, ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Қоракўлчиликка доир тушунчаларнинг, аниқроғи, қоракўл териларнинг хоссаларини ифодаловчи терминларнинг *-лик* аффикси воситасида ясалганлигини тасдиқловчи омиллар куйидагилардан иборат:

1. Қоракўлчилик терминологиясида, гарчи миқдори жиҳатидан кам бўлса-да, фақат шу соҳанинг ўзида ишлатилаётган, *-лик* аффикси билан ясалган терминлардан фойдаланиб келинмоқда. Мисоллар ...*гулдорлик* деганда, қўзилар терисининг товар юзасида жингалаклардан вужудга келадиган расмлар тушунилади [46, 96;]. *Номутаносиблик* қўзининг ёшига боғлиқ [92,102;]. Қалам ва донагулларнинг тери сатҳига жойлашиш даражаси унинг “*нақидорлиги*” деб айтилади [92,112;]. Гуллари аниқ, жингалакларининг *ғужлиги* нормал ҳолатда [IV,103;]. Жун қоплами *захиллиги* [II,145;]. *Муҳаййирлик*. Қоракўл тери гулларининг турли томонга таралган ўзига хос нақши [III,331;].

Қоракўлчилик терминологиясида нутқ жараёнида қўлланаётган, луғатларда қайд этилган *-лик* аффиксли лексемалардан махсус терминэлемент сифатида фойдаланилмоқда: Ялпоқ қаламгуллар эни *баландлигидан* ортиқ бўлиши билан ярим доирали қаламгуллардан фарқ қилади [I,87;]. Гулларнинг *кенглиги* ўртача 8,7 мм га, ўзгариши эса 4-12 мм га тенг [I, 88;]. Гул *узунлигининг* учдан бир ва кўпинча тўртдан бир қисми чаппа гулга ўхшаш [I, 88;]. Гулларнинг ўлчами тери *қалинлиги* билан ҳам боғлиқ [I, 101;]. Гулларнинг *зичлиги* ҳам муҳим аҳамият касб этади [I,102;]. Терининг *огирлиги* жунининг ўсинқираган бўлиши, қалинлиги ва бошқа хусусиятлари билан мустаҳкам боғлиқдир [I,105;]. Улар орасида рангининг интенсивлиги ва ифодаланганлиги жиҳатидан *ўзгарувчанлик* кузатилади [IV, 111;].

Қоракўлчилик терминологик тизимида шуғулланувчи шахсларнинг мутахассислигини ифодаловчи *-лик* аффиксли терминлардан ҳам қисман фойдаланилмоқда. Мисоллар: *қоракўлчилик* ота касби, *чўпонлик*, *сўювчилик*, *шилувчилик*, *қирқимчилик*, *чўликлик*, *ошловчилик*, *қассоблик*, *тузловчилик* ва б.

Тадқиқотимизда *-лик* аффикси бошқа соҳалар номларини ҳам ифодаловчи сифатида ҳам фаол қўлланиб келинади. Тўғри, бундай терминларнинг миқдори у даражада кўп эмас. Шундай бўлса-да, улар ҳам лисоний далил ҳисобланганлиги учун намуна тариқасида келтирамиз: *Наслчиликни* ишларини тўғри йўлга қўйиш ва уни тартибли равишда олиб бориш ўзига хос шароит... талаб этади [I,95;]. *Қоракўлчиликда* наслчилик ишларининг бош вазифаси – қоракўл териларини кўплаб етиштиришдан иборат [I,13;]. Қоракўлчилик соҳасида ишлатилаётган *-лик* аффикси билан ясалган хоссаларни ифодаловчи шундай терминлар мавжудки, улар бирикмалар таркибида аниқловчи вазифасида қўлланади. Тери сатҳига жойлашган гуллар миқдори, асосан, уларнинг *узунлиги* ва *кенглигига* боғлиқ [I,96;]. Ҳар хил сорт териларнинг сатҳида гуллар *зичлигига* қараб бир-биридан фарқ қилади [I, 96;].

Келтирилган мисоллардан *-лик* аффикси туб асосларга қўшилиб келишини кўрсатади. Шу билан бирга, мазкур қўшимча ясама асосларга қўшилиб, қоракўлчиликка доир терминлар ҳосил қилиши мумкин. Шундай терминлар жумласига қуйидагилар киради.

-дор+лик қўшма аффиксли терминлар: терининг *ғижимдорлиги* [II,481;]. Қоракўлнинг қимматбаҳо товарлик хусусияти билан қоракўл қўйларининг муҳим *зотдорлиги* [II, 565;]. *Жундорлик* терининг жун билан қопланиш ҳолати... [II, 566;].

-симон+лик қўшма аффиксли терминлар: жун қопламининг узунлиги, йўғон-ингичкалиги, *ипаксимонлиги* [II,335;]. Жун қопламининг *кумушсимонлиги* [II, 474;].

Қуйидаги мисолларда ҳам *-лик* аффиксининг ясама асосларга қўшилиб келганлигини кўриш мумкин: *Чўзилувчанлик* жун толасига хос хусусиятдир [II, 432;]. Жунларнинг қисилишга кўрсатган қаршилиги *қайшиқоқлик* туфайли рўй беради [II, 5331].

Тадқиқотимизда бир асосли сўзлардан *-лик* аффикси билан ясалган терминлардан ташқари икки асосли, аниқроғи, жуфт сўзлардан ташкил топган терминлар ҳам, камроқ бўлса-да, ишлатилаётганлигини кўрсатиб ўтаемиз: Баъзи илмий ходимлар терининг *тўқ-очлиги* ва тус ўзгаришини билиш учун оқ ва қора жунлар миқдори ва уларнинг узун-қисқалигини ўрганиш етарли эмас деб биладилар [II, 62;]. Донагулларнинг узунлиги ва эни унинг *катта-кичиклигини* аниқлайди [I, 92;]. Кўзи терисининг *оғир-енгиллиги* қўйларнинг озикланиш шароитига боғлиқ [I, 107;]. Кўк қўзилар ҳам, қора қўзилар сингари жингалагининг *йирик-майдалигига* қараб фарқ қилади [IV, 1071]. Қоракўлчиликда ранг градациясини янада аниқроқ ифодалаш учун айрим ранглар тус ва *ранг-барангликларга* бўлинади [IV, 362;]. [Қоракўл гулининг ўлчами] *селекцион -наслчилик* ишида ва қоракўл терисининг *товарлик* баҳосини белгилашда энг муҳим кўрсаткичлардан бири [II, 430;]. Улар [қоракўл гулларининг нуқсонли шакллари] кокилчаларга тўпланиб, пармани эслатувчи спиралсимон *эгри-бугрилик* ҳосил қилади [II, 573;].

-и(ш) аффикси. Туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида ҳам сўзлар ҳосил қилишда иштирок этиб келган *-и(ш)* аффикси, айниқса, ҳозирги пайтда ниҳоятда фаол равишда қўлланилмоқда. “Бу қўшимча – деб ёзади Э.Бегматов, – ҳаракат номи формасини ясаганида ўзбекча сўзлар юзага келади ва бундай лексемалар *отлик (номлик) хусусиятига эгадир* (таъкид бизники - Н.Қ.). Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида бу қўшимча ёрдамида бир қатор янги сўзлар ясалганки, бу сўзлар турли фан соҳаларига оид илмий терминологияда кўплаб учрайди: *айириши, белгиланиши, билдириши, бириктириши, бирлаштириши, боғланиши, бошқариши, бўлиши, ечиши, етиштириши, ёғочланиши, сайланиши, йириклаштириши, сурилиши, тузланиши, тикланиши, тўпланиши, чангланиши, чўкичлаши, урчиши, уруғланиши, аллигланиши, қияланиши, кўпайтириши, қўйиши* каби” [V, 143-144;].

Бундай сўзлар қаторини ўзбек тилининг қоракўлчилик терминологик тизимида қўлланилаётган *-и(ш)* аффиксли терминлар билан янада бойитиш мумкин. Чунки қоракўлчилик соҳасида ҳам кўплаб иш-жараён, ҳолат каби хусусиятлар амалга ошириладики, уларнинг барчаси *-и(ш)* аффиксли терминлар воситасида ифодаланади.

Қоракўлчиликда жараён, ҳолат каби тушунчаларни ифодаловчи *-и(ш)* аффиксли терминлар шартли равишда ўз ва умумий терминлардан иборат. Шу ҳолатларни тасдиқловчи далиллар қуйидагилардан иборат. Бошқа соҳаларда бўлганидек, қоракўлчиликда ҳам *-и(ш)* аффикси билан ясалган ўз терминлардан фойдаланиб келинмоқда. Қуйида келтирилган ўз терминлар мавжуд луғатларнинг бирортасида қайд этилмаган:

Қалин гулиларнинг бақувватлиги, асосан, гул остидаги жунларнинг *жингалакланишига* боғлиқ [I, 85;]. Қаламгулиларни ташкил қилувчи жунларнинг буралиб жингалакланиш томони гуларнинг *очилиши*”, орқаси эса, ёпиқ томони дейилади. Гулларнинг *ялпоқланиши* даражаси ҳам ҳар хил [I, 87;]. Кўрғошин ранг нақш қора жунлар пигментацияси *кучсизланиши (кўнғирланиши)* ва хира ялтироқ оқ жунлар сарғиш рангга кириши натижасида ҳосил бўлади [IV, 107;]. Сур рангнинг бир текислиги терининг бутун юзаси бир хил *жилоланиши* билан характерланади [IV, 111;]. Шундан кейингина мана шу иккиламчи *эгилиши* қовурғасимон қаламгул жингалак ҳосил қилади [II, 71;]. Териларни *покизалаши*. Теридаги ифлосликлар, илиниб-ёпишиб қолган ҳар хил нарсаларни йўқотиш... [II, 356;]. Тўлик жингалакланган гулларнинг ўзгариши жингалакланиш тўлик бўлмаган гулларга нисбатан кечроқ ва *кўнғироқланиши* даражаси кучлироқ бўлади [I, 113;].

Умуман, қоракўлчиликда ҳам барча терминологик тизимларда, умуман, ўзбек тилида қўлланилаётган *-и(ш)* аффиксли сўз ва терминлардан фойдаланиб келинаётганлиги табиийдир. Мазкур соҳада бундай терминлар миқдори жиҳатидан юқоридаги тип терминлардан кўплиги билан ажралиб туради ва фаол равишда қўлланади ҳам кўриш мумкин: Кўп йиллардан бери олиб борилаётган *танлаши* ва *жуфтлаши* ишлари ҳам жакет – I нав тери берувчи кўчқор ва совлиқларни кўпроқ *урчитилишига* қаратилган [I, 6;]. Бу вазифаларни *бажариши* учун тармоқни *интенсивлаштириши*, қўйларни *боқилиши* ва *асрашининг* янги технологиясини жорий этиш зарур [IV, 4;].

Қоракўлчилик соҳасида қўлланилаётган *-и(ш)* аффиксли терминлар қоракўлчилик ишлари билан боғлиқ бўлган ҳар хил жараёнларни ифодалаб келади. Шунга кўра, бундай жараёнларни муайян гуруҳларга ажратиш лозим деб топилди.

1. Қоракўл қўзилар терисининг *етилишини* англатувчи терминлар. Маъ-лумки, қўзилар она корнидаёқ териси ўсиб етила бошлайди.

2. Қоракўлчилик ва қоракўлшуносликда она корнидаги қўзининг териси пайдо бўла бошлаши ва етилиши билан боғлиқ бўлган жараёнларда қуйидаги

-и(ш) аффиксли терминлар воситасида ифодаланади: *ривожланиши* (она қорнида ривожланиши), *ёпишиши* (эмбрионнинг она бачадонига ёпишиши), (қон) *айланиши*, (морфологик) *ўзгариши*, (тананинг ташқи) *тузилиши*, (тананинг) *пигментланиши*, (терининг) *қалинлашиши*, (жун билан) *қопланиши*, (гулларнинг) *шаклланиши* ва б.

3. Кўзиларни сўйиш, терисини олиш, асраш каби жараёнларни ифодаловчи терминлар: (кўзиларни териси учун) *сўйиш*, (кўндаланг) *бўғизлаш*, (қон) *тўхташи*, (терини) *шилиш*, *пуфлаш*, (терини) *тилиш*, *консервалаш*, (ёғ қолдиқларидан) *тозалаш*, (териларнинг) *ёғсизлантирилиши*, *ивитиш*, (тузлаб) *қуритиш*, *тузлаш*, (териларни) *музлатиш*.

4. Териларни фойдаланишга тайёрлаш билан боғлиқ жараёнларни англатувчи терминлар: (терминларни навларга) *ажратиш*; *боғлашда* териларнинг гул томони гулига қилиб жуфтлашади; (териларни) *жойлаш*, *тахлаш*; *ошлаш* тузлашнинг давоми ҳисобланади; (биринчи) *ивитиш*, *ювиш*, *ёйиш*, *қуритиш*, *савалаш*, (қоракўлга ишлов) *бериш*, *юмиатиш*, *пардозлаш*, *терининг* (намланиши), (териларни) *қиритиш* (техникаси), (териларнинг) *етилиши*, (жунларни) *юлиш*; териларга ишлов беришнинг энг муҳим қисми – *ийлаш*, *мойлаш*, (қоракўлни) *бўяш* ва х.

-ча аффикси: Ўзбек тилида -ча аффикси, асосан, кўйидаги икки хил маъноли от туркумига оид сўзларни ҳосил қилади: а) шахс ва нарса предметларнинг кичик эканлиги ифодаланади; б) шахсларга нисбатан ишлатилганда, эркаланиш маъносини ҳам англатади.

Қоракўлчилик терминологиясида ҳам -ча аффиксли терминлар мавжуд. Лекин улар фақат бир хил маънони ифодалайди, яъни қоракўл териларга нисбатан ишлатилганда, фақат кичиклик маъносини англатади. Мисоллар: Жун *халтачалари* яқинида эпидермис чин тери– дерма ичига чуқур ботиб киради, дерма эса, ўз навбатида, кўп сонли *сўргиччалари* билан эпидермиснинг ичига кириб туради. Ҳалқасимон *тангачалар* ингичка жун толаларини ёки уларнинг ингичка қисмини қоплаб туради... конвергенцияловчи оқимлар эса “*гажакча*” ларни ҳосил қилади... [III, 29; 33; 36;]. Дерманнинг пастки чегарасига қилтиқ жун *пиёзчалари* жойлашган. Қоракўл терисидаги жун *кокилчаларининг* жингалакланиши ҳалқасимон шаклда бўлиши учун жун қоплами етарли даражада узун бўлиши керак [I, 58; 93;]. Қорин ва думбаси (*ёғ ёстиқчаси*) қалам ва ловиягул жингалаклар билан қопланган... [IV, 102;]. Қил, тола *қопчаси* [IV, 85;]. Ранги бошқача бўлган толалар орасидаги кулранг ёки очрангли *толачалар* [II, 401;]. *Ёғчалар* бўлишига ва қорни етарли жунли бўлмаслигига йўл қўйилади [46, 103;]. Қоракўл терисидаги жун *кокилчаларининг* жингалакланиши ҳалқасимон шаклда бўлиши учун жун қоплами етарли даражада узун бўлиши керак. Қаламгул қоракўл терисининг орқа чўкки қисмидаги қилтиқ *жунчалар* узунлиги 5 мм дан 14 мм гача... бўлади. Кўзичок икки ойлик бўлганда жун *илдизчалари* пайдо бўла бошлайди. Жун чиқадиган жойда *думбоқчалар* пайдо бўлади [I, 93; 59; 138;].

Шу билан бирга, -ча аффикси бошқа бир вазифани бажариш учун ҳам хизмат қилади. “-ча аффикси олган сўзлар, баъзан кичрайтириш маъносини йўқотиб, семантик ўзгариш натижасида янги лексик маъно билдириши ҳам мумкин” [VI, 275;]. Бундай сўзлар жумласига кўйидагилар мисол қилиб келтирилган: *қаламча*, *найча*, *қизилча*, *кўкча*, *кўрпача*.

Қоракўлчилик терминологиясида ҳам айни шундай ҳолатни кўриш мумкин. Тўғри, мазкур соҳада фақат иккитагина -ча аффиксли термин ишлатилмоқда, Мисоллар: Сатҳи 700см дан кам бўлган “*нозикча*” терилар, кўпинча онадан урта ва ундан ортиқ туғилган кўзилардан олинади. Биринчи марта туққан она кўйлардан ҳам “*нозикча*” лар олинади [I, 104;]. *Қоракўлча* эмбрион 130-140 кунлик бўлганда шаклланади. 145 кунлигида онадан чала туғилган кўзилардан қоракўл *қоракўлча* олинади [I, 57;].

-ма аффикси. Ўзбек тилида -ма аффикси ёрдамида кўплаб махсус терминлар ясалган. Тегишли манбаларда мазкур аффикснинг ясаши асосан англатган ҳаракат ва ҳолат билан боғлиқ нарсани билдирувчи от туркумига оид сўзларни ясаб, кўплаб маъноларни ифодалаш учун хизмат қилаётганлиги таъкидланган. Мазкур аффиксли терминлар тиббиёт, озиқ-овқат, ўрин-жой, ижтимоий-сиёсий каби соҳаларда фаол қўлланиб келинмоқда. Гарчи камроқ бўлса-да, -ма аффиксли терминлар қоракўлчилик соҳасида ҳам ишлатиб келинмоқда. Бу соҳадаги шундай терминлар фақат бир хил маънони ифодалаш учун хизмат қилмоқда. Феъл асосларидан ясалган бундай терминлар конкрет маъноларни билдириб келиши билан характерланади. Бундай терминларнинг сони қарийб ўн бештадир. Мисоллар: Дерманнинг термостатик каватида ингичка эластик толалардан иборат *қўшилмалар* яхши тараққий этган. Клетчатка кавати тармоқланган *тўқималардан* иборат [I, 58;]. Терининг хоссалари деган тушунча: терининг юпкалиги, пишиқлиги тери запасини ва шу запаслардан ҳосил бўладиган *буралмаларни* ўз ичига олади [IV, 97;]. *Ағдарма*. Ошланган терининг

ички томони. Қил фолликуласи жойлашадиган қавакчага ўхшаш тери *тўқимаси* (*тузилмаси*). Чорва моллари терисидан ажратиб олинган қил *қопламалари* [II, 44; 62; 84;]. С.Н.Боголюбский... хомиланинг ривожланишида пропорциясизлик юз беришини аниқлади, бунинг натижасида терида *бурмалар*, дўнгча ва эгатчалар ҳосил бўлиб, тери нақши вужудга келади... улар мальпима қатламидаги кўпайиб бораётган кўшни хўжайраларни ҳам ўзи билан олиб кириб, эпидермал *чўзилмадан* ҳосил қилади, ана шу *чўзилмадан* бўлғуси жун кини ҳосил бўлади. *Таралмалар* бирламчи оқим толаларининг қарама-қарши томонга равшан йўналганлиги билан характерланади. Чизикли жингалаклар чала ривожланган қисми гулсимон *тузилмалардан* иборат ярим доира шаклига киради. Жун толаси ривожланиш жараёнида... эгилувчанлик хусусиятига эга бўла боради, ... турли тип ва шаклдаги жингалакдек пишиқ *эгилма* ҳосил қилади. Унинг асосий тўқима структуралари коллаген толалардан иборат бўлиб, улар бир-бири билан ўзига хос тарзда чирмашганлигига кўра ажралиб туради ва у *чирмашма* деб аталади. Ҳомила гавдасининг олдинги қисми терисида эпидермиснинг ўсув қатламидаги хўжайралар *қалинлашмаси* тарзида қилтиқ жун муртақлари вужудга келади... [III, 37; 39; 43; 31; 26;].

Далиллардан *қўшилма*, *ағдарма*, *тўқима*, *қоплама* каби терминлар умумидабий тилда ёхуд айрим терминологик тизимларда ҳам қўлланиб келинаётганлиги маълум бўлади. *Чўзилма*, *эгилма*, *чирмашма*, *букилма*, *қалинлашма* кабилар эса фақат қорақўлчилик соҳаси терминологиясига хос эканлигини таъкидлаб ўтамыз.

-м (*им*) *аффикси*: Қорақўлчилик терминологиясида -м(*им*) аффикси билан ясалган терминлар унчалик кўп эмас. Мазкур аффиксли ўнтадан ортиқ термин шу соҳада ишлатилмоқда. Фейл асослардан ясалган бундай терминлар конкрет маъноларни аниқлаб, қорақўл териларининг бирор қисмини ифодалаш учун хизмат қилади. Мисоллар: Жун *қоплами* чақаси, тайёр тери *чиқими*, терининг *ўлчами*, Териларнинг нави(хили) ва кўзиларнинг классификацияси *бичими*га боғлиқ [47, 91; 430; 540;]. Қилтиқ жуннинг кўндаланг *кесими*, кўпинча, тухум шаклида кўринади [92, 59;]. Чин тери тўқима толалари *тутамларининг* мураккаб чирмашуви натижасида вужудга келган... Термостатик ёки сўргиччали (гиляр) *қатлам*. 130 кунлик бўлганда иккиламчи *оқимлар* терининг деярли бутун соҳасини эгаллайди [III, 36;].

Мисоллардан -м(*им*) аффиксли лексемалар аслида умумидабий тилда ёхуд бошқа баъзи терминологик тизимларда қўлланиб келинаётганлиги, шу билан бирга, қорақўлчилик соҳасида ҳам термин сифатида ишлатилаётганлиги маълум бўлади. Шуниси ҳам борки, мазкур аффиксли терминларнинг баъзилари умумидабий тилдагидан фарқли ўлароқ, қорақўлчиликка оид махсус тушунчаларни ифодалайди. Қорақўлчилик соҳасида эса *оқим* ўзгача маънода, махсус термин сифатида намоён бўлади. “Қорақўлшунослик” дарслигида бу термин ҳақида шундай дейилган: Муаллиф [Н.Ф. Никольский]нинг фикрича, жингалак ҳосил бўлишига она ва хомила организмида кечадиган мураккаб процесслар комплекси сабаб бўлса керак, ушбу процесслар терилардаги толалар йўналишини ўзгартириб юборади, буни автор “оқим” деб атаган [III,35-36;]. Қуйидаги далилларга ҳам эътибор берайлик: Жунлар ўсиб чиқиши билан маълум томонга йўналади. Бу жунлар биринчи *оқим* деб аталади. Қорақўл кўзиси устидаги жунлар ўсиб тараққий этиши билан ва унинг ўзига хос хусусиятлари туфайли ҳосил бўлган бошқача йўналишга иккинчи *оқим* деб аталади [I, 55-56;].

Юқоридаги фикрларимизга хулосаси, тилшуносликда лексемалар ва терминларнинг ясалишида бир қадар фарқли жиҳатлар мавжуд. Ўзбек умумидабий тилида лексемалар беш хил усул билан ясалса, қорақўлчилик терминологиясида эса терминлар фақат уч хил усул билан ҳосил қилинади. Бу қорақўлчилик терминологиясига ҳам хосдир.

Бошқа соҳалар терминологик тизимларида бўлганидек қорақўлчилик соҳасида ҳам терминларнинг ҳосил бўлишида, асосан, метафора усулидан кенг фойдаланилган. Бунда шуни эътиборга олиш лозимки, ўхшатиш асосида маънони кўчириш йўли билан юзага келтирилган қорақўлчилик терминлари яқка ҳолда ҳам, бирикма таркибида ҳам қўлланмоқда. Қорақўлчилик терминологиясида 50 тадан ортиқроқ қадимдан ишлатиб келинаётган, терминлар мавжуд, улар асосан содда, терминлардан иборат бўлиб, ясама, кўшма, жуфт терминлар каби терминэлементларнинг ясалишида ҳам фаол қатнашиб келмоқда.

Қорақўлчилик терминологиясида жами 250 тага яқин термин ясовчи қўшимчалар мавжуд. Бошқа соҳаларга нисбатан қорақўлшуносликда қўлланиладиган ясовчи аффикслар нисбатан камдир. Бунинг боиси қорақўлчилик соҳасининг бир қадар кам камровлиги, шу соҳанинг барча жиҳатлари тўла-тўқис ўрганиб чиқилмаганлиги каби омиллар билан изоҳланади. Қорақўлчилик терминларнинг ясалишида, -лик -и(*и*) аффиксларидан унумли, -ча,-ма, -и(*и*) каби ясовчилар эса унумсизроқ фойдаланилган.

Қоракўлчилик соҳасида ишлатилаётган кўшма терминлар ҳамда жуфт терминлар (ўнтача) ташкил этади. Бундай терминлар асосида ясовчи кўшимчалар воситасида янгидан - янги терминлар ҳосил қилинганлиги ҳам муҳим далилдир.

Хулоса. Қоракўлчилик терминологиясининг асосий қисмини бирикма терминлар ташкил этади. Қоракўлчиликда қўлланилган жами 2230 та терминнинг 1575 таси бирикма терминлардан иборатдир. Бирикма терминларнинг компонентлари боғланишига кўра қуйидаги уч тури мавжуд: сифатловчи бирикма терминлар, қараткич бирикма терминлар, изофали бирикма терминлар. Бирикма терминлар тузилишига кўра: содда (икки компонентли), мураккаб (уч ва ундан ортиқ компонентли) терминлардан иборат.

Тадқиқотимизда нисбий сифатлар билан ясалган терминэлементлар муҳим ўринни эгаллайди. Бундай сифатлар эса фаол равишда - *симон*, *-чан*, *-ли*, *-сиз* каби аффикслар воситасида ясалган. -симон аффиксли 40 тага яқин терминэлемент фақат қоракўлчилик терминологиясида ишлатилганки, улар “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да қайд этилмаган ва *-лик*, *-ма*, *-чан*, *-дор*, *-ки*, *-қ* (*-қ*, *-ўқ*, *-оқ*) аффиксли ҳамда *сер-*, *ба-*, *но-*, *бе-*префиксли терминэлементлардан эса камроқ фойдаланилган. Шунингдек, мазкур терминологияда *-ган*, *-вчи* аффиксли сифатдошлардан иборат терминэлементлар ҳам бирикма терминлар таркибида қўлланмоқда.

АДАБИЁТЛАР:

1. Раҳимов А.А. Қоракўлчилик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1967.
2. Зокиров М., Хачатурова Л., Юсупов С., Чорвачилик терминларига оид русча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Меҳнат, 1990.
3. Зокиров М.Ж., Шарофиддинов Ф.Ш., Ҳамрақулов Д.Ю. Қоракўлчилик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
4. Зокиров М., Валиев У., Ширинбоев Ш. Қоракўлчилик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983
5. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
6. Тихонов А.Н., Ким Л.Л., Тихонов С.А. Современный русский язык. Лексикология. – Ташкент: “Ўқитувчи”, 1991.

DIALEKTIK MATERIALIZM VA TILSHUNOSLIK METODOLOGIYASI

Zikrillayev G'ani Nasrullayevich,
filologiya fanlari doktori

Ro'ziyev Yarash Bozorovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
y.b.ruziev@buxdu.uz

Safarov Firuz Sulaymonovich,
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc),
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
f.s.safarov@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslik metodologiyasi va uning turkiy tillar shu jumladan o'zbek tili grammatikasiga tatbiqi haqida so'z yuritiladi. Avvalo metodologiyaning falsafadagi talqini izohlanadi. Nemis faylasufi Gegelning fikricha dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo'lib barcha fanlar uchun metodologiya vazifasini o'taydi. Shundan so'ng sho'ro tilshunosligi jumladan uning tarkibiy qismi bo'lgan turkiy tilshunoslikda ham metodologik asos sifatida qabul qilingan dialektik materializmning turkiy tillar grammatik qurilishiga tatbiqi tahlil qilinadi. Professor S. N. Ivanovning dialektik mantiqdagi mohiyatning ziddiyatli tabiati haqidagi tushunchani grammatik ko'p ma'nolilik talqiniga tatbiq etib grammatik shaklning umumiy ma'nosi zid, qarama-qarshi ma'nolar birligidan iboratligi shuningdek grammatik kategoriya a'zolari orasida ham shunday dialektik ziddiyat mavjudligi, uning shogirdi H. G'. Ne'matovning esa turkiy tillarda grammatik shakllarning o'zaro munosabatini o'rganishda binar oppozitsiya nazariyasiga murojaat qilish tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyatini chuqurroq anglashga imkon berishi haqidagi fikrlari sharhlanadi. Maqola mualliflarining fikricha turkiy tillarda grammatik kategoriyaga xos umumiy (mushtarak) ma'no uning shakllarida turli daraja va ko'rinishda ifodalanadi va bu shakllar orasida oppozitiv emas, nooppozitiv munosabat mavjud. Xulosa sifatida sho'ro tilshunosligida dialektik materializm falsafiy, metodologik asos vazifasini bajarganligi, u hozir ahamiyatini yo'qotgan ta'limot ekanligi aytiladi.

Kalit so'zlar: metodologiya, dialektika, dialektik materializm, dialektik mantiq, umumiylik, xususiylik, substansiya, grammatik shakl, grammatik kategoriya, ziddiyat, qarama-qarshilik, oppozitsiya, privativ oppozitsiya, ekvipolent oppozitsiya, nooppozitiv farqlanish.

Аннотация. В статье речь идёт о методологии языкознания и её применении к грамматике тюркских, в том числе узбекского языка. Прежде всего разъясняется трактовка методологии в философии. По мнению немецкого философа Гегеля, диалектический метод является наиболее общим методом научного познания реального мира и служит методологией для всех наук. После этого анализируется применение диалектического материализма, принятое в качестве методологической основы в советском языкознании, в том числе и в тюркологии, являющемся его составной частью, к грамматическому строю тюркских языков. Анализируется точка зрения профессора С. Н. Иванова о применении противоречивости сущности в диалектической логике к истолкованию грамматической многозначности, при этом выясняется, что общее значение грамматической формы состоит из единства противоречивых значений, а также существования такого диалектического противоречия между членами грамматической категории, мнение его ученика Х. Г. Нигматова о том, что применение теории бинарной оппозиции при изучении взаимодействия грамматических форм в тюркских языках позволяет глубже понять сущность изучаемого явления. По убеждению авторов статьи, общее значение, характерное для грамматической категории в тюркских языках, выражается в её формах в различных степенях и разновидностях, и между этими формами нет оппозиционного отношения. В заключение говорится, что диалектический материализм служил философско-методологической основой в советском языкознании, а в настоящее время является учением, утратившим свое значение.

Ключевые слова: методология, диалектика, диалектический материализм, диалектическая логика, общее, частное, субстанция, грамматическая форма, грамматическая категория,

противоречие, оппозиция, привативная оппозиция, эквиполентная оппозиция, неоппозитивное различие.

Abstract. *The article deals with the methodology of linguistics and its application to the grammar of the Uzbek language. First of all, the interpretation of methodology in philosophy is explained. According to the German philosopher Hegel, the dialectical method is the most general method of scientific knowledge of the real world and serves as a methodology for all sciences. After that, the application of dialectical materialism, accepted as a methodological basis in Soviet linguistics, including Turkology, which is its integral part, to the grammatical structure of the Turkic languages is analyzed. The opinions of Professor S. N. Ivanov on the application of the contradictory nature of essence in dialectical logic to the interpretation of grammatical polysemy are analyzed, while it turns out that the general meaning of the grammatical form consists of the unity of contradictory meanings and also the existence of such a dialectical contradiction between the members of the grammatical category, the opinion of his student H. G. Nigmatov that the application of the theory of binary opposition in the study of the interaction of grammatical forms in the Turkic languages allows a deeper understanding of the essence of the phenomenon under study. According to the authors of the article, the general meaning characteristic of the grammatical category in the Turkic languages is expressed in its forms in various degrees and varieties, and there is no opposition between these forms. In conclusion, it is said that dialectical materialism served as a philosophical and methodological basis in Soviet linguistics, and at present is a doctrine that has lost its significance.*

Key words: *methodology, dialectics, dialectical materialism, dialectical logic, one, particular, substance, grammatical form, grammatical category, contradiction, opposition, privative opposition, equipotent opposition, non-opposite difference.*

Kirish. *Ma'lumki metodologiya so'zining ma'nolaridan biri ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limotdir. Ilmiy bilish metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning ehtiyojlari taqozosi bilan yuzaga kelgan. U tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to'g'ri, obyektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Ilmiy bilish masalasida usul muammosi bilan eng qadimgi falsafada Aristotel shug'ullangan. Ilk bor fanni usul tizimi asosida o'rganish masalasini F. Bekon ilgari surgan. R. Dekart va I. Kant ham bu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Gegel esa metodologiyaga muhim hissa qo'shgan. U birinchi bo'lib falsafiy metodning o'ziga xos xususiyati, uning aniq fanlar metodidan farq qilishini ko'rsatgan. Natijada bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning o'zaro bog'liq xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjudligi aniqlangan. Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo'lib barcha fanlar uchun metodologiya vazifasini o'taydi [1, 258]. Boshqacha aytganda zamonaviy falsafa fani voqelikni ilmiy bilishning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab berish qudratiga ega. Ilmiy bilish jarayonining samarasi voqelik hodisalarining dialektik munosabati va ularning sinergetik taraqqiyot omillarining e'tiborga olinishi bilan bog'liq. Aynan ana shu falsafiy qarashlar asosida ilmiy tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan vositalar ham haqiqiy bahosini topadi [7, 10].*

20-asrda sho'ro tilshunosligining tarkibiy qismi bo'lgan turkiy tilshunoslikda ham dialektik usul metodologik asos sifatida e'tirof etildi. Jumladan prof. S. N. Ivanov o'z tadqiqotlari [2; 3]da mazkur usulning har jihatdan to'g'ri va afzal ekanligini ta'kidlaydi. O'ziga xos yondashuv, teran tadqiq, salmoqli nazariy fikr-mulohazalar 20-asr turkiy tilshunosligida katta ta'sir kuchiga ega bo'lganligidan 21-asrning yosh tadqiqotchilarini xabardor qilish maqsadida quyida asliyat [3] va tarjima [4] asosida ulardan ayrimining tadqiq-u talqini hamda ta'rif-u tavsifiga murojaat qilamiz.

Asosiy qism. *Grammatik shakl ma'nolarining tadqiqotchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladigan cheksiz rang-barangligi faktlarni sharhlashning muayyan tamoyillarini ishlab chiqishni ya'ni shu rang-baranglikni nazariy jihatdan tushuntirib berish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'yadi. Umuman olganda har qanday nazariyaning vazifasini xususiy faktlarning barcha rang-barangligini bog'lab turuvchi umumiylikni topishga urinish tarzida ta'riflash mumkin [3, 66; 4, 10]. Nazariya yaratish uchun esa muayyan tamoyillar, metodologik va falsafiy asos zarur [3, 68; 4, 15].*

Grammatik ko'p ma'nolilikni o'rganishda *dialektika* fanidagi xususiylik va umumiylikning o'zaro munosabati haqidagi kategoriya qonun-qoidalariga tayanish lozim (*Dialektika taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot, ilmiy bilish metodlaridan biri* [1, 109]). Boshqacha aytganda modomiki umumiylik va xususiylik ma'nolarining o'zaro munosabati grammatikada bor ekan, ayni paytda umumiylik va xususiylik munosabati haqida dialektik ta'limot mavjud ekan, nazariy masalaning o'ziga xosligini falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish maqsadga muvofiqdir [3, 69 – 70; 4, 18 – 19]. Aniqroq qilib aytganda dialektik-materialistik falsafa

muammoni xususiy fanlarga xos bo'lgan tomondan, metodologik nuqtayi nazardan izohlash imkonini beradi [3, 71; 4, 20]).

Dialektik mantiq (D. M.)ga ko'ra yakkalikka nisbatan olingan umumiylik tarkibida mazkur yakkalik mavjud bo'lgan aloqalar tizimidir (D.m. inson tafakkurining rivojlanish qonuniyatlari to'g'risidagi ta'limot, mantiq fanining alohida sohasi. D.m. ta'limotiga ko'ra tafakkur bilishning shunday qonunlariga asoslanadiki unda tashqi holatdan ichki holatga, hodisalardan mohiyatga, mavhumlikdan konkretlikka, nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqatga tomon rivojlanish ro'y beradi. D.m.da analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi metodlar bilishning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan usullarini tashkil etadi. D.m. muayyan kategoriyalar tizimidan ham iborat. Hozirgi paytda D.m. fanini rivojlantirishga alohida e'tibor berilyapti [1, 109]). Umumiylikni aynan shunday tushunish u haqda konkret umumiy tushuncha hosil qilishga olib keladi. Yakkalik hodisa. Umumiylik esa tarkibida yakkalik mavjud bo'lgan tizim, qator hodisalarining tub asosi, ularning mohiyatidir. Demak umumiylik dialektik talqinda yakkalik kabi konkret va moddiy narsa deb qaraladi [3, 71; 4, 21].

Umumiylik ayrim narsa, hodisalarning aloqa-munosabatidan iborat bo'lib mazkur narsa va hodisalarni yaxlit birlik, yagona tizimga birlashtiradi. Dialektik mantiq nuqtayi nazaridan bunday tizim tarkibiga kiruvchi xususiylikni aniqlash xususiylikdan umumiylikka olib boruvchi aloqani ko'rsatish natijasida amalga oshiriladi. Bu esa xususiylikning umumiy tizimdagi o'rnini aniqlash bilan qo'lga kiritiladi. Xullas muayyan tizimga mansub aloqadorlik, yakkalik o'zining bo'lak (qism, uzv)laridan birida aks etgan shu tizimning aynan o'zidir [3, 72; 4, 22 – 23].

So'ngra muallif diqqat-e'tiborini yuqorida ko'rsatilgan metodologik tamoyillarni, dialektika va dialektik mantiqning tushuncha-yu kategoriyalarini grammatik ko'p ma'nolilik muammosi talqiniga qanday tatbiq etish mumkin degan savolga javob berishga qaratadi. Bunda Gegel ta'limoti asos vazifasini bajaradi. Ulug' faylasufning fikriga ko'ra yakka narsalarning substansional mohiyatiga kirib bormasdan turib umumiylikni izlash empirik fanlarga xos. Binobarin dialektik mantiq narsa-predmetning ayrim belgisini mavhum tavsiflashdan voz kechib konkretlikka ya'ni tizim, mohiyat hamda o'zaro munosabatini tadqiq-u tahlil qilishga ko'tarilishni taqozo etadi. Bunday holda muayyan shaklning umumlashgan grammatik ma'nosi uning xususiy ma'nolarining bevosita kuzatishda berilmagan tizimi, hodisa, ya'ni xususiy ma'nolaridan tashqarida turuvchi mohiyatidir deya e'tirof etiladi [3, 73; 4, 23 – 24].

Shundan so'ng olim substansional morfologiyani asoslash masalasiga to'xtaladi. Bunday holda ya'ni umumiylik va yakkalik munosabatining o'ziga xos xususiyatini tushuntirib berish uchun dialektikaning narsa-predmet (mavjudot), mohiyat va munosabat kabi kategoriyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dialektik materializm da mavjudotning mohiyatini anglashga ya'ni uni *substansiya* tarzida tushunishga asoslaniladi (*Substansiya (lot. substantio – mohiyat) qadimgi Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafasi tarixida butun mavjudotning bosh asosini ifodalovchi tushuncha. Jumladan Arastu substansiya mohiyat, barcha kategoriyalarning real asosi, borliqni substansiya tushunchasiz tushuntirib bo'lmaydi deb ta'kidlaydi. Falsafiy tafakkur tarixida substansiya muammosi bo'yicha olib borilgan bahs-munozaralar moddiy va ruhiy jarayonlarni chuqurroq o'rganish, ular o'rtasidagi tafovut va o'zaro birlikni har tomonlama tahlil etish tomon yo'naltirilgan [1, 380 – 381]).* Boshqacha aytganda unda obyektiv borliq muayyan xossa va munosabatlarni o'zida mujassam etgan mavjudotlarning yig'indisidan iborat deb qaraladi [3, 73; 4, 25].

Shakl, ma'no va vazifa (funksiya) kabi grammatik tushunchalarning o'zaro aloqasini dialektikaning narsa-predmet, xususiyat va munosabat kategoriyalari aloqasi nuqtayi nazaridan o'rgansa bo'ladi. Grammatik shakl narsa-predmet ya'ni borliqda mavjud bo'lgan muayyan narsa tarzida tushunilsa u o'zining aloqa va qo'llanishida shakllanadigan xususiyat (ma'no)lari asosida yuzaga chiqadigan ma'lum mohiyat (substansiya)ga ega ekanligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Grammatik shaklning yashirin mohiyati (substansiyasi) uning botiniga yo'nalgan munosabati (vazifasi, qo'llanishi) ya'ni grammatik shaklda berilgan ma'nolar tarzida tushunilishi mumkin [3, 74; 4, 26].

Grammatik shaklni uning munosabatlari ya'ni sintaktik qo'llanishida namoyon bo'ladigan muayyan xususiyat-ma'nolariga ega substansiya sifatida talqin qilishda grammatik shakllarning ikki tomonlama va ziddiyatli tabiati aks etadi. Grammatik shakllarning ushbu ziddiyatli birligi dialektik umumiylik va yakkalik, mohiyat va hodisa, narsa va xususiyatining voqelanishi demakdir. Bunday talqinda grammatik shakllar morfologik va sintaktik xususiyatining botin ayniyatligi ma'lum bo'ladi. Grammatik shaklning sintantik tavsifi unda ma'lum ma'nolarning mavjudligi sababli kirishadigan aloqalari bo'lsa morfologik xususiyati uning sintaktik qo'llanishi bilan belgilanadigan ma'nolaridir [3, 74; 4, 26 – 27].

Morfologik jihatdan tasvirlanganda grammatik shakl o'zining substansional mazmuni, ma'nolar tizimi, xususiy ma'nolarda namoyon bo'ladigan mohiyati (ya'ni umumiy ma'nosi) haqidagi ilmiy

tushunchada o'z aksini topishi kerak. Shunga muvofiq tasvir metodi ham substansional yondashuvni, mohiyatni aloqalar orqali ochishni ta'minlashi darkor. Shaklning barcha ma'nosi unda substansional tarzda mavjud bo'ladi. Masalan otning nol ko'rsatkichli shaklida yakka, tur va jamlik ma'nolari mujassam bo'ladi [3, 75; 4, 28 – 29].

Shuni unutmazlik kerakki substansional yondashuv amaliy quvvat-ahamiyatga ega bo'lishi uchun morfologiya va sintaksis bir-biridan aniq-ravshan farqlanishi shart. Morfologiyada grammatik shaklning umumlashgan holda sintaksida uchramaydigan mazmuni aniqlanishi lozim. Sintaksisda esa grammatik shakllar vazifa nuqtayi nazaridan ya'ni so'z birikmasi va gapda qo'llanishi jarayonida tahlil qilinishi kerak. Boshqacha aytganda morfologiyada grammatik shakllarning mohiyati ularning xususiyati majmui asosida aniqlanadi. Bunda narsa-predmet o'zining xossasiga ko'ra tavsiflanadi. Bu xossa esa aslida munosabatlar yig'indisi, jamlanmasidan iborat. Sintaksisda esa shakllarning sintaktik bo'laklarni hosil qilish jarayonida namoyon bo'ladigan o'zaro munosabatlari ochib beriladi. Bu esa grammatik kategoriyalarni ta'riflashda substansional mavjud ma'nolar nazariyasi ham bo'lishini taqozo etadi [3, 75; 4, 29 – 30].

Professor S. N. Ivanovning diqqat-e'tiborini tortgan yana bir nazariy muammo grammatik ko'p ma'nolilik talqiniga muqarrar tatbiq etiladigan dialektik mantiqdagi mohiyatning ziddiyatli tabiati haqidagi tushunchadir. Onda-sonda uchraydigan g'ayrime'yoriy bir narsa (anomaliya) tabiatan ziddiyatni ochib berishda jiddiy g'ovdir. Ana shu g'ovni his eta bilgan va uni bartaraf eta olgan kishigina hodisa va mohiyatning dialektik munosabatini ko'rsata oladi [3, 78; 4, 33 – 34].

Tushunchaga ta'rif berishda tilshunos olim yana Gegelga murojaat qiladi: "Har qanday tushuncha umuman olganda "qarama-qarshi tomonlarning birligidir. Dialektik mantiqda tushunchada aks etgan aloqa umumiylik va xususiylilik aloqasidir deya ta'kidlanadi. Obyektiv borliqda shunday aloqalar borki ular empirik kuzatishda emas, nazariy yo'l bilangina aniqlanadi. Nazariy bilishning asosiy kategoriyasi ilmiy tushunchadir. Ilmiy tushuncha faqat dialektik yo'l bilan mavhumlikdan aniqlikka ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Bunda teran tushunish tomon ko'tarilish nazarda tutiladi. Modomiki grammatika fan ekan, har bir grammatik kategoriya va grammatik shaklning ta'rifi u haqdagi ilmiy tushuncha bo'lmog'i va unda mazkur hodisaning ziddiyatliligi, umumiy qatoridagi o'rni so'zsiz ko'rsatilmog'i kerak. Qarama-qarshiliklar birligi va ularning kurashi qonuni nazariy tafakkur mag'zidir. Nazariy bilish vazifasi aynanlikda tafovutni ko'rishdir. Borliqdagi hamma narsa dialektik, ikki taraflama va zid bo'ladi ((*Всё в мире диалектически, противоречиво двойственно* [3, 78])). Buning sabablaridan biri shuki har bir fakt, har bir hodisa o'z-o'zicha ham, boshqa hodisalar bilan munosabatda ham mavjud bo'ladi" [3, 78; 4, 34 – 36].

Mavjud narsani ideal obyekt sifatida ongda tiklash-tasvirlashda qarama-qarshilikning o'zaro ta'sir etish tamoyili muhim metodologik ahamiyatga ega. Borliqning u yoki bu hodisasida zid munosabatni topish o'rganilayotgan narsaning mohiyatiga kirib borish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Aniqlangan, topilgan, ochilgan ziddiyat doimo bilishning bosqichi hamda yechimini, aniqrog'i qarama-qarshi tomonlarning birligini anglashni talab qiladigan muammodir. Obyektiv borliqdagi aynan shu ziddiyatlar fikr harakati hamda shu fikrning u yon-bu yon o'tib turishi manbaidir.

Ilmiy tushunchalar xususida yuqorida bayon qilinganlarga tayanib ta'kidlash mumkinki nazariy qurilma (ya'ni tizim, sistema) o'zaro bog'langan va bir-biriga o'tib turadigan tushunchalar asosida yaratilishi, boz ustiga tizimning o'zi ham o'z ichida konkret va uzvlarga bo'linadigan tushunchadan iborat bo'lmog'i lozim [3, 79; 4, 37 – 38].

Nazariya ikki "tomonlama harakat"li teran sintez-hosila bo'lishi kerak. "Nazariya o'z isbotini empirik faktlarning kattagina miqdorini o'zaro bog'lashda topadi, uning haqqoniyligi ham ana shunda" deb yozadi fasl oxirida nazariyotchi tilshunos olim Eynshteynning fikriga tayanib [3, 80; 4, 39].

Muallif monografiyasining boshqa fasl va paragraflarida mazkur metodologiyaga asoslanib otga xos grammatik (son, egalik, kelishik) kategoriyalarning substansional-dialektik mohiyati hamda ularning nutq (gap)da voqelanishini teran tadqiqu talqin qiladi.

Ta'kidlash joizki O'zbekistondan ham prof. S. N. Ivanovning H. Ne'matov, I. Mirzayev kabi taniqli shogird-u izdoshlari yetishib chiqdi. Ushbu maqolada prof. H. G'. Ne'matovning istiqlolgacha yaratgan tadqiqotlaridan ayrimi [5; 8]ga to'xtalamiz.

Olimning ta'kidlashicha fanning qaysi sohasi yoki tarmog'i bo'lmasin har qanday tadqiqotda oldindan belgilangan *metodologik asosga* tayaniladi [5, 6]. Tilshunoslikda falsafiy kategoriyalardan foydalanmoq darkor. Til murakkab, ko'p aspektli xilqat bo'lganligidan uning birliklarini o'rganishda dialektik yondashuvga murojaat qilish taqozo etiladi. Bunday holda mazkur birliklarning obyektivligi, rivojlanishi hamda aloqa-yu munosabatlarini har jihatdan to'liq o'rganish imkoni tug'iladi. Dialektik mantiq borliqda ro'y beradigan harakat, o'zgarish-u rivojlanish jarayonlarini nihoyatda aniq-ravshan aks ettira oladi. Bu

borada markscha dialektik mantiqning ahamiyati beqiyos. Negaki unda asosiy diqqat-e'tibor o'rganilayotgan hodisaning mazmunini aniqlash usul va yo'llariga, ilmiy tushuncha yaratish tamoyillariga qaratiladi, tadqiq obyektining mazmun-mohiyatini tahlil qilish talab etiladi. Aynan ushbu yondashuv tadqiq obyektining imkon qadar ko'proq tomonlarini qamrab oladi. Pirovard natijada til, uning birliklari hamda sistem tuzilishining mohiyati tadqiqotchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi.

Dialektik mantiq metodining turkiy tillarga tatbig'i samaradorligini prof. S. N. Ivanov tadqiqotlari tasdiqlaydi. Shu bois biz deb fikrini davom ettiradi H. G'. Ne'matov ishimizda qo'llangan sistem tadqiq usulini imkon qadar dialektik mazmun bilan boyitishga harakat qildik. So'ngra o'ziga xos bunday yondashuvning talablari bayon qilinadi. Jumladan tilni sistem-struktur usul bilan tadqiq qilganda uning birliklari (fonema, morfema va hokazo), shakl va kategoriyalarning *realligi* ularning aloqa-munosabatlari bilan qorishib ketmasligi lozim. Dialektik mantiqda obyektning faqat aloqa-munosabatlari o'rganilmaydi. Ayni paytda u reallik ya'ni tadqiqotchiga bog'liq bo'lmagan mavjudot hamda o'zida sifat, xususiyat va munosabatlarning barchasi mavjud bo'lgan narsa deb qaraladi. Binobarin lisoniy shakl obyektiv mavjud, o'zida barcha aloqa-munosabati mujassam deb qaralmog'i kerak. Boshqacha qilib aytganda lisoniy shakllar *substansiya* deb tushunilishi darkor. Bunday holda til unsurlari o'zidagi belgilar (xususiyat, munosabat va mazmun) asosida muayyan tizimga birlashib unda yangi belgilarga ega bo'ladi. Natijada tizim tarkibiga kirgan unsurlarga nisbatan butunlik, yaxlit birlik vazifasini o'taydi [5, 3 – 4].

Tadqiqotda sistema-tizim bilan til unsurlarining o'zaro munosabati talqini ham diqqatga sazovor. Ushbu munosabat umumiylik va yakkalik, butun va qism munosabati tarzida tushuniladi. mazkur tushunchalar dialektik, nisbiy bo'lib bir-biridan keskin ajralmagan, bir-biriga o'tib turadi. Til birliklarida umumiylikning mohiyati xususiylashadi, til birliklarining konkretlashishida esa mohiyat hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Tilning sistem xususiyati, uning tuzilishi-tartiboti grammatik kategoriya shakllarining o'zaro munosabati doimiy, barqaror hamda muayyan belgilarga asoslangan bo'lishini talab etadi. Shu sababli turkiy tillarda grammatik shakllarning o'zaro munosabatini o'rganishda binar *oppozitsiya* nazariyasiga murojaat qilish tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi (*Oppozitsiya ziddiyat, qarama-qarshilik (противопоставление) ma'nosini anglatadi. Ingliz va nemis tilida mazkur atamaning o'zi (ing. opposition, nem. Opposition) qo'llanadi [6, 289, 369]*). Ammo grammatik shakl (kategoriya)larning o'zaro munosabati ko'p qirrali bo'lganidan oppozitsiyaning bitta qatori ya'ni bitta shaklning ikkinchisiga ziddiyati asosida grammatik shakl mohiyatini belgilab bo'lmaydi. Grammatik shakllarda kategorial ma'no bilan bir qatorida yondosh (сопряжённый) grammatik ma'no ham kam emas. Shu sababli grammatik shakl (kategoriya)ning mohiyati oppozitsiyaning birdan ortiq qatori asosida belgilanadi. Muayyan grammatik shakl (kategoriya)ning bevosita ziddiyati asosida uning mohiyati emas, uning xususiy, atigi bitta farqlovchi belgisi aniqlanadi. Shakl (kategoriya)ning mohiyati faqat bevosita munosabatida emas, bilvosita aloqalarida ham yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra grammatik shakl oppozitsiya (mikrotizim)ning bitta qatori a'zosi bo'lmaydi, turli belgilari asosida oppozitsiyaning bir necha qatoriga mansub bo'ladi. Binobarin tadqiqotchi mazkur shaklning barcha oppozitsiyasini aniqlashi kerak bo'ladi.

11–12-asr yodgorliklari tilida grammatik shaklning alohida olingan oppozitsiyasi odatda privativ ko'rinishga ega. Grammatik shaklning mohiyati kamida ikki qator oppozitsiya (ikkita mikrotizim) asosida belgilanadi. Grammatik shakl barcha zid belgilarining birligi (единство) uning nisbiy mohiyatini tashkil etadi [5, 5]. Boshqacha aytganda A unsur oppozitsiyaning bir qatorida M_1 belgining mavjudligi (маркированность) bilan V unsurga zid bo'lsa mazkur oppozitsiyaning boshqa qatorida M_2 belgiga nisbatan betarafli (neytralligi) asosida S unsurga zid bo'ladi. Grammatik shaklda bunday belgi bir nechta bo'lishi mumkin. Binobarin A unsur barqaror M_1 belgisi va betaraf (nobarqaror) M_2 belgisiga ega. Ma'lum bo'ladiki A unsur belgilarining birligi bitta barqaror va bitta nobarqaror belgining dialektik birligidan shakllanadi [5, 7].

Grammatik shakl (kategoriya)ning zid (oppozitiv) belgilari mexanik birlik emas, dialektik, ziddiyatli birlikdan iborat. Grammatik shakl mohiyatining bunday talqini mazkur mohiyatning o'zaro zid ikki tomonga ajratish qonun-qoidasi bilan mos tushadi. Markscha dialektikaning o'zagi-yadrosi bo'lgan ushbu qonun-qoida tilshunos zimmasiga tildagi dialektik qarama-qarshilikni aniqlash, topishni, birlikni zid qism-tomonlarga ajratish va ularni yuksak dialektik birlikka birlashtirish mas'uliyatini yuklaydi. Tilda grammatik shaklning ifoda va mazmun tomoni dialektik birlik kasb etadi. Shuningdek morfologiya va sintaksis, til va nutq, sistema-tizim va unsurlari, tizimning o'zgaruvchanligi va barqarorligi, grammatik shakl va uning umumiy-mushtarak ma'nosi hamda tizim unsuri sifatida paradigmatic ma'nosi ham shunday xususiyatga ega bo'ladi [5, 4 – 5]. Muhim ahamiyatga ega bo'lganidan til sistema-tizimning barqaror va o'zgaruvchanligi,

yopiq emas, ochiqligi, tilning aloqa vositasi bo'lishi kabi masalalar ham tadqiqotchi e'tiboridan chetda qolmagan [5, 6 – 8].

Turkiy tillarda grammatik kategoriyalarni tasniflashda ham mazkur tadqiqotdagi kabi tamoyillarga asoslanilganligini ko'ramiz. Grammatik kategoriyalar yasash xususiyati, qo'llanish doirasi va sintaktik imkoniyatiga ko'ra tasnif qilinadi. Yasalishiga ko'ra grammatik kategoriyalar cheklangan va cheklanmagan bo'ladi. Chunonchi mayl, zamon, shaxs va son kategoriyalari barcha fe'ldan yasaladi deb ikkinchi turga, daraja kategoriyasi hamma fe'ldan yasala olmaydi deb birinchi turga kiritiladi. Qo'llanish doirasiga ko'ra grammatik kategoriyalar klassifikatsiyalovchi, funksional-sintaktik, klassifikatsiyalovchi-sintaktik va neytral (betaraf) bo'ladi. Ikkinchi turga mansub kategoriyalar qaysi so'z turkumidan foydalanishidan qat'i nazar, gapning ma'lum bo'lagi vazifasini bajarish uchun xoslangan. Fe'lning mayl, zamon, shaxs va son kategoriyalari shunday xususiyatga ega. Ular har doim kesim bo'lib keladi. Sintaktik imkoniyatiga ko'ra grammatik kategoriyalar gap doirasida bir so'zning ikkinchisiga munosabatini ko'rsatadi yoki bu belgiga betaraf bo'ladi [8, 4 –7].

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtiradigan bo'lsak S. N. Ivanovning fikriga ko'ra grammatik shakllarning umumiy ma'nosini aniqlashdagi asosiy kamchilik ishonchli metodologik asosning yo'qligi, uni aniqlash metodikasining yaxshi ishlanmaganligidir. Grammatik tadqiqotlarda *marksistik-dialektik metodni* qo'llash ko'zlangan natijani beradi. Negaki dialektik materializm davri mavjudotning mohiyatini anglashda substansiya tushunchasiga asoslaniladi (*Dialektik materializm ilmiy-falsafiy dunyoqarash, markscha ta'limotning tarkibiy qismlaridan biri, uning falsafiy asosi* [23, 140]. *D.m.ning tamal toshi olamning moddiy tabiati haqidagi, olamda materiya hamda uning harakat va o'zgartirish qonunlaridan boshqa hech nima yo'qligi haqidagi ta'limotdir. D.m. g'ayritabiiy mohiyatlar haqidagi har qanday tasavvur va uning diniy, idealistik falsafasi qanday libosga burkanmasin qat'iy va murosasiz dushmanidir* [23, 142]). Har qanday tushuncha esa umuman olganda qarama-qarshi tomonlarning birligidir. Qarama-qarshiliklar birligi va ularning kurashi qonuni bo'lsa nazariy tafakkur mag'zidir. Binobarin grammatik ko'p ma'nodlilik talqiniga dialektik mantiqdagi mohiyatning ziddiyatli tabiati haqidagi tushuncha muqarrar tatbiq etilishi darkor. H. G'. Ne'matovning e'tirof etishicha tilshunoslikda falsafiy kategoriyalardan foydalanmoq darkor. Bunda *markscha dialektik materializmning* ahamiyati beqiyos. U asos qilib olinganda til, uning birliklari hamda sistem tuzilishining mohiyati tadqiqotchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu fikrlar S. N. Ivanov nuqtayi nazariga aynan mos. Grammatik shakl (kategoriya)larning mohiyati (umumiy ma'nosi, paradigmatic mazmuni) tadqiq-u talqinida shogird ustoz qo'llagan *ziddiyat, qarama-qarshilik* (противопоставление) atamasini *oppozitsiya* so'zi bilan almashtiradi. Yozma yodgorliklarga uning ikki turi (privativ va ekvipolent oppozitsiya) xos deb uqtiradi.

Shuni ta'kidlash joizki tilshunoslikda oppozitsiya atamasining qo'llanishi 20-asrning 30-yillariga to'g'ri keladi. Uni dastlab N. S. Trubetskoy ishlatgan. Bu olim fonologik oppozitsiyani uning a'zolari orasidagi munosabatga ko'ra uch turga ya'ni privativ, ekvipolent va gradual oppozitsiyaga bo'lgan [9, 82–85]. Bu nuqtayi nazar grammatikaga R. O. Yakobson tomonidan tatbiq etilgan. Uning fikricha hamma grammatik kategoriya oppozitsiya tushunchasiga asoslangandir. Ayni paytda u grammatik kategoriya shakllari orasida mazmuniy aloqa-munosabatning faqat bitta turi ya'ni *privativ* oppozitsiya mavjud degan nazariy qarashni ilgari suradi va rus tilida otning kelishik, fe'lning grammatik kategoriyalarini qo'llanish jihatdan tahlil qilishda shunga asoslanadi. R. O. Yakobson talqinida privativ oppozitsiyaning mohiyati shundan iboratki uning bitta a'zosi kuchli (markerli, belgili), ikkinchisi kuchsiz (markersiz, belgisiz) bo'ladi. Muayyan semantik belgi (**A**) oppozitsiyaning kuchli a'zosida ifodalangan, kuchsiz a'zosida ifodalangan bo'ladi. Oppozitsiyaning kuchsiz a'zosi asosan **A** ga zid bo'lgan belgini anglatish uchun xizmat qiladi (bu uning asosiy ma'nosi). Lekin u **A** belgini implitsit (ta'kidlanmagan) ravishda ifodalash maqsadida ham qo'llanadi [10; 11]. A. V. Isachenko ham rus tilidagi grammatik kategoriyalarni binar privativ oppozitsiya tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha bunday tahlil grammatik kategoriya shakllarini bir-biridan farqlovchi umumiy (invariant) ma'noni aniqlash imkonini beradi. Grammatik shaklning umumiy ma'nosi barcha kontekstda namoyon bo'ladi. U grammatik shaklning barcha xususiy ma'nosini tadqiq qilish yo'li bilan aniqlanadi [12; 13].

Sho'ro germanisti D. A. Shteling ham grammatik kategoriyalarni binar privativ oppozitsiyaga asoslanib tadqiq qiladi. U grammatik kategoriyaga shunday ta'rif beradi. *Grammatik kategoriya mazmunan bir-birini inkor etadigan ikki (faqat ikki) qator (yoki guruh) shakllar oppozitsiyasi demakdir* [14, 59]. Ayni paytda boshqa bir guruh olim ko'p a'zoli grammatik kategoriyalarning faqat binar oppozitsiyaga bo'lib tahlil qilish tilning tabiatiga mos kelmaydi [15, 49], grammatik kategoriya tizimini o'rganishda sun'iylikka olib

keladi [16, 94] deb hisoblaydi. Bunday kategoriya shakllari orasida ekvipolent oppozitsiya mavjud. Shunga ko‘ra har qaysi a‘zo o‘z semantik belgisiga ega bo‘ladi deb e‘tirof etiladi [16, 89].

Mazkur nuqtayi nazar o‘zbek tilshunosligida ham aks etgan. Jumladan A. Nurmonov til tizimining barcha unsuri o‘zaro oppozitiv munosabatda bo‘ladi [17, 128] deb uqtiradi. Jumladan tasdiq va inkor privativ oppozitsiya hosil qiladi. Negaki uning bir a‘zosida belgi (ya‘ni qo‘shimchasi) bor, ikkinchi a‘zosida yo‘q (o‘qimadi – o‘qidi). Ayni paytda tasdiq-inkor a‘zolari orasida ekvipolent oppozitiv munosabat ham mavjud. Kesimi *bor* va *yo‘q* so‘zlaridan ifodalangan sintaktik konstruksiya shunday xususiyatga ega. Chunki ularning ikkalasida ham belgi bor [17, 7]. Grammatik kategoriyalarni tasviriy metodga asoslanib tadqiq qilgan akademik A. Hojiyev bir ishida grammatik ma‘nolarning oppozitsiya hosil qilishini e‘tirof etadi. Bu grammatik kategoriyaga berilgan ta‘rifda o‘z ifodasini topgan. *Bir-biriga qiyosan olinadigan (oppozitsiya hosil qiladigan) ikki yoki undan ortiq grammatik ma‘no bilan shu ma‘nolarni ifodalovchi shakllar birgalikda grammatik kategoriyani hosil qiladi* [18, 6].

70-yillarda ayni paytda sho‘ro tilshunosligida til qurilishi, shu jumladan grammatik kategoriya sistemasi-tizimi barcha tilda bir xil emas degan yangicha metodologik qarash bayon qilindi. Bundan grammatik kategoriyaga beriladigan ta‘rifda tilning grammatik qurilishini hisobga olish kerakligi anglashiladi. V. N. Yarseva e‘tiborini shunga qaratadi. *Grammatik kategoriya strukturasi tilning morfologik turiga bog‘liq bo‘lgan grammatik shakllar sistemasi orqali izchil ifodalanuvchi umumlashgan ma‘nodir* [19, 5].

Mazkur yondashuv boshqa tilshunoslar tomonidan e‘tirof etildi. Jumladan A. V. Bondarko ilgari nuqtayi nazaridan voz kechib grammatik kategoriya a‘zolari orasida faqat oppozitsiya emas, nooppozitiv farqlanish ham mavjud deb yozadi [20, 17 – 28] (*Tilshunoslikda oppozitsiya aslida farqlanishning o‘ziga xos turi sifatida tushirilgan* [21, 176]). Bunday holda oppozitsiya grammatik kategoriya strukturasi-tuzilmasida yagona va mushtarak tamoyil emas, grammatik kategoriya shakllarini bir sistema-tizimga birlashtiruvchi tamoyillardan biri deb qaraladi. Binobarin bu nuqtayi nazarga ko‘ra grammatik kategoriya asosini umumiylik tushunchasi ya‘ni umumlashgan ma‘no tashkil etadi. Oppozitsiya bilan nooppozitiv farqlanish esa grammatik kategoriya shakllari bir tizimga birlashuvining turlicha ko‘rinish (usul)idir [20, 22]. Grammatik kategoriya a‘zolari orasidagi mazmuniy aloqa-munosabatning bunday talqini ta‘rifning boshqacha bo‘lishini taqozo etadi. *Grammatik kategoriya umumiy (podovoe) ma‘no asosida birlashuvchi grammatik shakllar sistemasidir; umumiy ma‘no kategoriya shakllarida xususiy (vudovoe) ma‘no tarzida namoyon bo‘ladi; xususiy ma‘nolar orasida oppozitiv munosabat bilan nooppozitiv farqlanish ham mavjud; grammatik kategoriya strukturasi-tuzilishi tilning qurilishiga qarab boshqacha bo‘lishi mumkin* [20, 24].

Yuqoridagi ikki ta‘rifdan anglashiladiki grammatik kategoriyaga o‘zbek tili nuqtayi nazaridan beriladigan ta‘rifda ona tilimizning agglutinativ xususiyati, aniqrog‘i o‘zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati aks etishi kerak. Quyidagi ta‘rifda shu inobatga olingan. *Grammatik kategoriya ikki va undan ortiq shakl tizimi orqali turli daraja va ko‘rinishda ifodalanuvchi umumlashgan ma‘nodir. Boshqacha aytganda grammatik kategoriya umumlashgan ma‘no bo‘lib ikki va undan ortiq grammatik shakl tizimi orqali turli daraja va ko‘rinishda ifodalanadi* [22, 19].

Xulosa. Yuqorida aytilganlardan ma‘lum bo‘ladiki grammatik kategoriya a‘zolarining mazmuniy aloqa-munosabati 1) o‘zaro qarama-qarshi, bir-biriga zid; 2) faqat privativ oppozitsiya; 3) privativ yoki ekvipolent oppozitsiya; 4) oppozitsiya (privativ va ekvipolent) hamda nooppozitiv farqlanish tarzida bo‘ladi, shuningdek 5) grammatik kategoriyaga xos umumiy (mushtarak) ma‘no uning shakllarida turli daraja va ko‘rinishda ifodalanadi. Shuni eslatish joizki birinchi nuqtayi nazarda markscha dialektik materializm falsafiy, metodologik asos vazifasini bajargan. Bunday “dialektik materializm – sobiq SSSRda 1930 – 80-yillarda rasmiy falsafa sifatida o‘qitilgan, hozir ahamiyatini yo‘qotgan ta‘limot” [1, 109].

ADABIYOTLAR:

1. Фалсафа. Қомусий лугат. Тошкент, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004.
2. Иванов С. Н. Родословное древо тюрок Абу-л-гази-хана. Ташкент, изд-во Фан, 1969, 203 б.
3. Иванов С. Н. Курс турецкой грамматики. Часть I. Грамматические категории имени существительного. Ленинград, изд-во Ленинградского университета, 1975.
4. Иванов С. Н. Грамматик тадқиқотларнинг методологик муаммолари. Монография. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Самарқанд, СамДУ нашриёти, 2004, 80 б.

5. Нигматов Х. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. Ташкент, «Фан», 1989. 191 с.
6. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. М., 1969.
7. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент, «Фан», 2007.
8. Нигматов Х. Г. О классификации грамматических категорий в тюркских языках. Советская тюркология журналы, 1984, № 4.
9. Трубецкой Н. С. Основы фонологии. М., 1960.
10. Jakobson R. Beitrag zur allgemeinen Kasuslehre. Travaux du cercle linguistique de Prague, 1936, 6.
11. Якобсон Р. О. Морфологические наблюдения над славянским склонением (American contributions to the IV. International congress of Slavistics). Mountain`s – Gravenhage, 1958.
12. Исаченко А. В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении с словацким. Морфология, II. Братислава, 1960.
13. Исаченко А. В. Бинарность, привативные оппозиции и грамматические значения. Вопросы языкознания журналы. 1963, № 2.
14. Штелинг Д. А. О неоднородности грамматических категорий. Вопросы языкознания журналы. 1959, № 1.
15. Шендельс Е. И. О грамматической полисемии. Вопросы языкознания журналы. 1962, № 3.
16. Бондарко А. В. Грамматическая категория и контекст. Л., 1978.
17. Нурмонов А. Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. Тошкент, 1982.
18. Хожиев А. Хозирги ўзбек тилида форма ясалиши. Тошкент, 1979.
19. Ярцева В. Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков. Типология грамматических категорий (тўплам). М., 1975.
20. Бондарко А. В. О структуре грамматических категорий (Отношения оппозиции и неопозитивного различия). Вопросы языкознания журналы. 1981, № 6.
21. Булыгина Т. В. Грамматические оппозиции. Исследования по общей теории грамматики (тўплам). М., 1968.
22. Зикриллаев Ф. Н. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. Тошкент, «Фан», 1990.
23. Философия лугати. Тошкент, Ўзбекистон нашириёти, 1976.

INSON HIS-TUYG‘ULARIGA OID KONSEPTUAL MODELLAR

Fayziyeva Aziza Anvarovna,

Buxoro davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida katta o‘qituvchisi

a.a.fayziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilida inson hissiyotlarining konseptuallashuvi, ularning metaforik modellari tahlil qilingan. Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra abstrakt tushunchalar inson tafakkurida unga aniq bo‘lgan tushunchalar, tajribalar yordamida anglanadi. Ingliz tilida tizimlashgan hissiyotga oid konseptual metaforalar strukturaviy, ontologik hamda orientatsion turlarda voqelangan bo‘lib, hissiyotlar–obyekt, hissiyotlar–issiqlik, hissiyotlar–sovuqlik, hissiyotlar–suyuqlik, hissiyotlar–tepa, hissiyotlar–past kabi metaforik modellar shaklida uchrashi tahlilda namoyon bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: konseptual metafora, metaforik model, orientatsion metafora, strukturaviy metafora, ontologik metafora, hissiyotlar.

Аннотация. В статье анализируется концептуализация человеческих эмоций и их метафорических моделей в английском языке. Согласно теории концептуальной метафоры, абстрактные понятия понимаются в терминах других концепций и опытов, которые были ранее известны. В английском языке концептуальные метафоры эмоций вербализуются в структурном, онтологическом и ориентационном типах. В частности, в анализе были проявлены такие метафорические модели, как эмоции - объекты, эмоции - тепло, эмоции - холод, эмоции - жидкость, эмоции - вверх, эмоции - вниз.

Ключевые слова: концептуальная метафора, метафорическая модель, ориентационная метафора, структурная метафора, онтологическая метафора, эмоции.

Abstract. The article analyzes the conceptualization of human emotions and their metaphorical models in English. According to the conceptual metaphor theory, abstract concepts are understood in terms of other concepts and experiences that are previously known to us. In English, conceptual metaphors of emotion are verbalized in structural, ontological and orientational types. Particularly, metaphorical models such as emotions are objects, emotions are heat, emotions are cold, emotions are liquid, emotions are up, emotions are down were manifested in the analysis.

Keywords: conceptual metaphor, metaphorical model, orientational metaphor, structural metaphor, ontological metaphor, emotions.

Kirish. Metaforalar tilshunoslik, tarjimashunoslik, stilistika kabi fanlar uchun doimiy qiziqish uyg‘otib kelgan tadqiqot obyekti sifatida kognitiv tilshunoslikda ham markaziy o‘rinni egalladi. Til va tafakkurning ajralmasligi, o‘zaro bog‘liqligi, tafakkur jarayonlarining tilda voqelanishi metaforalarning yaralishiga zamin yaratsa, metaforizatsiya natijasida shakllangan lingvistik birliklar keyinchalik insonning ongini, fikrlash tarzini boshqaradi. Inson borliqni tafakkurida aks etgan metaforalar yordamida anglab, yangi bilimlarni guruhlashtiradi, tasniflaydi hamda ularga baho beradi.

Hissiyot shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalari hisoblanishi ma‘lum. Shaxs tirik mavjudot bo‘lishi bilan birga jamiyat a‘zosi hamdir, shuningdek, yakka inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Inson hissiyotlari nafaqat uning tana a‘zolari, xatti-harakatlari yoki yuz ifodasida, balki tilda ham voqelanadi. Hissiyotlarni abstrakt voqelikdan moddiylikka o‘tkazish ular bilan bog‘liq konseptual metaforalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, ANGER IS FIRE/G‘AZAB – OLOV konseptual metaforasida ushbu ikki konseptning birlashuvini kuzatish mumkin. (Qarang: 1-jadval):

ANGER IS FIRE/G‘AZAB – OLOV konseptual metaforasi

1-jadval

Those were <i>inflammatory</i> remarks.	Bu <i>yondiruvchi</i> so‘zlar edi.
<i>Smoke</i> was coming out of his ears.	Quloqlaridan <i>tutun</i> chiqayotgan edi.
She was <i>burning</i> with anger.	U g‘azabdan <i>yonardi</i> .

LINGUISTICS

He was <i>spitting fire</i> .	U olov <i>ufurardi</i> .
The incident <i>set</i> the people <i>ablaze</i> with anger.	Bu voqea odamlarda <i>g‘azab olovini yoqdi</i> .

Yuqoridagi misollardan g‘azab va olov o‘rtasidagi kognitiv ko‘chishni quyidagicha izohlash mumkin:

olovning sababi → g‘azabning sababi

olov ichidagi narsa → g‘azabdagi inson

olov → g‘azab

olovning shiddati → g‘azabning shiddati

Demak “jahl, g‘azab” tushunchalari aks etgan har beshala gapdagi metaforik iboralarda “olov” konseptiga xos so‘zlardan foydalanilgan va “G‘AZAB – OLOV” konseptual metaforasi atrofida umumiy lashtirilgan. Bunda “g‘azab”ni yoritib berish – maqsad soha, *yondirmoq, olov tupurmoq, yonmoq, olovini yoqmoq* kabi so‘zlarni o‘z ichiga oluvchi “olov” konsepti esa manba sohadir.

Konseptual metaforalar, jumladan, inson his-tuyg‘ulariga oid metaforalar shaxsiy rivojlanish adabiyotlarida ham qo‘llanilishi tabiiy bo‘lib, mazkur diskursning maqsadi nuqtai nazaridan olib qaraganda, inson hissiyotlariga ta‘sir o‘tkazish, insonning nafaqat atrofni, balki ichki olamidagi jarayonlarni ham anglashga urinishi tabiatidan kelib chiqadi.

Fikr va g‘oyalar kabi, hissiyotlar ham ingliz tilida moddiy ko‘rinishda ifodalanishi EMOTIONS ARE OBJECTS / HISSIYOTLAR – OBYEKTTLAR metaforik modeli misolida ko‘rish mumkin.

You are designed mentally and emotionally in such a way that task completion *gives you a positive feeling*. (Eat that Frog, P.12) // Siz aqliy va hissiy jihatdan shunday tuzilgansizki, ishni yakunlash *sizga yoqimli hissiyot beradi* (Samaradorlikning 21 yo‘li, B. 9.)

The difference is that *you get a tremendous feeling of pride and satisfaction* from the completion of something valuable and significant. (Eat that Frog, P.31.) // Farqi shundaki, chindanda muhim va zarur vazifani ado etganingizda o‘zingizdan *faxrlanish hamda qoniqish hisini tuyasiz*. (Samaradorlikning 21 yo‘li, B. 22.)

Ingliz tilidagi *gives you a positive feeling* va *you get a tremendous feeling* jumalari hissiyotlarni berish yoki olish mumkinligini ko‘rsatib, ularga ishora qiluvchi *to give* – narsa-predmetni bermoq, *to get* – narsa-predmetni olmoq ma‘nolarida keladi. Birinchi misolning tarjimasida o‘zbek tilida ham HISSIYOTLAR – OBYEKTTLAR metaforik modeli qayta yaratilgan. Pol Ekman tadqiqotlari natijasida taklif etilgan hissiyotlar universalligi (Emotion universality) gipotezasi boshqa tadqiqotchilar tomonidan qisman rad etilsa-da, hissiyotlarning asosiy qismi xalqlarning madaniyatidan qat‘i nazar, birdek his etiladi, bu o‘xshashliklar tilda ham aks etadi. [1, 45-60]

Hissiyotlar haqida ingliz tilida shakllangan EMOTIONS ARE LIQUID / HISSIYOTLAR – SUYUQLIK konseptual metaforasi his-tuyg‘ular ingliz tilida so‘zlovchilar tasavvurida tanada suyuqlik ko‘rinishida mavjud bo‘lishi va harakatlanishini ko‘rsatadi. Ingliz lisoniy olamida emotsiyalarning turli vaziyatlarda tushunilishi, uning turli shakllari suyuqlik bilan bog‘liq tushunchalar doirasida anglanishi quyidagi kognitiv xaritalashda izohlangan (Qarang: 2-jadval):

His-tuyg‘ularning suyuqlik tarzida anglanishi

2-jadval

Suyuqlik	→	Hissiyot
Suyuqlikning iste‘molchisi/idishi	→	Hissiyotning iste‘molchisi/idishi
Suyuqlikning tanaga kirishi	→	Hissiyotning tanaga kirishi
Suyuqlikka ehtiyoj sezish	→	Hissiyotga ehtiyoj sezish
Suyuqlikning moddiy holati	→	Hissiyotning moddiy holati
Suyuqlik moddiy holatining o‘zgarishi	→	Hissiyot moddiy holatining o‘zgarishi
Suyuqlik miqdori	→	Hissiyot miqdori
Suyuqlik harakati	→	Hissiyot harakati
Suyuqlikda bo‘lish sharti	→	Hissiyotda bo‘lish holati

Hissiyotlarning moddiylashuvi aynan suyuqlik kabi his qilinishiga, ehtimol, insonning butun tanasi bo‘ylab tarqalgan nerv tolalarida ma‘lumotlarning markaziy nerv tizimidan tanaga tarqalishi jarayonida bo‘ladigan sezgilar ta‘sir qilgan bo‘lishi mumkin. Hissiyotlarning konseptuallashuvi nafaqat kognitiv

lingvistika, balki neyrolingvistika doirasida ham tadqiq olib borilsa, inson tajribalari konseptualizatsiyasi va metaforizatsiya jarayonlariga yanada aniqlik kiritilgan bo'lar edi.

Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar jonli tilni namoyon etuvchi diskurs sifatida his-tuyg'ularni aks ettiruvchi konseptual metaforalar orqali o'quvchini o'z hissiyotlariga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Mich Elbomning "Morrining seshanba darslari" asari g'oyasi asosida o'quvchining hayotga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish, vaqtni, hayotni qadrlashga o'rgatish, hissiyotlarni qabul qilib, ularni to'la his qilishga odatlantirish yotadi. Shuning uchun "Morrining seshanba darslari"da inson hissiyotlariga oid metaforik modellar boshqa asarlarga nisbatan ko'proq tahlilga tortilgan. But by *throwing yourself into these emotions*, by allowing yourself to *dive in*, all the way, over your head even, you experience them fully and completely. (Tuesdays with Morrie, P.30.) // Ammo o'zingni bu hech bir hadiklarsiz *tuyg'ular ummoniga otib, unga tamoman g'arq bo'lgach*, erkingni butunlay his-tuyg'ular ixtiyoriga topshirish orqaligina ularni to'laligicha his etasan. (Morrining seshanba darslari, B.87.)

Misolni tahlil qilsak, *throwing yourself into these emotions* – tuyg'ular ichiga o'zini otmoq, *allowing yourself to dive in, all the way, over your head* – boshi bilan ularga butunlay sho'ng'imoq kabi iboralar hissiyotlarning tanadan tashqarida qabul qilinishini ko'rsatadi. XVII asrlarda Yevropada ratsionalizm falsafiy qarashlarining paydo bo'lishi, insonning borliqni aql orqali tahlil qilib, tanishiga unday boshladi. Hozirgi kunga kelib, insoniyat uchun *aql yoki qalb* masalasi dilemma bo'lib, olamni anglash ratsional fikrlashga tayanishini qo'llovchilar ko'plab topiladi. Jamiyatdagi bunday ideologik qarashlar, eng avvalo, tilda aks etadi, shuning uchun aqlga oid konseptual metaforalar keng ko'lamda shakllangan va tadqiq qilingan. Shunga qaramay, shaxsiy rivojlanish adabiyoti yozuvchilari inson hissiyotlarini hayotning ajralmas bir qismi sifatida ko'rib, ularni rad etish emas, balki to'laqonli his qilish, hissiyotlarga "cho'milib" yashashni tatbiq etishadi.

Hissiyotlarga oid konseptlar harorat konseptlari bilan ham chambarchas bog'lanib ketgan, ularga ijobiy yoki salbiy baho haroratning issiq/sovuqligi nuqtai nazaridan kelib chiqib beriladi. Ijobiy hislar iliqlik, salbiylari esa sovuq konseptiga tenglashtiriladi. Ingliz tilida kundalik nutqda "*warm love*" (iliq muhabbat), "*chilled with fear*"(qo'rquvdan muzlamoq), "*heartwarming*" (qalbga iliqlik beruvchi) iboralari tez-tez qo'llaniladi. J.E.Vaggoner tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijasida, bolalar va yoshi kattalar muhabbat va g'azabni yuqori harorat, qo'rquvni esa quyi harorat bilan bog'lashar ekan. [2, 233-245]

Misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikki qarama-qarshi, ya'ni ijobiy va salbiy tuyg'ular bir-biriga zid metaforik modellarda voqelanganini ko'ramiz. I asked excitedly, *warming to the concept*. (The Café on the Edge of the World, P.37) // Men bu konsepsiyaga *mehrim tovlanganidan* hayajonlangan ko'yi so'radim. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.42.) Love-hate overreactions, fight-or-flight tendencies, withdrawal, aggressiveness, bitterness, resentment, and *cold competition* are some of the usual results. (7 Habits of highly effective people, P.54.) // Natijada sevgi va nafratning haddan tashqari oshishi, jang va kurashishga moyillik, chekinish, tajovuzkorlik, g'azab, nafrat va *sovuq raqobat* vujudga keladi. (Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi, – B.123) Holding him like that moved me in a way I cannot describe, except to say I felt the seeds of death inside his shriveling frame, and as I laid him in his chair, adjusting his head on the pillows, I had the *coldest realization* that our time was running out. (Tuesdays with Morrie, P.18.) // Uning so'lib borayotgan tanasida o'lim urug'lari nish urayotganini his qildim. Uni kursiga yotqizib, yostiqni boshiga to'g'rilab qo'yar ekanman, *achchiq haqiqatni* – vaqtimiz tugab borayotganini his qildim. (Morrining seshanba darslari, B.51.)

Yuqoridagi misollarda kelgan jumlar tahlil qilinsa, *warming to the concept* (konseptga nisbatan yuragi ilimoq) iborasi ingliz tilida shakllangan POSITIVE FEELINGS ARE HEAT / IJOBIY HISSIYOTLAR – ISSIQLIK, *cold competition* (sovuq raqobat), *coldest realization* (sovuq haqiqatni anglamoq) iboralari NEGATIVE FEELINGS ARE COLDNESS / SALBIY HISSIYOTLAR – SOVUQLIK konseptual metaforalarining tilda ifodalangan shakllari ekanligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur metaforik modellar konseptualizatsiyasi insonning tana haroratining hissiyotlar natijasida yuqorilashi yoki tushushiga taqaladi. Issiqlik doimiy ravishda ijobiy hissiyotlar bilan assotsiatsiya qilinmaydi, odatda, ijobiy tuyg'ular iliqlik tarzida, jahl, g'azab, hayajon kabi hislar esa issiqlik bilan birga tushuniladi. O'ta issiq harorat insonning kayfiyatiga va tabiatiga ta'siri psixologlar tomonidan isbotlangan jarayon, boshqa tarafdin olib qaraganda, g'azabi chiqqan inson sovuq joyda o'tirgan bo'lsa ham, jahl sababidan tana harorati ko'tarilib, qizib ketishi hammaga ma'lum. Issiqlikning intensivligi hissiyotlarning ham intensivligi, kuchayishiga sabab bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, barcha salbiy tuyg'ular faqat sovuqlik ma'nosida his qilinmaydi, aksincha, issiqlik tushunchasi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Konseptlar tilda verballashib, madaniyatga va hissiyotlarning qanday qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatib boradi.

Qoʻrquv, hafsalasi pir boʻlish kabi holatlar qon aylanishining sekinlashuvi sabab tanadagi haroratning tushishidan sodir boʻladi. Yuqoridagi misollarda kelgan *cold* sifati sovuq maʼnosiga ega boʻlsa-da, kontekstga qarab, farqli hissiyotlarni ifodalashi mumkin. Masalan, yuqoridagi ikkinchi misolda kelgan *cold competition* (sovuq raqobat) iborasi oilada vujudga kelishi mumkin boʻlgan nafratli munosabatlar, oʻzaro kimoʻzarga kurashishlarni anglatasa, keyingi misolda, haqiqatni anglagach, toʻsatdan keladigan qoʻrquvni aks ettiradi. Oʻzbek tilida ham ingliz tilida boʻlgani kabi, hissiyotlar issiqlik yoki sovuqlik nuqtayi nazaridan ijobiy/ salbiy baholanadi. Biror kishiga yoki narsaga nisbatan munosabatning yaxshi tomonga oʻzgarishida *koʻngli ilimoq*, biror ishdan, aksincha, hafsalasi pir boʻlsa *koʻngli sovumoq*, *qoʻli sovumoq* kabi iboralar qoʻllanadi.

Hissiyotlar bilan bogʻliq metaforizatsiya ularning orientatsion tabiatini ham koʻrsatadi. Ingliz tilida shakllangan HAPPINESS IS UP / SADNESS IS DOWN (BAXT – TEPA / XAFALIK – PAST) konseptual metaforasi xursandchilik tuygʻularni boshidan kechirayotgan inson oʻzini goʻyo tepada, xafa inson esa ruhining pastda ekanini his qiladi, bunda inson ruhi maʼlum darajadan tepaga yuqorilaydi yoki pastga qarab harakatlanadi. Ingliz tilida mavjud idiomalar ham ushbu metaforik modelni yaqqol koʻrsatib beradi: *in seventh heaven* – yettinchi osmonda, *to be on cloud nine* – toʻqqizinchi bulutda boʻlmoq, *to jump for joy* – xursandlikdan sakramoq, *flying high* – tepada uchmoq, *walking /floating on air* – havoda suzib yurmoq. Ushbu idiomatik birliklar oʻzbek tiliga tarjima qilinganda, aksar qismi oʻzbek tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish mumkinligi kuzatiladi, ammo *to be on cloud nine* – toʻqqizinchi bulutda boʻlmoq iborasi oʻzbek lingvomadaniyatida uchramaydigan tushuncha, toʻqqizinchi bulut konsepti hech qanday konnotatsiyaga ega emas. Tahlilga olingan asarlarda uchragan misollarga eʼtibor qaratsak: “Here’s how my emotions go,” Morrie told Koppel. “When I have people and friends here, *I’m very up*. (Tuesdays with Morrie, P.21.) // – Kayfiyatimga kelsak, – dedi Morri Kopplega, – tanishlarim va doʻstlarim yonimda boʻlganida *oʻzimni yaxshi his qilaman*. (Morrining seshanba darslari, B.60.)

Ingliz tilida predlog yoki ravish holatida kelganda, uning ilk nominativ maʼnosi *tepa*, *yuqori* kabi maʼnolarni anlatadi, idiomatik birlik tarzida keladigan maʼno ham uning birlamchi lugʻaviy maʼnosidan shakllanib, kayfiyatning yuqori ekaniga ishora qiladi. Tahlil uchun olingan parchani soʻzma-soʻz tarjima qilish imkonsiz. Chunki, *men juda tepadaman* tarzida tarjima qilish kontekstga ham, gap anglatayotgan mantiqqa ham toʻgʻri kelmaydi. Demak, tarjimada pragmatik adekvatlikka erishish uchun oʻzbek tili leksik-semantik birliklaridan eng maqbul muqobil shaklni tanlash tarjimaning optimal yechimi boʻladi. Idiomaning *oʻzimni yaxshi his qilaman* koʻrinishidagi tarjimasida BAXT – TEPA metaforik modeli saqlanmagan, holbuki, oʻzbek tilidagi *kayfiyati koʻtarilmoq* iborasi mavjudki, BAXT – TEPA konseptual metaforasining oʻzbek lingvomadaniyatida ham orientatsion shaklda voqelanganini isbotlaydi.

Kayfiyatning tushishi, xafalik insonni jismonan pastga harakatlantiradi. Ruhiyatning choʻkishi, eng avvalo, tananing holatidan ham seziladi. Masalan, xafa insonning qosh qovogʻi osiladi, labining chekkalari osiladi, qaygʻuga tushgan insonlarda gavdaning choʻkib qolishi ham kuzatiladi. Ushbu tajribalar koʻp xalqlarda deyarli bir xilda namoyon boʻladi. Ingliz tilidagi SADNESS IS DOWN / XAFALIK – PAST konseptual metaforasi bir necha feʼllar yordamida ifodalangan. *I am feeling down* (Kayfiyatim past). *He’s really low these days* (U shu kunlarda kayfiyati past yuribdi). *My spirits sank* (Ruhiyatim choʻkib ketdi). *I fell into depression* (Men depressiyaga tushdim).

Down, into kabi ravishlar *pastga*, *ichiga* maʼnosida qoʻllanilib, kayfiyat va his-tuygʻularning tushib ketishida ishlatiladi. Konseptual metaforalarning yana bir oʻziga xos jihatlaridan biri, ularning kontekstual tabiatiga bogʻliq boʻlib, vaziyatga qarab SADNESS IS DOWN / XAFALIK – PAST konseptual metaforasi SADNESS IS UP/ XAFALIK – TEPA modeliga ham aylanishi mumkin. *As the day wound down, my frustration continued to rise up*. (The Café on the Edge of the Wolrd, – P.13) // Kech boʻlgani sari *figʻonim falakka koʻtarildi*. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.13.)

My frustration level continued to go in the opposite direction of the fuel gauge. (The Café on the Edge of the Wolrd, P.13.) // Yonilgʻim tugab borishiga qarshi oʻlaroq, *tushkunligim oshib borardi*. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.13.) Koʻrinadiki, vaziyatlar hissiyotlarga taʼsir qilishi bilan tushkunlik, xafalik darajasi oshadi, bunda ingliz va oʻzbek tillaridagi metaforik modellar oʻxshash tarzda shakllangani tarjimada namoyon boʻlgan. Vaholanki, oʻzbek tilida ham tushkunlik, gʻam tananing jismonan pastga harakatlanishini koʻrsatadi. Jumladan, *gʻamdan qaddi bukilmoq*, *darddan choʻkib qolmoq* kabi iboralar fikrimizni dalillaydi.

Xulosa. Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy lingvistikada metaforalarning kognitiv jihatlariga asosiy eʼtibor qaratilgan. Demak, insonning uzoq yillik tajribasi, madaniy qadriyatlar, geografik joylashuvi va tarixiy kechinmalari kabi bir qancha faktorlar asosida shakllanuvchi metaforalarning mantiqiy mohiyati ushbu fenomenni toʻliq anglab yetishga koʻmaklashadi. Ingliz tilida hissiyotlarning

konseptuallashuvi ularning moddiy ko‘rinish olishida, obyekt, suyuqlik sifatida verballashuvida, ko‘tarilib-tushish xususiyatlari orqali tavsiflanishida ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Ekman P. *Basic emotions, in Handbook of Cognition and Emotion // eds. T. Dalgleish and M. Power.* – Chichester: John Wiley and Sons, 1999. – P.45–60
2. Waggoner J.E. *Temperature-based metonymies for emotions in children and adults // Psychological Reports. № 106 (1), 2010.* – P.233-245.
3. Covey S. *The seven habits of highly effective people.* – New York:Simon and Schuster, 1989. – 381p.
4. Mitch A. *Tuesdays with Morrie.* – New York: Doubleday, 1997. – 192 p.
5. Strelecky J. *The cafe on the edge of the world.* – Aspen Light Publishing, 2020. – 136 p.
6. Tracy B. *Eat that Frog.* – Berrett-Koehler Publishers, 2002. – 129 p.
7. Elbom M. *Morrining seshanba darslari.* – Toshkent: Yosh kuch, 2021. – 165 b.
8. Kovi S.R. *Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi.* – Toshkent: Nihol, 2021. – 378 b.
9. Streleki J. *Yer chekkasidagi qahvaxona.* – Toshkent: Sharq-ziyo zakovati, 2021. – 208 b.
10. Treysi B. *Samaradorlikning 21 yo'li.* – Toshkent, 2021. – 92 b.

INGLIZ VA O'ZBEK ERTAKLARIDA EPIK KO'MAKCHILAR TALQINI VA TASVIRI

Axmedova Sarvinoz Hikmatovna,
Buxoro davlat universiteti
o'qituvchisi, PhD
sarvi5335@gmail.com

Annotatsiya. Folklor qahramonlari asar voqeligida egallagan mavqeyi, syujet rivojida qanday rol o'ynashi, aytuvchi badiiy konsepsiyasini ifodalashdagi ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Shu tomonlama folklor qahramonlari, odatda, bosh va ikkinchi darajali qahramonlarga ajratiladi. Ikkinchi darajali qahramonlar esa "ko'makchi qahramon" deb yuritiladi.

Ko'makchilar obrazi barcha xalqlar folklorida kuzatilib, ular inson, hayvon, mifologik va qush ko'rinishida kelishi mumkin. Ular talqinida ko'pincha o'xshashliklar kuzatilsa-da, xalqlar madaniyati, urf-odatlar va tarixi bilan bog'liq holda ayrim farqlar ham ko'zga tashlanadi.

Folklor namunalarini o'qiganda asosiy e'tibor bosh qahramonga qaratiladi. Ammo bosh qahramonning o'z maqsadlariga yetishishida, qiyinchiliklarni yengib o'tishida epik ko'makchi obrazi muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek folklorida epik ko'makchi talqini va ular tasvirida badiiy vositalarning qo'llanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ko'makchi obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, ertak, bosh qahramon, ko'makchi qahramon, homiy, talqin, tasvir, millat.

Аннотация: Фольклорные герои отличаются друг от друга положением, которое они занимают в реальности произведения, ролью, которую они играют в развитии сюжета, их значением в выражении художественного замысла рассказчика. В этом отношении фольклорные персонажи принято делить на главных и второстепенных персонажей. Второстепенные персонажи называются «персонажами-помощниками».

Образ помощников встречается в фольклоре всех народов, и они могут выступать в человеческом, зверином, мифологическом и птичьем образах. Хотя в их трактовке часто встречаются сходства, заметны некоторые различия в связи с культурой, традициями и историей народов.

При чтении образцов фольклора основное внимание уделяется главному герою. Однако образ эпического помощника играет важную роль в достижении главным героем своих целей и преодолении трудностей. В данной статье рассматриваются толкование и образ эпического помощника в английском и узбекском фольклоре и использование художественных средств в их изображении. Также анализируются специфические черты персонажей помощников.

Ключевые слова: фольклор, сказка, главный герой, персонаж-помощник, покровитель, интерпретация, образ, нация.

Abstract: Folklore heroes differ from each other according to the position they occupy in the reality of the work, the role they play in the development of the plot, and their importance in expressing the artistic concept of the narrator. In this respect, folklore characters are usually divided into main and secondary characters. Secondary characters are called "supporting characters".

The image of assistants can be observed in the folklore of all nations, and they can appear in human, animal, mythological and bird form. Although there are often similarities in their interpretation, some differences are noticeable in connection with the culture, traditions and history of the peoples.

When reading examples of folklore, the main focus will be on the main character. However, the image of the epic helper plays an important role in the main character's achievement of his goals and overcoming difficulties. Interpretation and image of the epic helper in English and Uzbek folklore and the use of literary devices in their depiction are discussed in this article. Characteristics of supporting characters are analyzed as well.

Key words: folklore, fairy tale, main hero, helper, patron, interpretation, image, nation.

Kirish. Jahon folklorshunosligida tarixiy, ritual-mifologik maktablar erishgan tajribalar asosida qiyosiy folklorshunoslikda ingliz va o'zbek folklori namunalarini tarjima qilish, ulardagi o'xshash hamda farqli poetik hodisalarning spetsifik va milliy qirralarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar salmog'i yildan-yilga ortmoqda. Bunda epik ko'makchi yoki ko'makchi qahramonlar obrazining ingliz va o'zbek folkloridagi o'rni, kelib chiqish ildizlari, evolyusiyasi, mifologik, zoomorfik, ornitomorfik, antropogonik ko'rinishdagi badiiy tiplari, tasvirida badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi, milliylikning ifodasi, badiiy vazifasidagi mushtarak va differensial jihatlarni ochish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa G'arb va Sharq folklori spetsifikasini belgilab ko'rsatish uchun muhim hisoblanadi.

Har bir xalqning og'zaki ijodiga mansub bo'lgan hamda unda o'ziga xos o'ringa va badiiy vazifalarga ega qilib ko'rsatiladigan ko'makchi qahramonlar obrazi o'sha millatning tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odat va an'analari, madaniyati, yashash joyi, turmush tarzi bilan bog'liqlikda ifoda etiladi. Shu bilan uning milliylik xususiyati yuzaga chiqadi. U bilan bog'liq milliy xususiyatlarga ahamiyat qaratish va anglash esa millatlararo yaqinliklarni his etishda muhim hisoblanadi.

Asosiy qism. Jahon folklorshunosligida A.Aarne, S.Tompson, K.Briggs, D.D.Frezer, E.Taylor, D.Haaze tadqiqotlarida homiy kultlar, totemlar, epik ko'makchilar haqida ba'zi fikr-mulohazalar keltirilgan [1]. Ingliz olimi M.Grin tadqiqotida keltar folklori, mifologiyasi haqida fikr yuritib [2], ko'makchi qahramon masalasiga ham munosabat bildiradi. Ingliz olimi Sh.De Koster tadqiqotida ham bu masalaga yo'l-yo'lakay munosabat kuzatiladi [3].

Rus folklorshunosligida V.Y.Propp, D.Zelenin, K.A.Bogomolova, V.N.Basilov kabi olimlarning tadqiqotlarida homiy kultlar, totemlar, epik ko'makchilar haqida fikr yuritilgani ko'zga tashlanadi.

O'zbek folklorshunosligida Xizr, dev, pari, ilon (ajdar), ot, bo'ri, tuyaning totem yoki kult sifatida epik homiy, ko'makchi bo'lib kelishi Sh.Turdimov, O.Qayumov, A.Tilavov, F.Nurmonovlar tadqiqotlarida keltirilgan.

Ko'makchi obrazlar tasviri va talqinida turli badiiy vositalardan foydalaniladi. Badiiy tasvir vositalari asarda narsalarni jonli tasvirlashga, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qilib, undagi obrazlilik va emotsionallikni oshiradi, asar tilini yanada sayqallashtiradi. Buni folklor asarlari misolida ham kuzatish mumkin.

Ingliz xalq ertaklarida badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Ko'makchi obrazlar tasvirida ham buni kuzatish mumkin. Jumladan, "The Rose Tree" ("Atirgul daraxti") [4, 27] ertagida bosh qahramon ruhini o'zida mujassamlashtirgan ko'makchi obraz – qushning "white bird" – "oq qushcha" deb sifatlanishi soflik, beg'uborlik, oqko'ngillikka ishora. Qushning kuylashi haqida: "It sang, and sang, and sang like an angel out of heaven" ("U samodagi farishta kabi kuyladi, kuyladi va yana kuyladi) deyilganda, takror badiiy vositasi qo'llanilib, ma'no kuchaytirilyapti. Qushni samodagi farishtaga qiyoslab, tashbeh san'ati hosil qilingan. Qushga insonlardek gapirish, kuylash xususiyati ko'chirilib, tashxis san'ati vujudga keltirilgan:

"My wicked mother slew me,
My dear father ate me,
My little brother whom I love
Sits below, and I sing above.
Stick, stock, stone dead!"

Mitti qushning "bir oyog'ida qizil oyoq kiyim, bir oyog'ida tilla soat va zanjir, bo'ynida tegirmon toshi ilib qo'yilgan" holda uchib ketishida mubolag'a mavjud: "It flew with the millstone round its neck, red shoes in one foot, the shoes in the other." Oq qushcha o'gay onasining uyiga kelgach, "tegirmon toshi bilan tomga bir necha bor urishi"da ham mubolag'adan foydalanilgan: "It rattled the millstone against the eaves of the house".

"Binnorie" ("Binnori") [4, 43] ertagida "famous harper" – "mashhur arfachi" ko'makchi obraz bo'lib, qotillik qurboni bo'lgan qiz suyaklaridan arfa yasaydi. Arfa jonlanib, to'yda qo'shiq kuylaydi. "It began to sing by itself, low and clear." (U o'z-o'zidan mayin va tiniq kuylay boshladi). Bu gapda jonlantirish badiiy vositasi ishlatilgan. Bosh qahramon ruhini o'ziga singdirgan arfa marhuma malikaning qotili haqida qo'shiq aytib, ma'lum qiladi.

"How Jack went to seek his fortune" ("Jek o'z baxtini izlagani ketgani to'g'risida") ertagida mushuk, it, echki, buqa, xo'roz kabi hayvonlar bosh qahramon bilan suhbatga kirishadi. Bu ko'makchilar tasvirida jonlantirish vositasidan unumli foydalanilgan.

"Nix Nought Nothing" ("Hech kim, hech narsa") ertagida ko'makchi bo'lib kelgan dev qiz tasvirida "bonny daughter" ("yoqimtoy qiz") sifatlash qo'llanilgan. Devlar aslida yoqimtoy bo'lmaydi, biroq bu tasvir

vositasida dev qiz ham go'zal bo'lishi mumkinligi, bosh qahramonga mos ijobiy obraz ekanligi ko'zda tutilgan.

Bu qiz o'rmondagi jamiki hayvonlarni, samodagi barcha qushlarni chaqirishi, ular bir daqiqada hozir bo'lib, dev qaytgunicha etti metr kenglik, etti metr uzunlikdagi otxonani tozalab qo'yishlari aqlga sig'maydi. Shuning uchun bu misolda mubolag'adan foydalanilganligi ko'rinadi.

"Jack and the beanstock" ("Jek va loviya poyasi") ertagida "strange looking beans" deya, loviya urug'larining g'alati ko'rinishi tasvirlangan. Bunday tasvir kitobxonni bu g'alati urug' hikoyasi nima bilan tugashiga qiziqtiradi va bosh qahramonni g'ayritabiiy sarguzashtlar kutayotganiga ishora qiladi. Loviya poyasi bir kechada osmon qadar o'sgani mubolag'ali ("The beans had sprung up into a big beanstock which went up and up") bo'lsa, uning o'rama narvonga o'xshatilishi ("a plaited ladder" – metafora) o'quvchi ko'z o'ngida jonli tavar paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Osmondagi yo'l tasvirida ishlatilgan birikmalar "long broad road going as straight as a dart" ("o'qday tekis keng va uzun yo'l") metaforani hosil qilgan.

"Cap O'Rushes" ertagida qamishdan qilingan kiyim kiygani uchun qahramonni shu nom bilan atashlarida metonimiya hodisasi kuzatiladi.

"Jack and his golden snuff-box" ("Jek va uning oltin tamakidoni") ertagida uchta mitti odamning oltin tamakidondan chiqib kelishi littotaga misol bo'la oladi. Shu uch mitti odamchalar bir kechada uy oldida ulkan ko'l paydo qilib, dunyodagi eng katta kemalarni olib kelishi, qasrni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib o'tkazishida mubolag'adan foydalanilgan.

Jekka yordam bergan sichqon, burgut va qurbaqalarning tilga kirishi jonlantirish belgisi bo'lsa, "invisible coat, magic cap and shoes" (ko'rinmas palto, sehrli shapka va oyoq kiyim) sifatlashlari sehrli ertaklarga xos badiiy tasvir vositalari hisoblanadi.

"Tom Thumb" ("Tom-bosh barmoq"), "Childe Rowland" ("Chayld Roland") ertaklarida Merlinga "Warlock Merlin" – sehrgar, afsungar deya ta'rif berilishi uning qo'lidan ko'p narsalar kelishiga ishora qiladi. Masalan, Tomning mittiligi va otasining bosh barmog'iday kattalikda ekanligi buning dalilidir.

O'zbek xalqining "Zumrad va Qimmat" ertagida sehrgar kampir mehnatsevar, oqko'ngil Zumradga qizil sandiq beradi. Uning ichidan qimmatbaho toshlar, taqinchoqlar chiqadi. Dangasa Qimmatga berilgan oq sandiqdan esa oq ilon chiqib, uni va onasini yutib yuboradi.

Xitoy, Hind, G'arb-u Sharq, qolaversa, Osiyo davlatlari qadimiy qarashlarida, turmush tarzida oq, qora, qizil ranglarning faolligi ko'zga tashlanadi. Sariq, yashil, ko'k ranglar esa nisbatan kamroq ishlatiladi. [9, 24].

"Zumrad va Qimmat" ertagi dunyo ertakchiligida yaratilgan o'gaylik motividagi ertaklar jumlasiga kiradi. Shunisi bilan u "Sindrella" ertagiga yaqin turadi. Lekin ular milliylik belgisi bilan o'zaro farqlanadi.

Folklorshunoslar bu ertakni uzoq yillar davomida turli xalqlar madaniyatida o'rganib kelishdi. Ingliz olimi Marin Roalf Koks aynan shu ertak tarixini chuqur o'rganib, 1893 yilda "Cinderella: Three hundred and forty five variants of Cinderella, Catskin and Cap O'Rushes" [5, 145] asarida Sindrellaning 345 ta variantini tahlilga tortgan.

Tadqiqot metodi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklarida epik ko'makchi qahramonning o'ziga xos juhatlarini ochib berish jarayonida qiyosiy-folkloristik va analitik usullardan foydalanilgan. Ingliz xalq ertaklarini birinchi bo'lib XIX asrda Jozef Jeykobs to'plagan. U ertaklarga o'zgartirish kiritmay, originallikni saqlashga alohida e'tibor qaratgan. J.Jeykobs Sindrella ertagining Yevropa bo'ylab tarqalgan yuzlab ko'rinishlari orasidagi umumiy jihatlarni e'tiborga olib, original variantini tiklashga harakat qildi. Uning "English fairy tales" to'plamiga Sindrellaning inglizcha varianti sifatida "Cap O'Rushes" ertagi kiritilgan. Unda hikoya qilinishicha, bir boy odamning uchta qizi bo'lib, otasi ulardan meni qanchalik yaxshi ko'rasizlar, deb suraydi. Birinchi qiz hayotini qanday sevsa shunchalik, ikkinchisi duyoni sevganchalik, uchinchi esa go'shtning tuzga qanchalik ehtiyoji bo'lsa, shunchalik deb javob berishibdi. Ota uchinchi qizi uni etarlicha yaxshi ko'rmasan deb tushunib, qizini uydan haydaydi. Qiz shox-shabbalardan o'ziga kiyim tikib, chiroyli ko'ylagi ustidan kiyib oladi va bir katta uyda idish yuvuvchi bo'lib ishlay boshlaydi. Qiz ismini aytmagani uchun unga Cap O'Rushes deb nom quyishadi. Bir kuni uy egasining o'g'li katta ziyofat uyushtiradi. Qiz charchaganini bahona qilib, xonasiga kirib ketadi. Keyin ustidagi shox-shabbalarni echib, chiroyli bo'lib ziyofatga boradi. Hech kim uni tanimaydi. Uy egasining o'g'li esa qizni sevib qoladi. Qiz qochib ketadi. Uchinchi kuni shahzoda qizga uzuk sovg'a qiladi va usiz hayot yo'qligini aytadi. Shundan so'ng boshqa ziyofat bo'lmaydi va yigit betob bo'lib qoladi. Oshpazga bo'tqa tayyorlashni buyurishadi. Qiz bo'tqani o'zi pishirib, ichiga uzukni solib yuboradi. Betob yigit bo'tqani pishirgan odamni olib kelishni buyuradi va qizni tanib, unga uylanishga qaror qiladi. Qiz to'y kuni barcha taomlarni tuzsiz tayyorlashni iltimos qiladi va otasini mehmonga chaqiradi. Tuzsiz go'shtni tatib ko'rgan ota qizi uni qanchalik yaxshi

ko'rganini tushunib etadi, ammo qizini vafot etgan deb o'ylaydi. Shunda qiz otasi oldiga chiqib, o'zini tanishtiradi va ular uzoq baxtli hayot kechirishadi. Bu ertakda jonsiz predmetlar, shox-shabbalar va tuz qahramonning yana baxtli bo'lishiga ko'makchi bo'ladi.

“Catskin” (“Mushukteri”) [4, 314] nomli ingliz xalq ertagida hikoya qilinishicha, qadim zamonda bir podshoh bo'lib, uning ko'plab erlari, boyliklari bor ekan. Shoh o'g'il ko'rib, butun davlatini meros qilib qoldirishni istarkan. Xotini qiz tuqqanida, bolaning yuziga hech qachon qaramabdi. Qiz o'n besh yoshga kirganida, eshikdan kelgan birinchi odamga turmushga berishini aytibdi. Eshikdan qari bir chol kirib kelibdi. Qiz nima qilishni bilmay, tovuq boquvchidan maslahat so'rabdi. Tovuuq boquvchi xotin turmushga chiqishdan avval kumushdan qilingan palto olib kelishni so'ra, debdi. Ikkinchi marta oltindan qilingan ust-bosh so'rashni aytibdi. Uchinchi marta osmondagi qushlar qanotidan qilingan palto so'ra, debdi. Sabr bilan kutgan odam bor ovozi bilan qichqirib, osmondagi qushlardan bittadan pat berishini so'rabdi. Samodagi barcha qushlar o'z patlaridan bittadan berishibdi. Ulardan palto qilinib, qizga etkazilibdi. To'rtinchi marta mushuk terisidan qilingan paltoni so'ra, debdi. Qiz so'rgan narsalarini olgach, kiyimlarini tugib, o'zi mushuk terisidan qilingan paltoni kiyib, o'rmonga qochib ketibdi. Ko'p yo'l yurib, bir qasrga kelib qolibdi. Kiyimlarini o'rmonga yashirib, qasrda ishchi bo'lib yashay boshlabdi. Qizning kiyimiga qarab, uni “Catskin” (“Mushuk teri”) deb atashibdi. Qasr egasi safardan qaytishi munosabati bilan ziyofat uyushtirilibdi. Oshpaz qizni azob berarkan va ballga borishga ruxsat bermay, ustidan bir chelak suv ag'daribdi. Qiz indamay, o'rmonga borib, sharsharada cho'milibdi va orasta bo'lib, kumush kiyimini kiyib, ballga boribdi. Uy egasi qizni bir ko'rishda sevib qolibdi. Qayerda yashashini so'rgan ekan, bir chelak suv izi qolgan joyda deb, qiz qochib qolibdi. Ikkinchi kuni oltin kiyimlarini kiyib boribdi. Keyingi kuni yana ballga borishga ruxsat so'rganida oshpaz cho'michni qiz tomonga otibdi, cho'mich qizning orqasiga tegib, sinib ketibdi. Bu safar uy egasi qayerda yashaysan, deb so'rganida, cho'michning singan izi bor joyda debdi. Qizning kimligini hech kim bilolmabdi. Uy egasi bir chelak suv va singan cho'mich izini hech qayerdan topolmagach, onasidan yana bir ball uyushtirib berishni iltimos qilibdi va o'sha go'zal qizni yana bir bor ko'rishga umid qilibdi. Uchinchi kuni qiz oshpazga ballga juda borgisi kelayotganini, ruxsat berishini iltimos qilib so'rganida oshpaz kapgirni ulotqiribdi. Qiz hech narsa demay, hech kimga bildirmay, o'rmondan qush patlaridan qilingan paltosini kiyib, ballga boribdi. Hamma uning go'zalligi va kiyimiga qoyil qolibdi. Uy egasi sevgilisini darhol tanibdi va faqat shu qiz bilan raqsqa tushibdi. Yigit qizning qayerda yashashini so'rganida, singan kapgir izi bor joyda, deb o'rmonga qochib ketibdi. Yigit uning orqasidan borib, qiz chiroyli kiyimlarini mushuk terisidan qilingan paltoga almashtirayotganini ko'rib qolibdi va ertasi kuni onasiga uy xizmatkoriga uylanishini aytibdi. Onasi rozi bo'lmabdi. Yigit betob bo'lib qolibdi. Shifokor yozib bergan dorini faqat Ketskinning qo'lidan ichishini aytibdi. Onasi bu to'ygga rozi bo'lmasa, o'g'li o'lib qolishini sezgach, noiloj qizni huzuriga chaqirtiribdi. Qiz oltindan qilingan kiyimlarini kiyib kelgach, ona shunday go'zal qizni o'g'liga olib berishidan mamnunligini aytibdi. To'y bo'lib, yoshlar baxtli yashay boshlabdi. O'g'il ko'rishibdi. O'g'li to'rt yoshga kirganida, eshikni bir tilanchi taqillatibdi. Onasidan olgan pulni tilanchiga berganda, ayol pulni qaytarib beribdi va bolakayni o'pib qo'yibdi. Bularni kuzatib turgan qari oshpaz, tilanchilar bir-biriga o'xshaydi-da, deb qo'yibdi. Bu gaplar Ketskinning yuragiga og'ir botibdi va ota-onasini izlab topishga qaror qilibdi. Turmush o'rtog'idan yordam so'rabdi. Ular darhol yo'lga chiqib, qizning uyini topib borishibdi. Otasi bir ahvolda o'tirgan bo'lib, boshqa farzand ko'rmagan va xotini vafot etgan ekan. Yigit choldan bir vaqtlar qizingiz bor edimi, deb so'rganida, ha men gunohkor bandaman, qizimning yuziga biror marta ham qaramaganman. Hozir uni bir ko'rish uchun bor-budimni berishga tayyorman, debdi. Bu gaplarni eshitgan qizi o'zini tanishtiribdi. Kuyovi qaynotasini o'z saroyiga olib ketibdi va ular baxtli hayot kechiribdi. Bu ertakda osmondagi jamiki qushlar va tovuq boquvchi ayol ko'makchi obrazlar hisoblanadi.

Ingliz xalq ertaklari boshqa xalqlarning ertaklaridan farq qiladi. Filolog va madaniyatshunoslar milliy mentalitetning xususiyatlari ertaklarda mukammal namoyon bo'ladi, deb hisoblaydilar. Angliya ertaklarida qahramonlar g'ayrioddiy motivlarga ega. Qahramonlar cho'qqilarni zabt etish, kimnidir mag'lub etish, boylikka ega bo'lishni, rus ertaklariga xos bo'lgan qandaydir mahoratga ega bo'lishni xohlaydigan hikoyalar kamdan-kam uchraydi. Aksincha, ingliz ertak qahramonlari ko'pincha tashqi sharoitlar uchun - masalan, burch hissi tufayli yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun harakat qilishadi. Bir tomondan, shu sababli, syujetlar oddiy ko'rinadi. Boshqa tomondan, ochko'zlik yoki shuhratparastlikni tanlamaydilar [10].

Muhokama. Ertaklarda epik homiy vazifasida keluvchi sehrli predmetlar ham bor. Bunda ular xuddi insondek xatti-harakatda jonlantirib tasvirlanadi. Aytaylik, sehrli uzuk shunday predmetlardan biridir. U sehrli ertaklarda ko'p qo'llanadigan sirli narsalardan biri sanaladi. Uzuk ko'pincha sehrli ertak, afsona va dostonlarda epik qahramonga raqib kuch ustidan g'alaba qozonishda yoki ezgu maqsadiga erishishida

mo'jizakor ko'makchi bo'lib keladi. Asar davomida qahramon yangidan-yangi, bir-biridan murakkab sinovlarga duch kelar ekan, bu qiyinchiliklarni yengishda unga uzuk yaqindan yordam beradi. Qahramonga hamkorlik va ko'makdoshlik qiladi. Uzuk insu jinslarga qarshi amulet (tumor) vazifasini o'tay oladi. Shuning uchun ertaklarda u qahramonga yovuz kuchlarni engishda, ularga qarshi kurashib g'olib kelishda mo'jizakor ko'makchi bo'lishi ko'rsatib beriladi. Uzukning insu jinslarga qarshi kurasha olishi yoki o'limning yo'liga to'siq bo'la bilishi haqidagi qadimgi magik-mifologik, fetishistik qarashlar esa bora-bora uning ijtimoiy-magik vazifasini yanada bo'rttirishga asos bo'lgan [8].

Qahramonning ko'makchisi unga sehrli predmetlarni tortiq qilishi ko'p kuzatiladi, masalan, o'limdan oldin onasi qiziga o'gay onasi bilan kurashda yordam beradigan sehrli predmetni in'om etadi.

Sehrli ertaklarda yana qaynar xumcha, ochildasturxon, ur to'qmoq, sehrli oyna, sehrli qalpoq, uchar etik, uchar gilam, uchar sandiq va hokazo singari boshqa g'ayrioddiy ko'makchi-homiylar ham uchraydi. Ular qahramonga doimiy hamroh va yordamchi bo'lib, uning har qanday tilagini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Predmet ko'rinishidagi ko'makchilar qadimgi insonlarning fetishistik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Ularning etakchi epik vazifasi ertak qahramoniga yordam berish, unga ko'maklashishdan iboratdir. Bu tip "g'aroyib predmet"larning o'zi bevosita harakat qilmaydi (masalan, uchar gilam) yoki manistik mifologiya asosida kelib chiqqan homiy-personajlar (odam qiyofasiga kirgan oltin baliq, oq soqolli chol ko'rinishidagi Xizr) singari antropomorf, ya'ni insondek qiyofada namoyon bo'lmaydi. Fetish asosida shakllangan "g'aroyib predmet"lar aslida u yoki bu epik ko'makchini yordamga chaqirish vositasi hisoblanadi: ular ertak qahramonining faoliyati davomida zarurat tug'ilgan paytdagina yordamga keladi va buyurilgan, aytilgan xizmatni ado etadi. Qadimgi odamlar muvaffaqiyatsizliklar va muammolar bo'lsa, boshqa kuchlarga murojaat qilishga harakat qilishgan. Bunga tabiiy yo'l bilan erisha olmay, odamlar g'ayritabiiy kuchlar yordamiga tayanishni boshlaydilar. Muayyan sharoitlarda har qanday narsa ibtidoiy odamga oddiy xususiyatlardan tashqari, g'ayritabiiy xususiyatlarga ham ega bo'lib tuyulishi mumkin. Oddiy narsaning g'ayritabiiy xususiyatlariga ega bo'lish ko'pincha oddiy baxtsiz hodisa bilan bog'liq edi. Masalan, bir ibtidoiy odam ovga ketayotib, yo'lda qandaydir ko'zga tashlanadigan narsaga, aytaylik, toshga duch keldi. Agar shundan keyin ov muvaffaqiyatli bo'lsa, u muvaffaqiyatni bu toshning yordami bilan bog'laydi, bu esa o'sha paytdan boshlab uning uchun fetish bo'lib qoldi.

Ko'makchi qahramon turlari haqida fikr yuritgan Grehem Sil "u yoshi ulug' inson, qarama-qarshi jins vakili, g'ayritabiiy ko'makchi, sehrli predmet, jumladan, sehrli qilich, sehrli kiyim, tayoq va hatto qo'g'irchoq ko'rinishida bo'lishi mumkinligini" [6, 647] aytib, dunyo xalqlari folkloridan misollar keltiradi.

E.M.Meletinskiy ham "qahramon mushkul ahvolda qolganida – odamxo'r, yalmog'iz, shayton yoki ajdarho qo'liga tushganida – ayyorlik, sehr-jodu bilan mo'jizaviy yordamchilar ko'magida omon qolishini" aytgan edi [7, 23].

Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida uch soni ko'p marta takrorlanadi. Lekin ingliz ertaklarida uch ayiq, uch cho'chqacha, quduqdagi uch bosh, uch tilak kabilar ko'p uchrasa, o'zbek xalq ertaklarida uch shahzoda, uch yo'l, uch savol va boshqalarni ko'p uchratish mumkin. Inglizlarda bu xristian dini bilan bog'liq bo'lib, ular ota, o'g'il va muqaddas ruh birligi ishonchini o'zida namoyon etadi.

O'zbek xalq ertaklarida uch raqami qatorida etti raqami ham ko'pincha sifatlovchi bo'lib kelishi kuzatiladi. Masalan, "Rustamzod va Sherzod" ertagida o'g'rilar ovlab kelgan ajoyib qush bir cholning uyida yetti yil turib, yettita gavhar tuxum tug'adi. Bu gavhar tuxumdan bittasining bahosi butun bir podshohlikning boyligidan ham ortiq edi. Chol tuxumning bittasini podshoh saroyiga olib borganida, uning bahosini yaxshi bilgan podsho bir tuya javohir yuklab berib jo'natadi. Gavhar tuxumlar tufayli kambag'al chol boyib ketib, katta savdogarga aylanadi.

Qizig'i shundaki, g'aroyib homiylar bergan narsalar ham g'aroyib bo'ladi. Aytaylik, o'zbek xalqining "Oltin tarvuz" nomli ertagida bir kambag'al dehqon dalasiga oyog'i singan laylak yiqilib tushadi. Dehqon qushga rahmi kelib, uni davolaydi va parvarishlaydi. Tuzalgan laylak dehqonga ko'rsatgan yaxshiligi uchun sehrli tarvuz urug'ini berib ketadi. Bu o'rinda laylak obrazining epik homiy sifatida tanlanishi xalqimizning milliy xususiyati bilan bog'liq. Chunki xalqimiz orasida laylakka nisbatan Makkadan uchib keluvchi muqaddas qush sifatida qaraladi.

Xullas, epik asarlarda homiy personajlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi orasida bu obrazlarning kelib chiqishi bevosita xalqning islomiy e'tiqodigacha bo'lgan qadimgi animistik, totemistik, shomonistik dunyoqarashi, mifologik tasavvur-tushunchalari bilan aloqadordir. Keyinchalik ular islomiy e'tiqod, dunyoqarashga mos talqinlar ham olgan. Buni "Quyosh yerining pahlavoni" [12, 342] nomli o'zbek xalq ertagida keltirilgan ona ayiq obrazi misolida ham dalillash mumkin. Unda aytilishicha, qadim zamonda

bir chol bor ekan, uning o'n yashar o'g'lidan boshqa hech kimi yo'q ekan. Uning Rustam ismli o'g'liga ona ayiq g'amg'o'rlik qiladi. Rustam ona ayiqqa "mehribonim" deya murojaat qiladi. [11] Ona ayiq unga: "Men seni qutqarmoqchiman", – deydi.

Rustam shervachchalarni chayondan qutqargani uchun unga ota va ona sher ham yordam beradi. Rustam bo'ynidagi junlari o'sgan, ko'p yoshlarga borgan, boshqalarga nisbatan balandroqda turgan ota sherga ta'zim qiladi. U sher shu tog'da yashovchi sherlarning oqsoqoli ekan. Oqsoqol sher o'rnidan turib, Rustamning oldiga keladi va oldingi ikki oyog'ini Rustamning elkasiga qo'yib, minnatdorchilik bildiradi. Sher: "Bizning hayotimizni xavfga solib yurgan dushmanimizni yakson qilib, kelgusi avlodlarimizning boshiga tushadigan kulfatlardan ozod qilgan qahramon, tila tilagingni?", – debdi. Rustam ta'zim bilan: "Mening tilagim, o'z do'stlarimni ko'rish, ulardan xabar olishdir", – debdi. "Ular qayerda?" – deb so'rabdi sherlar oqsoqoli. Rustam: "Ular quyosh yerining archazorida", – deb javob beribdi. Rustamdan bu so'zni eshitgan sherlar o'z tillarida bir ovoz chiqarib, bir-birlariga qarab qo'yibdilar. Birozdan keyin oqsoqol sher boshini ko'taribdi va atrofqa qarab bahaybat ovoz bilan o'kiribdi. Shunda kalta, yo'g'on oyoqlari bilan yurib kelgan past bo'lyli sher oqsoqolga ta'zim qilibdi. Oqsoqol haligi sherga: "Bu yigitni tog'ning tepasiga olib chiq va yo'lni ko'rsat, qaytishingda sog'-salomat olib chiqqaning uchun bizga nishona keltir", – debdi. Sher oqsoqolga ta'zim qilibdi.

Ushbu parchada keltirilgan ayiqning "ona ayiq", sherning "ona sher", "ota sher", "oqsoqol sher" deb berilayotgani bejiz emas. Bu bilan xalqimizning ayiq, sher kultiga ishonchi badiiy ifoda etilgan.

Ko'pincha epik homiylarga nisbatan "oltin" sifatlovchisi keng qo'llansa, yordam oluvchining yosh ekani alohida ta'kidlanadi. Masalan, "Momir bilan Somir" [12, 164] nomli o'zbek xalq ertagida yosh baliqchi do'sti oltin baliqni dengiz labiga borib, suvga qarab uch marta chaqiribdi. O'sha onda oltin baliq suv yuziga chiqib: "E qarddon do'stim, nima xizmat?", – deb so'ragan ekan, yosh baliqchi: "Yurtimni, otamni sog'indim. Dengizdan suzib o'tish uchun kema yo'q. Suzib kelgan qayig'im parcha-parcha bo'lib ketgan...", – debdi. Yosh baliqchi shu so'zlarni aytishi bilan oltin baliq: "Tilagingni bajaraman, kech kirganda senga kattakon bir baliq yuboraman. U og'zini ochishi bilan darrov og'ziga kir. Ertalab uyingda, bo'lasan", – debdi-yu, sho'ng'ib ketibdi. Darhaqiqat, kech kirishi bilan dengizda to'lqin ko'tarilibdi, qirg'oqqa bahaybat bir baliq suzib kelibdi. Uning burnidan suv yuqoriga varillab otilib turar, dumini tinmay bilanglatar ekan. Yosh baliqchi xotini bilan baliqning og'ziga kirib, suzib ketibdilar. Ajoyib baliq manzilga yetib, og'zini ochibdi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, homiylar obrazi ingliz va o'zbek folklorining asosiy personajlaridan hisoblanadi. Ularning badiiy vazifalarida mushtaraklik ham, o'ziga xoslik ham kuzatiladi. Shuningdek, epik ko'makchilar har ikki xalq folklorida kuzatilib, ular talqini va tasvirida ham o'xshash va farqli jihatlarni kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Akhmedova, S. K. (2021). *Comparative Analysis of Epic Helpers in English and Uzbek Folklore. Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 91-99. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss3/9/>
2. Де Костер III. *Легенда об Уленицигеле (перевод с английского Н.М.Любимова)*. – М.: Терра, 1997. – 474
3. Green, Miranda. *Animals in Celtic Life and Myth*. London, 2002. – 304 p.
4. Joseph Jacobs. *English Fairy Tales and More English Fairy Tales*. – Oxford, England, 1911. – P. 27.
5. Marian Roalfe Cox. *Cinderella: Three hundred and forty five variants of Cinderella, Catskin and Cap O'Rushes*. Franklin Trade Press, 2018. - 616 p.
6. McCormick Ch.T., White K.K. *Folklore. An Encyclopedia of Beliefs, Customs, Tales and Art*. – England, 2011. – P.647.
7. Мелетинский Е.М. *О литературных архетипах*. – Москва, 1994. – С. 23.
8. Rasulova Z. *O'zbek xalq sehrli ertaklarida "g'aroyib predmetlar" (spetsifikasi, genezisi va badiiyati): Filol.fanlari nomzodi diss.avtoref*. – T., 2012. – 27 b.
9. Ro'ziyeva M. *O'zbek folklorida rang simvolikasi*. – T: Fan, 2018. – B. 24.
10. Umurova Xushvaqt. *Semantical Features Of Folklore Samples. Solid State Technology Volume: 63 Issue: 4 Publication Year: 2020*
11. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). *Politeness Markers in Spoken Language. Euro-Asia Conferences*, 37–40.
12. *O'zbek xalq ertaklari. II - tom*. – T.: Sharq, 2007. – B.342.
13. https://en.wikipedia.org/wiki/English_folklore.

ISAJON SULTONNING “BIBI SALIMA” HIKOYASIDA MILLIYLIK IFODASI

Davronova Shohsanam G‘aybulloevna,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida professor v.b.,

filologiya fanlari doktori (DSc)

sh.g.davronova@buxdu.uz

Annotatsiya. *Istiqlol davri hikoyachiligida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an‘analari tasviriga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan Shoyim Bo‘taye, Abduqayum Yo‘ldosh, Nabi Jaloliddin, Luqmon Bo‘rixon, Zulfiya Qurolboy qizi, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlar qatorida Isajon Sulton hikoyalari ham milliy ruh ifodasi yorqin namoyon bo‘ldi. Ushbu maqolada adibning “Bibi Salima” hikoyasida milliy madaniyatimizga xos bo‘lgan jihatlarning aks etishi masalasi haqida so‘z borgan. Adib qahramon xarakteri, ruhiyati, tabiat va inson munosabatlarini tasvirlash, epik manzara yaratish hamda voqea-hodisalarni badiiy asoslash, milliy til imkoniyatlaridan foydalanishda bir qator yutuqlarga erishdi. Maqolada hikoyada aks etgan milliy ruh ifodasi hamda yozuvchining g‘oyaviy niyatini ifoda etishdagi ahamiyati muammosi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *hikoya, o‘zbek hikoyachiligi, Isajon Sulton ijodi, “Bibi Salima” hikoyasi, milliylik, badiiy obraz, xarakter, ruhiyat tasviri, badiiy g‘oya, badiiy ifoda.*

Аннотация. *Особое внимание уделялось изображению национальных ценностей, обычаев и традиций узбекского народа в нарративах периода независимости. Например, среди известных представителей современной узбекской литературы, таких как Шойим Ботаев, Абдукаюм Ёлдош, Наби Джалалуддин, Лукмон Бурихон, Зулфия Куролбой кизи, Улугбек Хамдам, национальный дух ярко выразился в рассказах Исаджона Султана. В данной статье рассматривается вопрос отражения аспектов, характерных для нашей национальной культуры, в повести писателя «Биби Салима». Писатель добился ряда достижений в изображении характера героя, его психики, природы и человеческих отношений, создании эпического пейзажа и художественного обоснования событий, используя возможности национального языка. В статье раскрывается проблема выражения народного духа, отражённого в повести, и его значение в выражении идейного замысла писателя.*

Ключевые слова: *Рассказ, узбекский сказитель, творчество Исаджона Султана, рассказ «Биби Салима», народность, художественный образ, характер, духовный образ, художественная идея, художественное выражение.*

Abstract. *Special attention was paid to the depiction of the national values, customs and traditions of Uzbek people in the narratives of the period of independence. For example, among the famous representatives of modern Uzbek literature such as Shoyim Botaev, Abduqayum Yoldosh, Nabi Jalaluddin, Luqmon Borikhon, Zulfia Kuroolboy qizi, Ulug‘bek Hamdam, the national spirit was clearly expressed in the stories of Isajon Sultan. This article talks about the issue of reflection of aspects characteristic of our national culture in the writer’s story “Bibi Salima”. Adib achieved a number of achievements in depicting the character of the hero, his psyche, nature and human relations, creating an epic landscape and artistic justification of events, using the capabilities of the national language. The article reveals the problem of expression of the national spirit reflected in the story and its importance in expressing the writer’s ideological intention.*

Key words: *Story, Uzbek storytelling, Isajon Sultan’s work, “Bibi Salima” story, nationality, artistic image, character, spiritual image, artistic idea, artistic expression.*

Kirish. *Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligida g‘oyaviy mohiyati va badiiy-estetik jozibasi jihatidan bir qator yutuqlarga erishildi. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti maydonida Shoyim Bo‘taye, Abduqayum Yo‘ldosh, Nabi Jaloliddin, Luqmon Bo‘rixon, Zulfiya Qurolboy qizi, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlar qatorida Isajon Sulton ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Ijodkor hikoyalari milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ulug‘lanishi, milliy xarakterlarning yaratilganligi, jozibador tili bilan diqqatni tortadi.*

Badiiy asarda milliylik ifodasi milliy xarakter, milliy ruh, urf-odat va an'analar talqini qatorida milliy til unsurlaridan unumli va o'rinli foydalanishda ham namoyon bo'ladi. Bu borada Isajon Sulton hikoyalari alohida e'tiborni tortadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Isajon Sulton hikoyalarida jonajon yurt tarixi, qadriyatlari, e'tiqodi mustahkam, mehrirdaryo, mard va olijanob xalq ulug'lanadi. Shu boisdan adib ijodiyoti namunalarida madh etilgan elning o'ziga xos mentaliteti, dunyoqarashi, xarakter va ruhiyati, ma'naviy olami keng tasvirlanadi. O'zbek xalqi milliy qiyofasini to'laqonli aks ettirish jarayonida yozuvchi insonlarning yashash tarzi, odatlari, xatti-harakatlari, nutqi, o'zaro munosabatlari ifodasi, fikrlash va xulosa qilish tarzi kabilar tasviriga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada yozuvchining mahorati xarakterli detallarni tanlay olishida namoyon bo'ladi.

Adibning ko'plab hikoyalarida xalqning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishda milliy til muhim unsurlardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Ijodkor hikoyalari matniga xalqona, jonli tilga xos bo'lgan maqol, matal, so'z va iboralarni tanlab olib kiradi. Ular orqali kitobxon ko'z o'ngida hikoyada tasvir etilgan oddiy va yuksak qalbli insonlarning ma'naviy olami haqida teran tasavvur uyg'onishi qatorida, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar bo'lib o'tgan zamon va makonning badiiy manzarasi aniq, yorqin gavdalanadi.

Yozuvchining "Bibi Salima" hikoyasida milliy ruh xarakter tasviri hamda badiiy nutqning jozibador kuchi orqali teran aks etgan.

Natijalar va uning muhokamasi. "Bibi Salima"da hikoya qilingan voqelik ayolning ruhiy holatlari tasviri orqali berilgan. Turmush o'rtog'ining sog'ilig'i yomonlashib, iqtisodiy sharoiti og'irlashgan Bibi Salima hayot tarzini odatdagi tartibida davom ettirishga harakat qiladi. O'g'illarini ishga soladi. Ammo baribir oilaning ustuni bo'lgan erkakning o'rni sezilib qoladi. Ba'zan yog', ba'zan un tugab boradi va ayol bundan ich-ichidan aziyat chekadi. O'sib-ulg'ayib kelayotgan o'g'illarining jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib katta bo'lishlari uchun ular oldidagi mas'ulligini ayni damda yanada chuqurroq anglaydi. Ammo ayol tushkunlikka tushmaydi. Balki e'tiqodida sobitligi, irodaliligi tufayli u bunday vaziyatni yengib o'tishga o'zida kuch topa oladi. Ushbu kichik hikoyaning qahramoni ayol ulug'vor qalbi, mehnatkashligi, mehr-oqibati, hayotseveraligi bilan o'quvchining xotirasida qoladi. U o'zini murakkab vaziyatdan olib chiquvchi kuchni qalb amri bilan anglaydi. Bu kuch ishonch, e'tiqod, himmatlilik tushunchalari bilan bog'lanadi. U Yaratgandan nimaniki so'rasa, o'zi uchungina so'rashdan istihola qiladi. Ayol boshqalar oldidagina emas, balki o'zining ichki olamida ham pokizalikka intiladi. Ko'p o'tmay uning muammolari bartaraf bo'lib, oila o'zining iqtisodiy ahvolini tiklab olishga erishadi. Asarda hikoya qilingan turmushda uchrab turadigan oddiy holatlar tasviri orqali yozuvchi kitobxonni o'zbek ayolining qalb kechinmalari, ruhiy olami, ma'naviy dunyosini ochib berishga intiladi. Hikoya qahramoni qalbida barq urib turgan ezgulikka ishonch, umidvorlik, borliqning ustuni bo'lgan insondagi yuksak fazilatlar haqida muhokama yuritishga undaydi.

"Ma'lumki, realist yozuvchi hayotning quruq nusxasini ko'chirish bilan shug'ullanmaydi, balki hayotiy materialni qayta ishlab, uni o'z g'oyasi va iste'dodi, mahorati va tajribasi bilan boyitib, umumlashma obraz holiga keltiradi. Mana shu vazifani bajarish uchun yozuvchi umumxalq tilida mavjud bo'lgan hamma shevalardan, turli-tuman til qatlamlarining barchasidan tasviriy vosita sifatida foydalanishi mumkin" [1.348].

Isajon Sulton, eng avvalo, hikoya badiiy qimmatini oshirishda muhim o'rin tutadigan vositalarga e'tibor qaratadi. Bular Bibi Salima yashaydigan joy, u erdagi narsa-buyumlar tasviridir. Adib ayolning o'ziga xos ruhiy va ma'naviy olamini namoyon qiluvchi jihatlarni badiiy ifodalashga yordam beradigan muhim detallarni tanlay olgan. Ya'ni hikoyada dastavval ko'zga tashlanadigan xususiyat qishloq manzarasini tasavvur qilishga yo'naltirilgan tasvirlarda ko'rinadi. Asardan olingan quyidagi parchaga diqqat qarataylik: "Ko'chalar tuproq, uylar oldidan ariqda suv o'tgan. Ariq bo'yida qad ko'targan zich oqterak yaproqlari shitirlab turadi. Ba'zilarining oldida yashil to'fonday bo'lib supurgilar bo'y cho'zibdi. Aslida u burganning bir turi, xalq dastalab boylab, supurgi qilib ishlatadi.

Bibi Salimaning uyiga kirib borsangiz, chapda ayvonli chog'roq imoratni ko'rasiz" [5.25].

Tasvirning davomi ham e'tiborni tortadi:

"Etakroqda yangi qurilgan tandir. Yonida loyo'choq. Sal narida suvpaqir.

Qishloqlarda suvpaqirlar alohida bo'ladi. Suv tashigan mahal chayqalib to'kilmasligi uchun taxtadan qo'shuv alomatiga o'xshagan shakl yasab, betiga tashlab qo'yiladi. Umuman, ko'p narsa bu erda yog'ochdan yasaladi. Tandırqopqoq ham, qozon damtovog'i ham taxtadan" [5.25].

Bunda, eng avvalo, milliy ruhni ifoda etishda qo'llanilgan tasvirlar – tuproq ko'chalar, uylar oldidan o'tgan ariq, ariq bo'yida qad ko'targan zich oqterak, yashil to'fonday bo'y cho'zgan supurgilar, ayvonli chog'roq imorat, yangi qurilgan tandir, loyo'choq, suvpaqir, yog'ochdan yasalgan tandırqopqoq, qozon damtovog'i kabilar e'tiborimizni tortadi.

Qishloq xonadonlarida ishlatiladigan supurgi, suvpaqir, tandirqopqoq, qozon damtovog'i kabi predmetlar hikoyada milliy ruhni ifoda etishga xizmat qiladigan muhim detallar bo'lib hisoblanadi. Ular asarga muayyan poetik maqsad bilan olib kirilgan. Ya'ni bunda, bizningcha, yozuvchi turmush o'rtog'ining kasal bo'lib qolishi tufayli oilaviy ahvoli qiyinlashgan adib o'zbek ayoli Bibi Salimaning yashash sharoiti bilan kitobxonni tanishtirish maqsadini ko'zda tutgan.

Oddiy narsa-buyumlar yoki qishloqning tabiiy manzarasi tasviri bu xonadondagi tushkun kayfiyatni asoslashga xizmat qilmaydi. Balki yozuvchi asarda qalamga olingan badiiy voqelik, yuzaga kelgan ziddiyatga qarama-qarshi ravishda yorqin ranglarni tanlaydi. Qolaversa, bunday tasvirlar ko'z oldimizda tanish manzaralarni badiiy jonlantiradi. Eng avvalo, bu manzaralarning o'zbek kitobxonini uchun qadrdonligi tufayli yorug' taassurotlar, nurli xotiralar yuzaga kelishi, tabiiy. Bunga sabab, bizningcha, adib o'quvchini kelajakka umidvorlik, harakat va e'tiqodning kuchiga ishonitirish maqsadini ko'zlaydi. Shu boisdan ham hikoya qahramoni kabi uning atrofida namoyon bo'lgan manzaralarda ham kutilayotgan yorug' kunlarga ishora sezilib turadi. Shuningdek, hikoyaning boshqa o'rinlarida ham sandal, molchelak, quritilgan yalpiz kabi badiiy detallarga duch kelamiz. Ularda ham milliy ruh va hayotiylik aks etgan.

Asar qahramoni tabiatiga tushkunlik kayfiyati yot deyish mumkin. U hayotida kechayotgan har bir hodisadan hikmat izlaydi. Shu boisdan ham hikoya matnida uchraydigan ro'zg'or, baraka, rizq, qo'ni-qo'shni, mehr kabi tushunchalar mohiyatan uning hayotiy tasavvur va xulosalariga mos ravishda ishlatilgan. Bular o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy mentalitetni ifoda etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, adib qahramoniga xos bo'lgan oddiylik, hayotiylikni ta'minlashda uning nutqida o'zbek ayollari orasida ishlatiladigan ayrim sheva unsurlarini ham namoyon etadi. Ayol nutqida uchraydigan jo'jiqlar, bo'jamalar, supraqoqdi kabi so'zlar shular jumlasidandir.

Hikoyada so'z bilan chizilgan makonlar tasvirda ham qishloqning yorqin manzarasi namoyon bo'ladi. Sandal, taxta so'ri, bostirma, tomorqa etagi kabilar orqali o'zbek xonadonlarining ko'rinishi ko'z o'ngimizda haqqoniy gavdalanadi.

Shuningdek, asarda keltirilgan hayotiy qarashlar va ma'lumotlar o'zbek xalqining turmush tarzidagi oddiylik, va ayni paytda donolikdan nishona beradi. Masalan, bir o'rinda "Qurtilgan yalpizni dokaga o'rab, ustunga osib qo'ygan yaxshi" [5.33], boshqa bir o'rinda esa asalari uyasi haqida "Ustiga to'n kiyib, yuzko'zini ro'mol bilan o'rab, uyani olib tushdi. Lunjiga suv olib, uyaga purkadi" [5.34] tarzidagi fikrlar uchraydiki, bunday holatlar tasviri orqali o'quvchida qishloq kishilarining hayotiy ko'nikmalari, odatlari, mehnatkashligi haqida teran tasavvur yuzaga keladi.

Ijodkorning mahorati o'laroq qishloqning qizg'in hayoti, qaynoq nafasini his etish mumkin. Yozuvchi nozik detallar tasviri orqali bunga erishgan. Masalan, "Usti sarg'ish qaymoqli, mayda pufakchalari bijirlab turgan sut isi dimog'iga yoqdi" [5.36].

Asarda tabiat tasviriga ham keng o'rin berilgan. Hikoyada aks etgan tabiat va inson munosabatlari tasviri milliy ruh bilan yo'g'rilgan. "Shamol tomorqa adog'idagi teraklarning uchlarini egib-egib esdi. Hali yuksakda, pastga tushgani yo'q. Keyin asta-sekin quvvatlanaverdi.

Chelakdagi suvning o'ynaganini ko'rsangiz. Ustidagi suvtextani rosa chayqatdi, qozon qopqog'ini ag'angatib-yumalatib, hovli etagiga olib borib qo'ydi. Xaslarni to'plab-uchirib, suv ustiga sochib yubordi. Mosh-loviya palaklarini yulqiladi. Yam-yashil jo'xorilarni yoppasiga bir tomonga yotqizdi. Eski somonlarni uchirdi-da, hovli betiga sochib yubordi. Shundan keyin yanada shiddatlandi. Bitmagan uyning eshiklarini taraqlatib o'ynadi. Orqasiga tosh tirab qo'yilgan darvoza tavaqasini tosh-poshi bilan surib ochib yubordi. Bitmagan imorat ichiga kirib, derazalarida bo'g'iq hushtak chaldi" [5.32].

Bunda tasvirlangan shamol esishi hodisasi, birinchidan, qahramon ruhiyatidagi ziddiyatlarga ishora qiladi. Ya'ni Bibi Salima turmushida kechgan tushkunlik holatini, eng avvalo, o'zidan ko'radi. Ya'ni dastavval faqat o'zini o'ylagani, balki inson faqat o'zi uchun emas, ko'pchilikning farovonligi uchun qayg'urishi kerakligi haqidagi iqrorlariga qaysidir ma'noda aloqadorlik kasb etadi. Ya'ni yozuvchi inson ruhiyatidagi ikkilanish holatiga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, bizningcha, inson ichki olamidagi beqarorlikni shamol tasviri orqali badiiy jihatdan dalillaydi. Ikkinchidan, shamol bunda, gohida achchiq, gohida totli, ba'zan inson hayotini turli ko'ylarga sola oluvchi turmush ramzi bo'lib kelgan. Keltirilgan parchadan ham ko'rinib turibdiki, shamol "teraklarning uchlarini egib-egib esdi", "Chelakdagi suvning o'yna"tdi, "Ustidagi suvtextani rosa chayqatdi", "qozon qopqog'ini ag'angatib-yumalatib, hovli etagiga olib borib qo'ydi", "Xaslarni to'plab-uchirib, suv ustiga sochib yubordi", "Mosh-loviya palaklarini yulqiladi", "Xaslarni to'plab-uchirib, suv ustiga sochib yubordi" va hokazo. Bunda shamolga ermak bo'lgan narsa-predmetlar turmushning ikir-chikirlari ramzi bo'lib tuyuladi, nazarimizda. Uchinchidan, yozuvchining shamol ta'siriga uchragan o'zbek xonadoni tasvirida ham nihoyatda xarakterli detallarni tanlay olganligi

diqqatni tortadi. Suvtaxta, qozon qopqog‘i, mosh-loviya palaklari, yam-yashil jo‘xorilar, eski somonlar, bitmagan uyning eshiklari, orqasiga tosh tirab qo‘yilgan darvoza tavaqasi va shu kabilarning shamol ta‘sirida uchragan holatlari qishloq uylaridagi jonli manzarani teran tasavvur qilish imkoniyatini beradi va asarning asosiy g‘oyasida aks etgan milliy ruhga mos ifoda tarzini namoyon etadi. Shuningdek, tabiat tasvirining jonlantirish san‘ati asosida yuzaga chiqarilishida ham yozuvchining o‘ziga xos badiiy mahorati ko‘zga tashlanadi. Shamol tasvirining jonli bo‘yoqlarda tasvirlanishida ham milliy ifodaga e‘tibor qaratilgan. Masalan, “Endi shiddati susaygan, horg‘inligi bor edi”, “bo‘g‘iq hushtak chaldi” kabi. Boshqa bir o‘rinda shamol haqida: “Olcha yaprog‘ining osti ustiga qaraganda ochroq tusda bo‘ladi, shamol o‘lgur barglarini teskari qilib o‘tibdi. Ana, to‘q yashil va och yashilning qorishimi bo‘lib chayqalib turibdi. Ko‘chalarda, hovlida, ekin erlarida zarra chang qolmabdi, hammasini supurib-tozalab ketibdi” [5.32], tarzidagi holatlar aks ettiriladi. Bunda ham yozuvchi shamol tasvirida milliy bo‘yoqlarni ishlatgan ko‘rinadi. Ya‘ni “shamol o‘lgur”, “zarra chang qolmabdi, hammasini supurib-tozalab ketibdi” kabi o‘rinlarda jonlantirilgan shamolda milliy qiyofaga xos jihatlar jamlangan. Bunday shamol tasvirida o‘zbek xonadonlardagi xotin-qizlarga xos jihatlar namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bunda shamol jonli obraz darajasiga ko‘tarilgan, deyish mumkin.

Shamolning keyingi o‘rinlardagi tasvirida ham aynan shunga yaqin jihatlarni kuzatamiz: “...Ortidan boshqa shamol keldi. Bunisi avvalgisiday shiddatli va sarkash emas, og‘ir, zalvorli edi. Bir xilda, o‘qtin-o‘qtin shiddat urib, qora bulutlarni surib keldi. Kuppa-kunduzi ham bulutlar bag‘rida chaqmoqlar chaqnayotgani ko‘rinib turardi” [5.32]. Endigi shamol tasviriga yuklangan sifatlarda esa o‘zbek xonadoni boshlig‘i, ya‘ni erkak kishining bosiqliqi, ulug‘vorligi, ayni paytda shiddati namoyon bo‘lgandek ko‘rinadi.

Adib insonlarni shu qadar chuqur o‘rganganki, ularning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, gap-so‘zlari, ichki olamining eng nozik, eng murakkab, hattoki, ko‘z ilg‘amas tomonlarini ham e‘tiborga oladi va mohirlik bilan tasvirlab beradi. Bu so‘z bilan chizilgan tasvirlar kitobxon tasavvurida yorqin gavdalanadi. Yozuvchi bunday mahoratga faqatgina tug‘ilib o‘sgan yurti va unga qondosh bo‘lgan millatdoshlariga mustahkam rishtalar bilan kuchli bog‘langanligi tufayli erishgan, deyish mumkin. Bunday rishtalar mehr-oqibat, iymon, insof, diyonat, qadriyat tushunchalari atrofida kesishadi.

O‘zbek xalqining milliy tafakkuri, o‘ziga xos mentaliteti asarda aks etgan ko‘plab voqealar tasviri va detallarda namoyon bo‘ladi. Masalan, bir o‘rinda Bibi Salima uyiga tandir qurdirganligi va ishni bitirgan tandirchining undan duo qilishini so‘raganligi epizodi diqqatni tortadi.

– Yo‘g‘-e, erkak kishi turganida men duo qilamanmi? — dedi Bibi Salima, o‘ng‘aysizlanib.

– Nonni siz yopasiz-ku, — dedi tandirchi. — Men qorgan loyimga, qilgan ishimga duo qilaman. Barakani esa siz so‘rang.

– Baribiram g‘alati-da.

Begona erkak oldida: “Hay, mayli, tinchlik-omonlik bo‘lsin”, deb yuziga fotiha tortib qo‘yaqolgan Bibi Salima tandir oldiga kelib, qaytadan duo qildi” [5.26]. Ko‘rinib turibdiki, bunda Bibi Salima erkak kishi oldida duo qilishga iymanganligi, u ketganidan keyin yakka o‘zi qolganida oilasiga baraka tilab uzoq duo qilganligi ko‘rinadi. Demakki, bunda yozuvchi ayol tabiatidagi tortinchoqlik, e‘tiqodlilik, hayo va iffatning yuksak namunasini ko‘rsatishga harakat qilgan.

Ahillik, ittifoq, mehr-oqibat o‘zbek xalqiga xos muhim xususiyatlardandir. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, qarashlarida inson yaxshilik, to‘kinlik, omad va xursandchilikni faqat o‘zigagina emas, balki o‘zgalarga ham birdek ravo ko‘rishi xosdir. Milliy qadriyatlarimizda “Mayizni bo‘lib yesa, qirq kishiga yetar”, “Baraka – ko‘pchilikda”, “Ko‘p duosi ko‘l bo‘lur” kabi maqollarda bu xususiyatlar aks etgan. Bibi Salima ham o‘zidagi kamchilikni aynan shu jihatda ko‘radi. “Keyin esa, men nodon, bitta o‘zim-u bolalarim uchun so‘rayveribman-ku, dedi. Yoshi ulug‘lar har doim: “Xudodan bir nima so‘rasang, hammaga so‘ragin” deyishardi. Men esa yolg‘iz o‘zimga so‘rabman. Xudodan-a? Yuzlab olamlarni beminnat yaratib, osmonda uchgan qushdan to daryo toshining tubidagi ko‘zsiz maxluqlarigacha rizqini yetkazib turgan Egamdan-a? E tavba, xalqqa so‘rasam, mulki kamayib qolarmidi?..” [5.30]. Hikoyaning voqeligida asosan ayolning ruhiy holatlari, ichki olamida kechgan kechinmalari keng aks etgan. Asarda ayol ruhiyatida namoyon bo‘lgan ziddiyatlar tasviri orqali yozuvchi qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, umuman, yon-atrofidagi yor-u birodarlarning tinchligi, sog‘ligi, qut-barakasi uchun qayg‘urgan oqko‘ngil ayolning ma‘naviy olamini aks ettiradi.

Bibi Salima xarakteridagi e‘tiborni tortadigan yana bir jihat shuki, u nafaqat qishloqdoshlari, yaqinlari, balki butun insoniyat uchun ezgulik tilaydigan musaffo qalbli inson sifatida gavdalanadi. “Hamma uchun deganda kimni nazarda tutish kerak? Albatta, qishloqdagilarni-da. Ammo tevarakda boshqa qishloqlar ham bor... Bibi Salimaning qalbi bundan ham taskin topmadi. Ha, qaylardadir, u bilmaydigan makonlarda u

taniganu tanimagan qanchadan-qancha odam rizq-ro‘z deb jonini jabborga berib hayot kechiryapti. Kimlardir u singari erta turgan bo‘lsa ajabmas. Elning kuni tiriklik zahmati bilan o‘tmoqda” [5.30]. Demakki, yozuvchining g‘oyaviy niyatiga ko‘ra, o‘zgalarga baxt, yaxshilik tilagan insonning o‘zi ham ezgulikka daxldor bo‘ladi. Demakki, bunday insonlar turmushning har qanday mayda qiyinchiliklarini sabr-toqat va halol mehnatlari bilan engib o‘ta oladilar. O‘zgalarga ham madad berishda kuch topa biladilar.

Ayolga xos yana bir xislat uning ishonuvchanligi va e‘tiqodi mustahkamligida ko‘rinadi. U umidsizlikka tushmaydi, harakatdan to‘xtamaydi va eng muhimi, har qanday vaziyatda ham hayotidan nolimaydi. Uning samimiyati, roziligi, shukronasi, mehnatkashligi va hamisha harakatdan, intilishdan to‘xtamasligi o‘quvchi uchun katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. “So‘raganlarimni berishiga-ku ishonchim komil, ammo qanaqa qilib berarkan?”, deb o‘yladi hayron bo‘lib” [5.31]. Ayol qalbidagi e‘tiqod va mehrning kuchi uning oilaviy hayotini izga tushishiga asosiy sabab edi.

Ayolning behad mulohazali va andishali inson ekanligini uning qalbidan kechgan quyidagi holat tasviri orqali anglash mumkin: “– Qarang-a, niyatni xolis qilaverish kerak ekan-da. Tavba, o‘shanda o‘zim uchun so‘raganimda-yu Xudoyim bir bizgagina berganida nima bo‘lardi? Qo‘ni-qo‘shning ko‘ziga qanday qarardik?” [5.38]. Ushbu tasvir orqali yozuvchi o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan ahillik va bag‘rikenglik fazilatini badiiy jihatdan dalillab ko‘rsata olgan. Bibi Salima o‘zi unib-o‘sib, yaqinlarining esa qiynalib turishlariga guvoh bo‘lishi mumkinligini tasavvur qila olmaydi. Bu holatni o‘ziga ep bilmaydi. U o‘zida borini el bilan baham ko‘rishni, hammaga ezgulik ulashishni chin ko‘ngildan istaydigan saxovatli insonlar toifasidan. Ammo asarda ko‘rsatilishicha, bunday xususiyat faqat Bibi Salimagagina emas, uning yurtdoshlariga ham xos. “Odamlar orasida mehr ortdi. To‘kinlikda ortar ekan-da mehr. Hamma bir-biriga nimanidir ilingan, patir yopib qo‘shniga chiqargan, yaxshi gaplar bilan siylagan... Odamlar xushnud bo‘lib qolishdi” [5.37]. Ko‘rinib turibdiki, yozuvchi hikoyada yo‘qchilikda bir-birlariga hamdam bo‘ladigan, to‘qinlikda bir-birlariga noz-ne‘mat ulashadigan saxovatpesha elning badiiy timsolini yaratishni maqsad qilgan.

Xulosa. Umuman olganda, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan Isajon Sulton asarlari g‘oyaviy-badiiy qimmatini, milliy ruh ifodasi, badiiy obraz va tasvirdagi mutanosiblikka amal qilishi, poetik til jozibadorligi kabi bir qator jihatlari bilan e‘tiborni tortadi. Yozuvchi qahramon ruhiyati, tabiat va insonni tasvirlash, badiiy manzara yaratish mahorati jihatidan sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Bu borada adibning “Bibi Salima” hikoyasi alohida ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.*
2. *Davronova S. Modern o‘zbek romanlarida kâmil insan terbiyesi meselesinin ele alinişi //Electronic Turkish Studies. – 2017. – T. 12. – №. 15.*
3. *Davronova Shohsanam G‘aybulloevna. (2022). The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”). Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.617>*
4. *Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.*
5. *Султон И. Биби Салима. / Ҳазрати Хизр изидан. – Тошкент, Фафур Фулом номидаги наشريёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 25-39.*

**INGLIZ HAMDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI SEHRLI BUYUMLAR ORQALI
MILLIY MADANIYATNING IFODALANISHI**

Djumayeva Nozima,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro, O'zbekiston
85nozimadjumayeva85@gmail.com

Annotatsiya. *Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida turli sehrlilarning G'arb va Sharq an'analari asosida obrazlantirilishiga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Insoniyat tafakkurining ilk mahsuli bo'lmish ertaklardagi sehrlilarning obrazlarining tasviri va talqini, motivatsion xususiyatlari va poetik vazifalarini antropotsentrik paradigma asosida ochish, tilsim predmetlar yordamida asardagi milliy-madaniy olam manzarasining ifoda etilishini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi sehrlilarning xalq milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sehrlilarning, magiya, g'aroyib buyumlar, milliy-madaniy xususiyatlar, qadriyatlar, ingliz madaniyati, o'zbek madaniyati, diniy qadriyatlar.*

Аннотация. *Всегда был большой интерес к изображению различных магических предметов в английских и узбекских народных сказках на основе Западных и Восточных традиций. Описание и интерпретация образов волшебных предметов в сказках, являющихся первопродуктом человеческой мысли, их мотивационных свойств и поэтических функций на основе антропоцентрической парадигмы имеет большое значение в анализе выражения национально-культурной картины мира в произведении с помощью магических предметов. В данной статье описывается значение волшебных предметов в английских и узбекских народных сказках в выражении национально-культурных ценностей народа.*

Ключевые слова: *волшебные сказки, волшебство, диковинные предметы, национально-культурные особенности, ценности, английская культура, узбекская культура, религиозные ценности.*

Abstract. *In English and Uzbek folk tales, there has always been a high interest in the depiction of various magical objects based on Western and Eastern traditions. The description and interpretation of the images of magical objects in fairy tales, which are the first product of human thought, their motivational properties and poetic functions based on the anthropocentric paradigm, is of great importance in the analysis of the expression of the national-cultural world scene in the work with the help of magical objects. This article describes the significance of magical objects in English and Uzbek folk tales in expressing national and cultural values of the people.*

Key words: *fairy tale, magic, strange objects, national cultural characteristics, values, English culture, Uzbek culture, religious values.*

Kirish. *Asrlar osha rivojlanib kelayotgan an'analari, udumlar, urf-odatlar va qarashlar har bir xalq ertaklarida o'ziga xos tarzda aks ettirilgani kuzatiladi. Sehrlilarning ertaklarda har bir xalqning tarixi, madaniyati, turmush tarzi, marosimlari, e'tiqodiy qarashlari namoyon bo'ladi. Shunisi bilan ular o'sha xalqning madaniyatini o'rganishda muhim manba vazifasini o'tay oladi.*

Ertak janri barcha xalqlarning og'zaki ijodida mavjud bo'lib, har bir xalqning umuminsoniy fazilatlarini, olijanob qarashlari, qadriyatlarini, yuksak orzu-intilishlarini o'ziga xos milliy ruhda ifodalaydi. Jumladan, o'zbek xalq ertaklarida xalqimizning o'tmish va kelajak maishiy turmushi haqidagi qarashlari, axloqiy me'yorlari, ruhiy olami, o'y-istaklari, orzu-armonlari, shuningdek, jonajon diyorimizning tabiiy iqlimi, geografik muhiti, hayvonot va nabotot olami ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanilgan holda badiiy obrazli tarzda aks ettirilgan. Shu vajdan har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, iymon-e'tiqodini boshqa qaradosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini,

urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

O'ziga xos milliylik va madaniyat sohibi bo'lgan ingliz xalqining ham folklorida milliylik va o'zgacha madaniyat belgilari, tarix, san'at, urf-odatlar namoyon bo'ladi. Angliya madaniyati Angliya va ingliz xalqining madaniy me'yorlari bilan belgilanadi. Angliyaning Birlashgan Qirollikdagi nufuzli mavqeyi tufayli ingliz madaniyatini butun Birlashgan Qirollik madaniyatidan farqlash ba'zan qiyin bo'lsa-da, biroq Anglo-Sakson davridan beri Angliya Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya madaniyatidan tashqari o'ziga xos madaniyatga ega bo'lib kelgan. Yuqori o'rta asrlarda ertaklar Britaniya an'alaridan, xususan, Artur afsonalaridan kelib chiqqan. Qirol Artur, Merlin, Ekskalibur haqidagi ertaklar bunga yaqqol misoldir. Bu kabi hikoyalar Monmauntning "Britaniya qirollari tarixi" kitobidan ham o'rin olgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqotimiz obyekti ingliz va o'zbek xalq ertaklari bo'lib, ertaklardagi xalq milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalovchi sehrli predmetlar tahlilga tortildi. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, ligvokulturologik, etnofolkloristik metodlardan foydalanildi.

Xalq og'zaki ijodidagi sehrli predmetlar, odatda, xalqning milliy xususiyatlarini, madaniyati va qadriyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ko'pgina xalqlar folklorida *sehrli uzuk, sehrli qilich, sehrli pichoq, sehrli oyna, sehrli tayoq, ochil dasturxon, qaynar xumcha, ur to'qmoq, sehrli nay, uchar gilam, sehrli chiroq, sehrli taroq* kabi qator tilsim predmetlarni uchratish mumkin. Ingliz hamda o'zbek xalq sehrli ertaklari syujeti tarkibida uchraydigan g'aroyib, tilsimli predmetlar orasidagi ayrim o'xshashliklar xususida to'xtalish mumkin. Shu bilan birga, G'arb va Sharq madaniyati va qadriyatlarini namoyon etuvchi ikki xalq ertaklarida o'ziga xos milliylik va madaniyat bilan bog'liq sehrli predmetlar ham uchraydiki, ular xalqning milliy-madaniy xususiyatini yaqqol ko'rsatib turadi.

Natijalar va ularning tahlili. O'zbek xalq ertaklarida *sehrli kovush, paranji, kuloh, piyola, supra, po'stin, dutor, nay, kulcha, buloqi* kabi milliy xususiyatga ega buyumlar obrazlantirilgan bo'lsa, ingliz ertaklarida ingliz va Yevropa madaniyatidan darak beruvchi *sehrli arfa, dudka, karnay, pech, ingliz milliy nonlari Jonni keyk, Bennok, ingliz puddingi*, o'zbeklarda uchramaydigan *sehrli tayoqcha* kabi buyumlarning obrazlantirilgani kuzatiladi.

"Weardale fairies" ertagida *sehrli dudka, baraban* va *skripkada* chalinayotgan g'amgin musiqaning ta'siridan ertak qahramoni qo'rquv ketishi, quloqni kar qilar darajada ta'sirli va miyaga juda ham yomon ta'sir qiladigan bu kuy qo'rquvni keltirib chiqarishi tasvirlangan. Musiqaga qo'shimcha tarzda shamolning ovozi va qushning yig'isi ham eshiltildi: "Even in broad daylight it wasn't long before the child heard eerie music playing on *pipe, fiddle* and *drum*. The tune was so wild and hauntingly exquisite that she found it quite impossible to ignore". Ertakdagi dudka, baraban va skripka obrazlari o'zbek ertaklarida uchramaydi.

Skripka X asrda Yevropada paydo bo'lgan bo'lib, Angliyaning folklor qo'shiqlari shu asbob bilan kuylangan. Mamlakatning Nortumbriya, Kambriya va Leyklend kabi hududlarida bu asbobdan foydalanish keng tarqalgan. Fiddle so'zi qadimgi ingliz tilidan olingan.

Baraban ham o'rta asrlarda Yevropada paydo bo'lgan musiqa asbobi bo'lib, o'zbek xalqining do'mbirasiga o'xshab ketadi. O'zbek ertaklarida do'mbira musiqa asbobi ishtiroki kuzatildi, lekin u sehrli emas, oddiy obraz sifatida berilgan.

Kelib chiqishi Gretsiya davlati bo'lgan, asosan, Yevropa va Angliya madaniyatiga xos *sehrli dudka* obrazini "Pied Piper of Franchville" va "Tattercoats" ertaklarida kuzatildi. "Jack the giant killer" ertagida ham chalinganda jodudan xalos etish kuchiga ega *sehrli karnay* "Binnorie", "Jack and the Beanstalk" hamda "Lord of Pengerswick" ertaklarida *sehrli arfa* obrazi qo'llanilgan bo'lib, ular milliy madaniyatni namoyon etuvchi predmetlar sirasiga mansubligi bilan e'tiborni tortadi [3]

Milliy cholg'u asboblarmizdan biri dutor ham o'zbek xalq ertagida obrazlantirilgan. Ma'lumki, dutor O'rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobidir. Fors tilidan "ikki tor" deb tarjima qilinadi. Dutor tut, o'rik, yong'oq yog'ochlaridan yasaladi. Dutor uchun o'zbek xalqi orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bularga "Munojot", "To'rg'ay", "Farg'onacha", "Tanovar", "Rohat", "Jigarpora", "Dilxiroj", "Qo'shtor" kabilar misol bo'la oladi.

"Uch avliyo" ertagida sehrli dutor obrazi keltirilgan bo'lib, bu dutorni chalganda, uning kuyini eshitgan kishi mast bo'lib uxlab qolardi: "Keyin qiz qo'lga tilla *dutorini* olib mashq qila ketibdi. Bir mahal hamma mast bo'lib mudrab uyquga ketayotgan emish. Qiz mashqni to'xtatibdi".

Milliy taom va yeguliklar ham madaniyat va an'alar belgisi bo'la oladi. O'zbek ertaklarida o'zbeklarning milliy noni *kulcha* obrazlantirilgan bo'lsa, inglizlarda Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning

an'anaviy nonlaridan bo'lmish *Johny Cake (Jonni keyk)*, *Bannock (Bennok)* va *Pudding (ingliz puddingi)* obrazlantirilgan.

O'zbeklar hayotiga tegishli uy-ro'zg'or predmeti bo'lgan, inglizlar turmushida kuzatilmaydigan sehrli sandiq obrazini bir nechta o'zbek xalq ertaklarida kuzatish mumkin. Odatda, qizlar turmushga chiqqanda, ularga oila ramzi sifatida sandiq beriladi. Unga kelinlik sepi solingan bo'ladi. "Zumrad va Qimmat" ertagida sehrli kampir mehnatsevar, oqko'ngil Zumradga qizil sandiq beradi. Uning ichidan qimmatbaho toshlar, taqinchoqlar chiqadi. Dangasa Qimmatga berilgan oq sandiqdan esa oq ilon chiqib, uni va onasini yutib yuboradi. "Duradgor bilan tikuvchi" va "Kenja botir" ertaklarida ham sandiq obrazidan foydalanilgan.

"Jonon piyola" ertagida hammayoqni yorug' qiladigan podshohning jonon piyolasi sirli xususiyatga ega bo'lib, podshoh uni juda ham qadrlaydi. Bu piyolasi singanidan keyin podshoh yana bir piyola yasattiradi. Uning bir xislati: o'ng tomonga qarab aylantirilsa, shu xildagi piyoladan yettita piyola bo'lib qolar ekan. Chap tomonga qarab aylantirilsa, yettita piyola bitta bo'lib qolar ekan. Shu sehrli xususiyati bilan piyola uni yasagan kulolni o'limdan saqlab qoladi. Piyola, asosan, O'rta Osiyo xalqlari tomonidan ishlatiladigan, choy ichish uchun mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumi bo'lib, milliy xususiyatga egadir.

Ayrim sehrli predmetlar obrazi ertakning milliy xususiyatini yanada ko'rsatishga xizmat qiladi. *Sehrli sandal* shunday milliy xususiyatni aks ettiruvchi obrazlardan biridir. Masalan, "Sehrli sandal" ertagida hikoya qilinishicha, "Bir kampirning sandali bor ekan. U sehrli sandal ekan. Uning o'ziga aytiladigan so'zi bo'lib, shuni aytsa, sandal yuqoriga chiqib, hamma yoqni aylantirar ekan. O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan bu motiv rus xalq ertaklaridagi an'anaviy "uchar pech" obrazi ishtirok etadigan motiv bilan mushtaraklik kasb etadi, ularni shu morfologik vazifadoshligiga ko'ra intertip motiv sifatida qayd qilish mumkin. Faqat ular har bir xalqning milliy turmush tarziga xoslikni o'zida mujassamlantirib kelishi bilan bir-biridan farqlanadi, xolos.

O'zida milliy xususiyatni namoyon etuvchi sehrli predmetlardan yana biri *supradir*. Undan o'zbek ayollari un elash va xamir qorishda supradan foydalanishadi. Supra bilan bog'liq xalq irim-sirimlari va e'tiqodiy qarashlari borki, ular ertaklarda "sehrli surpacha" obrazi paydo bo'lishiga ta'sir o'tkazgan. U ertaklarda har qanday tilakni ro'yobga chiqaruvchi; o'likni tiriltiruvchi vazifalarda badiiy talqin etiladi. Masalan, "Elzod bilan Gulxumor" ertagida sehrli surpacha obrazi "Uning bir xislati bor" deb, alohida ta'riflangan. Surpachaning otadan o'g'ilga meros qilib qoldirilganligi aytilgan. Surpacha insonlardek gapni tushunadi. Kimki uni oldiga qo'yib: "Surpachaxon, surpacha, otamdan qolgan merossiz, aytganimni qilarsiz" desa, shunda surpacha har qanday xohishni bir pasda muhayyo qiladi. Ammo bu sirni hech kimga, hatto yaqin bo'lgan kishiga ham aytish taqiqlanadi. Qahramon suprani bir daqiqa bo'lsa ham, yonidan qo'ymasligi, hatto kechasi boshiga qo'yib yotishi, kunduzi qo'ynida olib yurishi shart. Chunki u ehtiyotsizlik qilib, supradan ayrilib qolsa, bu dunyodan xoru zor bo'lib o'tishi mumkinligi aytiladi.

Ertakda supraning gapni tushunadigan qilib jonlantirilishi bejiz emas. Chunki hayotda ham suprani yoyganda va yig'ishtirayotganda unga maxsus sehrli so'zlar – olqishlar aytib murojaat qilinadi. Sehrli supra ertak voqealari davomida qahramonning iltimosiga ko'ra, uning tutingan onasi bo'lmish o'lgan kampirni tiriltiradi.

"Kambag'al qiz" ertagidagi *sehrli po'stak* obrazi qahramonni xohlagan joyiga eltib qo'yish xususiyatiga ega. Supra va po'stak sinonim so'zlar bo'lib, har xil nom bilan kelsa-da, bitta predmetni ifodalaydi [5,125]

Ertaklarda u yoki bu ijtimoiy davrga xos voqelik xalq turmushi, xalq manfaatlari va kechinmalari, orzu-armonlari bilan uzviy aloqadorlikda badiiy ifoda etiladiki, bundan ularning ijtimoiy mohiyatga egaligi yaqqol ko'rinadi.

"Ur to'qmoq" ertagidagi "ochil" deganda turli nozu ne'matlar bilan to'ladigan *ochildasturxon* obrazi ham o'zbek milliy madaniyatini namoyon etadi. O'zbeklarda taom tanovul qilish uchun yoziladigan maxsus mato bo'lmish dasturxon milliy realiyalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalqida dasturxon to'y va ma'rakalarga borishda taom va boshqa yeguliklar o'rab borish uchun ishlatiladi.

Milliy oyoq kiyimlarimizdan bo'lmish *kovush*ning obrazlantirilishi "Eng katta zulm" ertagida kuzatildi. Ertakdagi sehrli tilla kovush faqat o'z egasiga loyiq kelish xususiyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu motivni ingliz xalq ertagi "Cindermaid" da ham kuzatish mumkin. Unda sehrli tilla tuflari obrazi keltirilgan. Milliy xarakterdagi sehrli predmetlar obrazi ma'lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining badiiy in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning milliy tabiati o'sha millatning hayoti, tarixi, madaniy va adabiy an'analari asosida obrazlantiriladi [5,123]

"Orziston bilan Qambarjon" ertagida sehrli paranji obrazi o'z ichida odamni yashirish xususiyatiga ega bo'lib keladi [5, 103].

Xalq ertaklarida *sehrli ro'mol* timsolini ham uchratish mumkin. Masalan, “Bulbuligo'yo” ertagida tasvirlangan sehrli ro'molning g'aroyibli shundaki, u inson gapini tushunib, uning topshiriqlarini bajaradi.

“O'tinchi chol” ertagidagi obrazlantirilgan *sehrli beshik* obrazi ham milliy xarakterga ega predmet ekanligi bilan e'tiborni tortadi.

Beshik chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo'ljallangan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama bo'lib, asosan tut, tol va boshqa yog'ochdan yasaladi. Beshik qadimdan o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg'iz va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Qadimgi manbalarda, xususan, “Devonu lug'otit-turk” da tilga olib o'tilgan.

Ertakda beshik yasalgan terak daraxti sehrli bo'lgani uchun beshik ham sehrli bo'lib qoladi va unga belangan bolani siqib o'ldiradi.

“Ha, podshohzoda, kalla deb qovoqni kiyib olgan ekansiz-da. Bitta jodugar kampirning so'ziga kirib, bola qilganingizga rahmat. Quduqning ichidan chiqqan qora ot men bo'laman, bilmay aravaga qo'shdingiz. Qirq odimni bir odim qildim. Qora otni jodugarga so'yib berganingizda uch terak bo'lib ko'karib chiqdim. Beshik bilan eshik qildirdingiz, beshikdagi bolani qisib o'ldirdim, eshikda kampirni siqqanimda ajratib oldingiz – bilmadingiz, uyalganimdan qo'yib yubordim” [5,78].

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turganidek, beshikning bolani siqishi shahzodaning sevgilisi parizodning sehri natijasidir.

Shuningdek, “Kulsa – gul, yig'lasa – dur” ertagida Sharq xalqlariga xos bezak asbobi *sehrli buloqi* obrazi berilgan. “Podshoning kelini buloqini burniga taqibdi. Kelin kunduzi buloqini taqqanda, quduqda qolgan o'tinchining qizi o'libdi, kechqurun burnidan buloqini olib qo'yganda tirilibdi” [9, 4].

Buloqi O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida Markaziy Osiyoga kirib kelgan burunga taqiladigan zirak bo'lib, o'sha paytlarda uni taqish ayollar orasida keng tarqalgan bo'lgan. Hozirda buloqi taqish urfdan chiqqan.

Xalq ertaklaridagi g'aroyib buyumlar milliylik va madaniyatni ham eksplitsit, ham imlitsit jihatdan ifodalaydi. Yuqorida tahlil qilingan predmetlarni milliy realiyalar yoki etnografizmlar deb atashimiz mumkin. Ularda milliylik, G'arb yoki Sharq madaniyati yaqqol ko'rinib turadi. Lekin ertaklarda shunday buyumlar uchradiki, ularning milliylik kasb etishi yoki madaniy qadriyatlarni aks etishi ular bilan aloqador motivlar, marosimlar, tarixiy voqealar, diniy qadriyatlar va joy nomlaridan anglashildi.

Sehrli tayoqcha obrazi shunday mo'jizaviy buyumlardan biri bo'lib, asosan, g'arb ertaklari, xususan, ingliz xalq ertaklarida uchraydigan tilsim predmet bo'lib, o'zbek folklorida bunday obraz uchramadi. Folklorshunoslar Ernest va Yoxanna Leynerlarning fikriga ko'ra, sehrli tayoqlardan foydalanish motivining asoslari Injildagi diniy afsonalarga borib taqaladi.

Aytilishicha, o'tmishda professional sehrgarlar Horunning tayog'i ramzidagi novdadan sehr kuchi timsoli sifatida foydalanishgan. Bu novda kerakli vaqt va zarur sharoitda sehrli tayoqqa aylanib, odamlarga yordam berishga ishonilgan.

Muso payg'ambar haqidagi afsonalarda uning mo'jizaviy kuchga ega bo'lishiga sehrli asosi sabab bo'lganligi aytiladi. Muso alayhissalom u orqali Qizil dengizni ikkiga ajratib, undan oson kechib o'tgancha, bostirib kelayotgan dushmandan xalqini eson-omon qutqargani, toshdan suv chiqqargani bayon etiladi. Horunning ham sehrli aso tayog'i bo'lgani, uni uloqtirganda ilonga aylangani va bu ilon atrofda yig'ilgan boshqa ilonlarni yutib yuborgani hikoya qilinadi. Keyinchalik Misrda balolarni boshlashga sababchi bo'lgan bu qudratli tayoq asonining Ahd sandig'ida xavfsiz saqlangani aytiladi.

Sehrli tayoq obrazi qadimgi yunon yozuvchisi Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida ham uchraydi. Bunda Gomer novda degan ma'noni anglatuvchi “rabdos” so'zini ishlatgan, lekin bu so'z kichik hajmda anglashiladigan tayoqchani emas, balki katta va qalinroq hajmdagi tayoqni anglatadi.

Gomer sehrli tayoqchalarni uch xudo: Germes, Afina va Sirtseya ishlatganini yozadi. Masalan, “Iliada”da Germes sehrli tayoqchadan foydalanib, odamlarni uxlatadi yoki uyg'otadi. “Odisseya”da esa Afina sehrli tayoqcha yordamida Odisseyini keksa qilib, keyin yana uni yoshartiradi. Sirtseya sehrli tayoqcha yordamida Odissey odamlarini cho'chqaga aylantiradi. Ko'rinadiki, Gomer sehrli tayoqcha obrazidan ma'budlarning kuch-qudratini bo'rttirish maqsadida foydalangan. Bunda sehrli tayoqcha “evriltiruvchi” xususiyatga ega tilsim predmet sifatida ko'rsatilgan.

Ingliz xalq ertaklarida ham *sehrli tayoqcha* obrazi turli holatlarda bosh qahramonga ko'mak beruvchi, uni murod-maqsadiga, orzu-intilishlariga yetkazuvchi vazifasida talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, “Red Ettin” nomli ingliz xalq ertagida sehrli tayoqcha obrazi keltirilgan. U bosh qahramonga sehrgar tomonidan hadya qilinadi. Yigit dahshatli hayvonlar yashaydigan joyga kelib qolganida, sehrli tayoqcha yordamida ularni yengadi va yo'lida davom etadi.

“Kate Crackernuts” ertagida bosh qahramon Keytning opasi boshi sehr tufayli qo'yning boshiga aylangan bo'ladi. Keyt sehrli tayoqchasini o'ynab turgan pari bolaga duch keldi va shu tayoqcha bilan uch marta ursa, opasi yana o'z holiga qaytishini bilib qoladi. Shundan so'ng Keyt sehrli tayoqchani qo'lga kiritib, opasini tuzatadi [3,98].

“Three heads of the well” ertagida o'gay ona zulmidan charchagan malikaning qo'lga sehrgar chol sehrli tayoqcha tutqazadi. U qizga uning oldidan tikonli to'siq chiqishini va shu sehrli tayoqcha bilan uch marta ursa, bu to'siq ochilib, yo'lida davom etishi mumkinligini aytadi. Xuddi aytilganidek, qiz katta tikanli to'siqqa duch keladi va sehrli tayoqchasi yordamida uni kesib o'tadi [3, 56]

“Saint George of Merry England” ertagida sehrli tayoqcha jodugar tomonidan bosh qahramon Jorjga o'zi bilan qolishi uchun pora sifatida beriladi. Ertak qahramoni esa shu sehrli tayoqcha yordamida sehrlangan hudud hukmdorligini qo'lga kiritadi [2, 35].

Sehrli tayoqcha ertak bosh qahramoni bilan bevosita bog'liq holda harakatlanadi. Ertak nomi ham Angliyaning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Avliyo Jorj Angliyaning homiy avliyosi, milliy madaniyati ramzi bo'lib hisoblanadi. Avliyo Jorj kuni ham Angliyada milliy bayram sifatida nishonlanadi.

'Don't interrupt!' said Mr Wonka. 'The wallpaper has pictures of all these fruits printed on it, and when you lick the picture of a banana, it tastes of banana. When you lick a strawberry, it tastes of strawberry. And when you lick a snozzberry, it tastes just exactly like a snozzberry (Charlie and the chocolate factory, Dahl Roald).

Таржимаси: «Болалар хонаси учун ширин гулқоғозлар», деган ёзув бор эди кейинги эшикда.

–Нихоятда ширин гулқоғозлар! – югураётиб хитоб қилди жаноб Вонка.

–Уларда ҳар хил мевалар – банан, олма, апельсин, узум, қулупнай, супернай чизилган...

–Супернай? – сўради Майк Тиви.

–Гапимни бўлма! – аччиқланди жаноб Вонка. – Гулқоғозларга чизилган банан, қулупнай ёки супернайни яласанг, оғзингда уларнинг таъмини сезасан. (Комила Носирова таржимаси)

Таржимон «lickable» сўзини «яланадиган» деб сўзма-сўз таржима қилмаган. Аслиятда «Болалар хонаси учун яланадиган гулқоғозлар» деб ёзилган. Гарчи бу ёзувчининг фантазияси бўлса-да, таржимон сеҳрли гулқоғознинг номини қоғозга ўраб таржима қилган. Аслиятда йўқ «ширин» сифатини қўшиш орқали унинг таъмили эканлигига ишора қилган. Бироқ кейинги гапда гулқоғознинг нега ширин эканлиги аслият матнига мувофиқ ойдинлашган. Қуйидаги парчада Вилли Вонка фабрикасидаги сеҳрли хоналар номлари келтирилган бўлиб, таржимон миллий менталитетимиз, бола тарбиясига тўғри келмайдиган баъзи хона номларини тушириб қолдирган:

'Choose a button!' said Mr Wonka. 'The two children may press one button each.

So, take your pick! Hurry up! In every room, something delicious and wonderful is

Being made. Quickly, Charlie started reading some of the labels alongside the buttons.

The rock-candy mine — 10,000 feet deep, it said on one.

Cokernut-ice skating rinks, it said on another.

Then . . . strawberry-juice water pistols.

Toffee-apple trees for planting out in your garden — all sizes.

Exploding sweets for your enemies.

Luminous lollies for eating in bed at night.

Mint jujubes for the boy next door — they'll give him green teeth for a month.

Cavity-filling caramels — no more dentists.

Stickjaw for talkative parents wriggle-sweets that wriggle delightfully in your tummy after swallowing.

Invisible chocolate bars for eating in class.

Sugar-coated pencils for sucking.

Fizzy lemonade swimming pools.

Magic hand-fudge — when you hold it in your hand, you

Taste it in your mouth.

Rainbow drops — suck them and you can spit in six different colours (Charlie and the chocolate factory, Dahl Roald).

Таржимаси: Тугмани танланглар! – деб давом этди Жаноб Вонка.- Болаларнинг ҳар бири биттадан тугма босиши мумкин. Танланглар, фақат тезроқ. Ҳар қайси цехда бирон ширин ва ғаройиб нарса тайёрлашади.

Чарли лавҳачаларни ўқий бошлади.

обаки кони — чуқурлиги 10000 фут, — деб ёзилганди лавҳачаларнинг бирида.

қаймоқли-шоколадли яхмалак, — деб ўқиди чарли кейингисини.

кейин... қулупнай шарбати билан ўқланган сувли тўппончалар.

боғингиз учун ирисли олмалар — барча ўлчамда.

душманларингиз учун портлайдиган обакилар.

қоронғида нур сочадиган обакилар.

қўшни учун ялпизли желе – битта ҳиссаси бир ойга етади. тишни яшил рангга бўяйди.

«йўқолсин дантистлар»— пломбалайдиган карамел.

обакисўрар қаламлар.

лимонадди ҳовуз.

сеҳрли қўл конфетлари — қўлингда ушлаб турганингда, таъмини оғзингда ҳис қиласан (комила носирова таржимаси).

ушбу парча таржимасида қуйидаги хоналар номи таржима қилинмасдан тушириб қолдирилган:

- stickjaw for talkative parents.
- invisible chocolate bars for eating in class.
- rainbow drops — suck them and you can spit in six different colours.

Сўзма-сўз таржимаси:

- Кўп гапирадиган ота-оналар учун жағ ёпиштиргич
- Синфхонада ейиш учун мўлжалланган кўринмас шоколад
- Олти хил рангда тупуртирадиган камалак рангдаги думалоқ конфетлар.

Бу ерда таржимонни айблаб бўлмайди. Бинобарин, Шарқ ва Ғарб болалар адабиётидаги энг катта фарқлардан бири, Шарқ болалар адабиётида дидактик рух устунлик қилади. Модомики, ғарбона болалар фантазиясига йўғрилган, лаззатли ширинликлар ҳақидаги дунёга машхур асарни ўзбек болажонлари ўқишини истасак, таржимон ўзбекона одоб меъёрларидан четга чиқмасликни назорат қилмоғи лозим. Шу сабабдан «ота-она гапирганда кулоқ тутиш», «дарс вақтида овқат ва ширинлик истеъмол қилмаслик» ва «тупурмаслик»ни болаларимиз онгига одобнома дарсларида сингдириб келар эканмиз, таржимоннинг бу тутган йўлини тўғри, деб ўйлаймиз.

Инглиз фольклори ва эртақларида сеҳр-жоду куруллари овқатнинг битмас-туганмас манбаларини яратади. Бу ўз-ўзидан ноз-неъматларга тўлиб кетувчи стол, сеҳрли бўтқа қайнаб чиқувчи қозон қабиларда намоён бўлади.[2;26] Эртақларда учрайдиган сеҳр-жоду қудратига эга глуттонимлар ўзбек халқ эртақларида («Очил дастурхон», «Ур тўқмоқ», «Олтин тарвуз», «Тилла беҳи» ва х.) ҳам учрайди: *Чол «Очил дастурхон» деб эди, ҳар хил таом муҳайё бўлди. Умрларида кўрмаган таомларни еб, чол билан кампир хурсанд бўлдилар («Ур тўқмоқ» эртаги).* Ўзбек халқ эртагидаги егуликнинг битмас-туганмас манбаси бўлган очил дастурхон чолга қилган эзгу иши учун лайлақлар шоҳи томонидан совға қилинган эди. Эртақнинг асосий дидактик ғояси эса – қилинган яхшиликнинг доимо рағбати бўлиши. Бола дунёсига бу ахлоқий ўғитнинг тезроқ етиб бориши учун глуттоник коммуникация воситаларидан фойдаланилган. Инглиз ёзувчисининг асарида эса китобнинг бош ғояси – ҳаётда инсон доимо умид ва орзу билан яшаса, олға интилса, албатта, ўз олий мақсадига эришади.

Ўзбек болалар адабиётидаги саргузашт асарлар орасида глуттоник дискурсдан болалар тасаввурининг ўта лаззатли чизгиларини тасвирлаб беришда унумли фойдаланилган асар, шубҳасиз, Худойберди Тўхтабевнинг «Ширин қовунлар мамлакатини» қиссасидир. Туш ва фантазия йўналишида ёзилган асар қаҳрамонининг ўзи севиб истеъмол қиладиган қовунлар мамлакатига саёҳати «ширин» ва «тил ёрар» қилиб тасвирланади: *Кўргазмага ангишвонадек келадиган хамакчадан тортиб, катталиги росмана уйдек келадиган қовунлар ҳам қўйилган денг... Томоша қилиб юриб, тўсатдан бир қовун олдида тўхтаб қолдим. Ҳай-ҳай тепасига қарасангиз, дўппингиз тушиб кетаман дейди» (Ширин қовунлар мамлакатини, Худойберди Тўхтабев).* Қовунлар мамлакатига «қовунли автобус», «шишадек силлиқ йўлақлар», «дарсни ўзи бажариб, баҳо қўйиб кўядиган ўқитувчилар» ҳаммаси қовун мавсумида эгат кезиб, болаликнинг беғубор лаҳзаларида зерикарли дарсларни тайёрлашни истамайдиган бола фантазияларидир. Асарда ёзувчи томонидан кашф этилган фантастик персонажлар ҳам ёш китобхоннинг қизиқишини кучайтирибгина қолмай, иштаҳасини ҳам уйғотишга қаратилган. Асар қаҳрамони Ақром сеҳрли мамлакатда Ха Мак исми бола билан танишади. «Хамак» аслида «қовуннинг кичкинаси, ғўр ва пишмагани» деган маънони англатади. Боланинг айтишича, уларнинг мамлакатига ҳамма болаларнинг исмига «мак» қўшилади. Бу эса «бола» деган маънони англатади.

– *Фамилиянг нима?*

– *Қо Қи.*

– *А?!*

– *Кармисан? ҚоҚи деяпман.*

– *Фамилиянг ширингина экан.*

– *Биз ҳаммамиз ширинмиз.*

– *Лекин қишда учраганингда еб қўярдим-да, – дедим лабимни чаптиллатиб(Ширин қовунлар мамлакатини, Худойберди Тўхтабев).*

Ўзбек болаларининг севимли асарларидан бири атокли кирғиз адиби Чингиз Айтматовнинг «Соҳил бўйлаб чопаётган олапар» киссаси қахрамони Кириск овчиликнинг ҳақиқий гаштини – тюленнинг хом жигарини еб кўргандагина ҳис этади. Мазкур ҳикоядаги овчи бўлишни орзу қилиб катталар билан сафарга чиққан болакайнинг ҳиссиётлари йўл давомида босқичма-босқич тасвирлаб борилган. Бироқ бу тасвирларга «таъм киргач»гина бола чин овчи бўлиш гаштини туяди: *О, Кург (нивхларнинг олий тангриси) эгам, етказганинга шукур! Овимизнинг бошланиши чакки эмас! – дея ўзининг ов пичогини артиб, тайёр қилди. Овдан кейин энг муҳими – тюленнинг хом жигарини шу ернинг ўзидаёқ ейиши эди. Ўрхон нимталанган нерпа тўши олдиди чўнқайиб ўтириб олиб, жигарни бўла бошлади. Овчилар оз-моз туз сепилган майин жигар бурдаларини ҳузур қилиб чалтилатиб ямлаб ютар эдилар. Жигар жуда мазали – мулойим, илиқ, тўйимли эди. У одамнинг тилини ёгли шарбатга ботириб, оғизда эриб кетарди. Кирскнинг орзуси ушалди – ҳақиқий катта кишидай овда хом жигар еди!* (Соҳил бўйлаб чопаётган олапар, Чингиз Айтматов). Бирга истеъмол қилган тюлен жигари – боланинг наздида овдаги тенг ҳуқуқлилики таъминлайди. Гастрономик коммуникация бола ва катталар ўртасида кўприк бўлади. Энди у ҳам овчи!

Ўзбек ўсмирлар шеъриятида ҳам глуттоник номинантларнинг кенг қўлланиши кузатилади. Масалан, истеъдодли ёш шоир Рустам Мирвоҳиднинг «Шеърият – қандолат дўкони» номли шеърида шеърият ва ширинлик ўзаро қиёсланади. Шоир шеъриятни қандолат дўконига, шеърларни эса ширинликка муқояса қилади. Шеърлар ўз муаллифларининг шеъриятдаги мавқеидан, салмоғидан келиб чиқиш у ёки бу ширинликка ўхшатилади:

*Шеърият қандолат дўкони эса,
Шоирларнинг байти ширинликлардир.
Қай муҳлис бу ажиб дўконга кирса,
Унда бор ҳар нени кузатар бир-бир...*

*Масалан, Навоий шоколадлари,
Дўконнинг ярмини эгаллаб олган.
Ёнроғида Бобур мармеладлари,
Қанча шеърхонларнинг тилида қолган.*

Шоир шеърни ўзбек шеъриятининг энг юксак намояндалари ижодини олқишлаш билан бошлайди. Мазкур шеърда ширинликлар градуономик қаторининг энг юксак чўққиси қилиб «Шоколад» танланган. Табиийки, шеърият мулкининг султони Навоий ижодидан бошлаб қуйига қараб ширинликларга муқояса қилинган. Навоийнинг кичик замондоши Бобур шеърияти мармеладга менгзалади. Шу ўринда Навоий ғазалиётини шоколад, Бобур шеърларини мармеладга қиёслаш бежиз эмаслигини шоирнинг шоколад билан мармелад глуттонимларнинг Европа ширинлик оламида бирга қўлланиши билан изоҳлаш мумкин («қанд-қурс», «ёнғоқ-майиз» сингари). Бироқ мармелад доимо шоколаддан таъм ва нархи жиҳатидан кейинги ўринда турувчи ширинлик. Бу тасвирда эътиборга олинган когнитив асосдир. Шоир Навоий ва Бобур шоколадлари дейиши мумкин эди. Бироқ Бобурнинг ўзи эътироф этганидек, туркийда «Навоийчалик ҳеч ким кўп ва хўб ёзмаган». Шу сабабдан шеърда шоколаддан кейинги даражаланиш қаторида мармелад жой олган.

*Ўнг томонда қанддек Машраб ғазали,
Ҳанузам эл уни татиб юрибди.
Чап ёнда Муқимий берган асали,
Фурқат ҳалвоси-ла бирга турибди.*

Машраб ғазали – **қанд**, Муқимий шеърияти – **асал**, Фурқат шеърияти **ҳолва**. Юқори кутбдан қуйига қараб бораётган ширинликларнинг силсилавий занжири негадир бузилган, зеро, асал қанддан олдинги қаторда саналиши керак бўлган ширинлик. Бу шоирнинг назмий диди ва таъби билан боғлиқ, шекилли. Кейинги тўртликда ширинлик номларини санаш эмас, балки улардан истеъмол қилишга ташналик ва глуттоник жараён тасвирини қўллаш орқали шоирлар ижоди васф қилинади:

*Оғаҳийнинг лазиз ижодиёти,
Дўконда ҳар куни талаш бўлади.
Парвардада кўрса ким Завқий отин,
Иши фақат лабни ялаш бўлади.
«Гўзал»деган Чўлпон хўрозқандлари,
Қарасанг, қўзингни оламан, дейди.
Ҳамид Олимжоннинг «Ўрик гуллари»н,*

Ҳар киши чўнтакка, соламан дейди.

*Ҳабибий ва Чархий рулетларига,
Кун сайин талаблар бормоқда ортиб.
Ғазалхон Чустийнинг конфетларига,
Ҳофизлар тирбанддир саҳардан тортиб.*

Кейинги байтларда шоир, ширинлик номинантлари ва глюттоник жараённи ҳамоҳанг тасвирлаш билан бирга, ўзи васф этаётган шоирларга тегишли энг машҳур шеър номларини ҳам санаб боради. Ва энди ўша шеърларни тўғридан-тўғри глюттоник номинант билан чоғиштира бошлайди.

Ойбек домланинг-ку «**Бир ўлка...**» деган,
Новвоглари хамон бозори чаккон.
Устоз Ғафур Ғулом **тортини** еган,
Мухлислар то хануз **боқади хайрон.**

Сал нари юрсангиз... Эркин Воҳиднинг,
Мураббоси турар «Камтарлик» билан.
Абдулла Орифнинг бизнесин кўринг,
«Тилла балиқча»ни эслайсиз бирдан.

Рўйхат тугамади, Муҳаммад Юсуф,
«Қизғалдоқ»ни сизга ҳавола этар.
Сирожиддин Саййид **музқаймоғи** хўп,
Оғизга солмасдан **эриблар кетар...**

Шу хилдаги қанча ширинликлар-у,
Қандолатлар сони жуда ҳам бисёр.
Айт-чи, ҳар биридан егинг келмасми,
Ҳеч бўлмаса тотгинг келмасми бир бор?!

Хуллас, ким мен каби харидор эса,
Боладек қандларга ўч бўлса, билсин:
Ҳақиқий лаззатни туяман деса,
Фақат шу дўконга марҳамат қилсин!!!

Шоир ёш китобхонларни **шеърят дўкони**, яъни адабиётга киришга ундайди. Адабиёт қанчалик лаззатли эканлигини тасвирлашга уринади. Бунда глюттоник метафораларни қўллайди.

Хулосалар. Кўриб турганимиздек, болалар адабиёти масаласида инглиз ва ўзбек адабиётида муштарак жиҳатлар ва фарқлар мавжуд. Бу эса болаларга хос ОМЛМ билан боғлиқдир. Бу борада кенгрок илмий тадқиқотлар олиб борилса, болаларга хос хусусий дискурслар – жумладан, глюттоник дискурсни қайта яратилиши мезонлари ишлаб чиқилиши мумкин, деб ўйлаймиз.

Болаларга йўналган глюттоник дискурс таҳлили шуни кўрсатдики, жаҳон ва ўзбек болалар адабиётида глюттоник дискурсни муштарак жиҳатлари мавжуд ва бу бола шахсида таомга бўлган устувор муносабат билан белгиланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Dahl Roald. *Charlie and the Chocolate Factory*. – London: Puffin, 2007. – P. 23.
2. Eve Jackson. *Food and Transformation*. – Toronto: Inner City Books, 1996. – P. 26.
3. Polišenská Z. *Symbolic Function of Food in Contemporary Women`s Literature/diploma thesis*. – Brno, 2011. – P. 10.

WILLIAM SHAKESPIRNING "QIROL LIR" NOMLI ASARI TARJIMALARIDA KALAMBURNING QAYTA VOQELANTIRISHDAGI MUAMMOLARI

Mizrabova Jeren Ismailovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti (PhD)
mizrabovajerenismailovna@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola U. Shekspirning "Qirol Lir" dramasiidagi kalambur kabi uslubiy vositasining o'ziga xos lingvopoetik xususiyatlari va ularning tarjimada aks ettirilishidagi murakkabliklari muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. "Qirol Lir" asaridan misol sifatida olingan kalamburlari o'girmasida qo'llanilgan turli tarjima usullari va so'z o'yini tarjimalarining qiyosiy tahlillari keltirilgan. Asliyat kalamburning rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarida qayta yaratishdagi o'ziga hosliklari o'rganilgan.

Ilmiy maqolada U. Shekspir uslubiga hos kalamburi tuzilishidagi o'ziga xosliklari jumladan omonimik, polisemik, antonimik vositalari xamda antitezalarga asoslangan kalamburlarining lingvopoetik jihatlarning rus va o'zbek tarjimalarida qayta yaratilishidagi muammolari o'rganilgan. Asliyat kalamburida voqelangan obrazlar, konnotatsiyalar, fon, muallif uslubi yohud muallif kalamburining shakli, mazmuni, fonetik va grafik xususiyatlarining tarjimada aks ettirilishidagi muammolari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Shekspir, Qirol Lir, kalambur, lingvopoetik tahlil, tarjima, asliyat, omonim, polisemiya, antonimiya, antiteza, omoforma, fonetik xususiyatlar, mutarjim, asliyat matni, tarjima matni.

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению своеобразных лингвопоэтических особенностей каламбура в драме У.Шекспира «Король Лир» и проблем в трудностях способов его воссоздания в переводе. Обобщить основные направления факторов выявления в изучении каламбура и проблематику перевода данного стилистического приёма, рассматриваются некоторые способы перевода, приводится анализ перевода игры слов из произведения У. Шекспира, рассматриваются сложности и основные приёмы связанные с передачей каламбура на русский и узбекский языки.

В научной статье изучаются структура каламбуров, собственных стилю У.Шекспира, проблемы воспроизведения лингвопоэтических аспектов каламбуров построенных на омонимии, полисемии, антонимии а также, основанных на антитезе каламбуров в узбекских и русских переводах. Также исследованы проблемы воспроизведения своеобразия образов, коннотаций, фона, стиля автора или формы и смысла каламбура автора, фонетических и графических свойств оригинала в переводе.

Ключевые слова: Шекспир, Король Лир, каламбур, лингвопоэтический анализ, перевод, оригинал, омоним, полисемия, антонимия, антитеза, омofорма, фонетические свойства, переводчик, текст оригинала, текст перевода.

Abstract. This article is devoted to the study of the peculiar linguistic and poetic features of the pun in W. Shakespeare's drama "King Lear" and the problems in the difficulties of ways of recreating it in translation. Also, generalization the main directions of the factors of identification in the study of a pun and the problems of translating this stylistic device, some methods of translation are considered, analysis of the translation of a word play from the work of W. Shakespeare are given, the difficulties and basic techniques associated with the transformation of a pun into Russian and Uzbek are studied.

The scientific article studies the structure of puns inherent in the style of W. Shakespeare, the problem of reproducing linguo-poetic aspects of puns built on homonymy, polysemy, antonymy or puns based on antithesis in Uzbek and Russian translations. Also, the problems of reproducing the originality of images, connotations, background, the style of the author or the form and meaning of the author's puns, the phonetic and graphic properties of the original in translation are investigated.

Keywords: Shakespeare, King Lear, pun, linguo-poetic analysis, translation, original, homonym, polysemy, antonymy, antithesis, homoform, phonetic properties, translator, original text, translated text.

Kirish. Kalamburlar qiroli sifatida tan olingan buyuk Shekspir o'z ijodida undan samarali foydalangan va mazkur xususiyat dramaturg asarlarining boqiyiligini ta'minlagan. Ma'lumki, ingliz dramaturgi yaratgan mashhur piesalaridagi kalamburlari ham muallifning kinoyaviy, sarkazm, satirik yoki yumoristik effektlari

kabi o'zining odatiy vazifalarida qatnashgan bo'lsa-da, aslida, Shekspir ijodidagi kalambur vositasi ancha yuksak va rang-barang mavqega ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. U. Shekspir asarlaridagi suhbatdoshlar o'zlarining beparvolik, iltifotsizlik, befarqlik, birovni masxara yoki mazax qilish, piching, istehzo yoki nafrat va boshqa xis tuyg'ularini izhor etadilar. Shekspir qalamiga mansub komediya, tragediyalari va xronikalarining e'tiborli jihati shundaki ulardagi kalamburlarning miqdori ko'pligi jihatidan deyarli teng bo'lib asarlardagi kalamburning vazifasi faqatgina komik lahzalar yaratishdan iborat emas. Masalan, taniqli rus shekspirshunos olimi M.M. Marozovning fikricha "Shekspir asarlardagi kalambur komediya me'yorlaridan ancha oshib ketgan. Xattoki, kalambur fojiaiy nido sifatida ishtirok etishi ham mumkin." [2; el.m.]

Shekspirning so'z semantikasi va nozikliklari sohasidagi bilimlari va mahorati quvvati dramaturgning o'z ijodida kalamburdan ustamonlik bilan foydanishida qo'l kelgan. Aslida, kalambur o'tkir dramaturgning sevimli ishi yoki ijodidagi odatiy holat bo'lib xisoblangan. U. Shekspir asarlaridagi komik qahramonlar va masxarabozlari nutqlaridagi murakkab kalamburlarga to'lib – toshgan va o'zlarining yumoristik hayj qamchisi ila dunyo sahnasi va adabiyotida baralla yangramoqda. Shekspir kalamburi satirik emas balki muloyim kulgini qo'zg'atuvchi yumshoq va yumoristik tabiatga ega. Dramaturg yumorining yana bir e'tiborli xususiyati shundaki unda yuksak odob-ahloq, ma'naviyat qoidalari yoki aqliy afzalliklar alomatlarini sezilmaydi. Ya'ni, Shekspir tutgan ko'zguna o'z aksini ko'rgan auditoriyasi o'z ustidan o'zi kuladi. Shekspir o'z zamondoshlaridan farqli o'z sahna asarlarida odob-ahloq qoidalarini o'rgatmaydi yoki nasixatgo'ylik qilmaydi balki aynan shu yo'l bilan buyuk ijodkor tomoshabinga ma'naviy va estetik ta'sir o'ztakazadi. Shuning uchun Shekspir matnidagi kalamburlar hech vaqt ikkinchi darajali masala yoki tasodifiy xodisa sifatida qaralmagan. Aslida so'z o'yini Shekspir davri uchun xos xususiyat bo'lib dramaturg halq teatri uchun ijod etgan va u yaratga kalamburlar tomoshabin va tinglovchilar e'tiborini tortmay qolmagan. Shuningdek, Shekspir mazkur uslubiy vositasidan asarning asosiy g'oyasini va qahramonlarning o'ziga xosligini namoyon etishda samarali foydalangan. Ingliz muallifi o'z tragediyalarida qo'llagan komediyali sahnalari dramatik pafosni zaiflashtirmagan balki aksincha, dramalarning fojiaiylik motivini va tomoshabinga bo'lgan ta'sirini yanada oshirishga xizmat qilgan. Masalan, Lir bo'ron vaqtida dashtlarda darbadar kezib yurgan vaqtlarida, uni g'am-alam bukib quyganida xam Masxarabozining shiddatli hazil-mutoyibalari qirol fojiasini yanada kuchaytiradi. Demak, Shekspir dramalarida xattoki kulgili holat va komiklik fojiaiylikni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llanilgan. Shekspir komizmidagi ikkilanish hodisasini A.S. Pushkin ham juda chuqur payqagan va unda "...dahshat va qo'rquv kulgi orqali ifodalangan. Hamletning xazillaridan inson tepa sochi tikka turadi" deb e'tirof etgan. [1; el.m.]

O'rganish metodlari. Shekspirning "Qirol Lir" nomli falsafiy tragediyasining birinchi sahnasi davomida qirol bundan buyon saroyida kechayotgan jarayonlarga o'zining dahlsizligi va vafotidan keyin ham farzandlari o'rtasidagi ko'ngilsizliklarning oldini olish niyatida barcha mulkini uchta qizlariga teng taqsimlab bermoqchi ekanligi to'g'risidagi rasmiy bayonotini e'lon qiladi. Shuningdek, ayni paytda Frantsiya qirol va Burgundiya grafi Qirol Lirning kenja qizi Kordeliyaga o'ylanishga da'vogarlik qilayotgan edilar. Saroydagi barcha yumushlar xattoki, qirolning sog'ligi to'g'risidagi tashvishlar ham qizlari zimmasiga yuklatilishi kutilayotgan edi. Ammo taomilga ko'ra avval Qirol Lirning qizlari otasini qanchalik yaxshi ko'rishlarini izohlab berishlari kerak edilar va eng chiroyli maqto'v sohibasiga qirol mulkining yanada kattaroq qismi ajratilishi tayin etilgan edi. Shunga ko'ra Lirning to'ng'ich qizi Gonerilya otasini o'z hayotini sevgandek yaxshi ko'rishi to'g'risidagi gaplari bir-biriga qovushmaydigan bo'lsa-da tilyog'lama nutqini so'zlaydi. Qirolning ikkinchi qizi Regana esa otasiga boshqa qizlaridan ortiq mehr qo'yganligi va uni o'z hayotidan ham ko'proq yaxshi ko'rishi, shuningdek, uni otasining muhabbatigina baxtli qila olishi haqidagi nozik xushomadalarini keltiradi. Ikkiyuzlamachi opalarining bema'ni gaplarini eshitib qirolning uchinchi qizi Kordeliya otasiga bo'lgan muhabbatini quruq xushomadgo'ylikdan ko'ra ustun qo'yadi va tilyog'lamalilik qilishning navbati kelganida "Nothing" (xech narsa) deb javob qaytaradi. Shunda g'azabga kelgan qirol agarda, Kordeliya otasiga bo'lgan muxabbati haqida gapirmasa kenja qizining "nothing" (xech narsa) kabi javobidagi asl mazmuniga muvofiq uni merosdan mahrum etilishi va "xech narsasiz" qolishi mumkinligi to'g'risida ogohlantiradi:

CORDELIA

Nothing, my lord.

KING LEAR

Nothing!

CORDELIA

Nothing.

KING LEAR

Nothing will come of nothing: speak again. [3; el.m.]
(*“King Lear” by W.Shakespeare. Act I. Scene I.*)

Корделия. Ничего, милорд.

Лир. Ничего?

Корделия. Ничего.

Лир

Из ничего не выйдет ничего.

Так объяснись. [5; el.m.]

Лир

...Қандай сўзинг бор?

Корделия

Ҳеч қандай, шохим.

Лир

Ҳеч қандай.

Корделия

Ҳеч қандай.

Лир

Ҳеч қандайдан, ҳеч қандайин нарса чикмайди.

Яхши ўйлаб, сўнгра гапир. [4; 20.]

Asliyat matnida qirol Lir kenja qiziga “Nothing will come of nothing: speak again.” deydi ya'ni, mazkur kontekst “Agarda aqlingni yig‘ib meni quvontiradigan biron narsa demasang senga qirolligimdan umuman hech narsa bermayman, boshqatdan gapir” kabi mazmunga ega. Mazkur gapini Lir asar boshida keltiradi va uning bu izhori tragediyaning asosiy g‘oyasini tashkil etgan. Drama yakunida esa Lir aynan Kordeliyaning mehriga muhtoj ekanligini tushunib yetadi. Qirolning katta qizlari Gonerilya va Regana otasiga bo‘lgan o‘zlarining sohta muxabbatlarini namoish etib Lirni chalg‘ita oladilar va merosho‘rga aylanadilar. Uchinchi qizi Kordeliya esa haqiqatni aytgani sabab saroydan xaydaladi. Bu yerda Kordeliya otasining gaplariga “nothing” deb javob qaytarganida katta opalarining otasiga namoyon etgan xushomadlari ham aslida (“nothing”) ehtirossiz va sohta ekanligini ko‘rsatishga urinadi va dilidagini tilida izhor eta olmasigini aytadi. Opalarining yolg‘on gapirayotganini, va otasiga bo‘lgan mehri nafaqat muhabbat balki farzandlik burchi va vazifalaridan ham iborat ekanligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Evaziga esa Lir qizining “nothing” so‘zini “xech narsa” deb noto‘g‘ri tushunadi va yolg‘on gapirishni hohlamaydigan qiziga davlatidan “xech qanday” meros ajratmaydi.

Yuqorida “Qirol Lir” piasasidan keltirilgan kalamburi “nothing” kabi leksik birligining allitereatsiyasi asosida qurilgan bo‘lib har bir takrorida o‘ziga xos turli implitsit mazmun doirasini qamrab olgan. Kordeliya nutqida qo‘llagan “nothing” so‘zi xolislik, haqqoniyat, beg‘arazlik va betaraflik kabi tushunchalarini ifodalagan. Lirning nutqidagi “nothing” leksik birligida qurilgan alliteratsiyasiga asoslangan kalamburida esa ota emas balki mulozamatni yaxshi qo‘radigan qirollarga xos izzatlablilik kabi ma‘noviy tovlanishlar mujassam etilgan. Ya'ni, mazkur Shekspir kalamburida “haqqoniyat” va “izzatlablilik” bir-biriga qrama-qarshi qo‘yilganligini kuzatishimiz mumkin. Asliyat kalamburi alliteratsiyasi ekspressivlilik vazifasini o‘tagan va mazkur uslubiy vositasida takrorlanib keluvchi “nothing” leksik birligi salbiy konnotatsiyalarga ega bo‘lib nafaqat jarangdorikni oshirgan balki o‘ziga xos pragmatik potentsialida gapiruvchining murakkab ruhiy xolatini yanada yorqinroq aks ettirishga ko‘maklashgan. Ko‘rinib turibdiki asliyat kalamburi o‘zbek va rus o‘girmalarida kalka, konversiya va modulyatsiya kabi tarjama usullari yordamida amalga oshirilgan va “nothing” so‘zining takrorlanishlari ham xuddi manba matni tartibidagi o‘rinlarida qo‘llanilgan.

“Qirol Lir” asari mazkur sahnasi davomida Kordeliyaga kuyovlikka da'vogarlarining biri Burgudiy merosidan mahrum etilgan qizga o‘ylanishdan bosh tortadi. Shunda Lir Frantsiya qirolining Kordeliyaga bo‘lgan munosabati haqida so‘raganda bo‘ljak kuyov otasining bunchalik tez fursatda sevimli qizidan osongina yuz o‘girganidan hayratda qolib bunga arzigulik bir sabab bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Shunda Kordeliya yolg‘ondan xushomad qila olmasligi, unda opalariga o‘xshab tilyog‘lamalik qobiliyatning yo‘qligi kabi xususiyatlar uning yagona ayibi ekanligini va ota mehridan mahrum etilsada bu tabiatini o‘zgartirishga qodir emasligiga iqrar bo‘ladi. Frantsiya qirol buni illat yoki xiyonat sifatida emas balki fazilat deb baholaydi. Lir esa endi Kordeliyadan butunlay yuz o‘girib va uni qaytib ko‘rishni ham xoxlamasligini aytadi. Frantsiya qirol Kordeliyadek soddadil umr yuldoshini o‘zi uchun kashf etilgan sof

xazina deb biladi va Burgundiya gertsogi undan voz kechib qattiq adashganini aytadi. Malikaning to‘g‘ri so‘zligi va faqirligi Frantsiya qirolining Kordeliyaga bo‘lgan hurmatini yanada oshiradi va o‘ylanishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, keyingi Kordeliyaga bag‘ishlagan nutqida bir qator antitezalardagi antonimik juftliklarida qurilgan kalamburni kuzatishimiz mumkin:

KING OF FRANCE

Fairest Cordelia, that art most *rich*, being *poor*;¹
 Most choice, *forsaken*; and most *loved, despised*!
 Thee and thy virtues here I seize upon:
 Be it lawful I *take up* what's *cast away*.²
 Gods, gods! 'tis strange that from their *cold'st neglect*
 My love should *kindle to inflamed respect*.³
 Thy *dowerless daughter*, king, thrown to my chance,
 Is *queen* of us, of ours, and our fair France:⁴
 Not all the dukes of waterish Burgundy
 Can buy this unprized precious maid of me.⁵
 Bid them farewell, Cordelia, though unkind:
 Thou *losest here*, a better *where to find*.⁶
 (“King Lear” by W.Shakespeare. Act I. Scene I.) [3; el.m.]

Король Французский

Корделия, лишённая наследства,
 Твое *богатство* — в *бедности* твоей.¹
Отверженная, я *завладеваю*
 Тобой, мечта и драгоценный клад,
 Как *подбирают брошенные* вещи.²
 О боги, боги, в этом *униженье*
 Я лишь *люблю* её *неизреченной*.³
Приданого лишённая пристрастно,
Будь королевой Франции прекрасной.⁴
 Я этот перл бургундским господам
 За многоводный край их не отдам.⁵
 Корделия, *простись* с двором суровым.
 Ты лучший мир *найдешь* под новым кровом.⁶ [5; el.m.]
 (qo‘shish¹, ma‘noviy rivoj^{1,2,5,6}, konversiya^{1,2,5}, yahlit o‘zgartirish^{3,4})

Француз кироли:

Камбагаллик билан *бойсан*, жононгинасан,¹
 Ҳамма сени *ташлаганда*, *яна қимматсан*,
 Назарлардан тушиш билан дидимга ёқдинг,
 Мен оламан сени бутун борлигинг билан,
 Ҳамма *четга улоқтирди*, *эгаллаш* ҳақим.²
 Ё тавбайи! Шу умумий *ҳазарнинг* ўзи
 Унга бўлган *ишқим ўтин алангалатди*.³
 (Қирол Лирга)
 Сен кизингни шундай ожиз, *гадо* ҳолида
 Улоқтирдинг менинг меҳру шафқатларимга.
 Франция каби кўркама – гўзал ўлкада
 Менинг севган *қироличам* бўлиб қолади.⁴
 Туман босган Бурганддаги бутун герцоглар
 Энди менинг жононимни сотиб ололмас.⁵
 Сен буларнинг муз қалбига “хайру хўш” деб қўй.
 Гарчанд *бунда йўқотибсан*, *унда мукофот*.⁶ [4; 22.]
 (generalizatsiya^{1,4}, tushirib qoldirish^{2,3}, qo‘shish², modulyatsiya^{2,5,6}, neytralizatsiya³, funktsional nomutanosblik⁴)

U. Shekspir o'zining mazkur dramasi qo'llagan aksariyat antiteza juftliklari ham hayotiy mavzular, shuningdek, tematik va maishiy xarakterga ega bo'lganligini kuzatishimiz mumkin: hech narsa va biror nima, sevgi va nafrat, yangi va eski, boy va kambag'al, tahqirlamoq va hurmat qilmoq, surgun qilingan va qabul qilingan va h.k... Xususan, yuqorida "Qirol Lir" tragediyasidan misol sifatida olingan Frantsiya qiroli nutqining so'zma-so'z tarjimasini va asliyatda qo'llanilgan antonimik juftliklarini keltiramiz:

Go'zal Kordeliya – faqir bo'lib sen eng badavlatga aylanding (poor - most rich); tahqirlanib sen yanada qadr topding; nafratga uchrab eng sevilganga aylanding (most loved - despised); agarda boshqa kimsa tomonidan irg'itib yuborilgan narsani o'zlashtirish mumkin bo'lsa (g'ayriqonuniy bo'lmasa) (cast away- take up) men darhol seni va sening fazilatlarini qabul qilib olishga tayyorman; E Xudo! Ishonish qiyin, lekin ular qanchalik sovuq beparvolik bilan seni xo'rlaganlari sari shunchalik menda muxabbat olovini yoqib senga bo'lgan hurmatimni oshirmoqda (cold'st neglect - kindle to inflamed respect); Qirol, sen yuz o'girgan va nogaxon mening nasibamga bexosdan tashlab qo'ygan sepsiz qizing endi, yuragimning va Frantsiyaning Qirolichasidir (dowerless daughter- queen); Xech qaysi Burgundiya grafi bu bebaho va qimmatli qizni mendan tortib ololmaydi. Kordeliya, seni tahqirlaganlari uchun ular bilan hayirlash. Boshqa yerda baxtliroq hayot topish uchun bu yerdagi turmushingni unut (losest here - a better where to find). (J. Mizrabova)

Asarda Gonerilya va Regana noinsof vijdotsizligi tufayli otasining davlatini qo'lga kiritgan bo'lsa Kordeliya esa o'zining soddadil to'g'riso'zligi ila sof muhabbat va hurmatga sazovor bo'ladi. Kordeliya qirolikdagi merosidan kechib o'rnini hech narsa bosolmaydigan chin muhabbat, halollik, poklik va vijdon kabi yuksak insoniy fazilatlar sohibasi ekanligini ko'rsata oldi. "Qirol Lir" tragediyasida ham Frantsiya qiroli Kordeliga bag'ishlagan nutqida insonning qadr-qimmatini moddiy dunyo emas balki uning ma'naviy boyligi belgilashini ta'kidlaydi. Asliyatda keltirilganidek Shekspir Frantsiya qirolining davomiy nutqi jarayonidagi antiteza kabi uslubiy vositasi majmuida bir qator antonimik juftliklarni sochma tarzda qo'llaydi va kitobxon tassavurida yahlit Kordeliya obrazini gavdalatirishga muvaffaq bo'ladi.

1. Fairest Cordelia, that art most rich, being poor;

Asliyat matnidan keltirilgan mazkur anitezasida "rich" va "poor" tushunchalari qarama-qarshi qo'yilgan bo'lib bunda Frantsiya qiroli Kordeliya taqdirning g'alati tasodifiga kinoya qilayapti va bo'lajak qallig'i faqir bo'lsa-da uning ma'naviy yetukligi qiroлга barcha tuyg'ulardan ustun turuvchi qalb shodligini big'ishlaganini aytadi.

2. and most loved, despised! Thee and thy virtues here I seize upon:

Yuqoridagi U. Shekspirning antitezasida ellipsis tarzida yaratilgan bo'lib "loved" va "despised" ya'ni, "sevgi" va "nafrat" tushunchalari qarama-qarshi quyilgan. Bu yerda Frantsiya qiroli otasi yuz o'girgan va va oilasi nafratiga uchragan Kordeliyani sevishini izhor etadi. Mazkur misolda ham drama janriga xos fojiaiviylikni belgilovchi oilaviy konflikt aks ettirilgan.

3. ... 'tis strange that from their cold'st neglect

My love should kindle to inflamed respect.

Mazkur antiteza usulida keltirilgan misolida ham Kordeliya yaqinlarining "sovuq beparvoligi" va Frantsiya qirolining "alangali sevgisi va hurmati" kabi epitetlari bir-birlariga qarama-qarshi qo'yilgan va asliyatda keltirilgan ma'lum vaziyati muhitidagi xis-xayajonlar teranligini izohlashga ko'maklashgan. Shuningdek, misolda keltirilgan kontrast tushunchalari asardagi konflikt va fojiaiviylikni ifodalagan. Ya'ni, asliyatda qatnashgan ziddiyatli tushunchalar asardagi Lir oilasining parokandalikka uchrashi va oqibatda dramaning fojiaiviy yakun topishini anglatmoqda.

4. Thy *dowerless daughter*, king, thrown to my chance,

Is *queen* of us, of ours, and our fair France:

Mazkur antitezada ham "dowerless daughter" va "queen" kabi kontrastida Lir qiroл bo'la turib o'zi tushunmagan holda baxtiga yozilgan toleidan voz kechib qizini sepsiz qoldirgan va Kordeliya taqdir tasodifi bilan behosdan Frantsiya qirolichasiga va o'sha mamlakat hukumdorining sevgilisiga aylanganini kuzatib Frantsiya qiroli o'zining istehzosini keltiradi.

5. Thou *losest here*, a better *where to find*.

Bu antitezasida ham Frantsiya qiroli "losest here" va "where to find" kabi kontrastlari orqali Kordeliyani otasining uyini hech afsuslanmay baxtli hayot sari turmush o'rtog'ining xonadoniga borishi kerakligini aytadi.

U. Shekspirning "Qirol Lir" nomli dramasi keltirilgan Kordeliyaga bag'ishlagan Frantsiya qiroli nutqining o'zbek va rus tarjimalarida asliyatda antitezalarda asoslangan kalamburidagi obrazlar kontrastlari

ham o'ziga xos tarjima usullari yordamida aks ettirilgan, shuningdek leksik birliklarining ma'noviy belgilari va uslubiy bo'yodkorligi asrab qolinganligini kuzatishimiz mumkin.

“QiroL Lir” asari davomidagi Frantsiya qirolining qizg'in nutqidan so'ng Kordeliya Regana va Gonerilyalarning qanchalik yovuz va vijdotsiz yolg'onchi ekanliklarini bilsada ular bilan istar-istamas noilojlikdan arang hayirlashib o'z opalaridan otasiga yaxshi qarab g'amho'rlik qilishlarini iltimos qiladi. Shunda yuzsiz opalari Kordeliyaiga, ularga aql o'rgatgandan ko'ra singlisiga achinganidan o'ylanayotgan kuyovning ko'nglini olishining tashvishini qilishni aytib uni masxara qiladilar. Regana va Gonerilya Kordeliyaning itoatsizligi va tersligi uning sepsiz kelin sifatida quvg'in eutilishga va undan yuz o'girishga arziydigan sabab deb biladilar. Kordeliya esa vijdotsiz opalrining fitnalari vaqti kelib baribir fosh bo'lishini aytib ular bilan hayirlashadi:

REGAN

Prescribe not us our duties.

GONERIL

Let your study

Be to content your lord, who hath received you

At fortune's alms. You have obedience scanted,

And well are worth *the want* that you *have wanted*. [3; el.m.]

(“King Lear” by W.Shakespeare. Act I. Scene I)

Регана

Просим не учить.

Гонерилья

Учись сама, как угождать супругу,

Который взял из милости тебя.

За спор с отцом судьба тебя с годами

В замужестве накажет неладами. [5; el. M.]

Asliyatda U. Shekspiring ohongdoshlik qolibiga solingan “the want that you have wanted” kabi omonimlarining alliteratsiyasida qurilgan juda murakkab kalamburi kelitirilgan. Shuningdek, Shekspir matnida qatnashgan kalamburining so'zma-so'z tarjimasini keltiramiz:

“You have obedience scanted, And well are worth the want that you have wanted.”

“Sen otamizga itoatkor farzand bo'la olmading, va o'zingda seva olish hissiyotining bo'lmaganligi (tanqisligi, yetishmovchiligi) sabab sevilish huquqidan mahrum etilishga arziysan (mahkumsan).

Ya'ni, Gonerilya nutqidagi kalamburida - otamizga qanday muddao bilan nomunosib mehr ko'rsatgan bo'lsang turmush o'rtog'ingdan ham xuddi shunday tarzidagi nomaqbul muhabbat olishga arziysan yoki, sen otangni sevilishga qodir emas ekansan shuning uchun sevilishga ham arzimaysan yohud qilmishiga ko'ra jazo olasan kabi mazmunlari faollashgan.

Demak, asliyat kalamburida birinchi o'rinda kelgan “the want” seva olish hissiyotining bo'lmaganligi (tanqisligi, yetishmovchiligi) kabi mazmuniga keyingi omonim esa “have wanted” sevilish huquqidan mahrum etilishga arziysan (mahkumsan) kabi implitsit va g'ayrilisoniy mazmunlar qarama-qarshi qo'yilgan.

O'zbek va rus tarjimalarida asliyat matnida keltirilgan mazkur omonimik so'zlarning aniq semantik tuzilishini qayta yaratish imkonsizdek tuyuladi shuning uchun mutarjim asliyatning mazmunini asrab qolish maqsadida U.Shekspir kalamburini boshqa badiiy vositalar yoki yangi asoslarda qayta yaratishga majburdirlar. Misolimizdagi kalambur tarjimasida asliyat shakli shuningdek, ham fonetik ham grafik xususiyatlari o'zgartirilgan ya'ni yahlit o'zgartirish o'girma usulida tarjima etilgan bo'lsada tarjimon Shekspir kalamburi mazmunini kitobxonga yetkaza olgan.

Asar davomida Gonerilya o'z xokimiyatidagi ishlar ko'ngildagidek ketmayotgan bir davrda qorovul yoniga yetib kelganda masharaboziga qo'pol munosabat ko'rsatganligi uchun shundoq ham saroyda nomaqbul mehmon bo'lgan Lir tomonidan soqchilaridan birini qattiq savalaganini eshitib malikaning xunobi buziladi. Gonerilya xizmatkori Osvaldga otasi ovdan qaytganida uni kutib olmasligi va qiroLga biroz qattiqqo'llik qilib Lirning nozik masalani anglashi va iste'foga chiqqanligini eslatib qo'ymoqchi bo'ladi. Osvald ovdan kaytayotgan qiroL va askarlarning ovozlari eshitganini aytiganida Gonerilya hizmatkorlariga otasining kirib kelishida Lirga mutlaq etiborsiz bo'lishi va unga iltifotlar ko'rsatmasligi buyuradi. Shuningdek, agarda Lir bu yerdagi sharoitlardan mamnun bo'lmasa Regananing saroyiga ketishi mumkinligi va qiroLning ikkinchi qizi ham avvalgidek otasining ahmoqona injiqliklariga toqat qilmasligiga amin ekanligini aytadi. Keyingi gapida ham Gonerilya, qariganda odam yana yosh bolaga aylanishi va otasini

tartibga chaqirish har bolani boshqarishdek oson vazifa ekanligini aytganda nutqida kinoyaviy antonimik munosabatlari, shuningdek, “used” va “abused” kabi soʻz oʻyinida qurilgan kalamburini keltiradi:

GONERIL

Idle old man,
That still would manage those authorities
That he hath given away! Now, by my life,
Old fools are babes again;¹ and must **be used**
With cheques² as flatteries,--when they are seen **abused.**³
Remember what I tell you. [3; el.m.]
(William Shakespeare King Lear, Act I, Scene 3.)

Гонерилья

Сам отдал власть, а хочет управлять
По-прежнему! Нет, **старики — как дети,**¹
И требуется строгости урок,²
Когда добро и ласка им не впрок.³
Запомни это. [5; el.m.]
(generalizatsiya¹, neytralizatsiya¹, modulyatsiya^{2,3}, funktsional nomutanoslik³)

Гонерилья

....
Кексалар ҳам бола феъл бўлиб қолади.¹
Дағдаға ҳам қилиш керак² эркалаб туриб,³
Бу даврда ўзларига фойда қилади.⁴
Буйруғимни ёдингда тут. [4; 36.]

(generalizatsiya^{1,2,3}, neytralizatsiy^{1,2,3}, modulyatsiya^{2,3}, qoʻshish⁴)

Asliyatdan misol sifatida keltirilgan Gonerilya nutqining soʻzma-soʻz tarjimasini keltiraimz:

Oʻsha esi yuq chol, allaqachon oʻz ihtiyori bilan topshirgan xuquqiga hali ham egalik qilaman deb oʻylayapti! Hayotim bilan ont ichamanki, esi past chollar qaytadan yosh bolaga aylanadilar, va sizlar xushomad qilishning oʻrniga ularni tartibga chaqiring – ayniqsa ular roʻyirost toʻpolon qilganlarida. Mening gaplarimni unutma. (J.Mizrabova)

Sal oldin xokimiyatga erishmoqlik uchun Lirga tilyogʻlamalik qilib turgan Gonerilya endi niyati amalga oshganida otasi unga malol kelgan va qirolning hali ham oʻzini xukumdordek tutishi malikaning asabiga tegayotgan edi. Gonerilʼya qirolning adabini berish uchun otasini barcha xushomadlardan mahrum etib endi zamonlar oʻzgarganini oʻqtirmoqchi boʻladi. Asliyatdan keltirilgan misoldagi:

Old fools are babes again; and must be used

With **cheques as flatteries**, - when they are seen **abused.**

Bu yerda “used” soʻzi “muomala qilmoq, murojaat etmoq, davolamoq”, “checks” leksik birligi esa “jilov, yugan, jilovda yoki itoatda tutmoq, qattiqqoʻllik qilmoq, tanbeh, koyish” va “abused” birligi “qattiq taʼsiriga tushmoq, suiisteʼmol qilmoq” kabi mazmunlarga ega. Yaʼni, yuqorida misol sifatida keltirilgan asliyat kalamburida “qari odamlar xushomadlar taʼsiriga tushganlarida (suiisteʼmol qilganlarida) ularga darhol tanbeh berish, qattiqqoʻllik qilib koyish va jilovda tutmoq lozim” kabi mazmun kelib chiqadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan rus tarjimasida asliyat kalamburi konteksti zaminidagi “flatteries” soʻzining - “xushomad, tilyogʻlama maqtov, xom hayollarga berilish” kabi mazmunlari faollashgan boʻlib B.Pasternak oʻgirmasida mazkur maʼnolar “dobro i laska” kabilarga almashtirilgan. U.Shekspir asarida ham Lir kenja qizi Kordeliyaning “asl mehr va muhabbati” emas, balki aynan Gonerilya va Reganalarning “yolgʻon xushomadlari” taʼsiriga tushib xom hayollarga berilgan. “Qirol Lir” dramasida Gonerilya va Regana munofiq va ikkiyuzlamachi xarakterlari sifatida gavdalanganlar shuningdek, hayot sahnasidagi juda yaxshi aktyorlar boʻlib otasining mulkiga erishmoqlik maqsadida “mehrison” farzandlar rolini mahorat ila ijro eta olganlar. Asliyat kalamburida ham “esi yoʻq, ahmoq chol – yosh bola” ga qarama-qarshi qoʻyilgan va bu kabi qiyoslanishlar Lirning xarakteri va uning ichki dunyosining ziddiyatini belgilab bermoqda va fojiviy konflikt boshi ham aynan sohta xushomadlarga ruju qoʻgan qirolning oʻzida, uning tabiatidadir.

Oʻzbek tarjimasida ham mutarjim ehtiyotkorlik bilan koʻproq generalizatsiya va neytralizatsiya oʻgirma usulidan foydalangan va muallif kalamburidagi kinoyaviy taʼsirini asrab qolishga intilgan.

“Qirol Lir” asari davomida Lir oʻz xatosini anglab yetadi va jahl ustida Kordeliyaga qattiq nohaqlik qilganini tushunadi. Endi hoʻrlangan qirolga Gonerilya va Reganing otasiga boʻlgan munosabati oldida

Kordeliyaning iqrori arziyasini bir ayib bo'lib ko'rinadi. Albaniy Gonerilya va otasi o'rtasidagi janjal ustiga kelib qoladi. Qirol Lir Gonerilyaning otasini behurmat qilib ho'rflashiga toqat qila olmay xudodan noqobil qiziga ham huddi o'ziday farzand ato etishini so'rab la'natlar o'qib uni qarg'aydi. G'azablangan Lir Reganing saroyiga ketishini aytib u yerda qirolga munosib hurmat topishiga ishonadi. Ammo Gonerilya qirol qizlariga qarshi xujum uyushtirishi mumkinligi ehtimolidan qo'rqib singlisi bilan birgalikda otasiga qarshi til biriktirib ish ko'rishlari lozim ekanligi va ogoh bo'lishga chaqiruvchi xat yozib yuboradi. Turmush o'rtog'i Gonerilyaning bunday harakatlarini ko'rib Albaniy malikaning oshirib yuborganligi va bunchalik vahimaga o'rin yo'q ekanligini tushuntirishga urinadi. Ularning suhbatida chog'ida "fear" so'zi polisemiyasi va mazkur birlik bilan bir qatorda "fear too far" hamda "trust too far" kabi antonimik alliteratsiyasi qo'llanilgan Shekspir kalamburini kuzatishimiz mumkin:

ALBANY

Well, you may *fear too far*.¹

GONERIL

Safer than *trust too far*:²

Let me still take away the harms I **fear**,

Not **fear** still to be taken: I know his heart.

What he hath utter'd I have writ my sister... [3; el.m.]

(*William Shakespeare King Lear, Act 1, Scene 4.*)

Герцог Альбанский

Мне кажется, твой *страх*

Преувеличен.¹

Гонерилья

Лучше *опасаться*

Без меры, чем без меры доверять.²

От *бед* спасает только *осторожность*.³

Я знаю слишком хорошо отца

И о его словах пишу Регане. [5; el.m.]

(generalizatsiya¹, qo'shish², yahlit o'zgartirish^{2,3})

Альбаний

Сенинг мунча *кўркувларинг* ўринсиз.¹

Гонерилья

Ўта лақма бўлганлқдан шу яхши,²

Таҳликанинг олдин олиб қўйишлик

Хавф ичида яшандан маъкулроқ³

Мен отамнинг одатларин биламан.

Айтганларни синглимга хатда ёздим... [4; 38.]

(modulyatsiya^{1,2,3}, generalizatsiya^{2,3})

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolning so'zma-so'z tarjimasini keltiramiz:

Albaniy.

Bu xususda bunchalik havotirlanishning(asabiylashish) ortiqchadir balki.

Goneril'ya.

Bu masalada ortiqcha ishonchdan ko'ra yanada ortiqcha havotir havfsizroqdir. Biron bir zarar yetishini kutib turmasdan menga xavf tug'diradigan barcha narsalardan ogoh bo'lishim kerak. (J.Mizrabova)

Ko'rinib turibdiki asliyat kalamburida qatnashgan "fear" kabi polisemik birligining "havotirlanish", "asabiylashish", "havotir", "zarar", "havf" kabi okkazonal mazmunlari faollashgan. Ya'ni, asliyatning kinoyaviy ta'sirini oshirish maqsadida kalamburdagi "fear" so'zining lug'aviy uzusi doirasidan tashqari mazkur leksik birligining yangi mazmuniy imkoniyatlarini yuzaga chiqirishga qulay kontekst sharoiti yaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Asliyatdagi kalamburining kompozitsion holati ham "fear" so'zining takrorlanishi shuningdek, bir- biriga qaramaqarshi qo'yilgan "trust" va "fear" tushunchalari va alliteratsiya kabi uslubiy vositalarida qurilgan. Keltirilgan misolda ko'rinib turibdiki, Shekspir kalamburining tarkibidagi alliteratsiyasi Albaniy nutqida boshlanib Gonerilya nutqida yakun topgan. B.Pasternak tarjimasida ham

asliyat matnidagi alliteratsiya faqatgina Gonerilya nutqida rus tiliga xos yangi soʻz oʻyinini yaʼni, xiazm shaklida kompensatsiya qilgan “Лучше *опасаться*

Без меры, чем без меры доверять” va muallif niyati kitobxonga yetkazilgan. Gʻ.Gʻulom tarjimasida esa Shekspir alliteratsiyasi koʻrinmay qolgan shuningdek, oʻzbek mutarjimi oʻz tarjimasida asliyat kalamburini nokalambur shaklida yaʼni vositaning mazmunini asrab qolgan holda qayta yaratgan.

Toʻgʻri, yuqorida misol sifatida keltirilgan asliyat kalamburi yadrosi “fear” kabi birligining polisemik xususiyatlarida qurilgan boʻlib mazkur soʻz aksariyat tillarida oʻzining leksik parallellariga ega va uni tarjimada qayta yaratish osondek tuyulishi mumkin. Ammo kalambur tarjimasini amaliyotida asliyatning mazmuni va shaklini birdek asrab qolish juda mushkul vazifa baʼzida imkonsiz ham. Chunki, asliyat soʻz oʻyinida qatnashgan birliklari tarjima tilidagi birliklarining ekvivalentlik munosabatlaridagi mazmuniy doiralari qamrovi bir-biridan farq qilishi mumkin. Hususan, turli tillardagi ekvivalent birliklari oʻrtasida baʼzida beihitoyor favqulotda bilinar bilinmas yaʼni, maʼlum bir leksik birliklarning tildagi qoʻllanilishi darajasi, uslubiy yoki emotsional boʻyoqdorligi, ularga xos sinonimlar va antonimlari doirasi, etimologiyasi yohud soʻz yasashdani imkoniyatlaridagi tafovutlari kuzatilishi mumkin. Shuningdek, kalambur oʻgirmasida ham baʼzida ahamiyatsiz boʻlib koʻringan mazkur ixtiloflar asliyatdagi soʻz oʻyining tarjima tilida toʻlaqonli qayta yaratishda toʻsqinlik qiladi. Agarda mutarjim oʻz oʻgirmasini kalamburining faqatgina mazmuni doirasidagi soʻz shakllari satxida amalga oshirsa unda asliyatdagi soʻz oʻyini gʻoyib boʻlishi va muallifning (kinoya, hazil, istehzo yoki grotesk kabilari) maqsadiga putur yetishi tabiiy hol. Demak, tarjimada Shekspirning qoʻpol hazilini nafis kinoya yoki oʻtkir zakovatini bachkana yoki oʻrinsiz hazil bilan almashtirish joiz etilmaydi. Shuningdek, agarda maʼlum bir asar muallifi kalamburidagi xulosaviy izohini taʼsirini oshirishni maqsad qilgan boʻlsa mutarjim ham oʻz oʻgirmasida soʻz oʻyini vositasida boʻlmasa-da xuddi shu omilga tayanishi maqsadga muvofiq. Asliyatdagi kalamburning shakli va mazmunini tarjima tilida ham birdek qayta yaratishning imkoni topilmasa mutarjim oʻz tarjimasida vositaning nokalambur shakli bilan chegaralanishga majbur boʻladi. Masalan, bunday holatlarda kompensatsiya, maʼnoviy rivoj yoki boshqa tarjima usullarini qoʻllash imkoniyati qoʻl keladi. Ammo, mazkur oʻgirma amaliyotida asliyat vositaining maʼlum bir xususiyatlarining barham topishiga sabab boʻlishi tabiiy hol.

Yuqorida Shekspirning “Qirol Lir” nomli mashhur piesasidan keltirilgan misolining davomida vahimaga tushgan Gonerilya Reganaga joʻnayotgan xatni Osvaldga berayotib uni bu vazifaga qattiq maʼsuliyat bilan yondashishini va tezda qaytib kelishini buyuradi. Shunda Albani Gonerilyani shunday deb ogohlantiradi:

ALBANY

How far your eyes may pierce I can not tell:
Striving to better, oft we *mar what's well*. [3; el. m.]
(William Shakespeare King Lear, Act 1, Scene 4.)

Герцог Альбанский

Зато вы бьете в цель неумолимо.
Смотрите лишь, не попадите мимо. [5; el. m.]
(yahlit oʻzgartirish)

ALBANY

How far your eyes may pierce I can not tell:¹
Striving to better, oft we mar what's well.²

Альбани

Мен билмадим: сен узокни ўйлагандирсан,¹
Лекин баъзан холис хизмат қилмоқчи бўлиб,
Яхши ишнинг чатоғини чиқариш мумкин.² [4; 56.]
(modulyatsiya¹, kompensatsiya²)

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolda Albani “Striving to better, oft we mar what's well.” deganida Gonerilyaning bezovta boʻlayotganini koʻrib “Shundoq ham tuzuk (yaxshi) turgan narsani tuzataman (yaxshiroq qilaman) deb badtar uni buzib qoʻyima” mazmunidagi “to better” (yaxshilashga intilmoq, tuzatmoq) va “mar what's well” (yaxshi, tuzuk, durust narsani buzmoq) kabi kontrastlarida qurilgan kalamburida oʻzining kesatik tarzidagi kinoyasini keltiradi. Bu yerda Albani Lirning qirolligi va oilasi parokandalikka yuz tutayotganini payqab Gonerilyani agarda u otasiga qarshi fitnalarini davom ettiraversa qoʻl ostidagi bor bisotidan ajrailib qolishiga oʻzi sabachi boʻlib qolishi mumkinligi toʻgʻrisida ogohlantiradi.

Ko'rinib turibdiki, Shekspirning mazkur kalamburi tarjimasida o'zbek va rus mutarjumlari yahlit o'zgartirish, kompensatsiya yoki modulyatsiya o'girma usullaridan foydalanganlar. Aslida, ingliz dramalari kalamburning rus tarjimasida amaliyotida uslubiy vositaning tarkibidagi kinoya tarzidagi o'zaro kontrast tushunchalarini yoki fonologik semantikasini ifodalashda umumiy pragma-madaniy izohlarining keng qo'llanilishi kabi intilishlari kuzatiladi. Shuningdek, B.Pasternak ham o'z tarjimasida rus tiliga xos o'rinlarda asliyat kalamburini yahlit semantik o'zgartirish o'girmasi tarzida almashtirgan. Asliyat kalamburining vazifaviy ma'lumoti konkret moddiy-mantiqiy mazmunidan ustun bo'lganida mazkur tarjima usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ya'ni, rus mutarjimi asliyat kalamburining stimulyatori "to better" (yaxshilashga intilmoq, tuzatmoq) va "mar what's well" (yaxshi, tuzuk, durust narsani buzmoq) kabi xulosaviy qismini o'z o'girmasida ham "бить в цельнеутомимо" va "попасть мимо" deb almashtirgan. Ko'rinib turibdiki boshqa so'z o'yini qo'llanilgan bo'lsa-da asliyat vositasining kionyaviy va kesatik tarzidagi ta'siri hamda mazmuni asrab qolingani. Shuningdek, mutarjim kitobxon tasavvurida Gonerilyaning groteskli figurasini shakllantirishga muvaffaq bo'lgan.

Yuqorida asliyatdan keltirilgan Shekspir kalamburini o'zbek mutarjimi nokalambur shaklda ya'ni, modulyatsiya (ma'noviy rivoj) tarjima usulida o'girman va o'z tarjimasida asar muallifi vositasining mazmunini aks ettirgan bo'lsa-da Shekspir ko'zlagan maqsadi boy berilgan. Chunki, har bir ijodkor o'z asarlarida ma'lum bir maqsadni ko'zlab kalambur kabi uslubiy vositasini qo'llaydi. Mazkur tahlilga tortilgan kalamburida ham dramaturg kitobxon e'tiborini tortish maqsadida Albani nutqida uslubiy vositasi xususiyatlariga xos kontrastlarda qurilgan kesatik tarzidagi kinoyasini ifodalaydi.

Xulosa. Demak, kalambur kabi uslubiy vositasini o'girmada qayta voqelantirish juda murakkab vazifadir chunki unda adekvatlik, kinoya, istehzo, shakl va mazmun shuningdek, xamohanglik kabi omillarni asrab qolish talab etiladi. Ba'zida, kalambur o'girmasi amaliyoti sohasida tarjima transformatsiyalari ish bermasligi ehtimolidan ham holi emas, chunki har bir kalambur o'ziga xos alohida murakkab san'at asaridir.

Darhaqiqat, kalambur tarjimasida amaliyotida ba'zida yengib bo'lmas bo'lib ko'ringan to'siqlarga qaramasdan asliyat matnining ta'siri, undagi implitsit ma'nolar, polisemik, omonimik va antonimik xususiyatlarni o'z tarjimalarida qayta yaratishga harakat qilganlar. Modomiki, ishimizda tahliliga tortilgan yumorga boy tarjimalaridagi so'z o'yinlari o'ziga kitobxon e'tiborini jalb eta olgan ekan ularni stilistik jihatdan o'xshash deb ayta olamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Сковородников А.П. *Игра как приём текстопорождения*. Красноярск: Мир. 2010. 341 с.
2. <http://svr-lit.ru/svr-lit/articles/morozov/yazyk-i-stil-shekspira.htm>
3. <https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/king-lear/entire-play/>
4. Shekspir V. *Tanlangan asarlar*. Besh jildlik. *Qiroli Lir / Rus tilidan G'afur G'ulom tarjimasida*. 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.– 472. b.
5. <https://predanie.ru/book/218131-korol-lir-per-boris-leonidovich-pasternak/>
6. Ахмедова Ш.Н. Саид Аҳмад ҳажвиётда бадиий маҳорат. *Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.* – Тошкент, 1994. – 134 б.

ПРОБЛЕМА СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РОМАНАХ ДЖОЙС КЭРОЛ ОУТС
“МАТЬ, ПРОПАВШАЯ БЕЗ ВЕСТИ” И “МЫ БЫЛИ МАЛВЭНАМИ”

*Эльманова Мастура,
Бухарский государственный университет,
старший преподаватель
elmanovamastura44gmail.com*

Аннотация. В статье рассматривается проблема и роль традиционных семейных ценностей. Основное внимание в этих двух романах уделяется концепции нуклеарной семьи и роли традиционных семейных ценностей. Семейная ячейка стала символом безопасности и возврата к традиционным гендерным ролям. В отличие от периода военного времени, когда женщины выполняли обычную для мужчин работу, в послевоенное время поощрялось представление о том, что мужчины должны быть основными кормильцами, а женщины должны проводить своё время, занимаясь домашним хозяйством и направляя свою энергию на воспитание детей.

Ключевые слова: отношения между семьями, семейные ценности, окружающий мир, женский выбор, идеальная гармония.

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'anaviy oilaviy qadriyatlar muammosi va roli haqida so'z boradi. Ushbu ikki romanda asosiy e'tibor kichik oila tushunchasi va an'anaviy oila qadriyatlarining roliga qaratilgan xavfsizlik va an'anaviy ayol va erkak vazifalarining teng taqsimlanishi oila birligi sifatida xizmat qiladi. Urushdan oldingi davrdan farqli o'laroq, ayollar erkaklarning ishiga kirishgan bo'lsa, urushdan keyingi davrda erkaklar asosiy boquvchi bo'lib, ayollar esa uy yumushlariga vaqt ajratishi, kuch-g'ayratini farzand tarbiyasiga yo'naltirishlari kerak degan tushunchani rag'batlantirdi.

Kalit so'zlar: oilalar o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, atrofdagi dunyo, ayollar tanlovi, mukammal munosabat.

Abstract. The article deals with the problem and the role of traditional family values. The focus of these two novels is on the concept of the nuclear family and the role of traditional family values. The family unit has become a symbol of security and a return to traditional gender roles. In contrast to the wartime period, when women took on men's jobs, the post-war era encouraged the notion that men should be the main breadwinners and that women should spend their time doing housework and devoting their energy to raising children.

Keywords: relations between families, family values, the surrounding world, women's choice, perfect harmony.

Введение. Семья занимает центральное место в художественной литературе Оутс: семейные ценности, женские и мужские роли в семье, а также отношения между семьями и сообществами. Романы посвящены жизни американских семей во второй половине XX века. В романе «Мы были Малвэнами» Оутс использует воспоминания, чтобы охватить период между 1950-ми и 1993 годами; «Мать, пропавшая без вести» начинается в 1960 году и продолжается до 2004-х годов; Хотя Оутс весьма придирчива к датам и периодам и показывает, как на семьи влияет время, в котором они живут, внешний мир, и редко разрешается вторгаться в её вымышленную обстановку. Основное внимание в этих двух романах уделяется концепции нуклеарной семьи и роли традиционных семейных ценностей. Семейная ячейка стала символом безопасности и возврата к традиционным гендерным ролям. В отличие от периода военного времени, когда женщины выполняли обычную для мужчин работу, в послевоенное время поощрялось представление о том, что мужчины должны быть основными кормильцами, а женщины должны проводить своё время, занимаясь домашним хозяйством и направляя свою энергию на воспитание детей.

Степень изученности. В 1950-х годах большинство американских домохозяйств можно было определить как «современные семейные домохозяйства», в которых муж был добытчиком, а жена вела домашнее хозяйство и заботилась о детях. Из-за послевоенного экономического бума большое количество семей американского рабочего класса могли позволить себе переехать в пригород и

соответствовать знаменитой норме нуклеарной семьи. В то время как 1960-е годы принесли едва заметные культурные сдвиги, настоящая культурная революция произошла в 1970-х. В конце этого десятилетия, по словам Даниэля Янkelовича, «72% американцев были поглощены «поиском себя», что означало, что они пытались улучшить своё существование и получить от жизни больше, чем просто экономическая выгода. Жёсткие нормы семейной жизни, господствовавшие в 1950-х и 1960-х годах, были заменены свободой выбора: жениться или жить вместе; рано завести детей или отложить их, может быть, навсегда; выйти из туалета или остаться внутри; сохранить старую работу или вернуться в школу; брать на себя обязательства или болтаться без дела; менять профессию, супруга, дом, место жительства, состояние души».

В 2000 году примерно равное количество домохозяйств состояло из нуклеарных семей, одиноких и супружеских пар без детей, «каждое из которых составляло 25-30% населения. Ввиду многообразия типов семьи социологи предлагают термин «постмодернистская семья», в которую входят семьи с одним родителем бездетные пары. Эти изменения в американской нуклеарной семье, были вызваны феминизмом. Как только женщины «стали более независимыми в более широком обществе, женщины стали неохотно идти на невыгодные сделки, они избегали ранних браков и деторождения и быстрее добивались или соглашались на развод.

Анализ и результаты. Оутс обращается к женским проблемам и часто исследует и тщательно описывает их в своих романах, но её женщины не являются сознательными феминистками, вместо этого они склонны быть довольно пассивными и покорными. Оутс стремится продемонстрировать, что американская семья 1950-х годов не всегда была так счастлива, как утверждалось, и что выбор, сделанный в семье, был недалёковидным и импульсивным. Её романы подразумевают, что идеал семьи и понятие «семейные ценности» оторваны от реальности американской жизни и что другие типы семей фактически существовали всегда. В романе «Мы были Малвэнами» муж Майкл Малвэни оскорбляет и в конце концов бросает свою жену Коринн. Между тем в «Пропавшей матери» идеальная жена и мать, Гвен Итон, оказывается вовсе не той счастливой женщиной, какой её все считали. В целом художественная литература Оутса предполагает, что счастливых семей в Америке просто не существует.

«Пропавшая мать» — это роман, который ближе всего подходит к изображению идеальной домохозяйки 1950-х годов в лице Гвен Итон. Оутс сначала создаёт этот образ, показывая, как к Гвен относились её дочери и её общество, а затем в процессе деконструирует его, раскрывая личную историю Гвен. Гвен Итон была убита в начале повествования. Роман написан с точки зрения Никки Итон, её мятежной дочери, у которой фиолетовые волосы в стиле панк, она носит причудливую одежду из комиссионного магазина и работает автором статей в местной газете. После смерти матери Никки начинает интересоваться и постепенно узнаёт, кем на самом деле была её мать. Сюжет построен на основе, что Никки всё заново открывает свою маму, её горе и как она учится ценить Гвен как личность. Чтобы передать атмосферу провинциального квартала среднего класса, Оутс описывает дома с ухоженными газонами и бассейнами, их жителей, участвующих в общественной и церковной деятельности. Гвен наполняет свою жизнь приготовлением пищи, уборкой, уроками рисования, шитьём, вязанием пледов и изготовлением безделушек из коралловых раковин, ваз и попури; она посещает церковь и поёт в церковном хоре, а также наносит многочисленные визиты родственникам и друзьям, живущим по соседству. В её жизни все стабильно и под контролем. В описаниях Оутс преобладают мотивы еды и рукоделия. Отождествление домохозяйки с процессом приготовления пищи настолько распространено, что Гвен приходится готовить любимый вальдорфский салат своего мужа на его поминальный фуршет. В свою очередь, родственники и друзья Гвен подают испечённый хлеб на её поминальном буфете. Лучшее качество женщины – её умение готовить еду, если её кулинарию принимают и уважают, то принимают и её.

Другие воспринимают только главную роль Гвен Итон; родственники её мужа «склонны считать Гвен просто домохозяйкой, вышедшей замуж сразу после школы». Вряд ли кто-нибудь, включая её дочерей, когда-либо думает о ней как о личности женского пола, в нуклеарной семье Оутс бросает вызов в романе. Только после смерти Гвен Никки обнаруживает, что её мать не всегда была «улыбчивой Гвен Итон», готовой исполнять желания других, и что до замужества у неё была личная жизнь. Судя по всему, её брак с Джоном Итоном не был идеальным, но паре удавалось скрывать это от дочерей. Отец Никки был агрессивным и собственническим, и не ценил участия Гвен в семье. Повествование предполагает, что, хотя брак позволил Гвен избежать суровой реальности её прошлой жизни - бедности графства Иден и самоубийства её матери, она чувствовала себя более комфортно со

своими двоюродными братьями из низшего класса, чем со своими родственниками из среднего класса, для которых она была только домохозяйка. Кажется, что Гвен подумывала уйти от мужа, но не осмелилась на это. Учитывая, что в её характере было никому не причинять вреда, и она застряла в своей роли и не смогла изменить свою жизнь. В романе общественная мораль воплощена в лице тётки Табиты, невестки Гвен. Тётя Табита устанавливает правила, регулирующие жизнь нуклеарной семьи. По её мнению, для женщины уйти от мужа «абсурдно», «такие понятия не были бы приветствуемы в её доме». Способ предотвратить уход жены от вас — «закрыть ваш совместный расчётный счёт, ваша жена никуда не уйдёт».

В романе «Мы были Малвэнами» исследуется, что может случиться, когда, несмотря на создание идеального счастливого образа, семья не может защитить своих членов или защитить свои интересы в случае бедствия. Коринн замужем за состоятельным Майклом Малвэни и имеет четверых детей. Семья живет на процветающей ферме Хай-Пойнт с десятками животных и птиц. Идеальная гармония их жизни разрушена, когда дочь Марианна подвергается сексуальному насилию. Майкл не может справиться с потерей достоинства, обращается к алкоголю и, в конце концов, умирает. Тем временем Коринн большую часть повествования отрицает трагическую ситуацию. Когда она, наконец, примет меры, чтобы спасти её семью и ферму, они оказываются неадекватными. Вместо того чтобы заботиться о Марианне, она отправляет свою дочь, и Марианна переживает долгий период саморазрушения, за которым следует исцеление. Вся семья рассеяна. Семья воссоединяется в эпилоге, перетерпев искупление и медленное выздоровление. Однако они заплатили высокую цену в виде многих лет, проведённых в одиночестве, психологическом срыве и поисках истины.

В своем изображении Коринн Малвэни Оутс исследует противоречие между тем, чтобы быть хорошей матерью и быть хорошей женой; роли, которые, согласно традиционным семейным ценностям, должны быть дополнять друг друга или даже неразделимыми. Из воспоминаний рассказчика, младшего сына Джадда, мы узнаем, что до изнасилования Коринн была счастливой традиционной домохозяйкой. В этой части повествования о сорока Оутс рисует романтический образ Коринны; она намекает на Кибелу, «Богиню природы и плодородия», в чьих мифах природа и человеческая жизнь рассматриваются как одно целое. Коринн — создательница своей фермы, своей окружающей среды и своего мира, она родила троих сыновей и одну дочь. Для Коринн брак священен и создан Богом, а это означает, что она чувствует ответственность не только за своих детей, но и за своего мужа: «Ей казалось, что она не может держать его достаточно крепко, достаточно замкнуто, она хотела бы обнять его своим телом, как маленького ребенка, младенца, как-то втянув его в себя, успокоив страшное волнение его мыслей. О, если бы она могла проглотить его! Спаси его!» [1,168]

Коринн проявляет гораздо большую независимость духа, чем Гвен Итон: хотя она много готовит и шьёт одежду, она не прячет свою индивидуальность среди запеканок и тканей. Она создаёт ферму Хай-Пойнт, напоминающую библейский Эдемский сад, и коллекционирует антиквариат в качестве хобби. Свободное от конкуренции поместье Коринн – это источник удовольствия и отдыха, место, где можно развивать свои творческие способности и самовыражение, а также исследовать и развивать отношения со своими родственниками, соседями, батраками, домашними животными и дикой природой:

«Я сказал, что в нашей семье было шестеро, но это заблуждение. Шесть — это такое маленькое число! На самом деле ферма Хай-Пойнт была занята и сложна, и для ребёнка была запутанной, как театральная постановка, в которой постоянно появляются и исчезают знакомые и незнакомые лица. Друзья, родственники, гости, деловые связи папы, наемная помощь каждый день, а часто и каждый час, поэтому можно было рассчитывать, что что-то происходит... У нас были лошади, молочные коровы, козы, несколько овец, куры, цесарки и гуси и кряквы» [1,186]

Как «богиня» фермы Хай-Пойнт, Коринн управляет своими владениями в соответствии с принципами справедливости и равенства, которые играли ключевую роль на протяжении всей истории человечества. На ферме живут, проходят или умирают люди, домашние животные, дикие животные, плотоядные и травоядные. К каждому человеку и животному относятся с одинаковым уважением в свете их природы и различий, «как будто животные тоже не люди». Все они считаются физическими лицами; у каждого есть имя. Это идеальное место для воспитания детей и обучения их общению с природой и всеми живыми существами. Мудрая и стабильная, какой она может показаться на первый взгляд, Коринн не может справиться с последствиями изнасилования Марианны. Падение семьи, которое символически представлено потерей фермы из-за банкротства, то есть изгнанием из Эдемского сада в графство Эдем, происходит не в результате самого изнасилования, а в результате

попыток родителей помочь своей дочери и остальным членам семьи. Рассказчик, сын Коринн, верит в «говoreние правды, даже если это больно. Особенно, если это больно». Однако он добавляет, что его истина может восприниматься разными людьми по-разному; что-то, что «может показаться неправдоподобным или необъяснимым на расстоянии ... не является неправдоподобным или необъяснимым изнутри». Таким образом, Оутс спрашивает, было ли решение Коринн Малвэни изгнать дочь, чтобы защитить мужа от дурных мыслей, понятным и оправданным, было ли оно морально приемлемым с точки зрения дочери?

Заключение. Описывая романы Оутса, Бренда Дейли поднимает вопрос: «Почему женщины из среднего класса, достаточно богатые, чтобы учиться в колледже и воображать себя писателями, остаются немymi инструментами отеческого голоса и воли, неспособными отстаивать свои собственные желания?» Она считает, что варианты, открытые для этих женщин, остаются невидимыми, затемненными социальным кодом, социальными нравами и традиционной системой ценностей, которая ограничивает свободу женщины и ограничивает ее «сферой женщины». Положение матери в отцовской семье в известной степени определяет положение дочери в собственной семье. Дейли настаивает на том, что «дочерям нужно подлинно демократическое общество, в котором матери имеют равную власть не только внутри семьи, но и за ее пределами. К сожалению, пока семья воспроизводит гендерные иерархии, социальная несправедливость будет продолжаться».

Мать и дочь Оутса в этом романе — Коринн и Марианна — персонажи на удивление покорные. В какой-то степени это можно объяснить восприятием Коринн своих женских обязанностей в нуклеарной семье и религиозным происхождением семьи. Коринн полна решимости жить в соответствии с идеалом американской нуклеарной семьи: «поддерживать неприкосновенность семьи, зарабатывать деньги и завоевывать уважение других». Помимо просмотра того, как окружающий мир может ограничить женский выбор. Оутс также рассматривает ограничения, возникающие изнутри. До недавнего времени субъективные предпочтения и желания людей воспринимались как данность, а не формировались социальными обстоятельствами и искажались или деформировались. Эмпирически было убедительно показано, что желания и предпочтения людей реагируют на их представления о социальных нормах и собственных возможностях. Таким образом, люди обычно приспособляют свои желания к уровню имеющихся у них возможностей: они могут привыкнуть к роскоши и очень сильно возражать против её отсутствия, а также могут не формировать желания к вещам, которые их обстоятельства поставили вне досягаемости».

ЛИТЕРАТУРА:

1. *Missing Mom*. New York: Ecco, 2005 (USA) p.167-205.
2. *We were the Mulvaney's*, New York: Dutton, 1996.-p.34-90
3. Toshnazarovna, E. M. (2022). *Allusions to historical characters and events in the novel Bellefleur by Joyce Carol Oates.*, 2(1), 274-277. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861>
4. Toshnazarovna, E. M. (2022). *The concept of the tragic in the writings of j. carol oates*. *World Bulletin of Social Sciences*, 10, 70-72. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1009>
5. Toshnazarovna, E. M. (2022). *Elements of the Gothic Tradition in the Work of Joyce Carol Oats*. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(3), 308-311. <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/785>.
6. Yuldasheva, F. (2021). *The Expression of Politeness Category in The Uzbek And English Languages*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 1(1). *извлечено от* http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2835
7. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). *Politeness markers in spoken language*. *Euro-Asia Conferences*, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.

MASHRAB DEVONLARI NASHRLARIDAGI TAFOVUTLAR

Narziyeva Dilnoza Inoyatovna,

Buxoro davlat universiteti,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'fiy shoir Boborahim Mashrabning 1980-yilda va 1990-yilda nashr etilgan devonlari o'zaro qiyoslanib, matnlaridagi tafovutli so'zlar tanlanib, tahlilga tortildi. Ushbu so'zlarning ma'nolari izohli lug'atdan ko'rib chiqildi va g'azal misralari bilan o'zaro ma'no jihatdan mos keluvchi muqobil variant tanlandi. G'azallardagi ayrim tafovutli baytlar g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortildi. G'azallarda keltirilgan izohtalab so'zlarga alohida izoh berildi. 1980-yilda nashr ettirilgan devonda ko'plab so'zlar noo'rin va xato qo'llangan bo'lib, bu so'zlar 1990-yilda Jaloliddin Yusupov tomonidan nashr ettirilgan devonda qayta tuzatilganligi va g'azal baytlaridagi o'zaro o'zni almashgan yoki tushirib qoldirilgan misralar qayta tiklanganligiga e'tibor qaratildi va izoh berildi.

Kalit so'zlar: Mashrab, devon, tasavvuf, so'fiy, mutasavvif, Qur'on, tafsir, hadis, naqshbandiya tariqati, islom dini, zikr, ibodat.

Аннотация. В данной статье были сопоставлены диваны суфийского поэта Боборахима Машраба, изданные в 1980 и 1990 годах, а также отобраны и проанализированы разные слова в их текстах. Значения этих слов были изучены из толкового словаря, и выбран альтернативный вариант, совместимый со стихами газели. С идейно-художественной точки зрения были проанализированы отдельные стихи в газелях. Особое разъяснение дано словам в газелях, многие слова употреблены неуместно и неправильно в книге, изданной в 1980 году, и эти слова повторяются в книге, изданной Джалалуддином Юсуповым в 1990 году, а заменённые или опущенные строфы в стихах газелей были восстановлены и объяснены.

Ключевые слова: Машраб, деван, суфизм, суфий, Коран, тафсир, хадисы, орден Накибандия, исламская религия, зикр, молитва.

Annotatsiya. In this article, the divans of the Sufi poet Boborahim Mashrab, published in 1980 and 1990, were compared, and the different words in their texts were selected and analyzed. The meanings of these words were examined from the explanatory dictionary, and an alternative option was chosen that was compatible with the verses of the ghazal. Some different verses in the ghazals were analyzed from an ideological and artistic point of view. A special explanation was given to the words in the ghazals. Many words were used inappropriately and incorrectly in the book published in 1980, and these words were repeated in the book published by Jalaluddin Yusupov in 1990 attention was paid to the fact that it was corrected and that the replaced or omitted verses in the ghazal verses were restored and explained.

Keywords: Mashrab, Dewan, Sufism, Sufi, Qur'an, Tafsir, Hadith, Naqshbandi sect, Islamic religion, Zikr, Prayer.

Kirish. El ardoqlagan shoir Rahimbobo Mashrab Xitoy, shuningdek, Ozarbayjon, Afg'oniston, Hindiston, Rum va arab o'lkalarida ham faoliyat olib borib, Osiyo xalqlari adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shgan. Shoirming afsonaga aylangan, sarguzashtlarga boy hayoti va serqirra ijodi xorijda ham diqqat bilan o'rganilmoqda. Asosan sho'rolar davridan boshlab Mashrabni Boborahim deb atash odat tusiga kirdi, bunday nomlanishda 1926 -yilda nashr bo'lgan Sadridin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" asari muhim o'rin tutdi. Asar muallifi Mashrabning tojik tilidagi asarlarini keltiradi va shoirmi "Mashrab Namangoniy – ismash Boborahim ast", deb ataydi. Biroq shoir haqida ma'lumot beruvchi asosiy asar "Qissayi Mashrab"ning barcha ma'lum nusxalarida unga Rahimbobo ismini berishgani aytilgan: "...bu go'dakni yetti kunlik bo'lganda beshikka soldilar. Otlarini Rahimbobo qo'ydilar".[8]Maleho Samarqandiyning "Muzakkir-ul ashob" tazkirasida ham shoir nomi Rahimbobo deb keltiriladi. Qolaversa, shoir "Chinu Namangon ichida yurdi Rahimbobo so'rab" kabi she'rlarida ham o'z ismini aniq keltirib o'tganki, Mashrabni shu nom bilan atashni lozim topildi. Sho'rolar davridagi hukmron mafkura ta'sirida shoir shaxsiyatiga, dunyoqarashi va ijodiy faoliyatiga bir tomonlama yondashildi, uni isyonkor, dahriy shoir

sifatida ko'rsatishga, hayoti va faoliyatidan sun'iy ravishda ateistik mazmun-mohiyat qidirishga harakat qilindi. Faqatgina mustaqillik sharofati tufayligina bu kabi g'ayriilmiy munosabatlarga chek qo'yildi. Oqsoqol allomalar: Vohid Abdullayev, Abdurashid Abdug'afurov, Abduqodir Hayitmetov, shuningdek, Ibrohim Haqqulov, Jaloliddin Yusupov, Sayfiddin Raf'iddin, Isomiddin Salohiddinov, Ismatilla Abdullayev kabi taniqli adabiyotshunoslar Mashrab adabiy faoliyatiga oid muhim, diqqatga molik tadqiqotlarni amalga oshirdilar-ki, mazkur izlanishlarni bugungi kun mashrabshunosligida eng muhim ishlari sifatida qayd qilish mumkin. Respublikamiz kutubxonalarida va kishilar qo'lida mavjud "Qissayi Mashrab" kitobining, shuningdek, "Mabdayi nur" va "Kimyo" asarlarining eng qadimgi, salmoqli nusxalarini aniqlash, ular asosida shoir ijodi va faoliyatiga aniqlik kiritish navbatdagi vazifalar hisoblanadi. "Qissayi Mashrab" kitobi nusxalari yurtimizning turli shahar va qishloqlarida yashovchi aholi qo'lida hali ham uchray turadi. Turli oliygohlar kutubxona va muzeylarida "Devonayi Mashrab"ning bir qancha nusxalari saqlanmoqda. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti kutubxonasi Sharq qo'lyozmalari va nodir kitoblar bo'limida ham "Devonayi Mashrab" kitobining 9 qo'lyozma, 5 toshbosma va "Mabdayi nur" asarining 4 qo'lyozma, 4 toshbosma nusxalari mavjud. "O'zbek adabiyoti tarixi"ning uchinchi tomiga Abdurashid Abdug'afurov tomonidan yozilgan "Boborahim Mashrab" nomli bo'lim kiritilgan. Rahimbobo Mashrab hayoti va ijodi o'rganilishi tarixi haqida A. Hayitmetovning 1985-yili nashr qilingan "Meros va ixlos" kitobiga kirgan "Shoir tug'yoni" nomli maqolasida ham fikrlar bildirilgan. Muallif Mashrab haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarga to'xtalmay, to'g'ridan-to'g'ri o'zbek adabiyotshunoslari Abdurauf Fitrat, Izzat Sulton, G'afur G'ulom, Vohid Abdullayev, shuningdek, rus olimlari N.Veselovskiy, N.Likoshin, V.Vyatkin kabi olimlar haqida to'xtalib, mashrabshunoslikdagi xizmatlari haqida fikr yuritadi[4].

1980-yili Vahob Rahmonov bilan Komiljon Isroilovlar Mashrab she'rlarini "Devon" shaklida e'lon qilishdi. Ushbu "Devon"ga qadar Mashrab she'rlari bu kabi to'liq holda nashr etilmagan edi. Kitobda mavjud bo'lgan matniy nuqsonlar, imkon qadar tuzatilib, majmuaga shoirning nafaqat yangi o'zbekcha asarlari, balki fors-tojik tilidagi she'rlari ham kiritilib, ularning o'zbekcha sharhi berilgan. Quyida shoir devonlarida tarkib topgan ayrim g'azallardagi bayt va misralarning tafovutlari bilan tanishamiz: "Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma" g'azalining 3-bayt 5-misrasida quyidagi farqlarni ko'rish mumkin:

Nogoh sari **ko'ying** aro bo'ldum senga moyil,
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma[3].
Nogah sari **zulfung** sori bo'ldum senga moyil,
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma[6].

Mazkur baytlarda ko'yingva zulfung so'zlari tafovutli qo'llangan bo'lib, bulardan "nogah sari zulfung sori" birikmasi to'g'ri qo'llanilgan, chunki forscha "sar" so'zining ma'nosi "bosh" bo'lib, uning "zulf" va baytning ikkinchi misrasida keltirilgan "toji sarim" so'zlari bilan bog'liqligi bor. Ya'ni oshiq mashuqaning zulfidan unga moyil bo'lgani va uni "toji sarim" deya ta'rif etganini anglash mumkin. Xuddi shunday holatni 4-baytning 7-misrasida ham ko'rish mumkin:

Laling g'amidin ko'nglum erur **g'unchalari** qon
Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma[3].
Laling g'amidin ko'nglum erur **g'uncha kabi** qon,
Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma[6].

Ushbu baytlarda tashbeh vositasi bo'lgan g'uncha so'zi bilan bog'liq har xillik mavjud. Ya'ni 1980-yilgi nashrda g'unchalari qon birikmasining qo'llanilgani ma'noga ta'sir etmoqda, chunki misrada fikr g'uncha haqida emas, balki oshiq ko'ngli haqida bormoqda. Muallif oshiq ko'nglining yorning la'li (labidan bu o'rinda istiora qo'llanilgan) dan qon bo'lganligi g'unchaga o'xshatgan. Demak, baytda shoir tashbeh san'atidan foydalanib, "g'uncha kabi" jumlasini ishlatgan va bu 1990-yilgi nashrda to'g'ri keltirilgan. Shuningdek, g'azalning maqtasida ham tafovutli o'rinlar mavjud:

Mashrab kabi **ko'yingda bo'lub** barqi tajalli,
Qolmay asarim, xoh inon, xoh inonma[3].
Mashrab, bo'lubon **ko'yinga chun** barqi tajalli,
Qolmay asarim, xoh inon, xoh inonma[6].

Misrada keltirilgan "barq" arabcha "yashin, chaqmoq", "tajalli" so'zi esa "jilovlanish, jilvalanish" kabi ma'nolarni anglatadi va bu baytda shoir o'zini mashuqaning ishqida xuddi chaqmoqdek bir zumda chaqnagani va undan asar ham qolmaganini tasvirlayapti, bayt yakunida keltirilgan "qolmay asarim" so'zi bunga yaqqol dalil hisoblanadi. 1980-yildagi nashrda esa "barqi tajallini" Mashrabga o'xshatyapti, bu esa mazmunga putur yetkazgan. Mashrab g'azallaridan yana birida nashrlardagi tafovut ko'zga tashlanadi:

Bo'lubdurman qachon yo hur bo'lsun, yo pari bo'lsun
Jami **oshnolardin** ani ishqida begona[3]?!
Bo'lubdurman hamadin, hur bo'lsun, yo pari bo'lsun
Jamiyi **mahliqolardin** aning ishqida begona[6]?!

Bayt mazmunini to'g'ri anglash uchun misrada keltirilgan ayrim so'zlarning ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Masalan, "mahluqot" so'zi arabcha "yaratilgan narsalar, mahluqlar" ma'nosini anglatadi. Bu o'rinda baytning nasriy bayoniga e'tibor qaratsak: Jamiyki yaratilgan mahluqotlar hur bo'lsin yoki pari, ular ichidan faqat men uning, ya'ni mashuqaning ishqidan begonaman, degan xulosa anglashiladi. 1980-yilgi nashrda esa "bo'lubdurman qachon" deya misra boshlanadi, ammo mazmun jihatdan "qachon" so'zi bu yerda noo'rin qo'llanilgan, shuningdek "jami oshnolardin" jumlasida "oshno" so'zi "do'st, hamroh" ma'nosini anglatadi, mazmun jihatdan olganda "oshno" so'zi "hur, pari" so'zlari bilan o'zaro bog'lanmaydi. Navbatdagi baytlarni tahlilga tortamiz:

Ne tong, rahmi kelib, bersa mani maxmuri **hayratg'a**
Ushal husn ahli shohi **ishqin qoshidapaymona**[3]...
Ne tong rahmi kelib bersa mani maxmur-i **hayrong'a**,
Ushal husn ahli shohi **ishq mayidin qatrapaymona**[6].

Ma'lumki, misrada ilohiy ishqdan maxmurlik-mastlik haqida fikr yuritilgan. Maxmur so'zi "mast, mastlik holatida bo'lgan inson" degan ma'nolarni anglatadi. Baytda shoir oshiqning ruhiy holatiga baho berib, ya'ni "maxmuri hayrong'a" ma'shuqa rahm etib, ishq mayidin qatra bersa, degan umidvorlik mazmunidagi mulohazalarni ifodalagan. Shundan kelib chiqib, 1990-yilgi nashrdagi so'zlar o'rinni qo'llanilgan, deyish mumkin.

Muhabbat ahli majruhi jismdur ishqina qat'o,
Erur zuhd ahli - soya, otash xor –devona[3].
Erur zuhd ahli xursand, soyayi qaddida arjumand,
Muhabbat ahli ishq sahrosida majruh devona[6].

Baytda zuhd ahli va muhabbat ahli orasidagi tafovut ko'rsatilgan. Shoir nazdida zuhd ahli xursand, "arjumand" (qadrli, hurmatli), ammo muhabbat ahli ishq sahrosida "majruh (zaif, xasta) devona". Buning boisi tasavvufiy manbalarda qayd etilishicha, zuhd ahli, ya'ni zohidlar o'z toat-ibodatlarini faqat Qur'oni karimda va'da qilingan Jannat umidida bajarganlar, muhabbat ahli esa, faqat Alloh ishq va uning vasliga tinimsiz intilganlar. Ular uchun Jannat umidida ibodat qilish ham tama'ning bir ko'rinishi. Ana shu nuqtayi nazardan zuhd va muhabbat ahli tasavvuf adabiyotlarida keskin farqlangan. Mashrab ham muhabbat ahliganisbatan Alloh vasliga intilgan devonalar (Allohdan boshqa barcha narsalarni mosuvo qilganlar) devona bo'lganda ham majruh devonalar sifatini qo'llagan. Bayt mazmunidan kelib chiqib, 1990-yilgi nashrda misralar va so'zlar joylashuvi yaxlit ma'no kasb etadi, deyish mumkin. Shoirning yana bir g'azaliga e'tibor qaratsak:

Ey sabo **g'ambodadurman** bistarimni kavlama,
Chun shafaq oludaman xokistarimni kavlama[3].
Ey sabo **g'ambodadurman** bistarimni kavlama,
Chun shafaq oludaman xokistarimni kavlama[6].

Ushbu baytlardagi "g'amboda, g'amzoda" so'zlari tafovutli qo'llanilgan. Baytning mazmunidan kelib chiqib har ikkala nashrda ham mazkur so'zlar xato qo'llangan chunki ushbu so'z lug'atda "**g'amzada**" shaklida keltirilgan, ya'ni g'amgin, qayg'uli ma'nosini anglatadi. Shuning uchun mazkur so'zlarni **g'amzada** shaklida qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Ta'kidlash lozimki, 1990-yilgi nashr nisbatan mukammalroq deb hisoblash lozim. Chunki arab yozuviga asoslangan matndan joriy yozuvga o'girishda qisqa "a" unlisi yozilmasligi va ba'zan "a" va "o" harflari uchun bir arab harfi "alif" yozilgan. Shu sababli g'amzada so'zi g'amzoda tarzida qo'llanilgan. Yana shuningdek, 1980-yilgi nashrda mazkur g'azalning 5-6-baytlari tushirib qoldirilgan, 1990-yilgi nashrda esa baytlar qayta tiklangan:

Hajr toshidin zarru ofat boshig'a yetgan o'zum,
Kishtiyi motamdurman, langarimni kavlama.
Yetti do'zax o'rtanur aftodalarning ohidin,
Otashi hajrida kuygan mijmarimni kavlama[3].

Shuningdek, 8-baytda yana bir tafovut mavjud:

Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,
Ma'rifatdin bexabarsan **gavharimni** kavlama[6]!

Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,
Ma'rifatdin bexabarsan **daftarimni** kavlama[3]!

Baytdagi birinchi misrada keltirilgan “bahr” so’zi arabcha “daryo, dengiz”, “adam” so’zining ma’nosi esa “yo’qlik” bo’lib, ushbu so’zlarni va ikkinchi misrada “gavharim” va “daftarim” so’zlarini ham birgalikda ma’no qirralariga e’tibor qaratsak, 1990-yilgi nashrda “daftarim” so’zi to’g’ri qo’llangan. Nasriy bayonga e’tibor qaratsak: Oshiq bahri rahmatiga kirganligi bois o’z vujudini yo’qlik olamiga mansub sanaydi. Ma’rifatdan bexabar saboga uning ko’ngil daftarini kavlamliligini aytgan. G’azalning so’nggi baytida ham ba’zi kamchiliklar mavjud bo’lib, 1990-yilgi nashrda bu kamchilik tuzatilgan:

Durri daryoyi maoniy bo’ldi chun Mashrab vale
Diyda bino bo’lmasang ko’b javharimni kavlama[3]!
Durri daryoyi maoniy bo’ldi chun Mashrab, vale
Diydabiyno bo’lmasang, ko’z gavharimni kavlama [6]!

Bayt tahliliga e’tibor qaratsak, Mashrab uchun ma’nolar daryosining durri(gavhari) bo’ldi, diydabino qiluvchi bo’lmasang ko’zimning gavharini kavlama, ya’ni bu yerda “diyda”- “ko’z”, “javhar”- “gavhar”, “qimmatbaho tosh” ma’nosini ifodalaydi. Aytish lozimki, ikkinchi misrada javhar emas, balki “gavhar” so’zi to’g’ri qo’llangan, chunki “gavhar” so’zi mazkur baytda “ko’zning gavhari” ma’nosida qo’llanilgan, deyish mumkin. Mashrab g’azallarining g’oyaviy, falsafiy, axloqiy zamini – tasavvuf ekanligi barchamizga ma’lum. Ammo sho’rolar davrida shoir ijodiyotiga doir tadqiqotlarida uning ayrim she’rlari o’z zaminidan ajratilib, tahlil qilingan. Natijada, ilohiy ishq mohiyatini ochuvchi fikru kechinmalar dunyoviy muhabbatga mansub tasvirlar sifatida tavsiya etilgan. Tasavvuf, birinchi galda, Ruh tarbiyasi. Tasavvuf – axloq va o’qib kamoloti uchun qayg’urish demak. Tasavvuf – Xayol va tasavvur go’zalligi. Haqiqiy tasavvuf olamdagi jamiki kuchsizlik, jamiki tobeliklarga ishtiboh bilan qarashga o’rgatadi. Tasavvufning deyarli barcha mazhablarida g’amgin va g’ussakash inson «Meni»ning botiniy faolligi aks etadi. Tasavvuf ta’limotida tarbiyalangan kishining hayot zavqidan qo’l siltashi mumkin emas. U o’tkinchi zavqlarga beparvo qarashi tabiiy, albatta. Din singari tasavvufning ham olamshumul mafkurasi Ishqdir. Shu ma’noda din va tasavvuf o’rtasida keskin ixtilof yo’q. Mazkur holatlar shoirning ko’pgina g’azallarining tahlillarida ko’zga tashlanadi.

Mashrab devonlari bosma nashrlarining qiyosiy tahlili jarayonida nashrlardagi turli tafovutlar borligi ma’lum bo’ldi. Jumladan, 1980-yilda Vahob Rahmonov va Komiljon Isroilov mas’ulligida nashrga tayyorlangan devondagi g’azallarining baytlarida ayrim so’zlarning o’rni almashganini, ba’zi misralardagi so’zlar noo’rin qo’llanganligini ko’rish mumkin. Ammo 1990-yilda Jaloliddin Yusupov tomonidan nashr ettirilgan devonda ko’pgina tafovutli o’rinlar bartaraf etilganligini, ayrim so’zlarning qo’llanilishidagi xatoliklar tuzatilganligini, tushib qoldirilgan yoki o’rni almashgan misralar qayta tiklanganligini qayd etish lozim. Shunday bo’lsa-da, 1980-yilgi nashr ham katta zahmatli mehnatning samarasi ekanligini ta’kidlash lozim. Dastlabki nashrlardan biri bo’lganligi bois shoir asarlarini joriy yozuvga o’g’irishda ayrim nuqsonlar, bo’lishi tabiiy bir hol deyish mumkin. Mashrab asarlarining qo’lyozma va toshbosma variantlari qayta-qayta sinchkovlik bilan o’rganilib, nashr ishlari davom etadi va har bir yangi nashrlarda xatolar tuzatilib, shoir asarlarining nisbatan mukammal nashrlari yuzaga keladi, deyish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Amonova Z.Q. *Nevâi icadinda kita türünün önemi. Ilim ve marifet nurlari .prof. dr. Ibrahim Hakkul’a armağan kitabı Karabük – 2020.*

2. Amonova Z.Q. *Nasimi and Lutfi. Материалы X Международной тюркологической конференции “Актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир”. Казань. 25 декабря 2020 г.*

3. Jaloliddin Yusupov *“Mehribonim qaydasan.” – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.*

4. Erkin Rahimovich Musulmanov. *Rahimbobo Mashrab faoliyati va ruhiyati talqini. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2015.*

5. Mashrab Boborahim. *“Devon”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.*

6. Vahob Rahmonov va Komiljon Isroilov. *Mashrab “Devon” Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.*

7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 4 jildlik. 1-jild. – T.: Fan, 1983. – 656 b.

8. Sayfiddin Rafiddin *“Qissayi Mashrab” 8-bet. Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti*



Navoiy gulshani

YUZUNGDA ZARVARAQ HAR YONKI LUTFI BENIHOYATDUR...

*Amonova Zilola Qodirovna,
Buxoro davlat universiteti,
O'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d.*

O'zbek mumtoz adabiyotini turli mavzular olami bilan boyitgan, inson ma'naviy yuksalishida o'zning beminnat xizmatini qo'shgan ulug' so'z san'atkori, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Shoir ijodida komillik, inson ilohiyligi va qadr-qimmatini bilan bog'liq mavzular alohida o'rin egallaydi. Shulardan biri Navoiy lirik merosida inson jamolining mus'hafga tashbeh qilinishi bilan bog'liq g'azallardir. Aytish joizki, mazkur mavzudagi she'rlar ijodkorning deyarli barcha devonlaridan o'rin olgan. Quyida tahlilga tortmoqchi bo'lganimiz g'azal "Badoyi ul-bidoya" devonining 232-tartib raqamida berilgan. G'azal 9 baytdan iborat.

Yuzungda zarvaraq har yonki lutfi benihoyatdur,
Jamoling mus'hafida har biri go'yo bir oyatdur.

Ma'lumki, Haq taollo insonni yaratib, uni barcha yaratilardan ustun qilib, boshiga sharaf tojini qo'ydi. Ayniqsa, uning jamoli ilohiy ekanligi bilan bog'liq ayrim qudsiy hadislar ham yaratilgan. Jumladan, "Oллоh insonni o'z suratida yaratdi". Yoki uning jamoli mus'hafga, ilohiy kitobga teng. Chunki mus'hafi sharifda koinot sirlari, foniy va boqiy olam sirlari haqida Ollohning fikrlari aks etgan bo'lsa, inson yuzida ham uning qadar qismati aks etgan. Shu bois bo'lsa kerak, inson yuzini mushafga tashbeh qilinishi, ayniqsa, hurufiylik tariqati vakillari ijodida bot-bot tilga olinadi.

Hazrat Navoiy Sharq mumtoz adabiyotida shakllangan mazkur an'anadan ta'sirlanib go'zal tasvirlar yaratadi. Buni g'azalning dastlabki baytida ko'rishimiz mumkin. Shoir insonning ilohiyligi uning yuzida aks etganligiga ishora qilib, uning inson yuzi mushafga, yuz qismining a'zolari oyatga tashbeh qilinmoqda. Chunki adabiyotimiz tarixida harf shakllari yuz a'zolariga (ko'z sodga, mim og'izga, nun qoshga dol yoki lom zulfga harflar nuqtasi xolga) tashbeh qilinib, alohida kitobat san'atini ham yuzaga keltirgan.

Ma'lumki, soch adabiyotda dunyo sir-asrorlari, ilohiyot sirlari va ularga yetishish ma'nosidagi tasavvufiy istilohdir. Navoiy keyingi baytda ana shu istiloh va unga hamohang shom qorong'uligini tanosib holda keltirib, insonning yaratilishiga ishora qiladi. Ya'ni insonning chehrasi zarfishon (zar sochuvchi) holda bo'lsa-da, soch va zalolat (*adashishlik, gumrohlik*) shomida har yon kezdi. Chunki soch sirlar, shom qorong'ulik bo'lib, o'z yo'lini topishi uchun unga hidoyat shami lozim edi. Shuning uchun tajallo (*jilvalanish*) mash'alidin yorishgan sham'i hidoyat (*to'g'ri yo'l ko'rsatish*) insonga xizmat qildi:

Sochingda zarfishon chehrang zalolat shomida har yon
Tajallo mash'alidin yorug'on sham'i hidoyatdur.

Shoir insonning go'zal yaratilganligi bilan bog'liq mushohadalarni davom ettiradi:

Yuzungda nil xoli ravza ichra nilufar shibhi,
Binafsha gulshan ichra yuzda nilingdin kinoyatdur.

Inson ilohiy, uning yuzida nil xoli (*ko'k rangdan yasalgan xol*) mavjudki, bu go'yoki ravza (*bog', jannat*) ichra o'sadigan nilufar (*suvda o'sadigan gul*) ga shibhi (*o'xshash, monand*) dir. Qolaversa, gulshandagi binafsha ham sening yuzingda niling (*surmachop*) ga kinoyatdur (*kinoya, piching, qochiriq*). Shoir yana asosiy e'tiborni inson yuzi uning go'zalligi va sirlarni kashf etuvchi ekanligiga urg'u berganini ko'rish mumkin. Ammo navbatdagi baytda yuz bilan bog'liq mulohazalarni davom ettirish bilan ko'ngil masalasiga ham e'tibor qaratadi:

Ko'ngul saydig'a ochma sunbulung domin, yuz ochg'ilkim,
Gul-o'q ochilsa, qayd etmakka bulbulni kifoyatdur.

Ma'shuqaga ko'ngil saydi (*ov, shikor*) uchun ochma sunbulung (*sevgilining sochi*) ni, chunki u oshiq uchun dom (*tuzoq*) dir. Ammo sen yuzingni ochgilki, yuzing oshiq uchun jami maqsadlarning ijobatiga

tengdir. Ayni mulohazani ikkinchi misrada tamsil asosida quvvatlantiradi. Ya'ni gul-o'q ochilsa, qayd etmakka bulbulga kifoyatdur (*kifoya, yetarli*), deydi. Bulbulning maqsadi gulning ochilganini ko'rish bo'lsa, oshiqning maqsadi yor yuziga (vasliga) yetmoqdir.

Shoir yor husni ta'rif uchun talmeh sifatida Layli nomini keltiradi. Layli husni to'g'risidagi afsona xalq orasida ko'p va mashhur ekanligini ta'kidlaydi. Ammo Navoiy o'z ma'shuqasining husniga tshbeh etmoqqa hech bir hikoyat yo'qligini tajohuli orif shaklida ifodalaydi:

El ichra ko'pdurur afsona Layli husnidin, lekin

Sening husnungg'a tashbih etmak oni ne hikoyatdur?

Oshiq ma'shuqa dardida ko'ngli doim qonga to'la, ishq dardi tufayli xunxora (*qon yutuvchi, qattiq qayg'u chekuvchi*) holiga kelgan. Oshiqning ruhiy holat ifodasi bayonida yorning tashqi go'zalligi ham singdirib o'tilmoqda. Ya'ni yuzing gulgunadin (*yuzni qizartiradigan elik*) gulgunkim, (*gulrang, pushtirang*) bu xuddi oshiq ko'ngli qonidan siroyatdir (*ichiga o'tish, kirish, yuqish*). Ayni mulohazalar oshiq va ma'shuqaning ruhiy yaqinligini ham ifodalaydi:

Ko'ngul qonin ko'p ul xunxorako'z ichti, emas, go'yo

Yuzung gulgunadin gulgunkim, ul qondin siroyatdur.

Ijodkor Olohdan taolloning qudratiga, uning ko'rinmas rishta orqali bog'langan ishlariga boqib taajjublanadi. Muni ko'rginki, "Kim ul yondin nihoyat bo'lsa, bu yondin bidoyatdur (*boshlanish, avval*)" yuzaga keladi, deydi:

Dema, tush vaqtiul yuz kundinortuqtur, muniko'rgil,

Kim ulyondin nihoyat bo'lsa, buyondin bidoyatdur.

Navoiy o'zining falsafiy mushohadalarini davom ettirar ekan, insonlar, jamiyat va undagi bedodliklar haqidagi fikrlarini quyidagi baytda zikr etadi:

Erur bedod borinda tarahhum do'stdin, yuz hayf

Angakim, shukr borinda ishi doim shikoyatdur.

Insonlar orasida bedodlik (*jabr, zulm, adolatsizlik*) bo'lsa-da, shoir do'stidan, yaqinidantarahhum (*rahm qilish*) kutadi. Ammo u do'stning esa "ishi doim shikoyatdur". Zero, shukr – islomda eng ulug'langan fazilatlaridan biri. Navoiy shuning uchun baytda insonlarni shukronalikka chorlaydi.

Shoir o'z mulohazalariga xotima yasab, "Navoiyg'a ko'ngul berdingki, jonin olg'asen bir kun", chunki u ishq, muhabbat, ko'ngil xaridori. Mazkur jihatlar uchun jonin nisor etmakka doim tayyor. Fikrning asosi sifatidagi tamsilning go'zalligiga e'tibor qarataylik: o'z naf'i (*foyda, manfaat*) shohdan raiyatga rioyatdur (*e'tiborga olish*). Ya'niki, ma'shuqa-shoh, oshiq-raiyat. Albatta, shohdan elga manfaat rioyatdur:

Navoiyg'a ko'ngul berdingki, jonin olg'asen bir kun,

Erur o'z naf'ishahdin gar raiyatg'a rioyatdur.

Alisher Navoiy inson ilohiyliги, uning kamoloti, qolaversa, dard-u tashvishlarini uzviylikda kuylagan ulug' so'z san'atkoridir. Yuqoridagi g'azal tahlili davomida ayni mulohazalarga guvoh bo'ldik.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufiy g'oyalar targ'ibi bilan boshlangan g'azal shoirming ijtimoiy-siyosiy g'oyalari bilan yakunlangan. Bu g'oyalar orqali insonni ulug'lash, xalq manfaatini o'ylash va uning roziligiga erishish targ'ib qilinadi. Bu fazilatlar esa davlatimiz siyosatining asosiy maqsadidir.

ADABIYOTLAR:

1. Амонова З.К. *Хуруфийлик ва XIV-XIX асрлар ўзбек мумтоз адабиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд 2012. – 156 б.*
2. Амонова З. *Хуруфийлик ва бадий ижод. – Тошкент; Парадигма, 2017. – 131б.*
3. *Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.*

*Burxonova Manzura Xurshid qizi,
SamDU KF Maktabgacha ta'lim
va pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadimgi tarixga yuzlanganmiz. Qadimiy tarixga ega mamlakatlardan “Tibbiyot” va “Tibbiy madaniyat” tushunchalarini paydo bo‘lish tarixini qisqacha kiritib o‘tganmiz. Har qanday ko‘chatning ulkan daraxt bo‘lib yetishishi ma‘lum vaqt talab qiladi. Aynan tibbiy madaniyat ham yillar sayqalida sayqalanib shu bugungi kunimizgacha yetib kelganini kuzatib turibmiz. Bu xoh Qadimgi Sharq yoki G‘arb tibbiyoti bo‘lsin barchasi aynan bir narsa majmuida birlashgan bu esa sog‘lik. Sog‘likni saqlagan insongina qolgan mehnat faoliyatida yaqqol o‘zini ko‘rsatadi va yutuqlarga erishadi. Shu sababdan ham qadim davrlardanoq tibbiyot va tibbiy madaniyat hayotning ajralmas bir bo‘lagidek qabul qilingan.

Kalit so‘zlar: tibbiy madaniyat, empirik amaliyot, Qadimgi Sharq, Qadimgi Bobil, O‘rta Osiyo, Avesto, Yunoniston, Gippokrat, tabib, Qadimgi Hindiston.

Аннотация. В данной статье мы обратились к древней истории, кратко познакомились с историей возникновения понятий «Медицина» и «Медицинская культура» из стран с древней историей. Любому саженцу требуется определённое количество времени, чтобы вырасти в огромное дерево. Мы наблюдаем, как с годами совершенствовалась медицинская культура и дошла до наших дней. По этой причине медицина и медицинская культура с древних времён воспринимались как неотъемлемая часть жизни.

Ключевые слова: медицинская культура, эмпирическая практика, Древний Восток, Древний Вавилон, Средняя Азия, Авеста, Греция, Гиппократ, врач, Древняя Индия.

Annotation. In this article, we have turned to ancient history. We have briefly introduced the history of the emergence of the concepts of "Medicine" and "Medical culture" in ancient countries. It takes a certain amount of time for any seedling to grow into a huge tree. We are watching how the medical culture has been refined over the years and has reached our present day. Whether it is ancient Eastern or Western medicine, it is all one thing and this is health.

Keywords: medical culture, empirical practice, Ancient East, Ancient Babylon, Central Asia, Avesta, Greece, Hippocrates, physician, Ancient India.

Kirish. Tibbiy madaniyat va uning kelib chiqishi haqida qiziqqanmisiz? Ushbu maqolada biz tibbiyot atamasi yuzaga kelish tarixi, tibbiy madaniyatning yuzaga kelishining dastlabki uchqunlari haqida ma‘lumotlarni birlashtirganmiz. Tibbiyotning fan sifatida shakllanishida yozuvning kashf etilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Aynan yozuv tufayli tibbiyot empirik amaliyotdan fanga aylandi. Tabiblar dorilarning xususiyatlarini retseptda ko‘rsatish bilan cheklanib qolmay, har xil kasalliklar va ularning belgilarini yozib bora boshladilar. Shunday qilib birinchi tibbiy adabiyot paydo bo‘ldi.[3. 22-b]

Asosiy qism. Qadimgi Sharq insoniyat jamiyati taraqqiyotining beshigi hisoblanadi. Ilm - fanning hamma sohalari, shu jumladan tibbiyot ilmi ham dastlab Sharq mamlakatlarida kelib chiqqan. Buni arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan ashyoviy dalillar va qadimgi qo‘lyozmalar isbotlaydi. Qadimgi Misr madaniy hayot, ilm -fanning rivojlanishi jihatidan boshqa Sharq mamlakatlariga nisbatan yetakchi o‘rin egallaydi. Misr tibbiyot sohasida ham eng qadimgi tarixga ega. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Misrda eramizdan oldingi to‘rtinchi ming yillikdayoq birinchi tibbiy maskanlar bo‘lgan. [3.23-b] Misr tibbiyotida kasallik sabablari va uni bartaraf etish yo‘llari haqida papiruslarda bayon etishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki tibbiy madaniyatning dastlabki uchqunlari mil.avv 4 ming yillikdayoq namoyon bo‘lgan. Xitoy — uzoq o‘tmishda fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lgan. Xitoy tibbiyoti ham uzoq o‘tmish tarixga ega. Uning kelib chiqishi sinantrop davriga borib taqaladi. Qadimgi Xitoy tibbiyoti haqidagi birinchi yozma ma‘lumot "Neytzin" ("odam tabiati va hayoti") nomli kitob hisoblanadi. Kitob o‘sha zamondagi Xitoy imperatori Xuandi sharafiga "Xuandi-neytzin" deb ham yuritiladi. "Xuandi-neytzin", eramizdan oldingi uchinchi mingyillikda yozilgan, deb taxmin qilinadi. Kitobning muallifi Van-Shu-Xe ismli mashhur hakimdir. "Ney-tzin" Xuandi bilan Hakim Van-Shu-Xe o‘rtasida bo‘lib o‘tgan savol-javob tariqasida yozilgan. Xuandi savol bergan Van-Shu-Xe javob bergan.[3.26-b] Tarixiy manbalarga

asoslanadigan bo'lsak Xitoyda birinchi bo'lib chechakka qarshi emlash usulini amalga oshirganlar. Bu o'sha davr uchun benihoyat katta kashfiyot edi. Qadimgi Sharqning yuksak rivojlangan mamlakatlaridan biri Hindistondir. Hindistonning qadimgi zamon tibbiyotini o'rganishda asosiy manba Ayur-Veda nomli kitob hisoblanadi. Ayur-Veda so'zi hayotni bilish, degan ma'noni bildiradi. [3.28-b] Hindistonliklar asarlarida asosan sog'lom turmush tarzi haqida so'z yuritilgan. Sog'liqni saqlash masalasida qadimgi hindlar birinchi o'ringa gigiyena qoidalariga rioya qilishni qo'yanlar. Xususan, tanani toza saqlash, kiyim - kechaklarni, ko'rpa-to'shaklarni, uy-joylarni ozoda saqlashga alohida ta'kidlab o'tganlar. Shu ma'lumotlarning o'zidan ham tibbiy madaniyatni o'sha davrda hindistonliklar hayotidagi o'rni bilishimiz mumkin. Bundan tashqari tarixiy yozma manbalarda jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyatini ham ko'rsatib berganlar. Bu esa jismoniy madaniyat, sog'lom turmush tarzining shakllantirish haqidagi fikrlarning va g'oyalarning namoyon bo'lishi desak adashmaymiz. Ular tibbiyotga doir manbalarida sog'lom turmush tarzining asosi sifatida oziq-ovqat masalasiga ham alohida ahamiyat berishgan. Ko'p kasalliklar ovqatlanish rejimining buzilishidan kelib chiqishini ta'kidlashgan. Qadimgi sharq mamlakatlaridan yana Qadimgi Tibet, Qadimgi Babil (Vaviloniya), Qadimgi Eron tibbiyotida ham tibbiy madaniyatni shakllanganligini tarixiy manbalar orqali bilishimiz mumkin. Eron tibbiyotining asosiy vazifasi kasallikning oldini olish hisoblangan. Eron tibbiy aforizmlaridan birida bunday deyilgan: "Kasallik tanaga ziyon yetkazishidan oldin sen uni sug'urib tashla". Qadimgi Eronliklar ham Qadimgi Xitoyliklar singari immunitet hosil qilish yo'llarini bilishgan va immunitetning borligi kasallikka chalinish xavfini kamayishini ta'kidlashgan. Qadimgi O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlar (bizning ajdodlarimiz) tibbiyoti ham boshqa Sharq xalqlari tibbiyotiga o'xshash bo'lgan. Ayniqsa Eron tibbiyoti bilan O'rta Osiyo xalqlari tibbiyoti o'rtasida umumiylik sezilarlidir. O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida qadim zamonlarda yashagan xalqlarning tibbiyoti haqidagi birinchi yozma ma'lumotlarni biz zardushtiyning diniy-muqaddas kitobi "Avesto" dan topamiz. [3.34-b] Avesto 3 ta kitobdan iborat. Bizga kerakligi kitob Vendidat (Videvdat) aynan shu kitobda tibbiyotga doir ma'lumotlar keltirilgan. Vendidat 22 bobdan iborat bo'lib uni 8 tasi tibbiyot tarixida juda muhim hisoblanadi. Ushbu boblarda salomatlikni saqlash uchun nimalar qilish zarurligi ko'rsatilgan. Biz ushbu kitobda tibbiy madaniyatning Qadimgi O'rta Osiyo hududida qanday shakllanganligini bilib olishimiz mumkin. Zardushtiylik dini havo, yer va suv muqaddas deb e'lon qilganlar. Ularni iflos qilish juda katta gunoh hisoblangan. Suvning tozaligiga, yerning unumdorligiga, atrof-muhitni tozaligiga e'tibor berganlar. Tibbiy madaniyat tibbiyotning rivojlangani sari rivojlanib boravergan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida tibbiyot va tibbiy madaniyat tushunchasining shakllanishi

N	Tibbiy madaniyat tushunchasi shakllangan davlat nomi	Qachon shakllangan	Tibbiy madaniyat tushunchasi shakllanishi haqidagi manba
1	Qadimgi Misr	Er.avv IV ming yillik	Eramizdan oldingi 3600-yilda Fili orolidagi Memfis shahrida afsonaiy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan.
2	Qadimgi Xitoy	Er.avv III ming yillik	Qadimgi Xitoy tibbiyoti haqidagi birinchi yozma ma'lumot "Neytzin" ("odam tabiati va hayoti") nomli kitob hisoblanadi.
3	Qadimgi Hindiston	Er.avv VI ming asr	Asosiy manba Ayur-Veda nomli kitob hisoblanadi. Ayur-Veda so'zi hayotni bilish, degan ma'noni bildiradi.
4	Qadimgi Tibet	Bu mamlakatda tibbiyotning rivojlanishiga qadimgi Xitoy va Hindiston tibbiyoti ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.	"Jud -Shu" nomli kitob orqali tanishamiz.
5	Qadimgi Babil	Er.avv .XVIII asr	Tibbiyot asosan koinlar qo'lida bo'lgan. Tibbiy maskanlar ibodatxona qoshida bo'lgan.
6	Qadimgi O'rta Osiyo	Er.avv. VI asr	"Avesto" 1-kitobi "Vendidat" u jismoniy va ruhiy poklanish haqidagi qonunlar majmuasidan iborat.

Ovrupo qit'asida ilm-fan va madaniyat eng yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar qadimgi Yunoniston va Rim edi. Bu mamlakatlar o'sha davrda siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan boshqa Ovrupo mamlakatlariga nisbatan ancha ilgari ketdilar. Ma'naviy hayot va ilm -fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilindi. Bu mamlakatlarda o'nlab buyuk olimlar, faylasuflar, san'at va adabiyot namoyandalari yetishib chiqdi. Shular qatorida mashhur hakimlar ham bor edi. Yunoniston jahon tibbiyoti tarixida eng buyuk hakim, deb tan olingan ulug' Gippokratning vatanidir. Gippokrat haqiqiy ilmiy tibbiyotning asoschisi hisoblanadi. Uning Yunoniston va umum jahon tibbiyotining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan hissasi shu qadar buyuk ediki, uning bu xizmatini alohida taqdirlab, tirikligidayoq Afinada oltindan yasalgan haykal (byust) o'rnatgan edilar.[3.39-b] Yunonistonda tibbiyot atamasi, tibbiy madaniyat davrini tarixchilar ikkiga bo'lishadi bu Gippokratgacha va Gippokratdan keying davr .Gippokratgacha bo'lgan davr afsonaviy tibbiyot ya'ni faqat rivoyat va afsonalar orqali bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar .Ushbu davrda ukan yangiliklar yaratilmagan .Asosiy tarixni jumbushga keltiradigan tibbiyot olamidagi kashfiyotlar Gippokrat davrida amalga oshirilgan . Birinchi davr rivoyatlar orqali kelgan ma'lumotlarga qaraganda o'sha davrda buyuk hakim Asklepiy yashagan. Asklepiyning Maxaon va Podaliriy ismli o'g'illari va Higiyea (Gigiyea) hamda Panakeya ismli ikki qizi bo'lgan. Maxaon jarroh, Podaliriy terapevt bo'lishgan. Higiyea kishilarning salomatliklarini saqlash usullarini yaxshi bilgan. Panakeya esa har xil dori-darmonlarni yaxshi bilgan.Bizga bu rivoyatlardan eng muhim qismi Asklepiyning qizi Higiyea (Gigiyea) . U sog'lom turmush tarzi , bugungi kunda ishalatigan atamamiz tibbiy madaniyat sohasida ya'ni o'sha davr kishilarning salomatliklarini saqlash usullarini yaxshi bilgan. Ikkinchi davrga o'tadigan bo'lsak ,bu davr eramizdan oldingi V- IV asrlarda yozilgan kitob bilan bog'liq butun jahonga ma'lum bu kitob buyuk hakim Gippokrat tomonidan yozilgan deb aytiladi. Qadimgi Yunoniston tabiblarga nisbatdan hurmatda bo'lishgan . Sohalar bo'yicha tabiblar faoliyati alohida bo'lgan . Birgina Qadimgi Yunoniston shaharlarida aholining sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshiruvchi va uni nazorat qilib turuvchi maxsus shahar, tabiblari bo'lgan. Bu bilan aholining sog'lig'ini saqlash ishini tashkil qilish , tibbiy madaniyatni shakllantirish o'sha davrda ham mavjud bo'lgan .Qadimgi yunonistonda ham bu ma'suliyatli kasb sanalgan . Bunday tabiblar aholini nazoratga chaqiruvchi, tozalikka rioya qilinishi nazorat qiluvchi ,sog'lom turmush tarzini shaharlarda tashkil qilinishi bo'yicha ma'sul hisoblanishgan.

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlari o'zining madaniy-ma'rifiy va iqtisodiy rivojlanishida yuqori darajaga erishadi . Yirik shaharlarda ilm olish markazlari, madrasalar, xonaqohlar barpo etila boshlangan. Aniq fanlar va gumanitar fanlar sohasida muhim kashfiyotlar qilingan . O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida tibbiyot ilmi ham yuksak cho'qqiga yetgan. Shaharlarda kasalxonalar, shifoxonalar, mustaqil dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etilgan . Sharq mamlakatlarida tibbiyot ilmining mashhur hakimlar yetishib chiqqan va aholining sog'lom turmush tarzi, sog'lom genofondni shakllanishiga ulkan hissa qo'shishgan .

Muhokamalar va natijalar. Qadimgi davrlardan tibbiyotni rivojlanishi, tibbiyot yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hammasi jamlangan holda qadimgi davrlardan oq tibbiy madaniyatni shakllanishga sabab bo'lgan. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish qoidalarini yoshlarga o'rgatish lozimligi muhimdir. Chunki hozirgi maktab yoshidagi bolalarning tibbiy madaniyat nimaligi, unga qanday rioya qilish lozimligi haqida bilimlari yuzaki bo'lib qolgan. Bu vazifani maktabgacha yosh davrida tarbiyachi-o'qituvchilari hamda maktab yoshida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari amalga oshirish mumkin. Bolaga ma'lumotni yetkazish oldidan, tibbiy madaniyat tushunchasi haqida pedagogning o'zi ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, Tibbiy madaniyatni shakllanishida tibbiyot tarixining o'rni beqiyos . Axir ,tarixsiz kelajak yaratib bo'lmaydi . Markaziy Osiyoning mashhur fors-tojik olimi, faylasufi Abu Bakr Ar-Roziy (865-925) o'zining "Ma'naviyat tibbiyoti", "Falsafiy turmush madaniyati" kabi asarlarida inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida batafsil ma'lumotlar beradi. "Ma'naviyat tibbiyoti"da tibbiyotni ikkiga: jismoniy tibbiyotni – inson tanasi kasalliklarning oldini olish va davolash, ruhiyat tibbiyotini esa inson ruhiy axloqini yo'lga qo'yish va insonning ma'naviy sifatlarini takomillashtirish deb belgilaydi. U aqlning vasfini ta'riflab insonni ehtiroslar emas, balki aql boshqarishi lozim, aql insonni bir daqiqalik o'tkinchi ehtiroslardan xalos qiladi, bilimlar bilan qurollangan aql o'z ehtiroslarini nazoratsiz qoldirmaydi. Hayot go'zalliklaridan, tabiat in'omlaridan bahramand bo'lishda, tabiiy ehtiyojlarni qondirishda ma'lum bir o'lchamga amal qilmog'i, qanoat hosil qilmog'i lozim: ovqat yeganda kam yeyish kerakki, toki ochlik bosilsin, kiyadigan kiyimi qulay va kamtarona bo'lsin, yashaydigan uy-joyi qattiq issiq yoki sovuqdan saqlaydigan bo'lsin. Shohona yashashga, ortiqcha bezakka intilishni maqsad qilmasin. Ar-Roziy, o'zining "Rohatlanish nazariyasi"da odamlarga oqilona hayotdan zavqlanib, sog'lom yashashni, azob-uqubat chekishdan saqlanishni, rostgo'ylikni, axloqiy poklikni, odamlarga nisbatan yaxshilik qilishni va foydali bo'lishni, doimo ularga xizmat qilishni, o'limdan qo'rqmaslikni asosiy talab qilib qo'yadi.[2.32-B] Buyuk bobokalonimiz Ibn Sinoni misol qilib oladigan bo'lsak, u 1012-1014 yillarda olti kitobdan iborat

va besh jildlik “Tib qonunlari” asarida va “Urjuza” nomli tibbiy dostonida tibbiyot va tibbiy madaniyat haqida batafsil bayon qilgan. “Tib qonunlari” asarining birinchi jildidagi sog‘liqni saqlash tadbirlari haqidagi maxsus bobida esa inson salomatligini saqlashga aloqador omillar, tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risida o‘z qarashlarini yozib qoldirgan. Bunda asosan quyidagi yetti narsani mo‘tadil qilishga ko‘proq e‘tibor berish kerak: mijozni mo‘tadil qilish, yeyiladigan yegulikk va ichiladigan narsalarni nazorat qilish, gavnani chiqindidan tozalash, to‘g‘ri tuzilishini saqlash, burunga olinadigan nafasning ya‘ni havoning yetarli va yaxshilash, kiyim-kechaklarni yaxshilash, jismoniy harakatlar va ruhiy harakatlarni mo‘tadil bajarib borish, yetarli darajada uxlash va uyg‘oq bo‘lish. Sog‘liq – organizmning tashqi muhitga mos bo‘lgan va organizmga eng maqbul hayot faoliyatini hamda to‘laqonli mehnat faoliyatini ta‘minlab beruvchi tuzilmaviy-funksiyaviy belgilarining o‘zaro uyg‘unlikdagi majmui hisoblanadi. Inson individual sog‘lig‘i – organizmdagi barcha mavjud almashinuv jarayonlarining uyg‘un birligidir, bu esa organizmning barcha tizimlari hamda quyi tizimlari eng maqbul ravishda faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratadi. Salomatlik – faol hayot maksimal davomiyligi sharoitida insonning biologik, fiziologik va psixologik funksiyalarini, mehnatga layoqatlilik hamda ijtimoiy faolligini saqlab qolish hamda rivojlantirish jarayonidir. [2.61-b]

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan dalillarni faqatgina oila misolida emas, balki jamiyat nuqtai nazaridan nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Bunda malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularni har tomonlama bilimga ega, har qanday vaziyatda ham o‘z fikrini bildiradigan kadr etib tayyorlash muhimdir.

Bola tarbiyasida ilk aqlini taydigan yoshdan boshlab sog‘lom turmush tarzi, jismoniy madaniyat, tibbiy madaniyat tushunchalarini shakllantirib borish juda muhim masaladir. Tarixiy manbalardan misol keltirganimizdek eramizdan oldingi davrlardayoq tibbiy madaniyat shakllana boshlagan. Bola yoshligidan ma’lum qonun-qoida, ko‘nikmalar, sog‘lom hayot tarzini qanday shakllantirish, qanday qilib o‘z sog‘ligiga e‘tibor berish va e‘tiborsizlikning natijalari albatta pedagog o‘qituvchi tomonidan ta’lim bilan bir o‘rinda tarbiya qatorida tushunchalar berilib borishi kelajakda yuzaga keladigan muammolarni, ekologik muhitni, sog‘lom tunda yurishni va shu hisobida ulkan natijalarga erishish mumkinligi bunga yaqqol misol.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.* // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. *Aholi turmush madaniyatini yuksaltirish asoslari (O‘quv qo‘llanma) Abdujabbarova Musallam 245-b*

3. *Tibbiyot tarixi (Qodirov A.) – 2005-yil «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 176-b*

4. *Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.*

CHIZMACHILIK FANIDA IJODIY LOYIHALASH FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sariyev Rabbim Shuhratovich,
Toshkent kimyo-texnologiya inisuti
Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi
rabbimsariyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga chizmachilik fanlarini o'qitish orqali o'quvchilardagi chizmachilik fani bo'yicha ijodiy loyihalash faoliyatlarini shakllantirishda pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida bo'lib ushbu xususiyatlarning o'quvchilarga beriladigan ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatlari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliya olib borayotga chizmachilik fani o'qituchi pedagoglarning chizmachilik fanidan mavzuga oid dars mashg'ulotlarini tashkil etishlarida pedagogik-psixologik xususiyatlarning ko'rinishlari bo'yicha qisqacha ko'rsatmalar keltirilgan. O'quvchilarda chizmachilik fani bo'yicha ijodiy loyihalash faoliyatlarini shakllanishida chizmachilik darslarida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan xususiyatlar va bu xususiyatlarning o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir etishining psixologik omillari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy loyihalash faoliyati, pedagogik-psixologik xususiyatlar, psixologik omillar, dars jarayonlarini tashkil etish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, muloqot jarayoni, doskadan foydalanish metodikasi, pedagogik texnika, pedagogik mahorat.

Аннотация: В данной статье рассказывается о педагогико-психологических особенностях формирования у учащихся творческой проектной деятельности по предмету «Рисование» посредством обучения дисциплине рисования учащихся общеобразовательных школ. Кроме того, в статье приведены краткие указания по проявлениям педагогических психологических особенностей в организации тематических уроков по рисованию педагогами-педагогами, осуществляющими деятельность в системе общего среднего образования. Выделены особенности, на которые следует обратить внимание на уроках рисования при формировании творческой проектной деятельности учащихся по предмету Рисование, и психологические факторы влияния этих особенностей на психику учащихся.

Ключевые слова: Творческая проектная деятельность, педагогико-психологические особенности, психологические факторы, организация процессов урока, психологические особенности учащихся, методика использования доски, педагогическая техника, педагогическое мастерство.

Annotation: This article is about the pedagogical and psychological characteristics of students in the formation of creative design activities on drawing science by teaching drawing subjects to students of general secondary education schools, and the role and significance of these characteristics in the educational process given to students is presented. In addition, the article provides brief instructions on the manifestations of pedagogical and psychological characteristics in the organization of lessons on the topic in the subject of drawing science of teachers in the field of drawing, leading to activity in the system of general secondary education. In the formation of creative design activities on drawing Science in students, the features that should be paid attention to in drawing lessons and the psychological factors of the establishment of these features in the psyche of students are highlighted.

Keywords: Creative design activities, pedagogical-psychological characteristics, psychological factors, Organization of lesson processes, psychological characteristics of students, communication process, methodology for using the whiteboard, pedagogical technique, pedagogical skills.

Kirish. Chizmachilik fanlarida ijodiy loyihalash bo'yicha o'quvchilarda kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirishda ta'lim jarayoni tashkil etuvchi barcha omillarni hisobga olish lozim bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan chizmachilikdan ijodiy loyihalashni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida o'quvchilarga ta'sir etishning pedagogik texnologiyalar usullaridan va o'quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish ham ko'zlangan marraga erishishning bir bo'lagi sanaladi. Chizmachilik fanidan ijodiy loyihalash faoliyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari deganda o'quvchilardagi ijodiy loyihalash faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar, pedagogik metodlar, pedagogik mahoratlar bilan birgalikda, ushbu jarayondagi o'quvchilarning psixologik omillar,

psixologik jarayonlar, psixologiyaning yoshga xos xususiyatlarini ham inobatga olish orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish va foydalanish xususiyatlarining ta'sir doiralari tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarini tashkil etish va o'quvchilarda fanlar va ularning mazmunlari bo'yicha yuqori darajadagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishning pedagogik texnologiyalardan foydalanish, psixologik omillarning ta'sirlari yuzasidan ko'plab ilmiy adabiyotlar va maqollalar keltirilgan bo'lib, jumladan, E.I.Ro'ziboyev, A.O.Ashirboyev "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi" Oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlari talabalari uchun darslik [1], T.Rixsiboyev "Oliy ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi" modul bo'yicha o'quv uslubiy majmua [2], kabilarda muhandislik grafikasi, chizmachilik, fanlarini umum ta'lim maktablarida darslarni tashkil etish va mavzularni o'tish bilan birgalikda har bitta mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda yangicha pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarining samarali usullari bayon etib o'tilgan. Chizmachilik darslarida pedagogik texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha I.Rahmonov, A.Valiyev, B.Valiyeva, S.Sayidaliyev va boshqalar "Chizmachilik o'qitishda pedagogik texnologiyalar" metodik qo'llanma, bo'yicha ham chizmachilik darslarini o'qitishda foydalaniladigan bir qator yangicha ped texnologiyalar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi [3]. Ushbu keltirilgan va undan tashqari chizmachilik fanlarni takomillashtirish va o'quvchilardagi ijodkorlikni shakllantirish yuzasidan yozilgan ko'plab maqollarda yagona bitta maqsad chizmachilik darslarida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlari, fikrlash qobiliyatlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirgan holda jamiyatimiz uchun yetuk konstruktur, muhandis, loyihachilarni tarbiyalash orqali shakllantrish.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu ilmiy atdqiqot ishimiz bo'yicha tegishli adabiyotlar va ularda keltirilgan manbalar va asoslar asosida maqolamizning tadqiq etilishi uchun zaruriy bosqichlar belgilab olindi. Ushbu bosqichlarni quyidagilar tashkil etadi.

- Chizmachilik o'qituvchisining pedogik xususiyatlari;
- O'quvchilarning chizmachilik faniga bo'lgan qarashlari;
- O'quvchilarda kuzatiladigan psixologik omillar va ularning xarakter xususiyatlari;
- Chizmachilik o'qituvchisining shaxsiy xususiyatlari;


Chizmachilik fanidan darslar davomida o'quvchilarda ijodiy loyihalash faoliyatni shakllantirishda mavjud pedagogik metodlardan foydalanishda auditoriyadan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning xarakter tempramentidan kelib chiqqan holda qo'llash lozim bo'ladi. O'qituvchi iloji boricha darslarni o'tishda yuqori kayfiyatda (pozitiv) bo'lishi va bu orqali ushbu kayfiyatni o'quvchilariga ham ko'chirib o'tkaza olish orqali qandaydir muammolar yoki o'quvchilardagi charchoqni tarqatib olishi kerak. Psixologik nuqtayi nazardan olganda o'qituvchi dars jarayonida barcha o'quvchini qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar o'zining kayfiyatiga o'tkaza olishi va darslar davomida mavzu yuzasidan bir nechta muammoli vaziyatlarni yaratgan holda o'quvchilardagi tasavvurlarni uyg'otgan holda fikrlashga va jamoaviy yechimlar topishga undash orqali o'quvchilardagi ijodiy loyihalash faoliyatini tashkil etishda foydalanishi mumkin [4].

Ijodiy faoliyatni tashkil qilishda har ikkita holat pedagogning mahorati orqali qo'llaniladigan pedagogik metodlar va o'quvchilardagi psixologik jarayonlarning ta'siri birdek muhimlik kasb etadi. Buni esa chizmachilik va boshqa fan o'qituvchi pedagoglar hech qachon unutmasliklari va albatta, o'quvchini psixologik jihatdan qat'iy nazar darsga jalb qilishda qattiqqo'llikdan foydalanishga urinmaslik aks holda o'quvchilardagi fanga qiziqish intilish bilan birgalikda o'quvchi tasavvurida yomon o'qituvchiga fani esa u uchun kerak emas ahamiyatsiz fanga aylantirib qo'yish mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqotning metodologik asoslari sifatida umumiy o'rta ta'lim maktab chizmachilik darslarning dasturiy tuzilishi va uni o'tilishidagi pedagog o'qituvchilar, ularning pedagogik mahorati, pedagogik xarakter, tafakkur doiralarning kenglik darajalari olindi.


Tahlil va natijalar. O'quvchilarga chizmachilik darslari bo'yicha mavzuni o'tishda har bitta mavzuni yoki darsni o'tishda yuqorida keltirilgan tavsiyalarga e'tibor qaratish va ushbu tavsiyalarni tatbiq etishda biz o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqishning ortganini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu jarayonda ko'plab o'qituvchi faoliyati uchun qiyinchiliklar uchrab turadi lekin haqiqiy pedagog o'zining darsini yaxshi sifatli o'tishida hech qanday qiyinchiliklarga e'tibor bermasdan o'quvchilarga bilim berishga intiladi. Umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarda hali psixologik jihatdan olganimizda o'yin hissi tark etmagan bo'ladi va bundan tashqari ularda xayolning ko'chuvchanligi, diqqatning qisqaligi, tez zerikish hosil bo'lishi, tasavvurning mavhumligi, kabilar bir qator psixologik omillar mavjudligi chizmachilik o'qituvchisiga bu borada yanada kata mas'uliyatlar yuklaydi.

Bunda kuzatishimiz mumkinki, o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan chizmalarni bajarib ko'rsatish jarayonida vaqtning ko'p sarflanishi, chizma chiziqlarining bir-xil rangda bajarilishi, chizmani bajarishda o'qituvchining bajarilayotgan chizma ishining gavdasi bilan to'sib bajarishi, chizmani xarakterga ega nuqtalarini tushuntirishda o'quvchilarga chizg'ich, serkul chizmachilik asboblardan foydalanishni ko'rsatmasligi kabi holatlar natijasida o'quvchilarda psixologik jihatdan zerikish, diqqatning bo'linishi, ulardagi o'yin hissining ortishi natijasida darsni tinglamaslik, darsga xalaqit berish mumkin bo'lgan holatlarni paydo qiladi [5]. O'qituvchi chizmani bajarib bo'lgach o'quvchilarda ko'plab savollarni paydo bo'lishi va bu savollarni o'qituvchi tomonidan javob berilishida hozir chizdim-ku ko'rmadinglarmi, ko'zlaringiz qayerda edi kabi kesatma so'roq gaplar natijasida o'quvchilarda jizzakilikni xarakter xususiyatlarida qo'zg'alishlarni keltirib chiqarishi buning natijasida darsda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining muammoli vaziyatlarga olib keladi.

Yuqoridagi holatlarning oldini olish bilan birgalikda o'quvchilarda chizmachilik fanidan ijodiy loyihalash faoliyatini shakllantirishda chizmachilik o'qituvchisi chizmachilikdan detal chizmasini sinf doskasida ishlab ko'rsatishida ushbu jarayonni rangli bo'rlardan foydalanishi, iloji boricha har bitta chizma chiziqlarini bajarishda o'quvchilarga ko'rinishini, chizmaning elemetlarini ko'rsatishda chizma asboblardan foydalanishni va qaysi chiziqni qanday o'tkazish haqida o'quvchilar bilan muloqot jarayoni uzib qo'ymaslikka intilishi lozim bo'ladi (1-rasm) [6].



1-rasm.



2-rasm.

Chizmachilik o'qituvchisi detal chizmalarini chizishda detal va uning elementlarini soddalashtirib tasvirlashga harakat qilishi lozim bo'ladi. Detalni tekislikda shartli soddalashtirib tasvirlashda hayotiy va o'quvchilar kundalik turmushida uchraydigan narsalarning tekislikdagi tasvirlarini soddalashtirishdan boshlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, gugurtning bitta ko'rinishida tasvirlansa, uning ushbu ko'rinish orqali yaqqol tasvirini o'quvchilar oson tasavvur qila olishlari mumkin bo'ladi. Agar gugurt qutisi uchta tekislikda, birinchisi oldidan (V-frontal yo'nalish), ikkinchisi ustidan (H-gorizontal yo'nalish), uchunchisi chapdan (W-profil yo'nalish) yordamida tasvirlansa, soddalashtirib shartli tasvirlashga misol bo'la oladi (2-rasm).

Xulosa va takliflar: Maqolaning yakuniy xulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda barcha ta'lim bo'g'inlarida kuzatish mumkinki, ta'lim jarayonlarini amalga oshirishda o'quvchilarni fan bo'yicha o'qitish hamda ularda fan bo'yicha bilim va malakalarni shakillantirishda ko'plab pedagogik texnologiyalardan, pedagogik metodlardan foydalanish orqali darslar tashkil qilinmoqda. Lekin bu ta'lim bo'g'inlarining asosini tashkil qiluvchi maktab ta'limida o'quvchilarni o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, aynan ushbu umumta'lim tizimida dars beruvchi har bitta fan o'qituvchisi o'quvchilarga fan yuzasidan bilim va ko'nikmalar berishda pedagogik texnologiyalar, metodlardan tashqari, albatta, darsni tashkil etishda o'quvchilarning psixologik jihatlarini ham unutmashlikka va iloji boricha o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir eta olishlik darajalarini egallashlari zarur sanaladi.

Chizmachilik fani o'qituvchisi fan bo'yicha tashkil etiluvchi mavzuga oid dars mashg'ulotlarini o'zgacha bir san'at tarzda tashkil etgan holda, mashg'ulotlar davomida o'quvchilarni erkin ijodkorlikka ham yo'naltirgan holda o'quvchilarni erkinlikka qo'yib berishi kerak bo'ladi. O'quvchilardagi tasavvur va ijodiy loyihalash faoliyatining shakillanishida beriladigan amaliy ko'rsatmalarni berishda esa doska bilan ishlash madaniyati vatexnikasi bilan birgalikda o'quvchilar bilan imkon qadar muloqot jarayonini uzilib qolmasligini ta'minlashi keak bo'ladi. Bu kabi o'qituvchi tomonidan qilinadigan harakatlarning barcha asosiy negizi o'quvchilarda ijodkorlik ijodiy faoliyatni shakillantirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi". -T.: "Fan va texnologiya", 2010, 248 bet.
2. Rixsiboyev T. "Oliy ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi" modull bo'yicha o'quv - uslubiy majmua. Toshkent-2007.: 252 bet.
3. Rahmonov I., Valiyev A., Valiyeva B., Sayidaliyev S., Rasulova F., Dadaboyeva D., Mardov S. "Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalar" metodik qo'llanma: Toshkent-2012. 144 bet
4. Raxmonov I., Valiyev A. "Chizmachilik" (chizmachilik fanidan konsturuktsiyalash) pedagogik oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. «Voris nashiryoti»- Toshkent-2011.; 137 bet.
5. Xalimov M.K. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" oliy o'quv yurtlari uchun darslik; «Voris nashiryoti»- Toshkent-2013.; 368 bet.
6. Sabirova D.U., Azimov A.T., Mirzaraimova V.T., Karimova V.N. "Chizmageometriya va muhandislik grafikasi" o'quv qo'llanama, Toshkent – 2019; 170 bet.
7. Xolnazarov M.X., Muhliboyev M.Q. "Yosh va pedagogik psixologiya" «Fan va texnologiya»- Toshkent-2014.; 208 bet.
8. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat" darslik, «Iqtisod moliya» - Toshkent-2011.; 420 bet.
9. Valiyev A.N., Haqberdiyev B.R., Gulomova N.X., Boboyeva Z.A. "Chizmachilik" (Mashinasozlik chizmachiligi) darslik. «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashiryot-matbaa birlashmasi, - Toshkent: 2020. - 320 b.
10. To'xtayev A., Abramyan Y. "Mashinasozlik chizmachiligidan ma'lumotlar" o'quv qo'llanma, «Ilm ziyo». Toshkent – 2010; 264 bet.

BOKSCHILARNI TAYYORLASHNING PSIXO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Xodjayev Ravshan Ilxanovich,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
r.i.xodjayev@buxdu.uz*

Annotatsiya: Maqolada bokschi larni tayyorlashning psixologik va fiziologik xususiyatlari, ularning o'ziga xosligi, murabbiyning mahorati va kasbiy kompetentligi, ularning psixologik va fiziologik xususiyatlarga tayanib ish ko'rish zaruriyati, bokschi larni musobaqalarga muvaffaqiyatli tayyorlashning pedagogik – psixologik asoslari haqida mulohaza yuritilgan. Sportchilarda musobaqalarda ishtirok jarayonida to'g'ri manfaatlarni shakllantirishda murabbiyga qo'yilgan talablar, sportchilarga mohirona boks tushish mohiyati, turli vaziyatlarda o'zini tuta olish estetikasi mohiyatini ochib berish, har bir bokschi bilan uning sportda o'sish istiqboli va mahoratini takomillashtirish yo'llariga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, boks sporti, psixo-fiziologik xususiyatlar, xarakter, organizm, psixik zo'riqishlar, faoliyat, ijtimoiy omillar, ijtimoiy – psixologik tayyorlik, murabbiy mahorati, kasbiy kompetentlik.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические и физиологические особенности подготовки боксёров, их уникальность, навыки и профессиональная компетентность тренера, необходимость работы с учётом их психологических и физиологических особенностей, педагогические и психологические основы успешной подготовки боксёров к соревнованиям. Требования к тренеру в формировании правильных интересов спортсменов в процессе участия в соревнованиях, сущность искусного бокса спортсменам, сущность эстетики самоконтроля в различных ситуациях, даны рекомендации и пути улучшения перспектив и навыков каждого боксёра для его роста в спорте.

Ключевые слова: физическая подготовка, боксёрский спорт, психофизиологические особенности, характер, организм, психическое напряжение, активность, социальные факторы, социально-психологическая готовность, тренерское мастерство, профессиональная компетентность.

Abstract: The article discusses the psychological and physiological characteristics of training boxers, their uniqueness, the skills and professional competence of the coach, the need to work based on their psychological and physiological characteristics, the pedagogical and psychological foundations of successful training of boxers for competitions. The requirements for the coach in the formation of the right interests of athletes in the process of participation in competitions, the essence of skillful boxing to athletes, the essence of the aesthetics of self-control in various situations, and the way to improve the prospects and skills of each boxer for his growth in sports. recommendations are given.

Key words: physical training, boxing sport, psycho-physiological characteristics, character, organism, mental stress, activity, social factors, social-psychological readiness, coach's skills, professional competence.

Kirish. Sport psixologiyasi bu sport musobaqalari va mashqdar vaqtida inson psixikasining holati, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq etadigan soha hisoblanadi. Sport psixologiyasi XX asrning 60-70-yillaridan rivojlana boshlagan. Sport psixologiyasining asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari, sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, yutuqqa erishishlariga psixologik yordam ko'rsatish bilan ham shug'ullanadi. Bu jarayonda murabbiy bilan shogird munosabatlari, o'zaro ta'sir, guruhiy moslik, o'zaro yordam, jamoaviy iliq ruhiy muhit, o'zini o'zi boshqarish muammolari ham tadqiq etiladi. Sportchilarni muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga kelgan stress holatlaridan olib chiqishning yo'l-yo'riqlari, hissiy zo'riqishlar, ishonchsizlikning oldini olish vositalarini yaratish sport psixologiyasi sohasining tadqiqot predmetiga kiradi.

Asosiy qism. Sport psixologiyasi ham o'z o'rganish predmetiga, ya'ni sohasiga egadir. Sport psixologiyasi o'rganadigan asosiy obyektlar bu - sportchi, sport murabbiysi (trener) hamda sport hakami (arbitr) dir. Yuqorida bayon etilganlardan sport psixologiyasining predmeti sportchini tayyorlash jarayonida

uning psixikasi va ongining maxsus tendensiyalari shakllanishini, shu bilan birga sport murabbiysi va arbitrni psixologiyasini ham o'rganadi. Sport psixologiyasi sport faoliyati sharoitlarida inson psixikasi evolutsiyasi qonuniyatlarini ochib beradi va bir-birlaridan farqlanuvchi ko'plab sport turlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Sport psixologiyasining quyidagi asosiy oltita vazifasini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Sport faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish. Ushbu vazifaning ahamiyati ijtimoiy sport psixologiyasining paydo bo'lishi hamda uning o'z nazariy bazasiga, fenomenologiyasiga, uslublariga ega maxsus sohaga aylanishi bilan izohlanadi. Umumiy tarzda aytganda, bu sportchi xatti-harakatlarini uni qurshab turgan ijtimoiy muhit bilan aloqadorlikda o'rganishdan iboratdir.

2. Sportchi, sport murabbiysi, sport hakami shaxsini shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish. Sportdagi shaxs psixologiyasi tushunchasi bilan inson xatti-harakatlarining betakrorligini, individual va o'ziga xosligini o'rganish va ikkinchi tarafdan aynan shunga o'xshash holatlarda yuz beradigan psixik holatlar asosida yotuvchi farqlarni o'rganish o'zaro bog'liqdir.

3. Harakat malakalarini va sifatlarini takomillashtirishning psixologik asoslarini o'rganish. Ko'pincha sportda muvaffaqiyat qozonishning asosi sifatida – doimiy takomillashuvchi maxsus harakatlar va harakat sifatleri namoyon bo'ladi. Harakat malakalarini shakllantirish, ularni avtomatlashtirish zaruriyati shuningdek jismoniy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi azal-azaldan ham sport psixologlarining e'tibor markazida bo'lib kelgan.

4. Musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarni o'rganish. Sport musobaqalari - sport faoliyatining avj nuqtasi va hal qiluvchi omilidir, zero ular sportchilar psixikasiga yuqori talablarni qo'yadi. Shu sababli ham musobaqa sharoitlarida psixikaning namoyon bo'lishi va rivojlantirilishini nazoratga olish va o'rganish lozim.

5. Sport faoliyatini psixologik ta'minlashning asoslarini o'rganish. Sport psixologlar tadqiqotlarining aksariyati amaliy vazifalarini hal etish bilan bog'liqdir. YA'ni ular o'z ilmiy ishlarida sportda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ishlanmalarni sport murabbiylar va amaliy psixologlar uchun yetarli darajasiga yetkazish.

6. Fanlar tizimiga sport psixologiyasining integratsiyalashuvi yo'llarini o'rganish va uning yutuqlarini sport faoliyati amaliyotida qo'llash. Ushbu vazifaning bajarilishiga sport psixologiyasi taraqqiyoti istiqbollarni o'zida aks ettiruvchi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning keng miqyoslari javob berishi mumkin.

Sport psixologiyasida sportchi shaxsining umumiy va maxsus sport mahoratini egallash uchun zarur bo'lgan psixik sifatlarining shakllanishiga yordam beradigan vositalar, uslublar va tadbirlar kompleksini tarbiyalash hamda mashq qildirishning psixologik asoslari, umumiy psixik tayyorgarlik vositalari deb atash qabul qilingan.

Musobaqalarga psixik tayyor turishni hosil qilishga va musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashish uchun zarur bo'lgan maxsus psixik sifatleri tarbiyalashga qaratilgan psixologik-pedagogik ta'sirlar vositalari tizidaqi musobaqaga psixik tayyorlanish tizimi ya'ni sportchining maxsus psixik tayyorgarlik vositalari deb atashadi.

Psixologik-pedagogik ta'sir qilish tizimi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) o'zbek bokschi shaxsiyati yo'nalishini shakllantirish;
- b) bokschi irodaviy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish;
- v) bokschi maxsuslashgan psixik sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish;
- g) psixik holatni o'zi boshqarishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

Tabiiyki, hamma aytib o'tilgan sifatlar ma'lum bir darajada boks mashg'ulotlari natijasida o'z holicha maxsus mashqlar, mashg'ulot sharoitlari, jamoa va sheriklarning ta'siri kabi omillar ta'sirida rivojlanishi mumkin. Biroq psixik sifatlar va jarayonlarning o'z-o'zidan rivojlanish darajasi juda kichik va bundan tashqari, mashg'ulotlar omillarining ta'siri ikki hil bo'lishi mumkin: yoki ijobiy, yoki salbiy. Sportchi shaxsini to'g'ri va samarali shakllantirish, uning irodasini va boshqa psixik sifatlarini rivojlantirishning eng zarur sharti pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil qilish, mutaxassislarni – murabbiylar, pedagoglar va psixologlarni mohirlik bilan tanlay bilish hisoblanadi. Biroq bu ham etarli emas: agar bokschi o'z psixik sifatlarini o'zi faol takomillashtirishni, psixik jihatdan o'zini-o'zi boshqarishni o'rganib olishni xohlamasa, shaxsga xos xususiyatlarni hamda psixik jarayonlarni shakllantirish etarlicha samarali kechmaydi. U o'z fe'l-atvorini tarbiyalashni, irodasini chiniqtirishni istashi, o'z hissiyotlarini turli xil sharoitlarda boshqara bilishni o'rganishi, g'alaba qozonish uchun kuchini safarbar qila olishi diqqatni va tafakkurni takomillashtirishi, o'z-o'zini tarbiyalashga faol intilishi lozim. Sportchi to'g'ri shaylana oladimi yoki yo'qmi, muvaffaqiyatsizliklarga uchrasa, o'z-o'zini tarbiyalashni davom ettira oladimi yoki yo'qmi - buning hammasi ko'pincha murabbiyga bog'liq bo'ladi. Agar "o'z-o'zini tarbiyalash" funksiyasini kengroq ko'rib

chiqadigan bo'lsak, unga o'z harakatlari, xulqi, fikrlari va hissiyotlarini ongli tarzda boshqara olish qobiliyatini mustaqil takomillashtirishni hamda o'z-o'zini anglashni ham kiritish kerak.

O'z-o'zini anglash - o'z kuchi, imkoniyatlari, xulqini tahlil qilish va mustaqil baholash - o'z-o'zini tarbiyalash asosini tashkil qiladi. O'ziga maqsadli ta'sir ko'rsatish uchun, birinchi navbatda, o'z-o'zini yaxshi bilish, qilayotgan xatti-harakatlarini yaxshi tushunish, o'zining ijobiy va salbiy tomonlarini ko'ra olish, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'z xulqini tanqidiy baholash, siyosiy jihatdan bilimdon bo'lish zarur. Sportchilarni tayyorlash jarayonida o'z-o'zini bilishning turli hil vositalari, yo'llari va maqsadlaridan foydalanish mumkin: sportchilarning o'z harakatlari, jang uslubi, taktikasi, axloqiy xulqi, irodaviy sifatleri xususiyatlari, organizmi va psixikasi xususiyatlari to'g'risida atrofda gildardan oladigan axborotlar; o'z jismoniy va psixik holatini o'zi nazorat qilishning tarkibiy qismi sifatida o'z-o'zini kuzata bilish; o'z faolligi, xatti-harakati, ularni belgilab beruvchi omillarni tahlil qilish; g'alabalar va mag'lubiyatlar sabablarini aniqlash; mashg'ulotlar va musobaqalar natijalarini mustaqil qayd qilib borish; bajarilgan faoliyat to'g'risida mustaqil hisobot tayyorlash; tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish; jismoniy, axloqiy, irodaviy, intellektual va boshqa sifatleri mustaqil takomillashtirish bo'yicha ishlarni mustaqil baholash; shaxsiy kundalikni olib borish (bu erda nafaqat tashqi omillar, voqealar, ma'lumotlar qayd qilinadi, balki ichki kechinmalar, o'y-fikrlar, intellektual tahlil qilinadi va yoritib beriladi).

O'zini bilish va tarbiyalashning qator vositalari hamda uslublari boksning o'z-o'zini tarbiyalashida muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin. Bunda murabbiy sportchi tomonidan bajarilgan ishini muntazam nazorat qilib borishi, uning kundaligi bilan tanishib chiqishi, o'z-o'zini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan qiyinchiliklar to'g'risida ochiqchasiga suhbatlashib olishi lozim. Tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri bokschi shaxsining to'g'ri ijtimoiy va ma'naviy yo'nalishini (dunyoqarashi, motivlari va qiziqishlarini) shakllantirishdan iborat. Bunda sportchining mafkuraviy tarbiyasi samaradorligi ko'p jihatdan to'g'ri ma'naviy, irodaviy va estetik tarbiyani belgilab beradi. Murabbiy o'z tarbiyaviy ishida o'quvchilarga jamiyat oldidagi majburiyatni anglash hissiyotini, mehnatga bo'lgan muhabbatni, jamoat mulkini avaylashni, intizomga ongli ravishda munosabatda bo'lishni, jamoani hamda o'rtoqlarini o'zaro qo'llab-quvvatlash hissiyotini, halollik va haqqo'ylik, soddalik va kamtarlikni tarbiyalashi lozim. Sportchilarda bu va boshqa ma'naviy sifatleri shakllantirilishi oila, maktab, sport jamoalari birgalikda ularning psixikasiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatgan taqdirdagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

O'qituvchi-sportchilarning dunyoqarashi, ma'naviy hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish maqsadida har qanday vaziyatlardan, kundalik va ijtimoiy hayotda uchraydigan voqealar, gazetalardagi xabarlar va ayrim sportchilarning musobaqalardagi xulqlaridan foydalanishi lozim.

Boksning qarashlari, e'tiqodi, manfaatleri tizimida shakllanishiga u mashq qiladigan jamoaning ta'siri katta bo'ladi. Jamoada yoki klubda guruh a'zolarining hurmatiga sazovor bo'lgan va jamoani jiplashtirishda murabbiy tayana oladigan yetakchi sportchining bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ahil jamoani yaratish uchun har bir sportchining birgalikda olib boriladigan mashg'ulotlar natijalariga bo'lgan manfaatleri asosida barcha shug'ullanuvchilarda qiziqishlarning umumiyiligini oshirishga harakat qilish lozim. Bokschi o'rtasida o'zaro ishonch, o'zaro talabchanlik, o'zaro yordam munosabatlarini mustahkamlab borish zarur. U o'zaro maslahatlar, ko'rsatmalar berishda, mashg'ulotlar davomida xatolarni tuzatishda, musobaqalarda chiqishdan oldin psixologik qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi. O'zaro ishonch bo'shroq sportchi-larga juftlikda xotirjamroq, siqilmasdan va zo'riqishsiz boks tushishga imkon beradi. O'zaro talabchanlik munosabatlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega: bokschi o'rtoqlarining belgilangan kun tartibiga, intizomga, musobaqa qoidalariga va gigiyenaga rioya qilishlarini, murabbiy vazifalari va ko'rsatmalarini bajarishlarini kuzatib boradilar. Bokschi o'zlarining jamoadagi majburiyatlarini bilishlari, har bir mashg'ulot, shuningdek, o'qish va mashg'ulotning ma'lum bir davri maqsadi va mazmunini aniq tasavvur qilishlari, mashg'ulot jarayonini o'ylab tuzishlari, murabbiy talablarini, boks qoidalarini, shaxsiy gigiyena talablarini qat'iy bajarishlari lozim. Foydali an'analar jamoani jiplashtirishda katta ahamiyat kasb etadi: musobaqa jarayoni g'oliblarini sharaflash, ko'rgazmali mashg'ulotlarni o'tkazish, shahar tashqarisida mashg'ulotlar tashkil etish, bokschi hayotidagi tantanali kunlarda ularni tabriklash, devoriy gazetalarda chiqarish kabilar.

Jamoa sportchilarda mashq qilish va musobaqalarda qatnashish uchun ijobiy xohish-istaklarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Murabbiyning o'z tarbiyalanuvchilari xohish-istaklarini bilishi katta amaliy ahamiyatga ega, chunki sportchining bu xohish-istaklarda namoyon bo'ladigan shaxsga xos xususiyatlarini baholashga imkon beradi, sportchining o'qitish va mashg'ulotlar vaqtidagi faolligini oshirish, ba'zi axloqiy hamda irodaviy sifatleri takomillashtirish uchun ulardan foydalanishga yordam beradi, eng muhim xohish-istaklar esa musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashish uchun foydalanishga imkon yaratadi.

Bokschini boks bilan shug'ullanishga undaydigan xohish-istaklar uning mashg'ulotga, oldinda turgan musobaqaga, kun tartibiga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, sport bilan shug'ullanish maqsadini, irodaning namoyon bo'lish darajasi hamda xususiyatini belgilab beradi.

Mashg'ulotlar jarayonida sportchining eng katta faolligini chaqiruvchi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuchni maksimal safarbar qiluvchi xohish-istaklarni shakllantirish juda muhim. Musobaqalarda g'alaba qozonishga bo'lgan intilish bilan bog'liq mashg'ulotlarning ijobiy xohish-istaklarini shakllantirayotib, murabbiy ularning ijtimoiy asosini mustahkamlashga harakat qilishi hamda mashg'ulotlarda zamonaviy sportning insonlar hayotidagi o'rnini, sportchilarning musobaqalardagi chiqishlari targ'ib qiluvchi ahamiyat kasb etishini, ularning bokschilar shug'ullanadigan jamoa uchun ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish maqsadida har qanday vaziyatdan foydalana olishi zarur.

Xulosa. Murabbiy vazifalaridan biri bokschilar jamoasida ijtimoiy muhim manfaatlarni tarbiyalashga yordam berish hisoblanadi. Bu manfaatlar, birinchidan, sportchilarni faol mashq qilishga va musobaqalarda qatnashishga undashi, ikkinchidan, ularning ma'naviy dunyosini boyitishi, muhim intellektual, axloqiy, estetik hislatlarning rivojlanishiga yordam berishi, mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishni tarbiyalashi kerak. Sportchilarda to'g'ri manfaatlarini hosil qilish uchun murabbiy:

-sportchilarga mohirona boks tushish mohiyatini, uning bokschi organizmiga ta'sirini batafsil tushuntirib berishi;

-boksning muvofiqlashgan dinamik harakatlarda, yengil siljib yurishlarda, qiyin vaziyatlarda, bir zumda reaksiya qilishda, zarbalardan qutilib qolishda namoyon bo'ladigan estetikasi mohiyatini ochib berishi;

-har bir bokschi bilan uning sportda o'sish istiqboli va mahoratini takomillashtirish yo'llarini tahlil qilib borishi;

-bir qolipda va bir xil o'tadigan mashg'ulotlarga yo'l qo'ymaslik uchun har bir mashg'ulot oldiga yangi vazifalarni qo'yib mashg'ulotlarni ijodiy yondashgan holda o'tkazishi;

-mashg'ulotlarda ongliklik, faollik, izchillik, asta-sekinlik, yengillik, mustahkamlik, ko'rgazmalilik, individuallik tamoyillariga rioya qilishi;

-bokschilarga texnika, taktika va jismoniy sifatlarni ijodiy takomillashtirishga imkon berishi;

-erkin janglarda bokschilarning bir-biriga qo'pol zarbalarni yoki kuchli zarbalarni berishlariga yo'l qo'ymasligi;

-yassi qo'lqopda ishlash orqali bokschini individual takomillashtirish uchun maxsus vaqt ajratishi;

-bokschi tegishli darajada mashqlanganlikka ega bo'lganidan keyingina uni musobaqalarda qatnashish uchun olib chiqishi;

-sportchini musobaqalarga tayyorlashda, sekundantlik qilishda faol qatnashishi, u bilan musobaqada ishtirok etishi va uning natijalarini muhokama qilishi;

- bokschining shaxsiy xayoti, uning ishi, o'qishi bilan qiziqishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Горстков Е.Н. Анализ тренировочной и соревновательной деятельности боксёров тяжёлых весовых категорий / Е.Н. Горстков // Бокс: Ежегодник. - М.: ФУС, 1983. -С. 43-46.

2. Градополов К.В. Тренировка боксёра в соревновательном периоде: учебное пособие для тренеров / К.В. Градополов, В.И. Огуренков. - М.: ФУС, 1963. - 305 с.

3. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Shamsematov I.Yu., Tajibaev S.S. Bokschilarning sport-pedagogik mahoratini oshirish. T., 2011. 478b.

БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ СУННИЙ-ШИА ИХТИЛОФЛАРИ ТАРИХИДАН

Ражабова Дилноза Ярашовна,

Бухоро давлат университети 3-курс таянч докторанти,

Бухоро тиббиёт институти ўқитувчиси

dilnoza.rajabova@mail.ru

Аннотация: Мақолада XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий вазият, иқтисодий аҳвол, айниқса, 1910 йил январь ойидаги сунний-шиа исёни таҳлил қилинади. Бухоро амирлиги кўп миллат ва турли конфессияли давлат бўлиб, бу ерда мусулмонлар билан бирга асрлар мобайнида яҳудийлар, ҳиндуийлар, христианлар ҳам яшаб келганлар. XX асрнинг бошларига келиб бошқа Шарқ давлатлари қатори, Бухорода ҳам йиғилиб келган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий муаммолар исён чиқаришига шароитни юзага келтиради. Амирлик бошқарувида шиа мулозимларининг мавқеи ортиши ва уюштирилган фитна баҳонасида Бухорода сунний-шиа қўзғолони юзага келади. Унинг бартараф этилиши, оқибати ва натижалари маҳаллий ҳамда хорижий тарихий манбалар, даврий матбуот материаллари, архив ҳужжатлари, шунингдек, замонавий илмий тадқиқотлар асосида таҳлил этилади.

Ключевые слова: Бухоро, қушбеги, зархарид қуллар, форс, шиа, сунний, шайх-ул ислом, ашуро, сарбоз, исён, хунрезлик, сулҳ.

Аннотация: В статье анализируется общественно-политическое и экономическое положение Бухарского эмирата во второй половине XIX - начале XX в., в частности, суннитско-шиитское восстание в январе 1910 года. Бухарский эмират являлся многонациональным и многоконфессиональным государством, где наравне с мусульманами веками проживали евреи, а также индусты и христиане. К началу XX века, наряду с другими странами Востока, накопившиеся в Бухаре политические, экономические и социальные проблемы создали условия для восстания. В Бухаре происходит суннитско-шиитское восстание под предлогом организованного заговора и усиления положения шиитских чиновников в управлении эмиратом. Подавление, последствия и итоги восстания анализируются на основе местных и зарубежных исторических источников, материалов периодической печати, архивных документов, а также современных научных исследований.

Ключевые слова: Бухара, Кушбеги, купленные рабы, персы, шииты, сунниты, шейх-уль-ислам, ашуро, сарбаз, восстание, резня, мир.

Abstract: Given article analyzes the socio-political and economic situation of the Emirate of Bukhara in the second half of the 19th - early 20th centuries, in particular, the Sunni-Shiite uprising in January 1910. The Emirate of Bukhara was a multinational and multi-confessional state, where Jews lived along with Muslims for centuries as well as Hindus and Christians. By the beginning of the 20th century, along with other countries of the East, the political, economic and social problems accumulated in Bukhara created the conditions for an uprising. A Sunni-Shiite uprising is taking place in Bukhara under the pretext of an organized conspiracy and strengthening the position of Shiite officials in the administration of the emirate. The suppression, consequences and results of the uprising are analyzed on the basis of local and foreign historical sources, materials from periodicals, archival documents, as well as modern scientific research.

Key words: Bukhara, Kushbegi, slavery, Persians, Shiites, Sunnis, Sheikh-ul-Islam, Ashuro, Sarbaz, uprising, massacre, peace.

Кириш. XIX асрнинг ўрталарида Бухоро амирлигида яҳудийлик, ҳиндуийлик, православ христианлигидан ташқари, исломнинг суннийлигидан кейинги йирик конфессия шиалик ҳам бўлган. Шиалик – исломийнинг йўналишларидан бири бўлиб, “шиа” атамаси “шиат-ул Али” арабча – “Алининг тарафдорлари” маъносига эга. Унинг юзага келиш тарихи VII га бориб такалади, 632 йили пайғамбар Муҳаммаднинг вафотидан кейин халифаликка даъвогарлар орасида нифоқ чиқади. Халифаликка муносиб номзод деб Муҳаммаднинг жияни ва куёви, қурайш қавмидан бўлган Али ибн

Абу Толиб дегувчиларни “шиалар” дея атаганлар. Суннийлардан фаркли равишда, пайғамбардан кейинги халифалар Абу Бакр ибн Сиддиқ (632-634), Умар ибн Ҳаттоб (634-644), Усмон ибн Аффонларни (644-656) тан олмасдан, Муҳаммад пайғамбарнинг жияни ва куёви бўлган сўнги халифа Али (656-661), унинг Ҳасан ва Ҳусан ўғиллари ҳамда унинг авлодлари бўлган имомларни[17] ҳам тан оладиганлар сифатида VII асрнинг ўрталарида юзага келган оқим.

Бухороликлар “эроний”, “марвий”, “машҳадий”, “форсий” деб атаган бухоролик форсларнинг бу ерга айнан қачон кириб келганликлари ҳақида манбаларда аниқ маълумот учрамайди, уларнинг ўзлари ҳам Бухоро пайдо бўлган қадимги даврдан бери бу ерда яшаб келаяпмиз деб ҳисоблайдилар[26; с.154].

Асосий қисм. Манғитлар сулоласи даврида ҳам муҳолиф қабилаларни кўчириб келтириш сиёсати шайбонийлар ва аштархонийлар давридаги каби давом эттирилган. Муҳаммад Ёқуб Бухорийнинг келтиришича, Амир Шоҳмурод дастлаб 17 минг оилани Бухорога олиб келиб, амирликнинг турли ҳудудларига жойлаштирган. Кейинчалик у яна Эрон ва Хуросондан қизилбош-шиалар авлодлари бўлган тожик тилли 30 минг оилани Самарқандга келтириб жойлаштирган ва уларнинг суннийликка ўтишини буюрган. Унинг вориси Амир Ҳайдар ҳам Марвдан мустақилликка интилаётган маҳаллий амалдорларни заифлаштириш ва зодагонларни уюшмасликлари учун тўрт юз оилани кўчиртириб келтирган [31; с.71].

Форсий аҳолининг амирлик ҳудудига турли йўллар билан кириб келиши кейинги даврларда ҳам давом этган. Жумладан, XIX асрнинг охирига қадар Бухоро ва Хивадаги қул бозорларида кўчманчи туркман қавмлари томонидан тутиб қул сифатида олиб келиб сотилган. Бухоро шаҳридаги форсийлар таркибини асосан XVI-XIX асрларда Марвдан қул сифатида олиб келиб сотилган аҳоли ташкил этган[36; р.291].

XIX асрнинг ўрталарида Бухоро шаҳридаги форсий қулларни амирнинг ҳарбий сарбозлари таркибида, амирлик девони амалдорлари қўлида хизматчилар, зодагон оилаларда эса хўжалик ишлари бажарувчиси сифатида учратиш мумкин эди. А.Бёрннинг маълумот беришича, Бухорода ҳар учтадан бир одам қул кишига тўғри келган. А.Вамбери эса: “Бухородаги форсийлар доимий диний солиқларни тўлаб келган ва хонликга жуда яхши мослашган. Чунки улар учун бу ерда яшаш ўз юртидан кўра арзонроқ ва ҳунармандчилик учун қулай макон эди. Уларнинг айримлари зодагон эгаларининг ишончини қозонган эди” дейди[37].

1926 йилги амирлик бўйлаб тузилган рўйхатга кўра олти минг форсийлар қайд этилган бўлиб, ундан икки минг Бухоро шаҳрида яшаган[26; с.154].

Бухоро аҳолиси форсийлар билан ижтимоий жуда фаол муносабатда бўлган, айниқса, “Амир Шоҳмурод кўчиртириб келган марвликлар Бухорода янги ватанларини топгандек эдилар”[20; б.204] деб ёзган Мир Абдулкарим Бухорий. Буни В.В.Бартольд ҳам эътироф этиб “Марвийлар бу ерда миннатдор яшар эдилар”[12; с.108] деган.

Мавжуд маълумотлардан Бухорода форсий аҳолининг қачон кириб келганлиги ва қанча бўлганлигини аниқлаш қийинчилик туғдиради, аммо қуйидаги гипотеза юзага келди. Бухородаги форсий тилда сўзлашувчи икки хил аҳолини фарқлаш лозим, булар милодий I минг йилликнинг бошларидан бошлаб, кейинчалик турли даврларда Бухоро ҳукмдорлари томонидан кўчириб келтирилган озод эроний ҳамда марвликлар ва XX аср бошларигача кўчманчи туркманлар томонидан тутиб келтириб сотилган эроний халқлар вакиллари. Улар шиа мазҳабига эътиқод қилганлиги туфайли амирлик ҳудудидаги шиаларнинг асосий қисмини ташкил этишган.

Шиалар Бухоронинг турли қисмларида, асосан шаҳарнинг ғарбий гузарларида яшаганлар. Жўйборлар ҳудудининг кўп қисмлари шаҳарга яқин Қумработ ва Афшор-маҳалла кишлоқлари уларнинг макони бўлган. Жўйборий хўжалари ҳудудларига яқин яшайдиган форсларга Чақар, Абдуллаҳўжа, Чуқур маҳалла, Вакф ва Ҳаузи баланд маҳаллаларида асосан шиаликка эътиқод қилувчи форслар истиқомат қилган. Бухоронинг марказий Тўпхона ва Аркнинг ғарбий қисмидаги эски шаҳристон қисмидаги Дўст-чуроғосидаги форслар сунний бўлиб, улар бу ерда кўп йиллардан бери яшаб, бошқа Бухоро фуқаролари билан масжидга чиқиб ибодатларини бажариб келганлар[28; б.39-40]. Шунга ўхшаш XIX асрнинг 2-ярмида ижтимоий тенгликка эришган форсийлар Косагарон маҳалласида жойлашгач, бу кўча “Кўчаи ғуломо” деб аталган. Айрим бошқа шиалар эса суннийликка ўтиб, туб бухороликларга қоришиб яшайверганлар.

Шиа мазҳабидаги форсийлар ҳам амирликдаги маълум чекловларга амал қилишлари керак бўлган. Жумладан, уларнинг Бухорода маҳаллалари алоҳида қилиб ажратилган, суннийликка

ўтганлар эса Шиаларнинг Бухорода Тўпхона ва Жўйбор гузарлари бўйлаб учта ибодат уйлари-хусайнияхоналари бўлган бўлиб, биттаси эски Ҳавзи баланд маҳалласида, иккинчиси Моркуш маҳалласида, кейингиси Жўйизар ва Жанафарон маҳаллалари орасида жойлашган. Шунингдек йирик яна бир хусайнияхона Когонда (Янги Бухоро) ҳам бўлган[23; б.125]. Хусайнияхоналарда ибодат расм-русумлар диний раҳнамо- *шайх* етакчилигида амалга оширилган. Аммо диний ритуал (намоз) учун ҳар куни йиғилинмаган, хусайнияхоналар асосан ҳар йилги мотам маросими бўлган *Ашурони* (“*шоҳсей-воҳсей*” одати ҳам бўлиб, бу Хусайннинг вафоти учун ўзини қийноққа солиш) нишонлаш вақтида одамларга тўлган. Ашуро мотам маросими Муҳаммад пайғамбарнинг неваралари, Али ва Фотиманинг зурриётлари бўлган Ҳасан, Хусайн ва уларнинг сингиллари вафотига бағишланган. Шиалар уларни ғайридинлар зулмидан сақлаб қололмаганликда ўзларини айблайдилар, афсусланадиган чекадилар ва маросим вақтида бу “гуноҳи кабира” (катта гуноҳ) учун ўзларини уриб жазолайдилар. Ашуро ҳар йили бир ойдан ортиқроқ давом этиб, унда аза очиб йиғланади ва мотам либослари кийилади. Баъзида от устида бола миндириб Али зурриётларининг ёшлигининг рамзий сахнаси гавдалантирилади, баъзан эса тобутда уларнинг дафн маросими уюштирилади[33; б.34]. Шу тариқа муҳаррам ойи ўнинчи ашуро кунидан бошлаб бир ой давомида шиалар оқимидагилар мотам тутиб, хусайнияхона-тазияхонада аза либосида юришган.

XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларига келиб Бухоро амирлигининг марказидаги форсийларнинг ижтимоий тенглик берилиши (1885 йил Амир Сайид Абдулаҳадхон куллини бекор қилиши[18; б.21]) сабабидан барча борадаги фаоллиги ошади. Улар диний маросимларни очик майдонларда, Бухоронинг кенгроқ худудларида ўтказиш бошлайдилар. Маҳаллий сунний аҳолининг уларга нисбатан муносабати мўътадил бўлган. “Асосан Самарқанд ва Шергирон дарвозаларининг орасидаги очик осмон остида мотам маросимини нишонлаган шиаларга сунний кўшнилари ҳам ҳамдардлик билдириб маросимга қўшилган эдилар” дейди А.Бёрнс ўз асарида[13; с.369].

Бу даврга келиб озодликка эришган форсий сарбозлар юртларига қайтади, қолганлари ҳам ёлланма аскар сифатида хизматга қолади. Армия сафини тўлдириш учун эса Амир Абдулаҳадхон хазидан ортиқча сарфлашига тўғри келган[34; с.266]. Ички иқтисодий муносабатларда ҳам аввалгидан фаоллашишган. Хунармандчилик, ипакчилик, мато тўқиш ва ипакка ишлов бериш каби машғулотлар билан шуғилланиш билан бирга, айрим эркин форслар хунармандларга ёрдамчи сифатида ёлланма ишчи бўлиб ҳам тушган. Амир амирлик девони ва ҳарбий қисмдаги форсийларга фаолиятларини давом эттиришга рухсат берган, бу эса уларнинг сиёсий доирада мавқеининг ортишига сабаб бўлган.

Аҳмад Дониш ўз асарида форсий мулозимларнинг сарой ишларига аралашуви Амир Ҳайдар хукмронлиги давридан бошланиб, улар девонбегилар ва дин пешволари хузурида “шоғирдпеша” сифатида садоқатли хизмат қилиб келганликларини, унинг вориси Насруллохон Баҳодир даврига келиб улар ҳарбий ишларга жалб этилганлигини ёзади[11; б.33]. Бундай девон ва ҳарб ишига жалб этиладиган “зархарид қуллар” рус, қалмиқ ва форсий асирларидан танланган[19; с.41].

XIX асрнинг ўрталарига келиб амирликдаги муҳим давлат лавозимлари сифатида П.Шубинский ва Н.А.Кисляков асарларида қушбеги, бош закотчи ва тўпчибошининг сиёсий мавқеи ошганлигини келтирадилар. Қушбеги бутун амирлик администрацияси, бекликлар бошқаруви, масъул лавозимлардаги мансабдорларни; бош закотчи эса солиқ, тушумлар, ички ва ташқи савдо муносабатларини; тўпчибоши эса ҳарбий салоҳият, армия, ташқи сиёсий ишларни назорат қилиб, бу масалалар бўйича Туркистон генерал-губенаторлиги, амирликдаги сиёсий агентлик ва кўшни давлатлар билан расмий алоқаларни амалга оширган [34; с.47]. XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб Амир Музаффархон саройининг қушбегиси унинг зархарид ғуломларидан Мулла Муҳаммадий (1872-1889)[5; р.199], бош закотчи ва тўқсабо қушбегининг ўғли Муҳаммад Шариф бўлган[36; б.293]. Шунингдек, қушбеги поин сифатида Ҳисор ҳокими Остонақул қушбеги[22; б.285], девонбегилар Муҳаммад Юсуф, Ғулом Ҳайдарбеги, Ҳайдаркул Иноқ ибн Муҳаммад Шариф Девонбеги ва Мўминбек Иноқ каби бир қатор шиалар мулозимлари фаолият юритган[15; б.40]. Сарой вазири аъзами Муҳаммад Шохбий қушбеги (қушбеги поин ёки кулли қушбеги) бўлиб, Остонақул қушбегигача (1905-1910) кетма-кет тўртта олий вазирлар зархарид ғуломлар наслидан бўлган[5; р.194].

1873 йили америкалик дипломат Южин Скайлер Россия империяси орқали Марказий Осиёга, айниқса, Бухорога қилган саёҳати ҳақидаги хотираларида алоҳида тўхталади. Уни амирлик худудига кириб келганида пойтахт музофотида Муҳаммад Шариф тўқсабо бошчилигидаги ҳарбий зобитлар гуруҳи кутиб олади. Бир неча кундан кейин Амир Музаффар билан учрашишга муяссар бўлади.

Ўзаро суҳбат давомида меҳмон амирдан Бухоро, Қоракўл ва Чоржўй бекликларига сафар қилишга рухсат олишга эришади[36; б.295]. Асарда муаллиф Чоржўйда амир хазинахоналаридан бири ва ашаддий жиноятчилар сақланадиган ҳибсхонаси бўлганлиги сабабли у ерни бориб кўришга бўлган иштиёқини яширмайди. У Бухорода бўлган бир ҳафталик таассуротларини ёритар экан, кейинчалик Қоракўл орқали Чоржўйга бориши учун кушбегидан рухсат бермаганлигини, ҳатто барча расмий учрашувлар давомида ҳамроҳи бўлган унинг ўғли Муҳаммад Шариф ҳам отасига амирнинг оғзаки рухсати бор бўлганлигини тасдиқламаганлиги ва натижада боролмаганлигидан таассуф чеккан. Саёхатчининг ушбу хотираларидан Бухоро кушбегисининг ташқи дипломатик муносабатлар ҳамда бошқарувдаги сиёсий таъсири ортганлиги англашилади.

XIX асрнинг сўнгига келиб асосий сарой мансаб ва амалларига шиа мулозимлар тайинланган бўлсаларда, барча диний унвон ҳамда лавозимлар шариатга кўра сунний мусулмонларга топширилган. Жумладан, энг қуйи оддий муаззин ва имомдан энг юқори қози-калон ҳамда шайх-ул исломгача сунний мусулмон уламолардан, шунингдек, ўроқи хурф, ўроқи калон, садр, судур, мири аст, файзи, накиб каби фақат хўжа ва сайидлар авлодидан тайинланадиган диний вазифалар бўлган. Рус империяси вассаллигига ўтилгач, дипломатик муносабатлар сиёсий лавозимдагилар орқали амалга ошган. Амир ва рус ҳукумати орасида кушбеги воситачилик қилган[3; р.8-12].

Сарой мирзоси бўлган сунний уламо Мирзо Сомий Бўстоний ва Аҳмад Донишлар шиаларнинг барча мазҳаб ҳамда йўналишларини асарларида рофизийлар[40] деб атайдилар. Ҳар иккала муаллиф ҳам сарой бошқарувининг шиа йўналишидаги амалдорлар қўлига ўтганлиги оқибатини давлат инкирозига олиб келади деб башорат қиладилар[21,10]. Сабаби нафақат девоннинг, балки бутун давлат измининг шиалар назоратига ўтиб бориши эътиқодга ҳам салбий таъсир кўрсатади дея қуянадилар.

XX асрнинг бошларига келиб Бухоронинг кўп конфессияли жиҳатидан фойдаланиб нифок чиқариш ҳоллари кўпая боради. Оқибатда Амир Музаффархон даврида бир неча марта бўлган шиа-сунний низолари, Абдулаҳадхон ҳукмрон даврга келиб қайта газак олган. Карманадан туриб амирликни бошқараётган Абдулаҳадхон ҳақида сунний уламолар орасида “унинг онаси, аҳли аёли, кушбеги ва юқори бир нечта лавозимлардаги амалдорларининг шиа мазҳабида бўлганликлари ислом ақидаларининг заифлашувига сабаб бўлаётгани, қолаверса, амирнинг валиаҳди христиан мактабига ўқиб келгани ҳам бидъат” деган иғволар тарқалади[24; б.31].

Бу каби гапларни тарғиботчилари 1909 йилдан бошлаб Эски Бухорога келган Туркия фуқароси Оға Ризо Эшон Али Аскархонов ва Россия сиёсий агентлигининг Бухородаги вакили Мир Ҳайдар Мирбадаловлар саналиб, маҳаллий суннийларни шиаларга қарши ғиж-ғижлай бошлади. Тарғиботчи турк жосуслари, ҳукуматдан норози сунний зодагон ҳамда уламоларнинг таъсири билан Амир Абдулаҳадхоннинг ўрнига унинг сунний ака-укаларидан бирини тахтга ўтқизмоқчи бўладилар[29; с.33].

Бухоро амирлиги қози калони сунний Бақоҳўжа ва раис Бурҳониддинлар Остонақул кушбеги ва бошқа шиаларнинг сиёсий бошқарувдаги фаолиятдан норози эдилар. Бурҳониддин ва Татаристондан келган мулло Қамарлар С.Айнийнинг ёзишича, Остонақулни лавозимидан тушуриш йўллари излай бошладилар[25; б.57]. Мулло Қамар Россия сиёсий агентлигининг махфий ходими ҳисобланган.

Амирликда аҳолини норози қилган жуда кўплаб ислохотлар: таълимдаги ўзгаришлар, яъни вақф мулкларининг қисқариши билан талабалар нафақаларининг (стипендия) камайтирилиши, мадраса хужраларининг савдогарларга ҳам ижарага берилиши; солиқлар борасидаги амирликнинг хом-ашё ва бойликларини ўзлаштиришга қаратилган мустамлакачилик сиёсати аслида рус империяси томонидан шиа амалдорлари воситасида амалга ошириб келинаётган эди. Бу қийинчиликларга кушбеги Остонақулнинг амирлик бошқарувидаги кўплаб асосий лавозимларга оға-ини, ўғил-куёвларини тайинлаши ҳамда уларнинг кирдикорларининг қўшилиши маҳаллий аҳоли ва сунний зодагонларнинг тоқатини тоқ қилади.

Шундай қилиб, Остонақул кушбегига қарши очиқ кураш учун 1910 йилнинг январида бошланади. Эроний шиалар шу куни кушбеги рухсати билан Самарқанд дарвозасига яқин бўлган Арк рўпарасидаги Боло Ҳовуз масжидида Ашуро мотам маросимида тўпландилар. Ҳар йили хусайнихоналарда нишонланиб келинаётган маросимнинг очиқ майдонда нишонланиши исённинг бошланишига туртки бўлади. Суннийлар бу маросимни бидъат дея, уни оммавий нишонланишини бекор қилиниш тўғрисидаги фатво чиқаришини сўраб муфти имом Домулла Икромга мурожаат

киладилар. Аммо Домулла Икром суннийларнинг ҳам бидъат амал ва маросимлари йўқ эмас[39] дея бу талабни рад этади[7; p.73].

Дастлаб Бухоро мадрасаларида ўқиётган сунний мулловачча шиаларнинг ўзларини уриб, фиғон тортиб йиғлаётганларига кулгани баҳонасида тазиядорлар томонидан жазоланиши оқибатида нифок чиқади. Фитрат Бухородаги бу жанжал бошланган вақтда шаҳарда бўлган, “Шанба куни хужрамдан чиқиб Тоқи телпақдўзонга келганимда, элликка яқин муллабаччалар йиғилиб бир нарсани муҳокама қилаётганларини кўрдим. Бориб кулоқ тутдим. Айтишларича, “Самарқанд” дарвозаси ташқарисида тамошага борган икки-уч нафар муллабачча билан эронийлар ўртасида жанжал чиққан. Бу 1328 хижрийнинг 10 муҳаррами эди” дейди[1; p.283-291].

Суннийлар норозилиklarини билдириб Арк майдонига йиғилишди. Улар кушбеги Остонакулдан эроний шиаларни жазолаш ва бундан кейин Ашуро маросимини Бухорода ўтказилмаслигини талаб қиладилар. Исёнчилар даставвал асосан муллобаччалардан иборат бўлиб, кейин уларга сунний оломон ҳам эргашган. Улар қарийб ўн минг кишидан ортган эди. Кушбеги Остонакул Арк қаршисига йиғилган суннийларга қарши амир сарбозларини юборади, оқибатда 1910 йил 9 январда хунрезлик бошланиб кетган эди. Исён бир тиниб, яна қайта жонланиб уч кунгача давом этган ва уни шу даврнинг барча нашрлари шу пайтгача бўлган сунний-шиа кўзғолонларининг энг йириги деб таърифлаган. Жумладан, ушбу давр рус империяси ҳукуматини расмий-ҳарбийлари баёнотидан ташқари, уни кузатиб турган мусулмон дунёси нашрлари, жумладан, “Туркистон вилояти газетаси” (Тошкент), “Бурҳон-и тараққи” (“Тараққиёт асоси”, Астрахан), “Вақт” ва “Шўро” (Оренбург), “Баён ул ҳақ” (“Ҳақиқат баёни”, Қозон), “Мулла Насриддин” (Тифлис), “Таржимон” (Боғчасарой) ва “Сирот-ул мустақим” (Туркия) каби мусулмон даврий матбуотлари турлича таҳлил этиб ёритиб борган[5; p.206].

“Таржимон”нинг 1910 йил январидagi 3-5 сонларида Исмоил Гаспиринский Бухорода сунний-шиа жанжалини таҳлил этар экан, асосий сабаб сифатида давлатнинг молия тизимини ҳамда рус империяси босимини эътироф этади. Таълим тизимининг издан чиққанлиги, савдо муносабатларига ҳам путур етганлигини тасвирлайди[1; p.182].

Карманда турган Амир Абдулахадхон исённи бостириш учун Шаҳрисабз беги Мирзо Насрулло, Чоржўй беги Мирзо Низомиддин Урганжий ва Кармана беги Саййид Олимхонларни Бухорога юборди. Аммо кўзғолонлар тинчиб кетмагач, сиёсий агентлигининг таклифига биноан Туркистон генерал-губернаторлигидан армия билан ёрдам бериши сўралади. 1910 йил 13 январь куни Самарқанддан пойтахт Бухорога келган генерал Г.Лилиентал раҳбарлигидаги рус аскарлари келиб исённи бостирди. Бу хунрезликлардан кейин 15 январда икки шиа-сунний томон раҳнамолари иттифокка келишишади, Остонакул кушбеги лавозимидан олиниб, унинг ўрнига Шаҳрисабз беги сунний Мирзо Насрулло кушбеги этиб қўйилади[29; с.30-48]. Исён натижасида беайб бўлган кўплаб инсонлар нобуд бўлади. Қарийб беш юз эроний ва бухороликлар вафот этган. Келишув сулҳидан сўнг шиа мазҳабидаги 300 дан ортиқ киши Бухоро шаҳридан чиқариб юборилган.

Рус зобити Энпе ўзининг хотираларида Бухородаги январь воқеаларини таҳлил эта туриб, Бухоро амирлигини ҳарбий жиҳатдан заифлиги уни рус империяси ҳарбий кучларига қарамлигини орттиради дейди[35; с.188]. Унинг асари объектив ўрганилганда Бухоро амирлигининг ижтимоий-сиёсий вазияти, иқтисодий аҳволи мураккаблашганлигини, унинг рус ҳукумати жуда кучли назоратида бўлганлигини тушуниш мумкин.

Америкалик сайёҳ Уилям Э.Кёртис ўзининг “Туркистон Осиёнинг юраги” асарида ушбу воқеалар ҳақида “1910 йилги ҳаракатлар бирдан бошланмаган бўлиб, унда кўзғолончиларнинг диний ва сиёсий талаблари қоришиб кетган эди... кўзғолонга рус ҳукумати чора кўрган бўлса-да, аслида урушган икки томон ҳам ҳуқуқларини ҳимоя қилинишини истар эдилар. Сабаби давлатда на конституция ва на парламентнинг йўқлиги эди” дейди[8; p.141-144].

Садриддин Айний ўзининг “Бухоро манғит амирлари тарихи” ва “Бухоро инқилобининг материаллари” асарларида исённинг сабаби сифатида сунний қозикалон Бурҳониддин (Бадриддин қозикалон ўғли), раис Мулло Бақоҳўжа ва шиа Остонакул кушбегининг ўзаро келишмовчиликларини келтиради. Аҳмад Дониш эса “Меъёр ут-тадайюн”да ёзишича, 1908 йил қозикалон Мулло Бадриддин вафотига қадар суннийдан бошқа барча эътиқодлар қаттиқ назоратда тутилган. Кейин эса сунний, шиа, яҳудий ва христианлар орасида ўз динини ҳақ дин эканлигини исботлашга ҳаракатлар ортган. Гарча давлат дини исломнинг сунний йўналиши бўлсада, уни кушбеги шиа Жон Мирза, бош закотчи шиа Остонакул юритганлиги[10; б.6] сунний уламоларни норози қилди.

В.В.Бартольд Бухородаги 1910 йилги воқеаларга сунний амалдорларининг босим ва адолатсиз бошқарувга қилган жавоби ёки диний мутаассибларнинг реакцион ҳаракатлари[12; с.246] дея баҳо берган бўлса, А.Х.Ҳамроев икки феодал қатламнинг Бухоро меҳнаткаш аҳолисини сиёсий бошқаруви учун олиб борган қонли кураши эди[32; с.70] деган. Т.Г.Тўхтаметов эса ўзининг тадқиқотида ушбу воқеа учун алоҳида тўхталиб, исёнга турк жосусларининг фаоллиги орқали эришилганлиги, бунинг замирида эса Германиянинг (Туркиядаги агентлари) мустамлакачилик сиёсатидаги олиб борган айёрони режалари ётар эди деган хулосага келади.

У.Ж.Рашидов эса исённинг рус ҳарбийлари ёрдами билан бостирилиши амирликнинг ички ишларига расман аралашини назарда тутар эди деган хулосани келтиради[24; б.33]. Кимура Сатору суннийлар шиаларнинг ўзларига эмас, балки эътиқодларига қарши бўлганликларини эътироф этади, кўзғолон эса узоқ вақтдан бери йиғилиб келган норозиликнинг радикал реакцияси дея баҳолайди[5; р.208]. О.А.Сухарева эса 1910 йилги воқеаларни асрлар давомида шаклланган сунний ва шиаларнинг маданий алоқалари, қон-қариндошлик ришталарига берилган кучли зарба сифатида баҳолайди[26; с.165]. Бухороликларнинг конфессиялараро бағрикенглига қарамай, айрим сиёсий жосуслар кўп сонли мусулмонлар орасидаги маҳаллий анъаналарга нифоқ солишга эришган эдилар.

1910 йилги воқеалар архив ҳужжатлари асосида таҳлил этилганда, бу даврда Бухоро амирлиги шиаларига Ўрта Осиё хонликлари ҳудудларидан паноҳ топган, мағлубиятга учраган Эрон бобийлик ҳаракати аъзоларининг ҳам таъсирини кўриш мумкин[30; 1-3 варақлар]. XIX асрнинг 2-ярмидан бошлаб амирлик ҳукуматида шиалар фаоллашганлигига қарамасдан империя нозирлари назоратида эди. 1898 йилда закотчи Мулла Муҳаммад Гавҳар Девонбегининг ўзи туғилган Машҳадга жуда катта пул юбортиргани ва сиёсий мавқеидан суистеъмол қилгани учун ҳибсга олиниб, хазиначи Остонакул билан бирга сўроққа тортилган. Остонакулнинг айбисизлиги исботланиб, девонбеги қамалгани билан империянинг амирлик иқтисодий масалаларидаги назорати янада кучаяди[5; р.205]. 1899 йили рус ҳукумати амир ва унинг девонини Янги Бухорода амирлик ғазнаси ҳисобидан бунёд этилган мухташам саройга кўчиб ўтишини буюради. Аммо амирнинг (саломатлигига об-ҳавонинг таъсири сабаб) Карманадан туриб бошқараётганлиги, саройнинг мусулмон анъаналарига кўра бунёд этилмаганлигини рўқач қилиб қушбеги Жонмирза амирнинг рад жавобини етказди[6; р.575]. Бобийлик ҳаракатининг[38, 2;р.98, 4;рр.309-317] ижтимоий тенглик ғоялари Бухоро амирлигида савдо билан машғул бўлган шиа зодагонларига кучли таъсир этган. Машҳад ва Карбалога зиёрат қилишга борган шиа мусулмонлари бобийлик ғояларидан воқиф бўлишган.

Кўзғолон натижасида амирлик қушбегиси этиб сунний Мирзо Насруллоҳ тайинланиб, бошқа мансаблардан ҳам шиалар четлаштирилганлигига қарамай, амирликнинг бошқарув тизими аввалгидек ўзгаришсиз қолаверади. Шунинг учун бутун 1910 йил давомида исённинг қайта бошланиб кетмаслиги хавфи бутун империя ҳукуматини хавотирга солиб турган. Россия империясининг кейинги 1910 йил апрелидаги паспорт тизимини жорий этиши ва 12 нафар рус сиёсий разветкачисидан иборат бўлган маош ажратилган (йиллик 7980 рубл. бўлган маошнинг 200 рубли империя, 5980 рубли амирлик ғазнаси ҳисобидан) назорат гуруҳининг Эски Бухорода фаолият бошлаши каби ислохотлари ҳам назоратни кучайтиришга қаратилган[29; с.46-48]. Шунингдек, амирликда яширин фаолият юритган инглиз, немис ва турк жосусларига ҳам барҳам беришни назарда тутган.

Исён таҳлил қилинганда, унинг вужудга келиш асослари, сабаблари, натижа ва оқибатларини чуқур тадқиқни тақозо этади. Ушбу воқеа ҳақидаги архив ҳужжатлари, тарихий манба ва замонавий тадқиқотларни таҳлил қилинганда, қуйидагича хулосага келиш мумкин. Кўзғолонга қатнашчилари бўлган ҳар бир ижтимоий қатламнинг ўз манфаатларидан келиб чиқувчи норозилик сабаблари мавжуд бўлган. Жумладан, исённи бошлаган мулловаччаларнинг ўқув тизимидаги иқтисодий оғирлашиб бораётган яшаш ҳамда ўқитиш шароитларидан норозиликлар; ўрта қатлам бўлган хунарманд, деҳқон ва кичик савдогарларнинг ортиб кетган солиқлардан безганликлар; зодагон суннийларнинг амирлик бошқарувида ортган шиа мулозимлари ҳамда уларнинг адолатсизликлардан муҳолифатликлари туфайли юзага келади. Қолаверса, бобийликнинг ижтимоий тенглик ғоялари таъсири туфайли маҳаллий шиа мусулмонларининг ҳам ўз даъволари бўлган. Улар XX аср бошларига келиб ўзларини суннийлар билан барча борада тенг муносабатларга ҳақли деб ҳисоблай бошлаганликлари ташқи кучларга кўзғолонни уюштириш имконини берган.

XX асрнинг бошларидаги вазият Бухоро амири Саййид Абдулаҳадхондан рус империяси босимини юмшатиш, ҳукумат ва диний уламо алоқаларини иттифоқда тутиш, маҳаллий аҳолининг

манфаатларига кўра ислохот юритишни тақозо этар эди. Аммо оз сонли амирлик сиёсий бошқарувидаги шиаларнинг кўп сонли зодагон сунний амалдорлари билан ҳисоблашмай қўйганликлари ва маҳаллий аҳоли манфаатларига зид тадбирлари натижасида дин омили сабаб юзага келган кескин норозиликлар оғир оқибатларни келтириб чиқаради.

Хулоса қилиб айтганда, 1910 йили Бухорода бўлган шиа-сунний кўзғолонининг асл сабаби ижтимоий-сиёсий норозиликлар бўлиб, дин аслида баҳона бўлган. Бухоро амирлигидаги кўп конфессияли ҳолат фитначиларга қўл келган. Шиа форсийлари яҳудийлар, ҳиндлар ва христианлар каби амирлик ҳудудларида кўпчиликни ташкил этиб, азалдан яшаб келишган. Асосан савдо, хунармандчилик ва ипакчилик билан шуғилланиб, ижтимоий тенгликка эришгунга қадар, ҳуқуқий ҳамда эътиқодий чекловларга амал қилишган. XIX аср охири – XX асрнинг бошларига келиб амирлик ҳуқуқатида оз сонли шиа мулозимларининг сиёсий мавқеи ошганлиги сабабли сунний элита билан муҳолифатга айланганлигига қарамасдан, шиа йўналишидаги форсий аҳолининг бухороликлар билан ўзаро умумий этно-маданиятлари тараққий этиб улгурган эди. XX аср бошидаги йирик кўзғолон эса “Катта оға” давлатларининг Осиё давлатлари устидан олиб борилаётган “Катта ўйин”да Бухоро амирлиги ҳам бир мустамлака ҳудуд сифатида ташқи кучларнинг сиёсий таъсирида бўлганлигини яққол кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Abdurashidov Z. *Tarjimon (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi.* –Temmuz: *Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi*, Sayı / Number: 22., 2012.
2. Annemarie Schimmel. *Islam an introduction.* –USA, 2009.
3. Bregel Y. *Administration of Bukhara under the Manghüts and Some Tashkent Manuscripts.* // *Indiana University, Research Institute for Inner Asia Studies*, 2000.
4. *Encyclopædia Iranica*, III/3.
5. Kimura Satori. *Sunni-Shi’I relations in Russian protectorate of Bukhara, as perceived by the local ‘ulama’* // *Asiatic Russia: imperial power in regional and international contexts.* –London, Routledge, 2011.
6. Olufsen O. *The Emir of Bokhara and his country.* –Gyldendal, Nordisk forlag. Copenhagen, 1911.
7. Sadriddin Ayniy. *Buxoro inqilobining tarixi. Shimada Shizou va Sharifa Tosheva* (Tokyo: Department of Islamic Area Studies, Center for evolving humanities. The University of Tokio. 2010).
8. William Eleroy Curtis. *Turkestan “The heart of Asia”.* –NY, 1911.
9. Абдурашидов З. *Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: “Мунозара” ва Истанбул Бухоро жамияти хайрияси.* – *Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”*, 2020, No 2 (31).
10. Аҳмад Дониш. *Меъёр ут- тадаййун.* / Тоҷикчага Девонақулов А., Зокиров Н.таржимаси. – Душанбе, 2008.
11. Аҳмад Дониш. *Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи.* – Ёўлдошев Қ. таржимаси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2014.
12. Бартольд В.В. *История культурной жизни Туркистана.* –Ленинград, 1927.
13. Бёрнс А. *Путешествие в Бухару.* – Москва, 1848.
14. Вамбери А. *Путешествие по Средней Азии.* –М., 2003.
15. Воҳидов Ш., Холиқова Р. *Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX-XX аср бошлари).* –Т., 2006.
16. Иванов П.П. *Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в.).* –М., 1958.
17. *Имомат- пайгамбар ўринбосарлиги ёки ислом давлати раҳбарлиги пайгамбар васиятига кўра фақатгина унинг қизи Фотимадан туғилган Алининг эркак авлодларига хос деган қараш.* (Тулупов А. *Ислом ва ақидапараст оқимлар.* –Тошкент, 2013. –Б. 77.)
18. Иноятлов С., Тўраев Ҳ., Ҳайитова О. *Амир Абдулаҳадхон даврида Кармана.* –Тошкент, 2004.
19. Кисляков Н.А. *Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX–начале XX века.* –Изд. Акад. Наук СССР: 1962.

20. Мир Абдулкарим Бухорий. *История Средней Азии. Превод Г.А.Мирзоева // Материалы по истории туркмен и Туркмени, Том II. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники.* –М.-Л. АН СССР. 1938.
21. Мирзо Сомий. *Миръот ал-яқин. Бухоро вилояти давлат кутубхонаси қўлёзмаси, № 70.*
22. Ражабов Қ., Иноятов С. *Бухоро тарихи.* –Тошкент: «Тафаккур», 2016.
23. Раҳматова С., Қурбонов Ҳ. *Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар.* –Бухоро нашриёти, 1995.
24. Рашидов У., Рашидов Ў. *Бухоронинг Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлари тарихидан.* –Бухоро, 2013.
25. Садриддин Айний. *Тарихи инқилоби Бухоро.* –Душанбе: “Адиб”, 1987.
26. Сухарева О.А. *Бухара: XIX – начало XX в. (позднефеодальный город и его населения).* – М., 1966.
27. Тулепов А. *Исломи ва ақидапараст оқимлар.* –Тошкент, 2013.
28. Тўраев Ҳ.Ҳ. *Бухоро топонимлари.* –Бухоро: Durdona nashriyoti, 2021.
29. Тухтаматов Т.Г. *Россия и Бухарский эмират в начале XX века.* – Душанбе: Ирфон, 1977.
30. *Ўзбекистон Миллий Архиви, И-1, Рўйхат-17, 1020-Иш.*
31. Ханыков Н. *Описание Бухарского ханства.* –СПб, 1843.
32. Ҳамраев А.Х. *К вопросу о январских событиях 1910 г. в Бухаре / Труды Среднеазиатского государственного университета. Новая серия. Вып.57. Ташкент, 1955.*
33. Шайх Муҳаммад Солиҳ Муҳаммад Юсуф. *Исломи тарихи. 2-том.* –Т., 2007-2008.
34. Шубинский П.П. *Очерки Бухары. // Исторический вестник.* –СПб., 1892. № 7.
35. Энне. *Очерки Бухары // Средняя Азия. 1910, №4.*
36. Южин Скайлер. *Туркистон. Саидбобоев таржимаси.* –Т., 2019.
37. Юқорида берилган: Вамбери Ҳ. *Марказий Осиёдаги (асосан, Хива ва Бухоро) форсий қулларнинг сони 80 минг нафар деган бўлса ҳам, П.П.Иванов бу тахминий рақамлар бўлганлиги ва аслида 40 минг нафардан ошмаслигини бошқа манбаларга таяниб таъкидлайди. (Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. –М., 2003, с.15; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI-середины XIX в.). –М., 1958, с.164.)*
38. Юқоридаги жумлага изоҳ: Бобийлик- Эронда Муҳаммад Али Табризий 1826 йилда асос солган ҳаракат бўлиб, айрим адабиётларда “Бобизм” оқими деб ҳам келтирилади. Ҳаракат иштирокчилари ижтимоий тенглик ва адолатли ҳуқуқий бошқарув гояларини тарғиб этишган. (Annemarie Schimmel. *Islam an introduction.* –USA, 2009. –P. 98; “BABISM”, *Encyclopædia Iranica*, III/3, pp. 309-317.)
39. Юқоридаги жумлага изоҳ: Гули сурх сайли каби маҳаллий маросим назарда тутилган.
40. Юқоридаги жумлага изоҳ: Рофизийлик- “рофиз” сўзи арабча, “тарк этиши”, “рад этиши”, “маслагидан қайтиши” маъноларини билдиради. Пайгамбар суннатларини рад этган шиаларнинг барча мазҳаблари шундай аталган. (Тулепов А. *Исломи ва ақидапараст оқимлар.* –Тошкент, 2013. –Б. 73).

PROFESSOR SULAYMON INOYATOV QUTLUG‘ 85 YOSHDA



*Rashidov Oybek Rasulovich,
Buxoro davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori (DSc)*

Tabarruk zamin, iymon gavharining markazi bo‘lgan Buxoroyi sharifda ko‘plab olim-u fuzalolar, davlat va jamoat arboblari, shoir-u yozuvchilar, vatan himoyachilari va usta dehqonlar voyaga yetgan. Bugungi kunda Buxoroda Xo‘jayevlar sulolasini bilmaydigan inson topilmaydi. Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Atoulla Xo‘jayev singari ma‘rifatparvar va davlat arboblari o‘z davrida mustabid sho‘ro tuzumining begunoh aybdorlari edilar. Keyingi yillarda ushbu suloladan Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan olimlar, pedagoglar, yuristlar, tibbiyot va ichki ishlar xodimlari yetishib chiqdi. Ana shunday insonlardan biri tarixchi olim, professor Sulaymon Inoyatovdir.

Inoyatov Sulaymon Inoyatovich 1938-yil 12-martda Buxoro shahrining Sitorayi Moxi Xosa mavzesidagi Shexon ko‘chasida tavallud topgan. 1946-1956-yillarda Buxoro shahridagi 10-sonli o‘rta maktabni bitirib, 1956-1961-yillarda Buxoro davlat pedagogika instituti (bugungi Buxoro davlat universiteti)ning tarix-filologiya fakultetida o‘qigan. Professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida ma‘lum mavqega ega bo‘lganligi, institutni imtiyozli diplom bilan bitirgani uchun ham shu ilm dargohiga o‘qituvchilikka qoldirilgan. 1964-1966-yillar davomida institut yoshlar qo‘mitasini boshqargan. 1966-1969-yillarda A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining aspiranturasida tahsil olib, 1969-yilning 7-oktabrida Toshkent davlat universitetida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “O‘zbekiston matbuotining qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirishdagi roli” mavzusidagi dissertatsiyani himoya qilgan.

1969-1980-yillar davomida Buxoro davlat pedagogika institutida dars berish bilan bir qatorda rus filologiyasi fakultetida dekan lavozimida ishlagan. 1987-yili Moskva davlat pedagogika universitetida tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun “Mehnatkashlarni internatsionalizm ruhida tarbiyalashda matbuotning o‘rni (O‘rta Osiyo Respublikalari misolida 1961-1985-yy.)” mavzusidagi dissertatsiyani himoya qilgan. 1984-1989-yillarda Buxoro davlat pedagogika institutida kafedra mudiri, 1989-1992-yillarda ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor, 1992-1995-yillar davomida universitetning tarix fakulteti dekani lavozimlarida ishlab kelgan.

Ustoz Sulaymon Inoyatov 1995-yilning 7-iyulida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning farmoniga asosan Navoiy davlat konchilik instituti ochilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining yo‘llanmasi bilan 1995-yil 5-dekabrda shu institutga birinchi prorektor lavozimiga tayinlangan. 1996-yilning 6-sentabrida Xalqaro Amir Temur jamg‘armasining Navoiy viloyat bo‘limi raisligiga saylanib, uni 2002-yilgacha boshqarib keldi. Amir Temur va temuriylar faoliyatiga bag‘ishlab qator anjumanlar o‘tkazdi, ko‘plab kitob, risola va maqolalar chop ettirdi hamda OAVlarda chiqishlar qildi.

Sulaymon Inoyatov 2000-yil aprelida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashi Navoiy viloyati bo‘limi kotibi va markazi rahbarligiga saylanib, 2004-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi. 2002-yil Navoiy viloyatida “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” Respublika do‘stlik festivalini o‘tkazishning tashkilotchisi va tashabbuskori

hisoblanadi. Viloyat miqyosida olib borgan ma'naviy, ma'rifiy ishlari Respublika hukumati tomonidan yuksak baholanib, 2002-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.


Professor S.Inoyatov ko'p qirrali faoliyati uchun "Shavkatli mehnati uchun" (1970) medali, "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" (1974), O'zbekiston xalq ta'limi "Faxriy yorlig'i" (1981), Oliy ta'lim a'lochisi (2001), "Ustoz" faxriy unvoni (2001), "Mustaqillikning 10 yilligi" esdalik nishoni (2001), "Do'stlik" (2002) ordeni va "Mustaqillikning 25 yilligi" (2016) esdalik nishoni, "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni (2021), "Mehnat faxriysi" I darajali ko'krak nishoni (2022), "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishoni (2022) bilan taqdirlangan.

Ustozning ilmiy qarashlari keng qamrovli bo'lib, milliy istiqloq g'oyasi, millatlararo munosabatlar, O'zbekiston tarixi va ommaviy axborot vositalarining o'rni, Buxoro va Navoiy viloyatlarining, ayniqsa, Buxoro va qadimiy Karmananing tarixiy obida-yu qadamjolariga va shayx-u ulamolarining faoliyatini har tomonlama yoritishga qaratilgan. Shuningdek, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Alisher Navoiy, Fayzullo Xo'jayev kabi saltanat va davlat arboblari va Abu Ali Ibn Sino, Shayx Xudoydodi Vali, Qosim Shayx Azizon, Bahouddin Naqshbandiyning ustozlari Mavlono Orif Deggaroniy va shogirdlari Xo'ja Xusrav kabi ulug' allomalarga bag'ishlangan "Mehnatkashlarni baynalminal ruhda tarbiyalashda matbuotning roli" (Toshkent, 1986) "Buxarskiy Dom Prosvesheniya v Moskve" (Buxara, 1990), "Istoriya Buxari v literature" (Buxara, 1996), «Amir Temur – polkovodets gosudarstvenniy deyatel» (Navoi, 1995), "Fayzulla Xodjayev" (Navoi, 1996), "Qosim Shayx Azizon" (Toshkent, 2000), "Amir Temur Raboti Malikda" (Toshkent, 1998), "Ko'hna tarix guvohi" (Toshkent, 2001), "Sohibqiron va temuriylar nazari tushgan diyor" (Toshkent, 2002), "Amir Abdulaxadxon davrida Karmana" (Toshkent, 2004), "Karmana – tarix ko'zgisida" (Toshkent, 2006), "Xudoydodi Vali – Karmana farzandi" (Toshkent, 2008), Navoiy shahrining 50 yilligiga bag'ishlangan "Navoiy – Qizilqum bag'ridagi mo'jiza shahar" (Toshkent, 2008), Navoiy viloyatining tarixi va istiqbollari bag'ishlangan "Navoiy – o'tmishi qadim, kelajagi nurli diyor" (Toshkent, 2011), Ibn Sino ta'lim-tarbiya to'g'risida (2013), Alisher Navoiy matbuot sahifalarida (2014), "Buxoro tarixi" (Toshkent, 2016) kabi ko'plab tarixiy asarlarning muallifi va hammuallifidir.

Ustoz Sulaymon Inoyatov keyingi yillarda ilmiy faoliyatini davom ettirib, "Alisher Navoiy matbuot sahifalarida" (Buxoro, 2018), "Navoiy – o'tmishi qadim, kelajagi nurli diyor" (Toshkent: "Ma'naviyat", 2021, yangi nashri), "Buxoroi sharif xo'jalari – Usmon Xo'ja, Fayzulla Xo'jayev ajdodlari va avlodlari shajarasi" (Buxoro, 2022), "Umrboqiy inson: ustozga shogirt ehtiromi" (professor Juma Namozovning 100 yilligiga bag'ishlangan), "Qatag'on qilingan uch buyuk siymo: tarix va taqdir" (Ulug'larning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar. Buxoro, 2023) kabi monografiyalarni yaratgan sermahsul olimlardan biridir.

Olimning 50 ga yaqin monografiya, risolalari hamda o'quv qo'llanmalari, 500 dan ortiq ilmiy, maqolalari chop etilgan. Uning ilmiy tadqiqotlari olimlar va keng kitobxonlar ommasiga ma'lum. Ustozning Respublika va viloyat gazetalarda 250 dan ortiq ilmiy, publitsistik maqolalari chop etilgan. S.Inoyatov Moskva, Istanbul, Anqara, Zonguldak (Turkiya), Moskva, Sankt-Peterburg, Toshkent, Tallin, Kiyev, Simferopol, Turkiston, Taroz, Perm, Chelyabinsk, Samarqand, Xo'jand, Andijon, Termiz, Buxoro, Navoiy shaharlarida o'tkazilgan o'nlab Xalqaro, Butunittifoq, Respublika va mintaqaviy ilmiy, nazariy, amaliy anjumanlarning ishtirokchisidir.

Insonlar umri davomida shunday xayrli ishlar qiladiki, u asrga tatigulik bo'ladi. Tarix fanlari doktori, professor Sulaymon Inoyatov O'zbekiston ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida tanilganlar. U kishi tomonidan yozilgan monografiyalar, risolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar bugun talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan keng foydalanilmoqda. Ilm-u urfon egasi ustoz Sulaymon Inoyatov hozirda qutlug' 85 yoshni qarshi oldilar. Qutlug' 85 yoshingiz muborak bo'lsin, ustoz! Biz shogirdlar baxtiga doim sog'-omon bo'ling!



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
30.03.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"Sadriiddin Salim Buxoriy" LLC
Address: Bukhara,
M.Ikbol street, 11